O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINI BOSHLANG‘ICH VA MAXSUS KASBIY TAYYORLASH

DARSLIK

II QISM

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

MALAKA OSHIRISH INSTITUTI

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINI BOSHLANG‘ICH VA MAXSUS KASBIY TAYYORLASH

DARSLIK

II-qism

TOSHKENT-2026

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti Kengashining 2026-yil 22-maydagi yig‘ilishida ma’qullangan 5-sonli bayonnoma

Mas’ul muharrir
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti boshlig‘i, t.f.n., professor, polkovnik
O.T.Axmedov

Taqrizchilar:
O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Yuridik fanlar kafedrasi boshlig‘i, yu.f.n., professor, polkovnik
M.I.Suvankulov;
O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Maxsus-kasbiy fanlar kafedrasi professori, yu.f.f.d (PhD), dotsent, podpolkovnik
M.T.Ummatov;
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Fuqaroviy-huquqiy fanlar kafedrasi boshlig‘i, yu.f.f.d (PhD), dotsent, podpolkovnik
X.M.Qlichev.

Mualliflar jamoasi:
B.A.Ulugbekov yu.f.b.f.d (PhD), dotsent, **Z.N.Xojibekov** – XII-bob;
A.S.Vaxidov dotsent, **K.S.Beysenov** dotsent – XIII-bob;
N.B.Shoimov yu.f.n., dotsent, **Z.B.Xasanov** – XIV-bob;
O‘.M.Otayev dotsent, **F.B.Matyakubova** – XV-bob;
A.M.Abjalov s.f.b.f.d. (PhD), professor, **J.M.Boboyorov** – XVI-bob;
B.K.Yusupov, **B.B.Turgunbayev** – XVII-bob;
U.E.Rasulev dotsent, **A.S.Vaxidov** dotsent– XVIII-bob;
J.S.Muxtorov yu.f.n., professor, **F.S.Axmedov** – XIX-bob;
N.L.Melikulov, **U.M.Otayev** – XX-bob;
Sh.K.Raximov, **X.I.Suvankulov**– XXI-bob;
A.S.Vaxidov dotsent, **F.B.Matyakubova** – XXII-bob.

I-85 **Ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang‘ich va maxsus kasbiy tayyorlash:** darslik II-qism. /– T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti, 2026. – 204 b.

Ushbu darslik Ichki ishlar organlarida xizmat faoliyatini olib borayotgan xodimlar, IIV ta’lim muassasalari tinglovchi (kursant)lari uchun mo‘ljallangan. Darslikda ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash faoliyati, ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda jamoat tartibini saqlash hamda jamoat xavfsizligini ta’minlash, favqulodda vaziyatlar sharoitidagi faoliyati, maxsus muassasalari, konvoy va nazorat-litsenziya xizmatlarining faoliyati, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash faoliyati, huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati, ma’muriy nazorat faoliyati, jazolarni ijro etish faoliyati, migratsiya va personallashtirish xizmatlari, transport va turizm ob’ektlarida xavfsizlikni ta’minlash faoliyati, qo‘riqlash faoliyati yoritilgan.

UO‘K 352.74:378.6(075.8)
BBK 67.401.213
© O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti, 2026.

SO ‘Z BOSHI

O‘zbekiston Respublikasida huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida ichki ishlar organlarining roli beqiyosdir. Tinchlik va barqarorlikni ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish hamda jamoat tartibini saqlash, ichki ishlar organlari oldida turgan eng ustuvor vazifalardir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Ichki ishlar organlari xodimlari uchun eng oliy baho – bu xalqimizning roziligi, odamlarning bizning faoliyatimizdan mamnun bo‘lishidir”.

Ushbu so‘zlar tizim oldiga qo‘yilgan asosiy maqsadni, inson huquq va manfaatlarini oliy qadriyat deb bilishni, xalqqa yaqin, adolatli va professional xizmat ko‘rsatish zaruratini belgilab beradi. Zamonaviy huquq nazariyotchilari va kriminologlarning fikricha, ichki ishlar organlari faoliyati shunchaki “majburlovchi kuch” emas, balki “jamiyat xavfsizligining institutsional kafolati”dir.

Xalqaro ekspertlar va soha olimlari ta’kidlaganidek, “davlatning qudrati uning politsiya tizimidagi kuch ishlatish salohiyati bilan emas, balki fuqarolar bilan o‘rnatilgan o‘zaro ishonch va preventiv (oldini oluvchi) xizmat sifati bilan o‘lchanadi”.

Bu ilmiy konsensus ichki ishlar organlarining bugungi kundagi profilaktikaga asoslangan xizmat modeliga o‘tishining nazariy asosi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari faoliyati bugungi kunda aniq tahliliy ko‘rsatkichlar asosida amalga oshirilmoqda. 2025-yil yakunlari bo‘yicha tizimdagi ishlar samaradorligini quyidagi faktlar yaqqol tasdiqlaydi. Xususan, jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyati doirasida soha vakillari tomonidan respublikasda sodir etilgan jinoyatlarning 89,3 foizi fosh etilgan. Shuningdek, ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida yoshlar o‘rtasidagi jinoyatlar 15,1 foizga, ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 14,2 foizga kamayishiga erishildi. “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili doirasida 9.008 ta mahallaning 44,8 foizida bironta ham jinoyat sodir etilishiga yo‘l qo‘yilmadi. Axborot texnologiyalari orqali sodir etilayotgan jinoyatlarning salmog‘i (jami jinoyatlarning 49,6 foizi) tizim oldiga yangi, ilmiy-texnik va huquqiy yechimlar talab qiluvchi vazifalarni qo‘ymoqda.

Ushbu darslikda quyidagi muhim yo‘nalishlar batafsil yoritilgan jumladan, ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash faoliyati, ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash, favqulodda vaziyatlar sharoitidagi faoliyati, maxsus muassasalari, konvoy va nazorat-litsenziya xizmatlarining faoliyati, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash faoliyati, huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati, ma’muriy nazorat faoliyati, jazoni ijro etish faoliyati, migratsiya va personallashtirish xizmatlari, transport va turizm ob’ektlarida xavfsizlikni ta’minlash faoliyati hamda qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risidagi zarur ma’lumotlar keltirilgan.

Darslikning asosiy maqsadi, bo‘lajak soha xodimlari uchun nazariy bilimlar bazasini shakllantirish, ularda kasbiy madaniyat, mas’uliyat va qonuniylik tamoyillariga qat’iy rioya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Mazkur darslik ichki ishlar organlari tizimida faoliyat yuritayotgan, shu kasbni tanlagan yosh avlod uchun professional faoliyatlarida mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

II-QISM

XII BOB ICHKI ISHLAR ORGANLARINING JAMOAT TARTIBINI SAQLASH VA XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH FAOLIYATI

1-§. Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash faoliyatining mohiyati va ahamiyati

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ichki ishlar organlari, jamoat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishidagi ishlar asosan “Xalq manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida tashkil etilib, mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorligi yo‘lga qo‘yildi.

Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, tabiiy va texnogen ofatlar mas’ul davlat tuzilmalariga o‘z faoliyatini “Barcha say-harakatlar inson qadri uchun” degan ustuvor g‘oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamoqda.

Mamlakatimizda sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, xususan jinoyatchilikka qarshi kurashish siyosatida huquqbuzarliklar profilaktikasining o‘rni va roli sezilarli darajada oshib bormoqda. O‘tgan davr mobaynida zamon talablariga javob beradigan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning mutlaqo yangi tizimi yaratildi. Bunda IIO faqat jazolash orqali huquqbuzarliklarning oqibati bilan kurashish emas, balki huquqbuzarliklar sodir etilishining barvaqt oldini olish eng dolzarb vazifaga aylandi”.

Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta’minlash hisoblanadi. Ayniqsa, kundalik va alohida sharoitlarda jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Bunda ichki ishlar organlarining guruhiy va shaxslararo munosabatlarni jinoiy va boshqa g‘ayriqonuniy tajovuzlardan ma’muriy-huquqiy himoyalashni amalga oshiruvchi patrul-post va jamoat tartibini saqlash xizmatlari muhim o‘rin tutadi. Jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta’minlash xizmatining asosiy xususiyati shundaki, ushbu xizmat ichki ishlar organlarining tezkor, tergov va cheklangan doirada maxsus funksiyalarni amalga oshiruvchi boshqa tarmoq xizmatlaridan farqli o‘laroq, ichki ishlar organlarining deyarli barcha vazifalarini bajarishda ishtirok etadi[1].

Ma’lumki, har qanday faoliyatning asosida tushunchalar tizimi yotadi. Bu ichki ishlar organlari jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha

[1] Ismailov I., Muxamedov O‘.X., Ziyodullayev Z.M. va boshq. Ichki ishlar idoralaridagi islohotlar – tinchlik va osoyishtalik garovi: Monografiya – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014-y. – B. 112.

faoliyatining ob’ekti va predmetini aniq belgilab beradi. Jumladan:

jamoat joylari sutkaning har qanday vaqtida shaxslarning bo‘lishi, erkin harakatlanishi va to‘planishi mumkin bo‘lgan joylar, shuningdek, qonunchilik hujjatlariga muvofiq kirish (chiqish) tartibga solingan ob’ektlar. Shu jumladan, ko‘chalar, maydonlar, xiyobonlar, istirohat bog‘lari, stadionlar, ish joylari, barcha turdagi jamoat transportlari jamoat joylari hisoblanadi;

jamoat xavfsizligi shaxs, jamiyat va davlatning jinoyatchilik, boshqa huquqqa xilof harakatlar, favqulodda holatlar oqibatlari, ijtimoiy nizolar, tabiiy ofatlar, epidemiya, epizootiya, yirik halokatlar, avariyalar va yong‘inlardan himoyalanganlik holati;

jamoat tartibini saqlash fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi, jamoat xavfsizligi, tashkilotlarning normal faoliyat ko‘rsatishi, fuqarolarning mehnat qilishi va dam olishi uchun to‘liq sharoit yaratishga, ularning sha’ni, qadr-qimmatini hamda umumaxloqiy qadriyatlarni hurmat qilishga yo‘naltirilgan huquqiy va ijtimoiy normalar asosida jamoat joylarida yuzaga keladigan va rivojlanadigan ijtimoiy munosabatlar tizimi;

patrul-post xizmati ichki ishlar organlari xodimlari va harbiy xizmatchilarning ko‘chalar va boshqa jamoat joylarida jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha aniq belgilab berilgan hududlar va joylarda xizmat o‘tashi;

patrul-post naryadi patrul-post xizmatini o‘tashga jalb etilgan ichki ishlar organi xodimi yoki harbiy xizmatchisi yoki ulardan iborat bo‘linma (guruh);

transport ob’ektlari temir yo‘l va havo transporti hamda metropoliten ob’ektlari;

huquqbuzarlik sodir etilganligi uchun ma’muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli g‘ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) bo‘lib ushbu tayanch tushunchalarga ta’rif berilgan.

Ta’kidlash joizki, “jamoat tartibi” va “jamoat xavfsizligi” tushunchalarining mohiyatini tahlil qilishda ular bir-biridan farq qilsa-da, ularni ta’minlash o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi hamda birini ikkinchisidan ajratish juda ham murakkab bo‘lgan jarayon ekanligini namoyon qiladi. Jamoat tartibini saqlash bu bir vaqtning o‘zida fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi va jamoat xavfsizligini ta’minlash tushunchalarini ham o‘z ichiga qamrab oladi. Lekin “fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi” va “jamoat xavfsizligi” tushunchalari “jamoat tartibi” tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, o‘zaro bir-biridan farq qiladi.

Mamlakatimiz qonunchiligida va huquqiy fan doirasida mazkur tushunchalardan keng foydalanishiga qaramay, yuridik adabiyotlarda hamon ularni ta’riflashga yagona yondashuv ishlab chiqilmagan. Bunday yondashuv “ommaviy tadbir”, “jamoat tartibi”, “jamoat xavfsizligi” kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini ochib berish va ularning nazariy ta’riflarini shakllantirishni taqozo qiladi.

Fikrimizcha, jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash tushunchasi bo‘yicha yagona fikr va yakdillik mavjud emasligini namoyon etadi. Jumladan,

D.V.Iroshnikov xavfsizlikni “xavfsizlik holati” va “barqaror rivojlanish”[2], deb hisoblaydi. Z.S.Pavlenko yuqorida aytilganlardan tashqari, xavfsizlikni ijtimoiy tizim mulki, davlat organlarining o‘ziga xos faoliyati sifatida tushunadi[3].

Shuningdek, professor N.N.Ribalkin shunday deydi, xavfsizlik himoyalanganlik holati sifatida tushunish davom etayotgan nazariy tadqiqotlar uchun konseptual asos sifatida keng tarqalgan, garchi ular himoya ob’ekti, tahdidlarning tabiati va himoyalangan manfaatlar ta’rifida farq qilsa ham[4].

V.S.Xomyakova shunday ta’kidlaydi: “Xavfsizlik jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan omillardan biridir, chunki u inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi”[5].

“Jamoat xavfsizligi” tushunchasining mazmun-mohiyatini nisbatan aniq va to‘g‘ri ochib bergan ta’rif A.Jaglin tomonidan berilgan: “Jamoat xavfsizligi shaxs, jamiyat va davlatni jamoat tartibiga noqonuniy tajovuzlardan kelib chiquvchi tahdidlardan, shuningdek ijtimoiy, tabiiy va texnogen xususiyatga ega falokatlardan himoya qilish bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar tizimi”[6] dir.

Professor M.Z.Ziyodullayev “Jamoat xavfsizligi bu shaxs, jamiyat va davlatning huquqbuzarliklar, boshqa g‘ayriijtimoiy xulq-atvor ta’siri, tabiiy, texnogen va ijtimoiy xususiyatga ega favqulodda vaziyatlar oqibatlaridan himoyalanganlik holati hisoblanadi” degan ta’rifi ham A.Jaglin tomonidan berilgan ta’rifga ancha yaqinroq. Demak, jamoat tartibi va jamoat xavfsizligi ijtimoiy munosabatlarning har xil turi bo‘lib, ular o‘rtasida chambarchas aloqadorlik mavjud, ushbu guruh munosabatlarning har biri boshqasining mavjudlik shartidir. Bundan tashqari, jamoat tartibi va jamoat xavfsizligining mazmuni tegishli ijtimoiy munosabatlar shaxs va jamiyatning hayotiy muhim manfaatlariga kiradigan shaxs sha’ni va qadr-qimmati hurmat qilinishi, jamiyat va shaxs tinchligini hurmat qilinishini ta’minlaydigan sohaga mos keladi.

Jamoat xavfsizligiga tahdid holati temir yo‘l, suv, havo, avtomobil transportidan foydalanish, yo‘l harakati, qurilish, yo‘l va boshqa ishlarni olib borish qoidalari buzilishiga yo‘l qo‘yilganda, yong‘indan xavfli inshoot va qurilmalardan foydalanish, shuningdek, portlovchi materiallar va boshqa xavfli predmet va moddalar bilan muomala qilish talablari buzilganda vujudga keladi. Demak, temir yo‘l, daryo, avtomobil yo‘llari transporti vositalarini ekspluatatsiya qilish qoidalari buzilganda, avtomobil yo‘li harakati qoidalariga rioya qilinmaganda, qurilish, yo‘l qurilishi va boshqa ishlar jarayonida texnika xavfsizligi qoidalari buzilganda, yong‘indan xavfli ob’ektlar va qurilmalarni ekspluatatsiya qilishda, o‘q otar qurollar, o‘q-dorilar, portlovchi materiallar, kuchli ta’sir qiladigan zaharli moddalar, radioaktiv izotoplar va boshqa xavfli predmetlar va narsalar bilan muomala

---

[2] *Ирошников Д.В.* Правовая политика Российской Федерации в сфере государственной безопасности (теоретический аспект): автореф. дис. канд. юр. наук. – Тамбов, 2011-й. – С. 34.

[3] *Павленко С.З.* Безопасност российского государства как политическая проблема: автореф. дис. доктора полит. наук. – М., 1998-й.

[4] *Рыбалкин Н.Н.* Природа безопасности: автореф. дис. доктора филос.наук.–М.,2003й.–С. 24.

[5] *Хомякова В.С.* Диалектика безопасности и устойчивого развития общества // Информация и безопасност. – 2007-й. – № 1. – С.126.

[6] *Жаглин А.В.* Общественная безопасност как социалное явление и элемент системы националной безопасности // Вестник Воронежского института МВД России. – 2007. – № 1.–С. 33.

qilinganda jamoat xavfsizligiga nisbatan xavf-xatar tug‘ilishi mumkin.

Bizningcha, jamoat xavfsizligi bu shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarini jinoiy va boshqa huquqqa xilof harakatlar, ijtimoiy nizolar, tabiiy ofatlar, zilzilalar, epidemiyalar, epizootiyalar, katta falokatlar, avariyalar va yonginlar natijasida kelib chiqadigan favqulodda vaziyatlar oqibatlaridan himoyalanganlik holatidir. Shu sababli uni turli jihatdan, shu jumladan, boshqarish oby’ekti va ta’sir usullari ta’rifi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish juda muhimdir.

O‘tgan davr mobaynida ichki ishlar organlari tizimini takomillashtirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ichki ishlar organlarining mahallalarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun tashkil etilgan quyi bo‘g‘inini rivojlantirish va mustahkamlash bo‘yicha salmoqli ishlar qilindi.

Ichki ishlar organlari jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta’minlash o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga, “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuni va boshqa qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining buyruqlari va farmoyishlariga amal qiladi.

Mamlakatimizda ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash, xavfsizligini ta’minlash faoliyatini takomillashtirish maqsadida Prezidentimiz tomonidan bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning yaxlit tizimini shakllantirish, ichki ishlar organlarining eng quyi bo‘g‘inidan respublika darajasigacha samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yish va zamonaviy ish uslublarini joriy etish orqali mamlakatimizda huquq-tartibot va qonuniylikni mustahkamlash, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6196 son Farmoni qabul qilindi.

Farmonga asosan Ichki ishlar vazirligi tuzilmasini takomillashtirish orqali turdosh sohaviy xizmatlar faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirishning yagona tizimi joriy etildi. Bunda Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi, Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasi, Yo‘l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi, Probatsiya xizmatini o‘z ichiga oladigan Jamoat xavfsizligi departamenti tashkil etildi[7].

Bundan tashqari ushbu farmonga asosan Prezidentimizning 2021-yil 2-aprelda “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5050-son Qarori qabul qilindi.

[7] Shu manba.

Qarorga muvofiq, Toshkent shahri va Toshkent viloyati ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash borasidagi faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida quyidagilarni nazarda tutuvchi yangi boshqaruv tizimi joriy etildi:

Toshkent shahri va Toshkent viloyatida jamoat xavfsizligini ta’minlash ushbu hududlardagi ichki ishlar va boshqa vakolatli organlarning mavjud kuch va vositalarini yagona “poytaxt mintaqasi” tamoyili asosida safarbar qilgan holda hamkorlikda amalga oshiriladi;

Toshkent shahridagi patrul-post xizmati batalyonlari Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasining bevosita bo‘ysunuvidan chiqarilib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuman ichki ishlar organlari tarkibiga o‘tkazildi va ularning kunlik xizmati mahallalar kesimida yo‘lga qo‘yiladi;

jamoat tartibini ommaviy buzish bilan bog‘liq holatlar yuzaga kelganda poytaxtdagi barcha ichki ishlar organlari faoliyatini, shuningdek, jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha vakolatli davlat organlari va jamoat tuzilmalari kuch va vositalarining yagona tezkor boshqaruvi Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi zimmasiga, umumiy boshqaruvi Ichki ishlar vaziri zimmasiga yuklatildi[8].

Ichki ishlar organlari tizimida, xususan Jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta’minlash xizmati saf bo‘linmalari faoliyatini boshqarishni huquqiy ta’minlash, ushbu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarni zamon talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirib borish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

2-§. Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash sohalari bo‘yicha asosiy vazifalari va funksiyalari

Mustaqillik yillarida ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida uning barcha sohaviy ximatlari, jumladan patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bo‘linmalarining o‘ziga xos tizimi shakllanib, faoliyati zamon talablari asosida takomillashtirildi.

Bugungi kunda respublikamizda Toshkent shahar va viloyatlar markazlari, mahallalar, ko‘chalar, maydonlar, madaniyat va istirohat bog‘lari, sayilgohlar hamda boshqa jamoat joylarida, shuningdek turli ommaviy tadbirlarini o‘tkazish vaqtida jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta’minlash masalalarini jamoat tartibini saqlash bo‘linmalarining patrul-post xizmatining ishtirokisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Xususan, jinoyatlarning oldini olish, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va sharoitlarni bartaraf qilish hamda jinoyatlarni ochish sohalarida ham jamoat tartibini saqlash xizmatining roli katta.

Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta’minlash hisoblanadi.

[8] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2021-yil 2-apreldagi PQ-5050-son qarori. https://lex.uz/ru/docs/.

Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash xizmati faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 10-apreldagi PF-5005-sonli Farmoniga muvofiq, shuningdek ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish maqsadida, 2017-yil 1-may kuni “Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2940-son qarori qabul qilindi.

Qarorga asosan mamlakatda jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash samaradorligini oshirishning quyidagi asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning hududiy bo‘linmalarining eng muhim vazifasi deb hisoblandi:

birinchidan, patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash respublika, o‘rta va quyi bo‘linmalari faoliyatini tashkil etishning asosiy vazifa va funksiyalarning aniq belgilanishi va taqsimlanishini hamda har bir xodimning o‘ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun shaxsiy javobgarligini nazarda tutuvchi sifat jihatidan mutlaqo yangi tartibini o‘rnatish;

ikkinchidan, ko‘chalar, maydonlar, istirohat bog‘lari, vokzallar, aeroportlar va boshqa jamoat joylarida, shuningdek ommaviy tadbirlarni o‘tkazish chog‘ida xizmatni o‘tashda fuqarolarning huquq va erkinliklariga so‘zsiz rioya etilishini, ularning sha’ni va qadr-qimmatining hurmat qilinishini, muomala madaniyati va odob-axloq qoidalariga qat’iy amal qilinishini ta’minlash;

uchinchidan, patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bo‘linmalari xodimlari o‘rtasida profilaktik tadbirlarni kuchaytirish, ular tomonidan xizmatni o‘tash jarayonida, ayniqsa tungi vaqtlarda poraxo‘rlik va vakolatni suiiste’mol qilish holatlariga barham berish;

to‘rtinchidan, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ommaviy va boshqa tadbirlarni o‘tkazishda fuqarolar xavfsizligini ta’minlashning yuqori mobilligi va samaradorligini oshirishga imkon beradigan yangi ish usullarini joriy etish, huquq-tartibotning guruhlar tomonidan buzilishi va ommaviy tartibsizliklarning barvaqt oldini olish hamda bartaraf etishning ta’sirchan tizimini shakllantirish;

beshinchidan, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatining muvofiqlashtirilishi va tashkiliy-uslubiy ta’minlanishini kuchaytirish, mazkur sohaga yuklatilgan vazifalarni bajarishda ichki ishlar organlarining fuqarolik jamiyati institutlari va aholi bilan yaqindan hamkorlik qilish mexanizmlarini rivojlantirish;

oltinchidan, faoliyatda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, ma’muriy qamoqqa olingan shaxslarni saqlash uchun maxsus qabulxonalar, vaqtincha saqlash hibsxonalari va muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslarni reabilitatsiya qilish markazlarining moddiy-texnika

bazasini mustahkamlash belgilangan[9].

Mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada rivojlantirish hamda ushbu sohadagi davlat siyosatining istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi.

Ushbu Farmon ilovasida “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi” tasdiqlangan bo‘lib unda Jamoat xavfsizligi departamentning quyidagi asosiy vazifalari belgilangan:

- ichki ishlar organlari jamoat xavfsizligi bo‘linmalarining faoliyatini muvofiqlashtirish, jamoat tartibini saqlash faoliyatini tashkil etish, jamoat joylarida aholining xavfsizligini ta’minlashda kuch va vositalarini samarali boshqarish;
- ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi borasidagi faoliyatini ta’minlash, profilaktik hisob va ma’muriy nazoratdagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirish, voyaga yetmaganlar va yoshlar, ayniqsa ularning uyushmagan qismi bilan manzilli tarbiyaviy va profilaktik chora-tadbirlarni samarali tashkil etish;
- yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash faoliyatini tashkil etish, yo‘l-transport hodisalarining barvaqt oldini olish, transport vositasini boshqarishga doir cheklovlarga rioya etilishini nazorat qilish, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarni ijro etishni ta’minlash, probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvorini nazorat qilish, ijtimoiy moslashtirish orqali ular tomonidan qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish ishlarini tashkil etish belgilandi[10].

Shuningdek, konsepsiyada jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasi davlat tomonidan tartibga solinib, jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimi jamoat xavfsizligini ta’minlovchi va unda ishtirok etuvchi sub’ektlar quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Bosh prokuratura, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi va mahalliy davlat hokimiyati organlaridan iborat.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida Ichki ishlar vazirligining vazifalari:

- jamoat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan maqsadli idoraviy dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;
- jamoat tartibini saqlash, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilik, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;
- jamoat joylarida, shu jumladan yo‘llarda, transport va turizm infratuzilmasi ob’ektlarida jamoat xavfsizligini ta’minlashga jalb etilgan barcha kuch va vositalar faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda tashkiliy-uslubiy jihatdan

[9] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi “Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2940-son qaror. https://lex.uz/docs/.

[10] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. https://lex.uz/docs/.

qo‘llab-quvvatlaydi;

▶ fuqaroviy hamda xizmat quroli va uning o‘q-dorilari muomalada bo‘lishi sohasiga doir qoidalar va tartibga, ushbu sohadagi litsenziya va ruxsat berishga oid talablar hamda shartlarga rioya etilishini ta’minlaydi;

▶ huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiradi, huquqbuzarliklarni sodir etishga moyil shaxslarni aniqlaydi;

▶ jamoat joylarida sodir etiladigan huquqbuzarlik va jinoyatlarning kompleks, tizimli tahlilini olib boradi, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish, mavjud kuch va vositalardan samarali foydalanish yuzasidan takliflar, ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar va tavsiyalar kiritadi;

▶ jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ommaviy tartibsizliklarga chek qo‘yish bo‘yicha tadbirlar yuzasidan umumiy boshqaruv tizimini ta’minlaydi;

▶ jamoat xavfsizligini ta’minlash holati haqida keng jamoatchilikni muntazam xabardor qilib boradi, bu borada jamoatchilik fikrini o‘rganadi;

▶ jamoat xavfsizligini ta’minlash va kriminologiya sohasida ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy ishlarni amalga oshiradi[11].

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2023-yil 20-fevraldagi “Ichki ishlar organlari patrul-post xizmati faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 77-son buyrug‘ining qabul qilinishi ham jamoat tartibini saqlash xizmatining faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarishga qaratilgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Buyruqda aynan jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash sohasida PPX saf bo‘linmalarining asosiy vazifalari belgilab berilgan.

Jumladan:

▶ xizmat hududlarida jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, kriminogen vaziyatni tahlil qilgan holda huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabablari va sharoitlarini aniqlash, ularni bartaraf etish;

▶ xizmat hududlaridagi hamda mavjud kuch va vositalardan samarali foydalanish, ekstremal vaziyatlarda, ayniqsa, terrorchilik harakatlari va boshqa og‘ir jinoyatlar sodir etilganda jamoat tartibini saqlash bo‘yicha doimiy jangovar shaylikni ta’minlash;

▶ ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ommaviy va boshqa tadbirlarni o‘tkazishda, shuningdek, sodir etilishi mumkin bo‘lgan ommaviy tartibsizliklar, turli namoyish (miting)lar vaqtida fuqarolar xavfsizligini ta’minlashning yuqori mobilligi va samaradorligini oshirish, shuningdek postlar va patrullik yo‘nalishlarida ichki ishlar organlarining boshqa bo‘linmalari, davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va o‘zini o‘zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va aholi bilan hamkorlikni ta’minlashdan iborat[12].

Shuningdek, o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqqan holda PPX

---

[11] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. https://lex.uz/docs/.

[12] O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2023-yil 20-fevraldagi “Ichki ishlar organlari patrul-post xizmati faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 77-son buyrug‘i.

saf bo‘linmalari quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) xizmat hududlarida jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish bo’yicha:

- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, ularning hayoti va sog‘lig‘ini jinoiy hamda boshqa tajovuzlardan himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish, aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, ularni sodir etgan shaxslarni ushlashda ko‘chalar, mahallalar, turar joy massivlari, aeroportlar, metro, temir yo‘l, avto vokzallarda, shuningdek, maydonlar, istirohat bog‘lari, xiyobonlar va boshqa jamoat joylarida patrullikni amalga oshirish;
- patrullik yo‘nalishlarida (postlarda) tergovga qadar tekshiruv (surishtiruv), tergov organlaridan, suddan yashirinib yurgan, jinoiy jazoni va ma’muriy jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlayotgan hamda bedarak yo‘qolgan shaxslarni aniqlash, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni ichki ishlar organiga yoki ichki ishlar organining huquq-tartibot maskanlari va tayanch punktlariga olib borish;
- jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash, shu jumladan ko‘chalar va boshqa jamoat joylarida voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olish, huquqbuzarliklardan jabrlangan fuqarolarga yordam ko‘rsatish hamda ularning hayoti va sog‘lig‘iga xavf solayotgan tahdidlarni bartaraf etish.

b) javobgarlik hududlaridagi kriminogen vaziyatni tahlil qilgan holda huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabablari va sharoitlarini aniqlash, ularni bartaraf etish hamda mavjud kuch va vositalardan samarali foydalanish bo‘yicha:

- ko‘chalar va boshqa jamoat joylaridagi hodisalar va huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi axborotlarni yig‘ish, umumlashtirish va tahlil qilish, shuningdek, ularning kelib chiqish sabablari va sharoitlarini bartaraf etish;
- patrul-post naryadlariga biriktirilgan mahallalarni jinoyat, huquqbuzarliklar salmog‘i jihatidan “qizil”, “sariq” va “yashil” hududlarga ajratish va mavjud kuch va vositalar taqsimotiga o‘zgartirishlar kiritib borish, jamoat xavfsizligini ta’minlash;
- patrullik yo‘nalishlarida (postlarda) sodir etilgan jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabablari va sharoitlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish, hodisalarni “issiq izidan” fosh etishda videokuzatuv moslamalari hamda boshqa turdagi ma’lumotlar bazasidan keng foydalanish;
- huquqbuzarlik sodir bo‘lgan joyga darhol yetib borish, g‘ayriqonuniy qilmishlarga chek qo‘yish, fuqarolarning xavfsizligiga tahdidlarni bartaraf etish, hodisa izlarining saqlanishini ta’minlash;

v) ekstremal vaziyatlarda, ayniqsa, terrorchilik harakatlari va boshqa og‘ir jinoyatlar sodir etilganda jamoat tartibini saqlash borasida doimiy jangovar shaylikni ta’minlash bo‘yicha:

PPX saf bo‘linmalarining infratuzilmasini takomillashtirish:

- moddiy-texnik va o‘quv-texnik bazasini mustahkamlash PPX saf bo‘linmalari xodimlarining kasbiy va jangovar tayyorgarligini oshirishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- huquqbuzarliklarni, ayniqsa, terrorchilik harakatlari va boshqa jinoiy tajovuzlarni aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda

huquq-tartibotni ta’minlash bo‘yicha ichki ishlar organlarining bo‘linmalari hamda boshqa huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikda o‘tkaziladigan mashq va o‘quv mashg‘ulotlarida bevosita ishtirok etish;

- yo‘l-transport hodisalari, falokatlar, yong‘inlar, tabiiy ofatlar va boshqa favqulodda vaziyatlarda aholini xabardor qilish, odamlarni qutqarish, ularga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish, yong‘inlarni o‘chirish, hududning zarur uchastkalarini o‘rab olish, favqulodda vaziyatlarda qarovsiz qolgan mol-mulkni qo‘riqlash;

g) ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ommaviy va boshqa tadbirlarni o‘tkazishda fuqarolar xavfsizligini ta’minlashning yuqori mobilligi va samaradorligini oshirish, huquq-tartibotning guruhlar tomonidan buzilishi va ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish bo‘yicha:

- ommaviy tadbirlarni o‘tkazish ob’ektlarida jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquq-tartibot buzilishining oldini olish hamda uni o‘z vaqtida bartaraf etish, o‘ta xavfli va maxsus yuklarni qo‘riqlash bo‘yicha shartnomaviy-huquqiy asosda xizmatlar ko‘rsatish;
- muhandislik-texnik vositalardan foydalangan holda ommaviy tadbirlar o‘tkazish ob’ektlariga borish, kirish joylarida zamonaviy texnik vositalar, shuningdek, psixologik-vizual kuzatuv usullari yordamida shaxslar hamda avtotransportlarni ko‘zdan kechirish, yo‘llarining to‘silishini tashkil etish va ularni o‘rab olish chegaralarini hosil qilish;

d) postlar va patrullik yo‘nalishlarida ichki ishlar organlarining boshqa bo‘linmalari, davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va o‘zini o‘zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va aholi bilan hamkorlikni ta’minlash bo‘yicha:

- PPX saf bo‘linmalari faoliyati to‘g‘risida jamoatchilik fikrini o‘rganish, ko‘chalar va boshqa jamoat joylarida, ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish chog‘ida jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlashga jalb etiladigan ichki ishlar organlari bo‘linmalari bilan tezkor-qidiruv faoliyatining hamda jinoyatlarning oldini olish, ularni fosh etish, jinoyatchilarni ushlash hamda boshqa manfaatdor idoralar bilan hamkorlikni tashkil etish;

PPX saf bo‘linmalari qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin[13].

Jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta’minlash xizmati patrul-post xizmati xodimlari xizmat vazifalarini bajarish vaqtida ularning huquqlari, majburiyatlari, vakolatlari va javobgarliklari belgilangan.

Shu bilan bir qatorda qonunchilik hujjatlariga muvofiq, PPX saf bo‘linmalari quyidagi huquqlarga ega[14]:

- ichki ishlar organlarining boshqa bo‘linmalaridan PPX saf bo‘linmalari zimmasiga yuklatilgan tadbirlarni amalga oshirishda ko‘maklashishni talab qilish;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilish, axborot-tahlil va hisobot ma’lumotlarini tayyorlash uchun ichki ishlar organlarining boshqa bo‘linmalaridan

[13] O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2023-yil 20-fevraldagi “Ichki ishlar organlari patrul-post xizmati faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 77-son buyrug‘i.

[14] O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi 407-son qonuni.

hamda boshqa davlat organlari va tashkilotlardan zarur bo‘lgan hujjatlar, ma’lumotlar va boshqa materiallarni so‘rab olish;

▶ PPX saf bo‘linmalari zimmasiga yuklatilgan vazifalarni hal qilish maqsadida ichki ishlar organlari ma’lumotlar bazasidan foydalanish, fuqarolarni ularning roziligi bilan jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash ishlariga jalb etish;

▶ jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini buzuvchi turmush tarzi, harakati yoki harakatsizligini, o‘zining g‘ayriijtimoiy xulq-atvori xavfliligi tufayli huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli holatida bo‘lgan fuqaroni aniqlangan joyning o‘zida rasmiy ogohlantirish;

▶ zarur hollarda transport vositalarini to‘xtatish va haydovchilarning transportni boshqarish hamda foydalanish huquqini beruvchi hujjatlarini, yo‘l varaqalari va tashib ketilayotgan yuklarining transportdagi yuklarga hamda hujjatlarga mos kelishini tekshirish, transport vositalaridan noqonuniy maqsadlarda foydalanganligi gumon qilinganda, mast holatdagi, shuningdek, transport vositasini boshqarish va foydalanish huquqini beruvchi hujjatlari bo‘lmagan shaxslar aniqlanganida yo‘l-patrul xizmati xodimlariga xabar berish;

▶ jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga doir ishlarda ishtirok etib, qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari Jamoat tartibini saqlash xizmati quyidagilarga majbur:

▶ jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasiga oid qabul qilingan qonunchilik hujjatlarini bilish va ularga amal qilishi;

▶ ichki ishlar organlarining boshqa bo‘linmalari xodimlariga, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillariga ular zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishida ko‘maklashish, jamoat joylarida huquq-tartibotni ta’minlash;

▶ jamoat tartibini buzgan va boshqa huquqbuzarlarga nisbatan qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan choralarni qo‘llashda, ularga ushbu choralar qanday huquqbuzarlik uchun va qaysi qonunchilik hujjatlariga muvofiq qo‘llanilayotganligini tushuntirish, jinoyat, huquqbuzarlik sodir etgan yoki sodir etganlikda gumondor shaxslarni qo‘lga olish vaqtida ularning huquq va majburiyatlari, shuningdek, sodir etgan noqonuniy xatti-harakatlari bilan tanishtirish;

▶ fuqarolarning qarovsiz qoldirib ketilgan mol-mulklari aniqlanganda, jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi har qanday hodisa hamda texnik yordam ko‘rsatish va avariya xizmatlarini jalb etish zarurati to‘g‘risida yaqin oradagi IIB navbatchilik qismlariga xabar berish hamda ko‘cha va jamoat joylarida fuqarolar tomonidan mast holatda o‘zaro janjallashish, bir-birlariga turli darajadagi tan jarohatlari yetkazish va bezorilik kabi jinoyatlar sodir etilayotgan jarayonda PPX naryadlari ishtirok etib, ushbu holatlar oldini olinganligi yuzasidan navbatchilik qismiga bildirgi orqali axborot beradi[15].

[15] O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2023-yil 20-fevraldagi “Ichki ishlar organlari patrul-post xizmati faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 77-son buyrug‘i.

Jamaot tartibini saqlash xizmatining saf bo‘linmalari o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning samarali bajarilishi uchun javobgar hisoblanadi.

Jamaot tartibini saqlash xizmati xodimining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari yoki harakatsizligi, shuningdek, xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi yoki xizmat intizomini buzganlik uchun qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladi.

Qonunchilik hujjatlariga muvofiq jamoat tartibini saqlash xizmati PPX saf bo‘linmalari xodimlari o‘zlariga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarishda quyidagi huquqlarga ega:

- fuqarolardan qonunchilik hujjatlariga rioya etishni, g‘ayriqonuniy xatti-harakatlarni tugatishni talab qilish, bu talablar bajarilmagan taqdirda esa majburlov choralarini qo‘llash, PPX saf bo‘linmasi xodimlari xizmat o‘tash chog‘ida jinoyatlar va ma’muriy huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni bartaraf qilish hamda ularni sodir etgan shaxslarni ushlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuni 21–24-moddalariga muvofiq, jismoniy kuch ishlatish, maxsus vosita (PR-73 rezina tayoqchasi, qo‘l kishani, elektroshok qurilmasi va boshqa)larni va o‘qotar qurolni qo‘llash[16];
- o‘z xizmat majburiyatlarini amalga oshirish chog‘ida fuqarolarning shaxsini aniqlash maqsadida uni planshet orqali tekshirish, tasdiqlaydigan hujjatlarini tekshirish, agar ularda qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar, portlatish qurilmalari, pirotexnika buyumlari, giyohvandlik vositalari va boshqa muomalada bo‘lishi taqiqlangan yoki cheklangan narsalar bor deb hisoblashga asoslar mavjud bo‘lganda, fuqarolarni qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish;
- sodir etilayotgan huquqbuzarlikka chek qo‘yish, shuningdek, ularni sodir etayotgan shaxslarni ushlash uchun, agar buning kechiktirilishi fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘ini, jamiyat va davlat xavfsizligini tahdid ostiga qo‘yishi mumkin bo‘lsa, tashkilotlar va fuqarolarning turar joy va boshqa binolariga, yer uchastkalariga ularning transport vositalaridan hamda sutkaning istalgan vaqtida to‘sqinliksiz kirishda foydalanish;
- terrorchilikka qarshi operatsiya o‘tkazilayotgan hududda jismoniy shaxslarni shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazishni, ulardagi ashyolarni, transport vositalarini hamda olib o‘tilayotgan yuklarni ko‘rikdan o‘tkazishni, shu jumladan nazorat qilishning texnik va boshqa vositalarini qo‘llagan holda ko‘rikdan o‘tkazishni amalga oshirish;
- huquqbuzarlik sodir etganlikda gumon qilinayotgan harbiy xizmatchilarni ichki ishlar organlariga olib borish, ularni harbiy patrulga, harbiy komendantga, harbiy qismlar komandirlariga topshirilguniga qadar ushlab turish;
- shaxsini aniqlash imkoni bo‘lmagan shaxslarni muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslarni reabilitatsiya qilish markazlariga olib borish;
- o‘z xizmat majburiyatlarini bajarish chog‘ida pasport rejimi qoidalariga,

[16] O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi 407-son qonuni.

shuningdek, bajarilishi ustidan nazorat qilish ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan boshqa qoidalarga rioya etilishini nazorat qilishda fuqarolarning turar joylariga va boshqa binolariga ularning roziligi bilan soat 6:00dan soat 22:00gacha kirish;

- huquqbuzarlik sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxslarni alkogol, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki aql-iroda faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa moddalar ta’sirida mastlik holatida ekanligini o‘rnatilgan tartibda aniqlash choralarini ko‘rish;
- tashkilotlar yoki fuqarolarning transport vositalaridan tabiiy ofat yuz bergan joyga borish, shoshilinch tibbiy yordamga muhtoj fuqarolarni tibbiy muassasalarga olib borish, jinoyat sodir etgan shaxslarni ta’qib qilish va ichki ishlar organlariga olib kelish, hodisa joyiga yoki ichki ishlar organlarining shaxsiy tarkibini jangovar trevoga bo‘yicha to‘plash joyiga borish uchun foydalanish;
- jamoat joylarida alkogol, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki aql-iroda faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa moddalar ta’sirida mastlik holatida bo‘lgan va mustaqil ravishda harakatlanish yoki adashmay yo‘l topish qobiliyatini yo‘qotgan fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslarni reabilitatsiya qilish markazlari yoki tibbiy yordam ko‘rsatish punktlariga olib borish;

PPX saf bo‘linmalari xodimlari qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari quyidagilar post va patrullik yo‘nalishlarida xizmat o‘taydigan PPX saf bo‘linmalari xodimlarining majburiyatlari hisoblanadi:

a) jinoyatlarning oldini olish, ularga qarshi kurashish hamda viktimologik profilaktika bo‘yicha:

- jinoyatlar sodir etilishi ehtimoli bo‘lgan, qidirilayotgan jinoyatchilarning, shuningdek, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarga hukm qilingan yoki shartli hukm qilingan shaxslarning paydo bo‘lishi va yashirinishi mumkin bo‘lgan joylarni kuzatishni amalga oshirish;
- fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga qaratilgan, mulkiy va boshqa turdagi jinoyatlarni aniqlash, fosh etish, ularni sodir etgan shaxslarni ushlashga qaratilgan tezkor-qidiruv faoliyatni, shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirishda ichki ishlar organlarining boshqa bo‘linmalari xodimlariga ko‘maklashish;
- tungi vaqtlarda jinoyatchilikni keskin kamaytirish va oldini olish maqsadida xizmat hududlarida joylashgan korxona, tashkilot, muassasa va boshqa ob’ektlar qorovullari bilan hamkorlik o‘rnatish, xizmat hududidagi probatsiya hisobida turgan shaxslarni cheklovlarga amal qilayotganligini tekshirish;
- xizmat hududlarida avtotransport bilan bog‘liq jinoyatlar, qarovsiz qoldirilgan moddiy-tovar boyliklar o‘g‘irlanishining oldini olish maqsadida aholi orasida profilaktik, ogohlantiruv, targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish[17];

[17] O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi 371-son qonuni. https://lex.uz/docs/2387357.

b) voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha:

► ko‘chalar va boshqa jamoat joylarida voyaga yetmaganlar va yoshlar tomonidan jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, sodir etilganlarini fosh etish, nazoratsiz va qarovsiz qolgan voyaga yetmaganlar, shuningdek, alkogol, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki aql-iroda faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa moddalar ta’sirida mastlik holatida bo‘lgan voyaga yetmaganlar aniqlanganida, ularni ichki ishlar organi navbatchilik qismi yoki tayanch punktiga olib borish;

► huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo‘lgan voyaga yetmaganlarni, ularning guruh bo‘lib to‘planish joylarini aniqlash choralarini ko‘rish, voyaga yetmaganlarni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar, huquqbuzarliklar sodir etishga, shu jumladan qimor o‘yinlariga, tilamchilikka, spirtli ichimliklar iste’mol qilishga, giyohvandlik yoki psixotrop va kishining aql-idrokiga, irodasiga ta’sir qiladigan boshqa moddalar yoki vositalarni iste’mol qilishga, qonunchilik hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan aybli qilmishlarni sodir etishga jalb qilayotgan shaxslar aniqlanganida, bu haqda navbatchi hamda profilaktika (katta) inspektoriga xabar berish;

► voyaga yetmaganlarning tungi vaqtlarda jamoat joylarida ota-onasi (boshqa qonuniy vakillari) yoki bolalar ishtirokida tadbirlarni amalga oshirayotgan shaxslarning kuzatuvisiz yurishlariga (bo‘lishlariga) yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan profilaktik choralarni ko‘rish[18];

v) yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashga ko‘maklashish bo‘yicha:

► yo‘l harakati qoidalari va uni buzganlik uchun qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlik choralarini bilish;

► alkogol, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki aql-iroda faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa moddalar ta’sirida mastlik holatida bo‘lgan yoki belgilangan yoshga to‘lmagan (yoshi sezilib turgan yoki xodimga ayon bo‘lgan) shaxslar tomonidan transport vositalarining boshqarilishiga yo‘l qo‘ymaslik va yo‘l-transport hodisalariga olib keluvchi boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish choralarini ko‘rish;

► tergov-tezkor guruhi yoki yo‘l-patrul xizmati naryadi yetib kelguniga qadar jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish, yo‘l-transport hodisasi yuz bergan joyni o‘zgarishsiz va hodisa izlarining saqlanishini ta’minlash, hodisa ishtirokchilari va guvohlarining shaxsini aniqlash, hodisa yuz bergan joydan ketib qolgan transport vositasining rusumi, rangi, davlat raqam belgisi va boshqa identifikatsiya qilish belgilarini aniqlash choralarini ko‘rish;

► yo‘l-patrul xizmati xodimlari bilan birgalikda yo‘l harakatiga xalaqit beradigan to‘siqlarni o‘z vaqtida bartaraf etish;

► yo‘l harakati qoidalariga rioya etmagan, qo‘pol qoidabuzarliklar yoki yo‘l-transport hodisalari kelib chiqishiga sababchi bo‘lgan haydovchilar aniqlanganda (to‘xtatilib), voqea joyiga yo‘l-patrul xizmati inspektorlari chaqirtirilib, qonuniy chora (bildirgi asosida) ko‘rilishini ta’minlash;

[18] O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2023-yil 20-fevraldagi “Ichki ishlar organlari patrul-post xizmati faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 77-son buyrug‘i.

g) transport ob’ektlarida jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha:

▶ temir yo‘l va metropoliten ob’ektlari hamda aeroportlarning tavsifini, ular yaqinida xizmat o‘tayotgan naryadlar va ular bilan aloqa qilish tartiblarini, yo‘lovchilar tashish qoidalarini, yo‘lovchilarning transportdan foydalanish huquqini beruvchi hujjatlar turlarini, transport xodimlarining asosiy xizmat majburiyatlarini bilish;

▶ yo‘lovchilarning poyezd yurib ketayotganda poyezdga chiqishiga va poyezddan tushishiga, yuk poyezdlarida o‘zboshimchalik bilan yurishiga, shuningdek, temir yo‘llarni belgilanmagan joylaridan kesib o‘tishiga yo‘l qo‘ymaslik;

▶ temir yo‘l izlariga poyezdlar qatnovining buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan ashyolarni qo‘yish, signal berish, aloqa inshootlari va qurilmalarini shikastlantirish holatlarining oldini olish va bartaraf etish;

▶ temir yo‘l stansiyalari, yuk saroylari, konteyner maydonchalari, yuk va saralash parklarining qo‘riqlanadigan hududlarida begona shaxslar yurishiga yo‘l qo‘ymaslik, transport xodimlari, shu jumladan harbiylashtirilgan qo‘riqlash bo‘linmalari o‘qchilariga yuklar o‘g‘irlanishi va talon-taroj qilinishining oldini olishda yordam ko‘rsatish;

▶ belgilanmagan joylarda tamaki va alkogol mahsulotlarini iste’mol qilayotgan shaxslarni aniqlash va ularga nisbatan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlik choralarini ko‘rish;

▶ poyezd brigadasi a’zolari, shu jumladan vagon kuzatuvchilari bilan doimiy aloqada bo‘lish, fuqarolar ularning qonuniy talablarini bajarishdan bosh tortgan hollarda ularga ko‘maklashish;

▶ jinoyatlarni sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxslarni aniqlash, ularni va boshqa huquqbuzarlarni poyezd to‘xtaydigan navbatdagi stansiyada Transportda xavfsizlikni ta’minlash bo‘linmalari xodimlariga bildirgi asosida topshirish;

▶ vagon jihoz va qurilmalari shikastlantirilishining oldini olish hamda ularni bartaraf etish;

▶ temir yo‘l transporti xodimlari va xizmatchilari tomonidan mansab vakolatini suiiste’mol qilish (yo‘lovchilarni chiptasiz tashish va temir yo‘l transportida harakat xavfsizligi qoidalarini buzish bilan bog‘liq boshqa) holatlarini aniqlash, bu haqda poyezd brigadiri (boshlig‘i)ga xabar berish va tegishli Transportda xavfsizlikni ta’minlash bo‘linmasi boshlig‘iga bildirgi bilan axborot berish;

▶ poyezd halokatga uchraganda, shuningdek, avariya, tabiiy ofat, yong‘in va boshqa favqulodda hodisalar sodir bo‘lganda, bu haqda darhol eng yaqindagi ichki ishlar organiga axborot berish, odamlarni qutqarish, jabrlanganlarga yordam ko‘rsatish choralarini ko‘rish, hodisa joyi hamda qarovsiz qolgan mol-mulk qo‘riqlanishini ta’minlash;

▶ poyezd oxirgi stansiyaga yetib kelganda, yo‘lovchilar, bagajlar va yuklar to‘liq tushirilganidan so‘ng brigada a’zolari bilan birgalakda poyezd vagonlarini ko‘zdan kechirish, unutib qoldirilgan buyumlar va boshqa egasiz mol-mulkni fuqarolar yoki yuridik shaxslar ixtiyoriga topshirilguniga qadar ularning saqlanishini ta’minlash choralarini ko‘rish va bu haqda navbatchiga axborot berish.

3-§. Ichki ishlar organlari tomonidan jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlashning kuch va vositalari

PPX saf bo‘linmalarining kuch va vositalarini boshqarish ushbu bo‘linmalar faoliyatini rejalashtirishni, yuklatiladigan vazifalarning bekami-ko‘st bajarilishini ta’minlashga qaratilgan qarorlarni ishlab chiqishni va ularning so‘zsiz ijro etilishini tashkil etishni, xodimlarning xizmat olib borishi ustidan nazorat o‘rnatishni o‘z ichiga oladi.

PPX saf bo‘linmalarining kuch va vositalarini boshqarish uchun:

- ❖ tezkor vaziyatning tahlillari asosida patrul-post xizmatini tashkil etish bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish;
- ❖ bo‘linmaning kuch va vositalarini yuklatiladigan vazifalarni bajarishga tayyorlash hamda ushbu vazifalarni bajarish yuzasidan ko‘rsatmalar berish;
- ❖ PPX naryadlari bilan doimiy va barqaror aloqani hamda o‘z vaqtida axborot almashishni ta’minlash;
- ❖ kuch va vositalarning birgalikda harakatlanishini tashkil etish hamda manevrini amalga oshirish;
- ❖ PPX naryadlarining faoliyat natijalarini hisobga olish va baholash;
- ❖ xizmatni tashkil etish bo‘yicha ijobiy tajribalarni o‘rganish va ularni faoliyatda joriy etish;
- ❖ PPX naryadlari faoliyatini tashkil etishda yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish;
- ❖ PPX saf bo‘linmalarini, ular xodimlarini moddiy texnika bilan hamda moliyaviy ta’minlash, shu jumladan ish samaradorligini oshirishga qaratilgan rag‘batlantirish masalalarini hal etish;
- ❖ shaxsiy tarkibga patrul-post xizmatini o‘tash tartiblari va uslublarini o‘rgatish zarur hisoblanadi.

PPX naryadlarini hududiy ichki ishlar organlari hamda Transportda xavfsizlikni ta’minlash bo‘linmalari boshliqlari va ularning jamoat xavfsizligi xizmatiga rahbarlik qiluvchi o‘rinbosarlari hamda PPX saf bo‘linmasi komandiri shaxsan yoki bo‘ysunuvidagi apparat orqali boshqaradi.

Xizmat o‘tash davrida PPX naryadlarini operativ boshqarish ichki ishlar organlari, shu jumladan PPX saf bo‘linmalarining navbatchilik qismlari zimmasiga yuklatiladi.

PPX saf bo‘linmalari xizmatini rejalashtirish.

PPX saf bo‘linmalari faoliyatini samarali tashkil etish va jamoat tartibini saqlash maqsadida ularning xizmatini rejalashtirish - muhim, mas’uliyatli va qonun asosida olib boriladigan tashkiliy jarayondir.

Rejalashtirishning asosiy maqsadi:

jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash;

jinoyatlarning oldini olish va tezkor javob berish;

naryadlarni oqilona taqsimlash va yuklamani to‘g‘ri taqsimlash;

xizmat vaqtida intizom va nazoratni ta’minlashdan iborat.

PPX saf bo‘linmalarining xizmat olib borishi Vazirlik tomonidan belgilangan tartibda tuziladigan joriy rejalarga muvofiq amalga oshiriladi.

Rejalarning bajarilishi PPX saf bo‘linmasi komandiri huzuridagi tezkor yig‘ilishlarda ko‘rib chiqiladi. Tegishli davr yakuniga ko‘ra rejalar bandlarining ijrosi yuzasidan axborotnoma (ma’lumotnoma) tayyorlanadi va ushbu rejalarni tasdiqlagan rahbarga axborot beriladi.

Rejalarning bajarilishi ustidan nazorat komandirlar va ularning o‘rinbosarlari, shuningdek, PPX saf bo‘linmalarining boshqa mas’ul (shtab) xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

PPX saf bo‘linmalarining xizmatini rejalashtirish orqali jinoyatchilik tahlili, xodimlar salohiyati, texnik vositalar va hududiy xususiyatlar asosida xizmatni samarali tashkil etish jarayoni belgilanadi.

Rejalashtirish orqali PPX naryadlari tomonidan jamoat tartibi kafolatlanadi, jinoyatga qarshi kurash kuchayadi, fuqarolar xavfsizligi ta’minlanadi.

Jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha qarorlarni qabul qilish.

Jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlash ichki ishlar organlarining asosiy vazifalaridan biri bo‘lib, bunda qabul qilinadigan qarorlar qonun asosida va holatga mos bo‘lishi shart. Qarorlar ma’lum bir vaziyatga javob berish, fuqarolar xavfsizligini kafolatlash va jinoyatlarning oldini olish maqsadida qabul qilinadi.

Jamoat tartibini saqlash, xavfsizlikni ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurash, toifalangan ob’ektlarning qo‘riqlash, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, biriktirilgan hududni to‘liq qamrovga olish mazkur jamoat tartibini saqlash xizmatiga jalb etiladigan kuch-vositalardan kompleks foydalanish va boshqarish rejasiga asosan tegishli sohaviy xizmatlar ishtirokida tashkil etiladi.

Jamoat tartibini saqlash xizmatiga jalb etiladigan kuch-vositalardan kompleks foydalanish va boshqarish rejasini ishlab chiqishda tuman (shahar)ning geografik, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari, mahalliy aholisi soni, tarkibi va ko‘chish dinamikasi, boshqa shaharlarda yashovchi hamda chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning kelib ketishi, ko‘chalarning tavsifi, korxona, tashkilot va muassasalarning joylashgan joylari hamda ish vaqtlari, o‘ta muhim va toifalangan, nazorat-litsenziyalash ob’ektlari, banklar, ichki ishlar organlari bo‘linmalarining, maxsus muassasalarning joylashuvi hisobga olinadi.

Jamoat tartibini saqlashda kuch va vositalardan kompleks foydalanish bu:

Inson resurslari, texnika, axborot tizimlari va huquqiy choralarni birgalikda, muvofiqlashtirilgan holda, qonun asosida va tezkor boshqaruv bilan qo‘llashdir.

Bu yondashuv orqali jamoat xavfsizligiga real kafolat ta’minlanadi.

Jamoat tartibini saqlashga jalb etiladigan kuch-vositalardan kompleks foydalanish va boshqarish rejasi asosida tashkil etish quyidagilardan iborat:

xizmat o‘talayotgan hududdagi tezkor vaziyatni o‘rganish, sodir etilayotgan jinoyat va huquqbuzarliklarning turlari, joylari va vaqtini hisobga olgan holda, naryadlarning xizmatini tashkil etish lozim bo‘lgan joylarni aniqlash;

patrul-post xizmatini o‘tash uchun xizmatga chiqishi lozim bo‘lgan naryadlarning kunlik xizmatga chiqish meyorini aniqlash va ushbu meyor asosida ko‘chalar, jamoat joylarida avtopatrul, moto, piyoda va otliq patrullik yo‘nalishlaridan foydalangan holda xizmatni tashkil etish;

ichki ishlar organlari PPX, YPX va boshqa naryadlarning jamoat tartibini saqlash xizmatiga jalb etiladigan kuch-vositalardan kompleks foydalanish va boshqarish rejasini ishlab chiqish va uni shahar (tuman) xaritasiga tushirish;

xizmatni o‘tash davrida naryadlarni boshqarish, ularning o‘zaro hamkorligini ta’minlash;

naryadlarning xizmatini nazorat qilish va ish natijalarini hisobga olish tartibini o‘rnatish;

naryadlarni xizmatga tayyorlash va ularga yo‘riqnomalar berish.

PPX saf bo‘linmalari kuch va vositalaridan jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurashda unumli foydalanish maqsadida ichki ishlar organlarining naryadlari hamda harakatdagi guruhlariga ajratiladigan patrullik avtomashinalarining ko‘chalar va jamoat joylarida jamoat tartibini saqlash bo‘yicha patrul-post xizmatini o‘tash uchun kunlik xizmatga chiqish majburiy meyori o‘rnatiladi. Kunlik xizmatga chiqish majburiy meyori PPX saf bo‘linmalarining oddiy va kichik boshliqlar tarkibidan, kunlik xizmatda foydalanish bo‘yicha imkoniyatlaridan va boshqa vazifalarni bajarish yuzasidan (ichki naryad va hakozalar) bo‘lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Jamoat tartibini saqlash xizmatiga jalb etiladigan kuch-vositalardan kompleks foydalanish va boshqarish rejalari hududdagi tezkor vaziyat va kunlik xizmatga chiqishning majburiy meyorlari hamda kriminogen vaziyatni mavsumiy o‘zgarishini hisobga olgan holda, patrul-post xizmatini tashkil etish bo‘yicha hududiy ichki ishlar organlari (tuman, shahar IIB) boshliqlari qabul qilgan qaror asosida bir yil muddat uchun ishlab chiqiladi.

Jamoat tartibini saqlash xizmatiga jalb etiladigan kuch-vositalardan kompleks foydalanish va boshqarish rejalarining muddati PPX saf bo‘linmalari biriktirilgan hududiy ichki ishlar organlari (tuman IIB) boshlig‘i tomonidan belgilanadi. Belgilangan muddat ichida unga joylardagi tezkor vaziyat tahlili asosida aniqliklar kiritilib boriladi. Hududdagi tezkor vaziyat keskin o‘zgargan hollarda jamoat tartibini saqlash xizmatiga jalb etiladigan kuch-vositalardan kompleks foydalanish va boshqarish rejasi qayta ishlab chiqiladi.

Kriminogen vaziyati og‘ir hududlarda tezkor vaziyatni barqarorlashtirish, belgilangan ommaviy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy va boshqa tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish vaqtida tuman (shahar) ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari (HPB, JQB, TB va boshqa) xodimlari hisobidan qo‘shimcha patrullik yo‘nalishlarini tashkil etishga ruxsat beriladi.

Kuch va vositalarni postlar va patrullik yo‘nalishlariga taqsimlash, ularning xizmat vaqtlari va xizmatni o‘tash muddatlarini belgilashda huquqbuzarliklar ko‘p sodir etiladigan joylar va vaqtlarda naryadlarning zichligini oshirish, zaruratsiz bir-birlarini takrorlamasliklari inobatga olinadi.

Patrul-post xizmatini o‘tashga jalb etilgan har bir naryad oldiga qo‘yilgan vazifani bajarish uchun belgilangan muddat mobaynida o‘ziga biriktirilgan hududda bo‘lishi lozim.

O‘ziga biriktirilgan hududga yaqin boshqa hududda favqulodda holat yoki boshqa salbiy holatlar sodir bo‘lganda, ularni bartaraf etish, yashiringan jinoyatchilarni ta’qib qilish va boshqa shu kabi holatlarda hududiy ichki ishlar organlari, Transportda xavfsizlikni ta’minlash bo‘linmalari boshliqlari va ularning jamoat xavfsizlik xizmatiga rahbarlik qiluvchi o‘rinbosari, PPX saf bo‘linmasi komandiri va uning o‘rinbosarlari ko‘rsatmasiga asosan o‘ziga biriktirilgan hududdan chiqishlariga ruxsat etiladi.

Patrullik yo‘nalishlari va ularning to‘xtash joylari, xizmat o‘tash xususiyatlari, ular orasidagi, shuningdek, ichki ishlar organlarining boshqa kuchlar, Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari bilan o‘zaro hamkorlik va aloqa qilish tartibi tezkor vaziyat tahliliga qarab belgilanadi, ularga bevosita xizmat o‘tash joylarida aniqlik kiritiladi.

Har bir yo‘nalishda xizmatni o‘tash xususiyatlari mazkur yo‘nalish pasportida belgilanadi.

Yo‘nalish pasportida quyidagilar ko‘rsatiladi:

patrullik yo‘nalishi, uning masofasi, post chegaralari va markazi, xarakteristikasi, alohida xususiyatlari, jinoyat va huquqbuzarliklarning tahlillari;

xizmatni o‘tash vaqti;

alohida e’tibor talab etadigan joylar;

yo‘nalish bo‘yicha harakatlanish tartibi va xizmatni o‘tashning asosiy taktik usullari;

naryadlarning jinoyatlar va jamoat tartibi buzilishlarining oldini olish hamda bartaraf etishdagi, shuningdek, tezkor vaziyat murakkablashgan holatlardagi alohida vazifalari;

qo‘shni naryadlar, ichki ishlar organlarining navbatchilik qismlari, profilaktika inspektorlari, jamoatchilik tuzilmalari, fidokor yoshlar bilan o‘zaro hamkorlik va aloqa qilish tartibi va usullari.

Yo‘nalish pasporti ikki nusxada tayyorlanadi va bir nusxasi PPX saf bo‘linmasining navbatchilik qismida saqlanadi, ikkinchisi esa naryadga xizmatni boshlashdan oldin tuman (shahar) jamoat tartibini saqlash bo‘linmalari, PPX saf bo‘linmalari (otryad, guruh) komandiri tomonidan beriladi.

Naryadlarning turi va ularning tarkibi biriktirilgan hududning xususiyatlari hamda tezkor vaziyatdan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda avtopatrul, moto, piyoda va otliq patrullar sonining mutanosibligi (proporsiya) e’tiborga olinishi kerak.

Patrullardan naryadlarning doimiy bo‘lishi shart bo‘lmagan, ko‘rinishi cheklangan hududlarda foydalaniladi.

Postlar kun davomida yoki ma’lum bir vaqt mobaynida naryadlar tomonidan uzluksiz kuzatuv olib borish talab qilinadigan joylarga qo‘yiladi.

Qo‘yilgan vazifalarni bajarishga bir nafar ichki ishlar xodimi imkoniyati bo‘lmagan joylarga juft naryadlar qo‘yiladi (odamlar ommaviy yig‘iladigan joylarda, mahallalarda, poyezdlarni kuzatib borishda).

Patrul-post naryadlari postlar va patrullik yo‘nalishlarida xizmatni profilaktika inspektorining jamoat tartibini saqlash bo‘yicha yordamchisi, fidokor yoshlar, Milliy gvardiya bilan hamkorlikda o‘tashadi.

Tezkor vaziyatdan kelib chiqqan holda ichki ishlar organlari naryadlari uchun har bir post va patrullik yo‘nalishi bo‘yicha alohida vazifalar belgilanadi:

post va patrullik yo‘nalishida xizmatni qachon, qayerda va qaysi vaqtlarda o‘tash;

nimalarga alohida e’tiborni qaratish, jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha yoki ular to‘g‘risida xabar olganda qanday harakatlarni amalga oshirish;

xizmat yo‘nalishi bo‘yicha harakat qilish tartibi va xizmat o‘tashning taktik usullari;

qo‘shni postlar va patrullik yo‘nalishlari, tezkor xizmatlar tarkibi, profilaktika inspektorlari bilan hamkorlik qilish va aloqa o‘rnatish tartibi, navbatchi bilan aloqani bog‘lab turish usullari.

Ichki ishlar organi naryadlariga xizmatni o‘tash uchun bitta bosqich mobaynida bir yoki bir nechta yo‘nalishlar biriktirilishi mumkin. Bunday hollarda patrulga tegishli varaqalar beriladi. Ularda bir yo‘nalishdan boshqasiga o‘tish navbati va tartibi, yo‘nalishlarning chegarasi, markazi hamda har bir yo‘nalish bo‘yicha naryadning alohida vazifalari ko‘rsatiladi.

Qo‘shimcha patrullik yo‘nalishini qo‘yish zarurati tug‘ilganda, ularda xizmatni o‘tashning alohida xususiyatlari yo‘riqnomada aytib o‘tiladi va xizmat daftariga yozib qo‘yiladi.

Tezkor vaziyat keskin o‘zgarganda, favqulodda holatlar yuzaga kelganda, ommaviy tadbirlar, maxsus va alohida tadbirlar o‘tkazilganda aniq vazifalarni hal qilish uchun o‘tkaziladigan tadbirlarning miqyosi va ahamiyatiga qarab maxsus rejalar, buyruqlar ishlab chiqiladi.

Post va patrullik yo‘nalishlaridagi tezkor vaziyatni chuqur o‘rganish, xodimlar tomonidan o‘z oldilariga qo‘yilgan vazifalarning to‘liq bajarilishiga erishish maqsadida shaxsiy tarkib bir paytning o‘zida 2-3 ta post va patrullik yo‘nalishlariga biriktiriladi, zaruratsiz boshqa yo‘nalishlarga xizmatga jalb etilmaydi.

Harakatdagi guruhlar tarkibiga maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan xodimlar tayinlanadi.

Jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha qarorlarni qabul qilishda, Jamoat tartibini saqlash xizmatiga jalb etiladigan kuch-vositalardan kompleks foydalanish va boshqarish rejasiga muvofiq muayyan sutkalar uchun tezkor vaziyatdan kelib chiqqan holda ichki ishlar organi boshlig‘i va PPX saf bo‘linmasi komandirining qarori qabul qilinadi.

Patrullik yo‘nalishlarida jamoat tartibini saqlash, xavfsizlikni ta’minlash, jinoyatchilikning barvaqt oldini olish maqsadida mazkur qarorlarni tuman (shahar) ichki ishlar bo‘limi boshliqlari tomonidan hududdagi tezkor vaziyatdan kelib chiqqan holda ishlab chiqishga va unga tegishli o‘zgartirishlar kiritishga ruxsat beriladi.

Mahallalar kesimida tezkor vaziyatdan kelib chiqqan holda “qizil”, “sariq” va “yashil” hududlarda patrul-post naryadlarining kuch va vositalarini kunlik dislokatsiyasi o‘zgartirib borilishi mumkin.

Zaruratdan kelib chiqqan holda ichki ishlar organi boshlig‘i va PPX saf bo‘linmasi komandiri qaror qabul qilishdan oldin o‘z o‘rinbosarlari va boshqa mas’ul xodimlar ishtirokida rekognossirovka (patrul-post xizmati o‘taladigan joyda o‘rganish) o‘tkazadilar. Bunda safarbar etiladigan kuch va vositalarning soni, postlarning joylashuvi, patrullik yo‘nalishlarining chegarasi, PPX naryadining turi, soni, tarkibi va majburiyatlari, xizmat o‘tash tartibi va vaqti, zaxiraning joylashuvi va vazifasi belgilanadi.

Patrul-post naryadlarining xizmatini samarali tashkil etilishi va jinoyatlarga tezkor javob qaytarilishi uchun aloqani to‘g‘ri tashkil etish juda muhimdir. Aloqa xodimlar, navbatchilik qismi, rahbariyat va boshqa xizmatlar o‘rtasidagi uzluksiz ma’lumot almashishni ta’minlaydi.

Aloqaning asosiy maqsadi:

naryadlarga topshiriq va buyruqlar berish;

tezkor xabar va chaqiriqlarni qabul qilish;

hodimlarning joylashuvini kuzatish va boshqarish;

xizmat jarayonida nazoratni ta’minlash;

xavfli holatlarda yordam so‘rash imkonini yaratishdan iborat.

Patrul-post xizmatini o‘tashda aloqa — bu:

naryad va markaz o‘rtasidagi ahamiyatli bog‘lovchi halqa;

xodimning xavfsizligi, vazifa bajarishi va tezkorlikka zamin yaratishi;

har qanday favqulodda vaziyatda kechikmasdan chora ko‘rish imkonini yaratadi.

Shuningdek patrul-post xizmatini o‘tashda, shu jumladan jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash, jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklarni aniqlash hamda fosh etish bo‘yicha tadbirlarni o‘tkazishda o‘zaro hamkorlikni ta’minlash maqsadida aloqa tashkil etiladi.

Hududiy ichki ishlar organlari hamda Transportda xavfsizlikni ta’minlash bo‘linmalari boshliqlari va PPX saf bo‘linmasi komandirlari tomonidan bo‘ysunuvdagi bo‘linmalar va naryadlar bilan uzluksiz aloqa quyidagilar orqali tashkil etiladi va ta’minlanadi:

tezkor vaziyatdan kelib chiqqan holda aloqa vositalaridan foydalanish va ish rejimini belgilash;

o‘tkaziladigan tezkor tadbirlar va PPX naryadlarining manevrini sir saqlash maqsadida belgilangan radioaloqa chaqiruv nomlaridan, suhbatlashish jadval va kodlaridan foydalanish;

aloqa vositalari orqali suhbatlashish tartib-qoidalariga amal qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

aloqa vositalarining o‘rnatilgan tartibda saqlanishi va hisobi yuritilishi, berilishi va qabul qilinishini, shuningdek, o‘z vaqtida ta’mirlanishi va ularga texnik xizmat ko‘rsatilishini tashkil etish;

aloqa vositalari va kanallarning zaxirasini ta’minlash.

PPX saf bo‘linmalarining kuch va vositalarini boshqarishda radio-, video-, simli va signalli aloqa vositalaridan, shuningdek, xabar eltuvchilardan foydalaniladi. Radiostansiya PPX naryadlari bilan aloqa qilishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Simli aloqa vositalari (shahar va maxsus telefonlar) radioaloqasi bo‘lmagan naryadlar bilan aloqa qilishda ishlatiladi.

Aloqa vositalari bo‘lmagan yoki ulardan foydalanish imkoni cheklangan hollarda, shuningdek, alohida ko‘rsatmalarga aniqlik kiritish yoki ularni takrorlash (dubl) uchun transport vositalarida yoki piyoda xabar eltuvchilardan foydalaniladi.

PPX naryadlari o‘rtasida ko‘rsatmalarni yetkazish va ularning birgalikda harakat qilishlarini ta’minlash uchun tovush, nur va boshqa ko‘zga ko‘rinuvchi ishoralar qo‘llanilishi mumkin.

Video vositalardan xizmat ko‘rsatiladigan hududlar (ob’ektlar)ning muhim ahamiyatga ega bo‘lgan uchastkalarini kuzatish va PPX naryadlari faoliyatini nazorat qilish uchun foydalaniladi.

Patrul-post xizmati xodimlari o‘z xizmat vazifalarini bajarish paytida quyidagi maqsadlarda manevr qiladilar, yani jinoyatni oldini olish yoki uni bartaraf etish uchun:

Masalan, shubhali shaxs yoki vaziyat aniqlanganda, xodimlar pozitsiyasini o‘zgartirishi, tezda voqea joyiga yetib borishi mumkin.

Jamoat tartibini saqlash:

Odamlar to‘plangan joylarda (masalan, bozorlar, konsertlar, mitinglar) kerak bo‘lsa, xodimlar guruhlari yo‘nalishini o‘zgartirib, aholi orasida harakat qilib turishi mumkin, bu ham manyovr hisoblanadi.

Shubhali shaxslarni kuzatish va nazorat qilish:

Shubhali fuqaroni yashirincha kuzatish, uni to‘xtatish yoki qo‘lga olish uchun turli taktik harakatlar amalga oshiriladi.

Mashq va o‘quv jarayonidagi manyovralar:

Xodimlar doimiy ravishda o‘quv mashg‘ulotlarida ishtirok etadilar, bu yerda jinoyatchiga qarshi harakat, quroldan foydalanish yoki tezkor joylashish kabi manyovralar o‘rgatiladi.

Patrul-post xizmati faoliyati va manyovri quyidagi hujjatlarga tayanadi:

O‘zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to‘g‘risida"gi qonuni;

Jamoat xavfsizligini ta’minlash konsepsiyasi;

Patrul-post xizmati qoidalari va yo‘riqnomalar.

PPX naryadlarining o‘zaro va ichki ishlar organlarining boshqa bo‘linmalari bilan birgalikdagi harakati hamda manevri tuman (shahar) IIO boshliqlari tomonidan Ichki ishlar organlari patrul-post xizmati faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi Nizomga va Vazirlikning tegishli ichki idoraviy hujjatlariga muvofiq tashkil etiladi.

PPX saf bo‘linmalari ichki ishlar organlarining boshqa bo‘linmalari, shuningdek, davlat boshqaruvi, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birgalikda bajaradigan vazifalar qo‘shma qarorlar, rejalar, ko‘rsatmalar va yo‘riqnomalarga muvofiq amalga oshiriladi.

Jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi vazifalarni bajarishga davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar ixtiyoriy ravishda jalb etilishi mumkin.

Birgalikdagi harakat quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

tezkor vaziyat bo‘yicha o‘zaro axborot almashish, sodir etilgan jinoyatlar va o‘zga huquqbuzarliklar to‘g‘risida boshqa naryadlarni xabardor qilish;

PPX saf bo‘linmalari shaxsiy tarkibi bilan o‘tkazilayotgan yo‘riqnoma va mashg‘ulotlarda ularga jinoyat va ma’muriy huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish, g‘ayriqonuniy harakatlarni sodir etgan shaxslarni ushlash, jinoyat, ma’muriy huquqbuzarlik sodir etilgan va hodisa joyini qo‘riqlash, ichki ishlar organlariga yuklatilgan boshqa vazifalarni bajarish bo‘yicha taktik harakatlarni, usul va uslublarni o‘rgatishda ichki ishlar organlari bo‘linmalarining tajribali xodimlarini ishtirok etishi;

xizmat vazifalarini bajarishda o‘zaro yordam ko‘rsatish, tezkor-profilaktik tadbirlarni hamkorlikda o‘tkazish va tajriba almashish;

vakolat doirasida huquqbuzarliklarga qarshi kurashish bo‘yicha boshqa tadbirlarni, shu jumladan ichki ishlar organlarining favqulodda holatlarda harakatlanish bo‘yicha maxsus rejalarda nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishda ishtirok etish;

terrorchilik harakatlariga chek qo‘yish, garovga olinganlarni ozod qilish, huquq-tartibotning guruhlar tomonidan buzilishi va ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish, o‘ta muhim va toifalangan hamda davlat organlarining qo‘riqlanadigan boshqa ob’ektlariga, o‘ta muhim yuklarga, transport vositalariga guruh bo‘lib qilingan hujumni yoki qurolli hujumni daf etish bo‘yicha ichki ishlar organlarining bo‘linmalari bilan birgalikda taktik-maxsus, qo‘mondonlik-shtab va boshqa mashg‘ulotlar hamda mashqlarni o‘tkazish.

PPX saf bo‘linmalari komandirlari ushbu bo‘linmalar tomonidan xizmat ko‘rsatiladigan tuman (shahar) IIOlari rahbariyati bilan birgalikdagi harakati axborot almashish, tezkor vaziyatni birgalikda tahlil qilish, tomonlarning tezkor yig‘ilishlarida ishtirok etish, kuch va vositalarning joylashuviga tuzatish hamda o‘zgartirishlar kiritish, shuningdek, xizmat o‘tash chog‘ida barcha naryadlarning harakat qilish va o‘zaro yordam ko‘rsatish tartiblarini kelishish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Tezkor vaziyat og‘irlashgan joylarga ichki ishlar organlarining kuch va vositalarini uyushgan va kechiktirmagan holda safarbar etish uchun PPX naryadlarining manyovri amalga oshiriladi.

Yuzaga kelgan vaziyatdan kelib chiqqan holda manyovr PPX naryadlarining xizmat o‘tash smenalariga, sutkalarga yoki uzoqroq muddatlarga tatbiq etilishi mumkin.

Manevr tufayli PPX naryadlarining joylashuvi o‘zgarganligi to‘g‘risida PPX naryadlarini post va patrullik yo‘nalishlariga taqsimlash kitobida qayd etiladi.

PPX saf bo‘linmalarining kuch va vositalarini tezkor vaziyat murakkablashgan boshqa tuman (shahar)ga ma’lum muddatga safarbar etish zururati tug‘ilganda, safarbar etish O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirining, Toshkent shahar va Toshkent viloyati IIBBlari hamda viloyatlar IIBlari boshliqlarining farmoyishlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Elektroshok qurilmalarini qo‘llash tartibi.

Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan elektroshok qurilmalarini ishlatish, qo‘llash va ulardan foydalanish “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonun va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Fuqarolarning yoki ichki ishlar organi xodimining hayoti va sog‘lig‘iga bevosita xavf tug‘ilsa ichki ishlar organi xodimi qonunchilik hujjatlariga muvofiq elektroshok qurilmasini qo‘llash niyati haqida ogohlantirmaslik huquqiga ega.

Elektroshok qurilmasi — bu himoya yoki majburlov vositasi bo‘lib, u inson yoki hayvon tanasiga yuqori kuchlanishli, lekin qisqa muddatli tok impulsi yuborish orqali ta’sir qiladi. Bu qurilma markaziy asab tizimiga ta’sir qilib, vaqtincha harakatsizlantirish yoki faoliyatni cheklash uchun ishlatiladi.

Ichki ishlar organlari xodimlari elektroshok qurilmasini tartibbuzar yoki qarshilik ko‘rsatuvchi shaxsni harakatsizlantirish maqsadida ishlatadi.

Ichki ishlar organi xodimlari quyidagi hollarda elektroshok qurilmalarini qo‘llash huquqiga ega:

fuqaroga yoki ichki ishlar organi xodimiga qilingan hujumni qaytarishda;

garovdagilarni ozod qilishda;

jinoyat yoki ma’muriy huquqbuzarlikka chek qo‘yishda;

ichki ishlar organi xodimlariga qarshilik ko‘rsatilishiga chek qo‘yishda;

jinoyat sodir etish chog‘ida yoki uni sodir etganidan keyin darhol ko‘rib qolingan, yashirinishga urinayotgan shaxslarni ushlashda;

ushlab turilgan, qamoqqa olingan, ma’muriy qamoqqa olingan shaxslarni, ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarni, qo‘riq ostidagi shaxslar va mahkumlarni olib borish, qo‘riqlab borish, qo‘riqlashda va nazorat qilish davomida ularning qochishga urinishi, atrofdagilarga yoki o‘ziga zarar yetkazishini bartaraf etish maqsadida, shuningdek, ushbu shaxslarni kuch ishlatib ozod qilishga bo‘lgan urinishlarga chek qo‘yishda;

zo‘ravonlik bilan ushlab turilgan shaxslarni, egallab olingan binolarni, xonalarni, inshootlarni, transport vositalarini va yer uchastkalarini ozod qilishda.

Ichki ishlar organi xodimi qonunchilik hujjatlari bilan o‘qotar qurol ishlatishga ruxsat etilgan barcha hollarda ham elektroshok qurilmalarini qo‘llash huquqiga ega.

Ichki ishlar organi xodimi elektroshok qurilmasini qo‘llagandan so‘ng quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

fuqaroga nisbatan elektroshok qurilmasi qo‘llanilganda bildirgi orqali bevosita komandirlari, hududiy ichki ishlar organi rahbarlariga hamda o‘rnatilgan tartibda prokuraturaga xabar beriladi;

fuqaroga tan jarohati yetkazilsa yoki u halok bo‘lsa, bu haqida imkon qadar qisqa, lekin yigirma to‘rt soatdan oshmagan vaqt ichida ushbu fuqaroning qarindoshlari yoki yaqin shaxslariga xabar berish;

hodisa joyini o‘zgarishsiz saqlashga qaratilgan choralarni ko‘rish;

tan jarohati olgan fuqarolarga va mahkumlarga birinchi yordam ko‘rsatish.

Savol va topshiriqlar:

1. Jamoat joylari tushunchasi.
2. Jamoat xavfsizligi tushunchasi.
3. Jamoat tartibini saqlash tushunchasi.
4. Jamoat xavfsizligi departamentining asosiy vazifalari.
5. Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida Ichki ishlar vazirligining vazifalari.
6. Jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash sohasida PPX saf bo‘linmalarining asosiy vazifalari.
7. PPX saf bo‘linmalari xodimlari o‘zlariga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarishdagi huquqlari.
8. Jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha qarorlarni qabul qilish.
9. PPX saf bo‘linmalari xizmatini rejalashtirish.
10. PPX saf bo‘linmalarining kuch va vositalarini boshqarish.

XIII BOB OMMAVIY TADBIRLARNI O‘TKAZISHDA JAMOAT TARTIBINI SAQLASH VA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH

1-§. Ommaviy tadbirlar tushunchasi va turlari

Amaldagi qonunlarga muvofiq, ichki ishlar organlari o‘zlarining zimmalariga yuklatilgan vazifalarni odatdagi (kundalik) sharoitlarda ham, alohida sharoitlarda ham bajaradilar. Jamoat tartibini va xavfsizligini saqlashning alohida sharoitlari deganda, odamlar hayoti va sog‘lig‘i, moddiy va madaniy qadriyatlar uchun xavflilik darajasi katta bo‘lgan muayyan holatlarda yuzaga keladigan hamda ichki ishlar organlaridan huquqiy va tashkiliy xususiyatga ega maxsus choralar ko‘rishni talab qiladigan sharoitlar tushuniladi. Mazkur sharoitlar turli xil favqulodda vaziyatlarning kelib chiqishi bilan bog‘liq. Tinchlik vaqtida ularga quyidagilar kiradi: tabiiy ofatlar, epidemiyalar, epizootiyalar, texnogen va ekologik falokatlar, ijtimoiy to‘qnashuvlar, shuningdek katta ommaviy tadbirlar o‘tkazilishi.

Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishning qonuniyligiga ko‘ra miting, yig‘ilish, namoyish o‘tkazish demokratiyaning bir ko‘rinishidir. Demokratik davlat va huquqiy fuqarolik jamiyatini shakllantirishda fuqarolar o‘z ijtimoiy-siyosiy faolliklarini erkin amalga oshirish huquqiga ega. Konstitutsiyamizning 38-moddasida fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqi e’tirof etilib, qonuniy jihatdan mustahkamlangan.

Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash tartibi hamda qatnashchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar bir qator normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan.

O‘zbekiston Respublikasining «Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunining 16-moddasida “Jamoat joylarida, shu jumladan ko‘chalarda, maydonlarda, istirohat bog‘larida, transport magistrallarida, vokzallarda, aeroportlarda, shuningdek ommaviy tadbirlarni o‘tkazish chog‘ida fuqarolarning xavfsizligini ta’minlashi” ichki ishlar organlarining majburiyatlaridan biri sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi *(2017-yil 12-aprel)* qarorida ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazishda, shuningdek aholi gavjum bo‘ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini himoya qilishga doir chora-tadbirlar amalga oshirilishini nazorat qilish, vazirlik va idoralarning bu boradagi faoliyatiga tashkiliy-uslubiy rahbarlik qilish hamda muvofiqlashtirish Ichki ishlar vazirligining asosiy funksiyalaridan biri ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi *(2017-yil 1-may)* qarorida qo‘riqlanadigan ob’ektning muhandislik-texnik, yong‘in xavfsizligi, kommunikatsiya tizimlari hamda inshootlarining ommaviy tadbirlar o‘tkaziladigan

va aholi gavjum bo‘ladigan joylar uchun belgilangan xavfsizlik talablariga muvofiqligi, shuningdek ob’ektlar ma’muriyati tomonidan ushbu talablarga rioya etilishi ustidan nazoratni tashkil qilish hamda ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish chog‘ida jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta’minlashga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha ichki ishlar organlari hamda boshqa vazirlik va idoralarning faoliyatini nazorat qilish hamda tashkiliy-uslubiy ta’minlash ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi faoliyatning asosiy sub’ekti bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jamoat tartibini saqlash xizmatining muhim funksiyasi ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Shu bilan birga, ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy hokimliklarining qarorlari huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ommaviy tadbirlarning turlari va ularni o‘tkazish tartibiga to‘xtalishdan avval, uning lug‘aviy ma’nosiga alohida e’tibor qaratsak. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “ommaviy” so‘zining mohiyatiga “ommaga, ko‘pchilikka oid, ko‘pchilik tomonidan yoki omma orasida bajariladigan ommaviy ish. Ommaviy harakatlar” deb izoh berilgan.

Ommaviy tadbirlar – bu ko‘ngilochar, teatr-tomosha, konsert, sport, reklama dasturlari va boshqa dam olish dasturlarini, shuningdek kamida 100 kishi ishtirokida umumxalq, diniy professional bayramlarini o‘tkazish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ochiq va yopiq inshootlarda, maydonlarda, binolarda va boshqa joylarda tashkil etiladigan kishilar to‘planishidir.

Ommaviy tadbirlarni, mazmuni va yo‘nalishiga qarab ijtimoiy-siyosiy, ommaviy-madaniy, sport o‘yinlari va diniy marosimlar kabi turlarga bo‘lish mumkin.

*Ijtimoiy-siyosiy tadbirlar*ga mitinglar, yig‘ilishlar, namoyishlar, ko‘cha yurishlari, saylovlar va boshqa harakatlar kiradi.

Miting – siyosiy ma’noga ega bo‘lib, biron bir hayotiy muhim muammoni muhokama qilishga qaratilgan ommaviy marosim, ommaviy siyosiy yig‘ilishdir. Miting tarkibi jihatidan turli toifadagi kishilardan tashkil topgan bo‘lib, unda miting yo‘nalishini belgilovchi biron bir shaxs va guruhdan tashqari shunga qiziquvchilar yoki muhokama qilinayotgan masalaga befarq va loqayd kishilar ham qatnashishi mumkin. Miting ishtirokchilarining soni cheklanmagan bo‘ladi. Miting stixiyali yoki oldindan kelishilgan reja asosida o‘tkazilishi mumkin.

Yig‘ilish – u yoki bu masalani muhokama qilish va tegishli qarorga kelish maqsadida muayyan miqdordagi maslakdosh kishilarning biron bir xona yoki binoga to‘planishidir.

Yig‘ilishda, odatda, ko‘rilayotgan masala muhokama qilinadi va bu bo‘yicha bayonnoma tuziladi. Yig‘ilish mitingdan farqli o‘laroq tartib bilan o‘tadi. Chunki yig‘ilishga rais yoki boshlovchi saylanadi. Yig‘ilishlar inson siyosiy huquqlarini ifoda etish va amalga oshirishning madaniy shakllaridan biridir.

Namoyish – siyosiy qarorga yoki ijtimoiy holatga nisbatan ommaning siyosiy munosabati va kayfiyatini ochiq ifodalash shaklidir. Namoyish siyosiy

hokimiyatning u yoki bu qarorini qo‘llab quvvatlash, hamkorlik yoki unga nisbatan norozilikning ifodasi bo‘lishi mumkin.

Davlat fuqarolarning ijtimoiy faolliklarini miting, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirishlari, o‘z fikrlarini erkin ifodalashlari uchun ularga siyosiy huquqlar beradi, binolar, ko‘chalar, maydonlardan, ommaviy axborot vositalaridan foydalanishlari uchun huquq-tartibot, o‘t-o‘chirish va tibbiy yordam xizmatlarini shay qilib qo‘yadi.

Hokimiyat organlari miting namoyish va yig‘ilishlar o‘tkazish joylarini belgilaydi, boshlanishi va tugashini nazorat qiladi.

Ommaviy-madaniy tadbirlarga har xil milliy bayramlar, teatrlashtirilgan tomoshalar, festivallar, xalq sayillari, yarmarkalar kiradi.

Teatr-tomosha – badiiy va xalq og‘zaki ijodlari asosida sahnalashtirilgan tomoshalarni namoyish etish tadbiri;

Konsert – fuqarolarning hordiq chiqarishlari uchun badiiy jamoalar, artistlar va havaskorlarning tomoshali chiqishlari;

Reklama – ishlab chiqarilgan moddiy va nomoddiy mashg‘ulotlarni, shuningdek ko‘rsatilayotgan xizmatlarni namoyish etishga qaratilgan tadbir;

Umumxalq bayrami – mehnat qonunchiligidagi belgilangan kunlarda siyosiy, milliy bayram marosimlariga bag‘ishlab fuqarolarning hordiq chiqarishlari uchun o‘tkaziladigan ko‘ngilochar, teatr – tomosha, konsert, sport, reklama va boshqa dam olish dasturlari yoki fuqarolarning sayil qilishlari yo‘li bilan o‘tkaziladigan tadbir;

Professional bayram – qonunchilik va boshqa me’yoriy hujjatlarda belgilangan kunlarda kasb bayramlarini nishonlashga bag‘ishlab o‘tkaziladigan tadbir;

Ko‘ngil ochar tadbir – fuqarolarning hordiq chiqarishlari uchun o‘tkaziladigan hamda boshqa ommaviy tadbirlar turiga kirmaydigan tadbir (diskoteka, shou, tungi klublar, loto, lotereya va shu turdagi qiziqtiruvchi o‘yinlar).

Diniy marosimlarga Qurbon hayiti, Ramazon hayiti, fuqarolarni hajga yuborish, kutib olish kabi tadbirlar kiradi.

Sport tadbirlariga kelsak, bu eng ko‘p tarqalgan ommaviy tadbirlardan hisoblanadi va bunda juda ko‘plab odamlar ishtirok etadi. Ommaviy sport tadbirlari o‘zining xilma-xilligi, keng tarqalganligi va ommabopligi bilan ajralib turadi. Mazmuniga ko‘ra ularni olimpiadalar, spartakiadalar, tennis, futbol va boshqa o‘yinlarga bo‘linadi.

Hajmi va ahamiyatiga ko‘ra ommaviy tadbirlar *xalqaro*, *respublika va mahalliy* miqyosdagi turlarga bo‘linadi.

O‘tkaziladigan joylariga ko‘ra esa stadionlarda, sport komplekslarida va boshqa maxsus joylarda o‘tkaziladigan musobaqalarga hamda ko‘chalarda, yo‘llarda, shahar chetida va boshqa ochiq joylarda o‘tkaziladigan musobaqalarga ajratish mumkin. Sport musobaqalarining xarakterli tomonlaridan biri shundaki, ularda juda ko‘plab tomoshabinlar ishtirok etadi va ularni bir komandaga yoki bir sportsmenga bo‘lgan munosabat birlashtirib turadigan tadbirlardir.

Diniy marosimlarning o‘ziga xos xususiyati insonlarda qatnashuvchi shaxslarning diniy qarashlari, o‘tmishdan qolgan diniy rasm-rusumlarga bo‘lgan munosabatlari birlashtirib turadi. Shuni unutmaslik kerakki, ayrim diniy marosimlar

boshqaruvchisiz amalga oshiriladi, masalan, qabristonlarni ommaviy ravishda ziyorat qilish. Bunday sharoitlarda ichki ishlar organlari zimmasidagi jamoat tartibini saqlash vazifasi yanada og‘irlashadi.

Ommaviy tadbirlar davriyligiga qarab quyidagi turlarga bo‘linadi:

- bir marotaba o‘tkaziladigan yodgorliklar, memorial komplekslarning ochilishi;
- mavsumiy tadbirlarda shahar aholisini qishloq xo‘jalik ishlariga jalb etish;
- takrorlanuvchi tadbirlar “Navro‘z”, “Mustaqillik” bayramlari, sport musobaqalari, festivallar;
- har kungi doimiy tadbirlar teatr, muzey, ko‘rgazmalarga borish.

Hududiy belgilariga qarab ommaviy tadbirlar *tuman (shahar), tumanlararo,viloyat* va *respublika* miqyosidagi turlarga bo‘linadi.

Ommaviy tadbirlarning hajmi asosan ular o‘tkaziladigan hududga, qatnashuvchilar soniga va jamoat tartibini saqlashga jalb etilgan kuch va vositalarga qarab belgilanadi.

Ommaviy tadbirlarning ahamiyati uning siyosiy yo‘nalishiga hamda unda ishtirok etayotgan davlat rahbarlari darajasiga, chet el delegatsiyalari va vakillariga, unda qatnashuvchi aholi soniga qarab aniqlanadi.

Ommaviy tadbirlarda ishtirok etuvchilarning tarkibi bo‘yicha ular tashkillashtirilgan va tashkillashtirilmagan bo‘lishi mumkin.

Tashkillashtirilgan ommaviy tadbirlarda jamoalar o‘zlarining rahbarlari, boshqariluvchilari yoki rasmiy yo‘lboshchilari bilan ishtirok etadilar. Ishtirokchilarning harakatlari tadbir rejalariga va rahbarlar ta’sirida boshqariladi. Bunday ommaviy tadbirlarga misol sifatida ijtimoiy-siyosiy tadbirlarni kiritish mumkin.

Tashkillashtirilmagan tadbirlar asosan bir jamoa bo‘lmagan odamlar, boshqarilmaydigan olomon va kichik-kichik guruhlar ishtirokida o‘tkaziladi. Qatnashuvchilarning xulqi bu holatda bir qator tashqi omillar, emotsiyalar ta’sirida tabiiy shakllanadi, ba’zan bunday olomon ichida norasmiy yo‘lboshchi ham paydo bo‘lishi mumkin. Bunda ommaviy tadbirlarga ommaviy-madaniy va sport tadbirlarini, xususan futbol o‘yinlarini, katta konsertlarni misol sifatida keltirish mumkin.

Ommaviy tadbirlar o‘tkazilayotgan hududlarda, ularning atroflarida transport va piyodalarning harakatlanishi butunlay yoki qisman to‘xtaladi, ularning harakat yo‘nalishlari o‘zgartiriladi, jamoat transportlarining bekatlari o‘zgartiriladi, spirtli ichimliklar bilan savdo qilish taqiqlanadi, ayrim turdagi ta’mirlash ishlarini olib borish to‘xtatiladi (qurilish, montaj kabi). Bunday cheklashlar mahalliy xalq deputatlari Kengashining qaroriga asosan o‘rnatiladi.

Ommaviy tadbirlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan belgilanadigan maxsus mo‘ljallangan joylarda, tegishli ruxsatnoma olingandan keyin o‘tkaziladi.

Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishga ruxsatnoma

Ikkinchi toifadagi ommaviy tadbirlarni o‘tkazish uchun ruxsatnomalar tumanlar (shaharlar) hokimliklari tomonidan beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida “Navro‘z”, “Mustaqillik” va “Yangi yil” umumxalq bayramlarini o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlariga muvofiq tashkil qilinadigan ommaviy tadbirlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining qarorlari asosida o‘tkaziladi.

Ruxsatnomalar, odatda, ommaviy tadbir tashkilotchisining arizasida ko‘rsatilgan muayyan tadbirni bir marotaba o‘tkazish uchun beriladi.

Bir qator ommaviy tadbirlar bir turdagi dastur bo‘yicha aynan bitta ommaviy tadbirni o‘tkazish ob’ektida aynan bitta ommaviy tadbirning tashkilotchisi tomonidan o‘tkazilgan taqdirda (kinoseanslar, teatr spektakllari, sirk tomoshalari va shu kabilar) ommaviy tadbir ishtirokchisining arizasiga ko‘ra vakolatli organ tomonidan ommaviy tadbirlarning umumiy sonini ko‘rsatgan holda, bir yilgacha amal qilish muddati bilan, bir qator ommaviy tadbirlarni o‘tkazish uchun yagona ruxsatnoma berilishi mumkin.

Tegishli hujjatlar bilan ruxsatnomalarni berish to‘g‘risidagi arizalarni qabul qilish, ularni ko‘rib chiqish, ruxsatnomalarni berish yoki ruxsatnomalar berishni rad etish, ularni qayta rasmiylashtirish, amal qilish muddatini uzaytirish, to‘xtatib turish, amal qilishini to‘xtatish yoki ruxsatnomani bekor qilish to‘g‘risidagi takliflarni tayyorlash va vakolatli organlar tomonidan ko‘rib chiqishga kiritish, shuningdek ommaviy tadbirlarni tashkil qilish va o‘tkazish tartibiga rioya etilishini nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar (shaharlar) hokimliklari huzurida tashkil qilinadigan ommaviy tadbirlar o‘tkazilishini nazorat qilish komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Komissiyani vakolatli organ rahbarining tegishli o‘rinbosari boshqaradi. Komissiyaning tarkibiga hududiy ichki ishlar organlari, Davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi va boshqa manfaatdor tashkilotlarning vakillari kiradi.

Birinchi toifadagi ommaviy tadbirni o‘tkazish to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqishda komissiya tarkibiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalarining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda xavfsizlikni ta’minlash bo‘linmasi komandiri, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tegishli bo‘linmasining rahbari kiritiladi.

O‘z funksiyalarini bajarishda komissiya bevosita joyiga borgan holda, ommaviy tadbirni o‘tkazish ob’ektining ma’muriyatida va ommaviy tadbirning tashkilotchisida uni o‘tkazish uchun talab qilinadigan sharoitlarni tekshirish, bunday tekshiruvlarni amalga oshirish uchun ishchi guruhlar tashkil qilish, zarur xulosalar va ma’lumotlarni taqdim etish uchun manfaatdor tashkilotlarning malakali mutaxassislari va ekspertlarini belgilangan tartibda jalb qilish huquqiga ega.

Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda fuqarolarning xavfsizligini va jamoat tartibini ta’minlash chora-tadbirlari:

birinchi toifadagi ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda ichki ishlar boshqarmalarining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda xavfsizlikni ta’minlash bo‘linmalari va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining tegishli bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladi;

ikkinchi toifadagi ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda hududiy ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ommaviy tadbirning ahamiyati, xarakteri, ishtirokchilarining soni, ommaviy tadbirni o‘tkazish ob’ektining ko‘lami, xususiyatlariga va boshqa muayyan shartlarga bog‘liq holda, ruxsatnoma shartlariga muvofiq ichki ishlar boshqarmalarining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda xavfsizlikni ta’minlash bo‘linmalari shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining tegishli bo‘linmalari birinchi yoki ikkinchi toifadagi ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda fuqarolarning xavfsizligini va jamoat tartibini ta’minlashga doir chora-tadbirlarni birgalikda amalga oshirishga jalb etilishi mumkin.

2-§. Ichki ishlar organlarining ommaviy tadbirlarni o‘tkazish tartibi va shartlari

Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda ruxsat beruvchi talablar va shartlarga quyidagilar kiradi:

- ommaviy tadbirning ishtirokchisi tomonidan ommaviy tadbirni tayyorlash va o‘tkazishni tartibga soluvchi qoidalar va boshqa qonun hujjatlari normalari talablariga majburiy rioya qilinishi;

- ommaviy tadbirning belgilangan qoidalar talablariga javob beradigan ommaviy tadbirni o‘tkazish ob’ektida o‘tkazilishini ta’minlash;

- ommaviy tadbir o‘tkazilishining joyi va vaqti bo‘yicha boshqa ommaviy tadbir bilan to‘g‘ri kelib qolmasligi;

- jamoat transportining mavjudligi yoki ommaviy tadbir tugagandan keyin ommaviy tadbir tashkilotchisi tomonidan tadbir ishtirokchilarining jamoat transportidan foydalanishlarini ta’minlash;

- ommaviy tadbirning ruxsatnoma shartlariga va ommaviy tadbir dasturiga muvofiq o‘tkazilishi.

- agar ommaviy tadbirning o‘tkazilishi litsenziyalanadigan faoliyat turlarini amalga oshirish va ruxsat berish xususiyatiga ega hujjat olinishini talab qiluvchi harakatlarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lsa, faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirish yoki harakatlarni bajarish huquqini beruvchi litsenziya (ruxsat berish xususiyatiga ega hujjat)ning mavjudligi.

Ommaviy tadbirlarning quyidagi talablarga javob beradigan ommaviy tadbir o‘tkazish ob’ektida o‘tkazilishiga yo‘l qo‘yiladi:

- ommaviy tadbirlarni tayyorlashda va o‘tkazishda ommaviy tadbirni o‘tkazish ob’ekti ma’muriyatining qonun hujjatlari, qurilish normalari va qoidalari, xavfsizlik texnikasi, yo‘l harakati xavfsizligi, jamoat tartibi, yong‘inga qarshi qoidalar, ekologiya va sanitariyagigiena normalari hamda talablariga majburiy rioya qilishi;

- muhandis-texnik, kommunikatsiya, yong‘inga qarshi, evakuatsiya va ommaviy tadbir ishtirokchilarining xavfsizligini ta’minlashning boshqa vositalari va tizimlarini, borish yo‘llari va transport vositalarining to‘xtash joylari, dastlabki tibbiy yordam ko‘rsatish punktlari, shuningdek yong‘in va boshqa favqulodda

vaziyatlarni bartaraf etish uchun zarur bo‘lgan texnik uskuna, maxsus vositalarning hisob-kitob qilingan zaxirasi va turlarining mavjudligi va ishga soz holatdaligi;

- texnik foydalanish qoidalari (muhandislik, qurilish konstruksiyalari va texnik tizimlarning ishonchliligi va barqarorligi), ishtirokchilarni evakuatsiya qilish yo‘llarining belgilangan normativlarga muvofiqligi, yong‘in va sanitariya-epidemiyaga qarshi xavfsizlikni, ommaviy tadbirni o‘tkazishning zarur sport-texnologik shartlarini ta’minlash, shu jumladan:

barcha turdagi texnik xizmatlar uchun xavfsizlik texnikasi yo‘riqnomalari;

xodimlar uchun lavozim yo‘riqnomalari;

yong‘in va boshqa favqulodda vaziyatlarda xodimlar xatti-harakatlarining rejasi.

- ommaviy tadbirni o‘tkazishda ommaviy tadbirni o‘tkazish ob’ektidan foydalanishning umumiy tartibini belgilovchi hujjatlarning mavjudligi, shu jumladan:

mahalliy sharoitlar va o‘ziga xoslikni hisobga olgan holda tegishli hokimlik tomonidan tasdiqlangan ushbu ob’ektda ommaviy tadbirlarni tashkil qilish va o‘tkazishni tartibga soluvchi yo‘riqnoma;

ommaviy tadbirni o‘tkazish ob’ektining hududi bo‘ylab tomoshabinlarning harakatlanishini, tribunalarni to‘ldirish va evakuatsiya qilish yo‘llari, chipta kassalari, ovqatlanish punktlari, garderoblar, dam olish, tibbiy yordam, yong‘inga qarshi jihozlar va uskunalarni joylashtirish joylarini tashkil qilish sxemalari, ommaviy tadbir ishtirokchilarining xatti-harakatlari qoidalari;

ommaviy tadbir ob’ektining ma’muriyati tomonidan tasdiqlangan ommaviy tadbirni o‘tkazishga ommaviy tadbirni o‘tkazish ob’ekti va xizmatlarining tayyorligi to‘g‘risidagi dalolatnoma;

ommaviy tadbir ishtirokchilarining ommaviy tadbirni o‘tkazish ob’ektida o‘zlarini tutish qoidalari;

ommaviy tadbirni o‘tkazish ob’ektiga olib yurilishi taqiqlangan predmetlar ro‘yxati.

- xodimlarni yong‘in va boshqa favqulodda vaziyatlardagi xatti-harakatlarga muntazam o‘qitilishini tashkil qilish.

Sud tomonidan ishga layoqatsiz yoki layoqati cheklangan deb topilgan, sud hukmiga ko‘ra ozodlikdan mahrum etish joylaridagi, yil davomida ommaviy tadbirlarni o‘tkazish qoidalarini buzganlik uchun ma’muriy javobgarlikka takroran tortilgan jismoniy shaxslar, shuningdek faoliyati qonun tomonidan belgilangan tartibda to‘xtatib qo‘yilgan yoki taqiqlangan nodavlat notijorat tashkilotlari ommaviy tadbirlarning tashkilotchilari bo‘la olmaydilar.

Ruxsatnoma olmasdan, shuningdek jamiyatning axloqiy asoslarini, umuminsoniy qadriyatlarni buzishga qaratilgan, konstitutsiyaviy tuzumni noqonuniy o‘zgartirish yoki O‘zbekiston Respublikasining hududiy yaxlitligini buzish, urush, zo‘ravonlik va shafqatsizlik, ijtimoiy, irqiy, millatchilik va diniy adovatni qo‘zg‘ash, qonunda taqiqlangan boshqa harakatlarni sodir etish maqsadidagi ommaviy tadbirlarni o‘tkazish taqiqlanadi.

Ommaviy tadbirlarni o‘tkazilishi qonuniyligi jihatidan ikki turga: ruxsat etilgan va ruxsat etilmagan ommaviy tadbirlarga ajratish mumkin.

Bu turdagi ommaviy tadbirlarni o‘tkazish vaqtida ichki ishlar organlari tomonidan xavfsizlikni va jamoat tartibini saqlash borasidagi ishlar uch bosqichda amalga oshiriladi: tayyorgarlik ko‘rish, o‘tkazish va yakuniy bosqich.

Ruxsat etilgan ommaviy tadbirlarni o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish bosqichida ichki ishlar organlari tomonidan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

– amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlarni tashkillashtirish, nazorat qilish, xizmatga jalb etiladigan kuch va vositalarni boshqarish maqsadida hududiy ichki ishlar organlari qoshida Tezkor shtab va ishchi guruhini ish faoliyatini tashkil etish;

– tadbirning mazmuni, maqsadi, uni o‘tkazish joyi va vaqti, ob’ektdagi sektorlar, minbarlarning sig‘imi, kirish chiqish eshiklarining soni, transport vositalari harakatlanadigan yo‘llar, to‘xtab turish joylari, savdo shoxobchalari soniga aniqlik kiritiladi;

– o‘rab olinadigan hududning chegaralari, qo‘riqlanadigan ob’ekt, xizmat tashkillashtiriladigan joylar, xizmatga jalb etiladigan kuch va texnik vositalar soni, ularning hududlarga, halqalarga, zanjirlarga, doiralarga, sektorlarga, uchastkalarga va postlarga taqsimlanishi, ushbu joylarga biriktirilgan mas’ul rahbar xodimlar, ichki ishlar organlari naryadlarining vazifalariga aniqlik kiritiladi;

– kuch va vositalarni boshqaruv aloqa tizimi ishlab chiqilib, tegishli rahbar va xodimlarga beriladi;

– navbatchilik qismlarida tergov-tezkor guruhlarining navbatchiligi tashkil etiladi;

– zarurati bilan zaxira kuchlari tuziladi;

– zarurati bilan belgilangan kundan boshlab alohida ko‘rsatma bo‘lgunga qadar Ichki ishlar vazirligi, bosh boshqarma, boshqarma, tuman (shahar) va tarmoq ichki ishlar organlari, Ichki qo‘shinlar va o‘quv muassasalarining shaxsiy tarkibi kuchaytirilgan ish tartibiga, zarur hollarda esa kazarma holatiga o‘tkaziladi;

– favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda tomoshabinlar va ishtirokchilarni ob’ektdan evakuatsiya qilish tartibiga aniqlik kiritiladi;

– ommaviy tadbirga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish vaqtida xavfsizlikni ta’minlash, jamoat tartibini saqlash bo‘yicha ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar rejasi, kuch va vositalar taqsimoti, ularni joylashtirish chizmasi ishlab chiqiladi;

– o‘tkazilayotgan tezkor-profilaktik tadbirlarni natijalari umumlashtirilib, Ichki ishlar vazirligi - bosh boshqarma - boshqarma rahbariyati huzuridagi tezkor yig‘ilishlarda muhokama qilib boriladi;

– xizmatga jalb etilayotgan ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibi bilan saf ko‘rigi o‘tkaziladi;

– ommaviy tadbir o‘tkazilishidan kamida bir kun oldin bevosita tadbir o‘tkaziladigan joyda kuch va vositalar bilan yakuniy rekogansirovka o‘tkaziladi;

– ommaviy tadbirlar o‘tkazilishi mobaynida sodir etilgan jinoyatlar, jamoat tartibining ommaviy tartibda buzilishi va boshqa holatlar, shuningdek shaxsiy tarkib bilan bog‘liq bo‘lgan barcha hodisalar yuzasidan Ichki ishlar vazirligi - bosh boshqarma - boshqarma rahbariyatiga zudlik bilan axborot beriladi.

Ruxsat etilgan ommaviy tadbirlarni o‘tkazish bosqichida ichki ishlar organlari tomonidan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

– ommaviy tadbir boshlanishidan oldin xizmatga jalb etilgan kuch va vositalar taqsimot asosida zonalar, uchastkalar, sektorlar, minbarlar, postlar, halqalar, zanjirlar, nazorat o‘tkazish joylari va boshqa postlarga bo‘lingan holda, biriktirilgan rahbar xodimlar boshchiligida saflanib, ular bilan qo‘shimcha ravishda yo‘riqnoma o‘tkaziladi;

– xizmatga jalb etilgan shaxsiy tarkib belgilangan xizmat joylarini egallaganlaridan so‘ng tezkor shtab rahbari va a’zolari tomonidan xodimlarning xizmati qanday tashkil etilganligi, ajratilgan kuch va vositalarning yetarli ekanligi, xodimlarning epikirovkasi, ajratilgan aloqa, transport va boshqa texnik vositalarning sozligi, xodimlarning o‘z xizmat vazifalarini qay darajada bilishlari o‘rganib chiqiladi;

– har bir guruh rahbarining aloqa vositalari bilan, kuzatuv postlari va hujjatlashtirish guruhlarining esa foto-video apparatlar bilan ta’minlanganligi, ularga aloqa chaqiruv nomlari belgilanganligi tekshiriladi;

– ajratilgan zaxira kuchlari biriktirilgan mas’ul rahbar xodim boshchiligida tadbir o‘tkazilayotgan ob’ektga yaqin joylashgan binolarda, maxsus ajratilgan avtobuslarda joylashtiriladi;

– boshqaruv punkti ichki ishlar organlarining maxsus aloqa vositalari bilan jihozlangan avtobusi yoki boshqa turdagi transport vositalarida, shuningdek bevosita tadbir o‘tkazilayotgan, ko‘zga tashlanmaydigan joylarda alohida ajratilgan xonada joylashtiriladi;

– xizmatga jalb etilgan barcha ichki ishlar organlari naryadlarining xizmatini boshqarish, ularning o‘zaro hamkorligini ta’minlash maqsadida boshqaruv punktida patrul-post, yo‘l-patrul, xizmatlari va boshqa xizmatlarning aloqa yo‘nalishlarida ishlovchi aloqa vositalari o‘rnatiladi;

– tadbir davomida ichki ishlar organlari naryadlariga aloqa vositalarida faqat zarur holatlarda foydalanishlari to‘g‘risida ko‘rsatma beriladi.

Ruxsat etilgan ommaviy tadbirlarning yakuniy bosqichida ichki ishlar organlari tomonidan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

– tadbir yakuni bo‘yicha ma’lumotnoma tuzilib, Ichki ishlar vazirligi - bosh boshqarma - boshqarma, tuman (shahar) ichki ishlar organlari rahbarlari huzurida o‘tkazilgan tezkor yig‘ilishda muhokama qilinadi;

– tadbir o‘tkazilishi paytida aniqlangan ayrim muammolarning tegishli idoralar va jamoat tashkilotlari tomonidan hal etilishini ta’minlash maqsadida hokimliklarga asoslangan takliflar kiritiladi;

– tadbir tugagandan keyin belgilangan vaqtda bir soat ichida telefon yoki faks orqali dastlabki, 3 kun muddat ichida esa pochta orqali yakuniy ma’lumotnoma tayyorlanib, axborot uchun Ichki ishlar vazirligi - bosh boshqarma - boshqarma rahbariyatiga taqdim etiladi.

Ruxsat etilmagan ommaviy tadbirni to‘xtatish imkoni bo‘lmagan hollarda ularni o‘tkazish bosqichida ichki ishlar organlari tomonidan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

– fuqarolar to‘plangan joyga kuchaytirilgan tezkor guruh, patrul-post xizmati va milliy gvardiya naryadlari yuboriladi;

– tadbir tashkilotchilari va ishtirokchilarini ularning rejalari va maqsadlarini, yig‘ilganlarning tarkibini aniqlash maqsadida Ichki ishlar vazirligi, bosh boshqarma, boshqarma rahbariyati shaxsan o‘zi voqea joyiga chiqib, jamoat tartibini saqlash bo‘yicha Ichki ishlar organlari naryadlarining xizmatini tashkillashtiradi;

– kelgusida O‘zbekiston Respublikasining qonunlari asosida javobgarlikka tortish masalasini hal qilish uchun ruxsat etilmagan ommaviy tadbir tashkilotchilari va ishtirokchilarining xatti-harakatlari foto-video tasvirga olish yo‘li bilan hujjatlashtiriladi;

– hududiy hokimiyat, prokuratura va boshqa tegishli idoralar vakillari bilan hamkorlikda tadbir tashkilotchilaridan tadbirni to‘xtatish talab qilinib, qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishlari mumkinligi e’lon qilinadi;

– tadbir tashkilotchilari qo‘yilgan talablarni bajarishdan bosh tortgan holda hududiy hokimiyat vakili qaroriga asosan ommaviy tadbirni to‘xtatish va tadbir ishtirokchilarini tarqatish choralari ko‘riladi;

– agar ruxsat etilmagan ommaviy tadbir o‘tkazilishi va jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligiga tajovuz solmasa, tezkor vaziyat hisobga olgan holda, hukumat vakilining qaroriga asosan tadbir tugagunga qadar davom ettirilishi mumkin;

– ko‘riladigan choralar xizmatga jalb qilinadigan kuch va vositalar taqsimoti, ularni joylashtirish, oziq ovqat bilan ta’minlash, shaxsiy tarkibga dam berish va tibbiy ta’minlash masalalariga aniqlik kiritiladi.

Ichki ishlar organlari milliy gvardiyaning tegishli bo‘linmalaridan jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlashda quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirishi talab etiladi:

– bo‘lishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarni, jamoat tartibini va xavfsizligini buzilishlarini oldini olish;

– qatnashchilar va tomoshabinlar tomonidan o‘rnatilgan qoidalarga rioya etilishini ta’minlash;

– jamoat xavfsizligini ta’minlashda boshqa davlat organlariga yordam ko‘rsatish;

– bevosita ommaviy tadbirlar o‘tkazilmayotgan hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash.

Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish chog‘ida ichki ishlar organlari quyidagi huquqlarga ega:

a) tadbir o‘tkaziladigan joyga odamlar xavfsizligiga tahdid qiluvchi buyumlar va ashyolar olib kirilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida qatnashchilar, shu jumladan maxsus texnik vositalar qo‘llanilgan holda, ko‘zdan kechirilishini amalga oshirish;

b) ommaviy tadbirlar tashkilotchilaridan, inshootlar va tadbirlar o‘tkaziladigan boshqa ob’ektlar ma’muriyatidan tegishli ma’lumotlarni talab qilib olish;

v) ob’ektlar ma’muriyatiga ob’ektga keluvchilar, ayniqsa yoshlar va o‘smirlar bilan qatnashchilar va tomoshabinlarning o‘zini tutish qoidalariga rioya etishlari bo‘yicha ko‘rgazmali tashviqot, mahalliy tarmog‘lar va boshqa vositalardan foydalanilgan holda vaqti-vaqti bilan tushuntirish ishlarini olib borish majburiyatini yuklash;

g) inshootlar ma’muriyatning eng tayyorgarlik ko‘rgan xodimlarining kuchlari bilan nazorat o‘tkazish rejimi tashkil etilishini, qatnashchilar va tomoshabinlar ular tomonidan sotib olingan chiptalar, maxsus ruxsatnomalar va taklifnomalarga muvofiq, tribunalar va sektorlarga joylashtirilishini tashkil etishni talab etish huquqlarga ega.

3-§. Ichki ishlar organlarining ommaviy tadbirlarni o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish vaqtida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha asosiy vazifalari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi *(2017-yil 1-may)* qarorida quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning hududiy bo‘linmalarining ommaviy tadbirlarni o‘tkazish jarayonidagi eng muhim vazifalari belgilab berilgan:

– ko‘chalar, maydonlar, istirohat bog‘lari, vokzallar, aeroportlar va boshqa jamoat joylarida, shuningdek ommaviy tadbirlarni o‘tkazish chog‘ida xizmatni o‘tashda fuqarolarning huquq va erkinliklariga so‘zsiz rioya etilishini, ularning sha’ni va qadr-qimmatining hurmat qilinishini, muomala madaniyati va odob-axloq qoidalariga qat’iy amal qilinishini ta’minlash;

– ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ommaviy va boshqa tadbirlarni o‘tkazishda fuqarolar xavfsizligini ta’minlashning yuqori mobilligi va samaradorligini oshirishga imkon beradigan yangi ish usullarini joriy etish, huquq-tartibotning guruhlar tomonidan buzilishi va ommaviy tartibsizliklarning barvaqt oldini olish hamda bartaraf etishning ta’sirchan tizimini shakllantirish.

Shuningdek, ushbu qarorda ichki ishlar organlarining ommaviy tadbirlarni o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish vaqtida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlash faoliyatining asosiy sub’ekti – O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jamoat tartibini saqlash xizmatining asosiy vazifasi sifatida quyidagilar ko‘rsatilgan:

– jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlashni, shu jumladan ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazishda, shuningdek muomalada bo‘lishi cheklangan predmetlar va moddalarni sotib olish, tashish, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanish qoidalari buzilishining oldini olish va ularni bartaraf etish;

– patrul-post va jamoat tartibini saqlash bo‘linmalarining o‘zlariga yuklatilgan vazifalarni samarali bajarishlari hamda davlat organlari va tashkilotlarining ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish borasidagi faoliyatlarini tashkil etish hamda muvofiqlashtirish.

Ichki ishlar organlarning shaxsiy tarkibi Qoraqolpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar va Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmalari, viloyatlar Ichki ishlar boshqarmalari va Transportda xavfsizlikni ta’minlash boshqarmasi, shuningdek patrul-post xizmati saf bo‘linmalari biriktirilgan shahar, tuman (shahar) ichki ishlar boshqarmalari (bo‘limlari) tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan alohida rejalar, kuch va vositalar taqsimoti asosida o‘tkazilishi kutilayotgan ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish davrida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha xizmatga jalb etilishi mumkin.

Ichki ishlar organlarining ommaviy tadbirlarni o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish, o‘tkazish vaqtida va tadbir tugaganidan so‘ng jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) tadbirga tayyorgarlik ko‘rish paytida ommaviy tadbir o‘tkaziladigan ob’ekt va uning atrofida, tadbir qatnashchilari va tomoshabinlar yig‘iladigan hududlarda, transport vositalari to‘xtaydigan bekatlarda, shuningdek nazorat-tekshiruv punktlari va chiptalar sotish joylarida tartib o‘rnatish;

b) tadbir o‘tkazilishi paytida:

– tribunalar, sektorlarda, tadbir qatnashchilari va tomoshabinlar joylashgan boshqa joylarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning spirtli ichimliklarni iste’mol qilishlariga yo‘l qo‘ymaslik, ularning sahnaga, futbol maydonlari, chopish yo‘laklariga va ruxsat etilmagan boshqa joylarga chiqishlariga yo‘l qo‘ymaslik;

– belgilangan hududda bo‘lish va ruxsatsiz tashlab ketmaslik;

– tadbir davomida o‘z oldiga qo‘yilgan vazifani aniq bilish hamda puxta va sifatli bajarilishini ta’minlash;

– ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari, mahalla posbonlari va boshqa jamoatchilik vakillari bilan hamkorlikda jamoat tartibining buzilishi hollarini oldini olish;

– o‘rab olingan hududga chiptasi, taklifnomasi yoki maxsus ruxsatnomasi bo‘lmagan shaxslarni o‘tkazmaslik;

– o‘rab olingan hududga o‘zini boshqara olmaydigan darajada mastlik holatidagi yoki yonida spirtli ichimliklar bo‘lgan fuqarolarni, shuningdek o‘qotar quroli, katta hajmdagi yuki, jomadoni va tugunlari bo‘lgan fuqarolarni o‘tkazmaslik;

– transport vositalari va yo‘lovchilarning harakatlarini cheklash;

– o‘rab olingan hududdan ruxsat etilmagan fuqarolarni chiqarish;

– tadbir o‘tkaziladigan joy va unga tutashgan hududlarda jamoat tartibi va xavfsizlikni ta’minlash;

– tadbirlar davomida sodir etilishi ehtimoli bo‘lgan huquqbuzarliklar, terrorchilik harakatlari hamda jamoat tartibining buzilishi hollarini oldini olish;

– tadbir qatnashchilari va tomoshabinlarning belgilangan tartib-qoidalarga amal qilishlarini ta’minlash;

– tadbir o‘tkazilayotgan joyda jamoat tartibining buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik.

v) tadbir tugaganidan so‘ng:

– tadbir qatnashchilari va tomoshabinlarning tadbir o‘tkazilgan joydan tartib bilan chiqishlarini ta’minlash, ularni transport vositalarining to‘xtash bekatlarigacha kuzatish va o‘tqazib yuborish hamda asosiy harakatlanish yo‘llarida jamoat tartibini saqlash;

– transport vositalari va yo‘lovchilarning harakatini cheklashni bekor qilish;

– tadbir davomida ish faoliyati to‘xtatilgan savdo, tomosha va boshqa tashkilotlariga o‘z ish faoliyatini davom ettirishga to‘sqinlik qilmaslik.

Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish vaqtida xizmatga jalb etilgan ichki ishlar organlari bo‘linmalari shaxsiy tarkibining ish faoliyatini umumiy boshqarish funksiyasi ushbu tadbir bo‘yicha ichki ishlar organlari huzurida tuzilgan tezkor shtab rahbari zimmasiga yuklatiladi. Ichki ishlar organlari bo‘linmalari rahbarlari oldiga esa tadbirga jalb etilgan shaxsiy tarkibning xizmatini belgilangan yo‘nalishlarida tashkillashtirish va nazorat qilish, aniqlangan kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish vazifasi qo‘yiladi.

Ommaviy tadbirni o‘tkazish vaqtida xizmatga jalb etiladigan ichki ishlar organlari bo‘linmalari shaxsiy tarkibi bilan yo‘riqnomalar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar va Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmalari, viloyatlar Ichki ishlar boshqarmalari va Transportda xavfsizlikni ta’minlash boshqarmasi, shuningdek patrul-post xizmati saf bo‘linmalari biriktirilgan tuman (shahar) ichki ishlar boshqarmalari (bo‘limlari) boshliqlari yoki ularning o‘rinbosarlari tomonidan imkoniyat darajasida tadbir o‘tkaziladigan joyda o‘tkaziladi. Yo‘riqnoma paytida mas’ul rahbar xodim tomonidan xizmatga jalb etiladigan har bir rahbar va xodimning xizmat joyi, xizmat hududi chegarasi, jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlash yuzasidan vazifasi, nimalarga alohida e’tiborni qaratishi lozimligi bo‘yicha aniq vazifalar belgilab beriladi.

Ommaviy tadbir o‘tkazilishi mobaynida xizmatga jalb etilgan shaxsiy tarkibga tabel quroli berilmaydi.

Favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda, kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalarni amalga oshirish maqsadida tezkor vaziyatdan kelib chiqqan holda zaxira kuchlari tarkibida tabel quroli bilan qurollangan kuchaytirilgan tarkibdagi bittadan uchtagacha avtopatrullar tashkil etilishi mumkin.

Ommaviy tadbir tugaganidan so‘ng tadbirga jalb etilgan barcha kuch va vositalar saflanib, tadbirni o‘tkazishga mas’ul etib tayinlangan rahbar xodim tomonidan tadbir natijalari muhokama qilinadi, xodimlar tomonidan yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar aniqlanib, kelgusida bunday kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik choralari belgilanadi.

Savol va topshiriqlar

1. Ommaviy tadbir nima?
2. Ommaviy tadbirlar turlari?
3. Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishga ruxsat berish tartibi?
4. Ruxsat etilgan ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda ichki ishlar organlari qanday chora-tadbirlar amalga oshirishi kerak?
5. Ruxsat etilmagan ommaviy tadbirlarni o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rishda ichki ishlar organlari tomonidan qanday chora-tadbirlar amalga oshiriladi?
6. Ommaviy tadbirlar o‘tkazilayotganda jamoat tartibini saqlashni samarali ta’minlashga xizmat qiluvchi omillar.
7. Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish, o‘tkazish va tadbir yakunlanganda jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari.

XIV BOB ICHKI ISHLAR ORGANLARINING FAVQULODDA VAZIYATLAR SHAROITIDAGI FAOLIYATI

1-§. Favqulodda vaziyatlar tushunchasi, turlari hamda ularning jamoat tartibi va xavfsizligiga ta’siri

Favqulodda holat va favqulodda vaziyatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining normal jarayonini ishdan chiqaruvchi hamda jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlashni juda qiyinlashtiruvchi alohida toifasini tabiiy ofatlar, katta sanoat va transport ob’ektlarida falokat va halokatlar yuzaga kelishi bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlar, shuningdek sanitariya-epidemiologiya sohasidagi favqulodda hodisalar tashkil etadi. Ular ko‘pincha odamlarning qurbon bo‘lishi, katta moddiy zarar yetkazilishi hamda jiddiy ijtimoiy-ekologik oqibatlar bilan kechadi. Favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi ichki ishlar organlari faoliyatini alohida sharoitda tashkil etishga sabab bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-avgustdagi “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-790-son qonuni qabul qilindi. Qonunni qabul qilishdan maqsad aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdir.

Qonunda favqulodda vaziyatlarga quyidagi tushunchalar berilgan:

tabiiy ofatlar - iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq, shuningdek geologik (zilzila, yer va tosh ko‘chkilari, o‘pirilishlar), meteorologik (kuchli shamol, kuchli jala, do‘l, qor ko‘chkisi, qurg‘oqchilik) va gidrologik (sel, suv toshqinlari) ofatlar, tabiiy yong‘inlar (dasht va o‘rmon yong‘inlari);

tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar - muayyan hududda odamlar qurbon bo‘lishiga, odamlarning sog‘lig‘iga yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishiga, jiddiy moddiy talafotlarga hamda odamlarning hayot faoliyati sharoitlari buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy ofat yoki boshqa ofat natijasida, karantinli va inson uchun xavfli bo‘lgan boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishi natijasida yuzaga kelgan vaziyatlar;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish - favqulodda vaziyatlar ro‘y berganda o‘tkaziladigan hamda odamlarning hayotini asrab qolishga va sog‘lig‘ini saqlashga, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorlarini kamaytirishga, shuningdek favqulodda vaziyatlar zonalarining kengayishiga yo‘l qo‘ymaslikka hamda xavfli omillar ta’sirini tugatishga qaratilgan qutqaruv ishlari va kechiktirib bo‘lmaydigan ishlar majmui;

favqulodda vaziyat zonasi -favqulodda vaziyat manbai yuzaga kelganligi oqibatida odamlar qurbon bo‘lishi, ularning sog‘lig‘iga yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishi xavfi mavjud bo‘lgan yoki uning ta’sirida jiddiy moddiy talafotlar ko‘rilgan, shuningdek odamlarning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan hudud;

favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish - favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha tadbirlar majmui, vositalar hamda usullar tizimi;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish - oldindan o‘tkaziladigan hamda favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro‘y bergan taqdirda esa odamlarning hayotini asrab qolishga va sog‘lig‘ini saqlashga, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorlarini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar majmuidir[19].

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 171-son qarori qabul qilindi. Bundan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimining tarkibini, asosiy maqsadi va vazifalarini, tashkiliy-funksional tuzilmasini hamda faoliyat ko‘rsatish tartibini O‘zbekiston Respublikasi belgilaydi.

Favqulodda holat O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining hayotiga, sog‘lig‘iga va xavfsizligiga, O‘zbekiston Respublikasining konstitusiyaviy tuzumiga yoki hududiy yaxlitligiga bevosita tahdid soladigan hamda favqulodda choralar qo‘llamasdan bartaraf etish mumkin bo‘lmagan holatlar mavjud bo‘lgan taqdirda, alohida hollarda joriy etiladi. Bunday holatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

real tashqi xavf, O‘zbekiston Respublikasining konstitusiyaviy tuzumini yoki hududiy yaxlitligini zo‘rlik bilan o‘zgartirishga urinishlar, ommaviy tartibsizliklar, terrorchilik harakatlari, shuningdek zo‘ravonlik harakatlari bilan bir vaqtda yuz beradigan, fuqarolarning hayotiga, sog‘lig‘iga va xavfsizligiga, davlat organlarining, boshqa tashkilotlarning kundalik faoliyatiga bevosita tahdid soluvchi o‘ta muhim hamda toifalangan ob’ektlarni yoki ayrim joylarni to‘sish yoki bosib olish, qonunga xilof qurolli tuzilmalarni tayyorlash (tashkil etish) va ularning faoliyati, millatlararo, konfessiyalararo va chegaraviy nizolar;

keng qamrovli avariya-qutqaruv ishlari va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlar amalga oshirilishini talab etadigan yirik halokatlar, tabiiy ofatlar, epidemiyalar hamda boshqa tabiiy va texnogen xususiyatga ega favqulodda vaziyatlar, favqulodda ekologik vaziyatlar.

Favqulodda vaziyatlar ijtimoiy, tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatga ega bo‘lgan hodisalar tufayli kelib chiqishi mumkin.

Ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lgan hodisalarni kriminal va nokriminal xususiyatga ega bo‘lgan hodisalarga ajratish rasm bo‘lgan. Kriminal hodisalarga ommaviy tartibsizliklar, davlat ob’ektlari va boshqa muhim ob’ektlarni bosib olish, transport aloqalarini cheklash jinoyatchilarning ozodlikdan mahrum etish joylaridan va qo‘riqlab borilayotgan vaziyatda guruh bo‘lib hamda qurol bilan qochishi, odamlarni garovga olish, havo kemasini, suv transporti va temir yo‘lning harakatdagi tarkibini egallab olish va olib qochish, terrorchilik harakatlari va boshqalar kiradi[20].

---

[19] O‘zbekston Respublikasining 2022-yil 17-avgustdagi “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-790-son qonuni.

[20] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 171-son qarori.

Nokriminal hodisalarga havo va temir yo‘l transportidagi, avtotransport vositalari bilan sodir etilgan katta avariyalar, katta imorat va binolarning qulashi kabi hodisalar kiradi.

Ekologik xususiyatga ega bo‘lgan hodisalarga quruqlik (tuproq, yer osti, landshaft), yer atmosferasi, gidrosferasi, biosferasi holati va xossalarining xavfli darajada o‘zgarishi kiradi. Ular ekologik ofat – atrof tabiiy muhitning aholi sog‘lig‘ining jiddiy yomonlashuvi, tabiiy muvozanatning buzilishi, tabiiy ekologik tizimlarning barbod bo‘lishi, nabotot va hayvonot dunyosiga putur yetishiga olib kelgan qaytarilmas chuqur o‘zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Tabiiy xususiyatga ega bo‘lgan hodisalarga geologik, gidrologik, biologik va meteorologik sabablarga ko‘ra kelib chiqqan hodisalar kiradi. O‘zbekiston Respublikasida ulardan zilzilalar, suv toshqinlari, o‘pirilish va ko‘chkilar, bo‘ronlar va quyunlar, qor uyumlari va ko‘chkilari, sellar, tabiiy yong‘inlar, qurg‘oqchilik, shuningdek, o‘ta xavfli ommaviy epidemiya, epizootiya va epifitotiyalar eng katta xavf tug‘diradi.

Tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlar – tabiat kuchlari sababli kelib chiqadigan hamda odamlar xohishi va faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan, inson va u yashaydigan muhit uchun xavfli bo‘lgan hodisalarning yuzaga kelishidir.

Tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlarga quyidagilar kiradi:

– zilzila;
– suv toshqini;
– sel kelishi;
– qor ko‘chishi;
– epidemiya;
– epizootiya;
– epifitotiya va boshqalar.

Buzg‘unchilik kuchi va oqibatlarining og‘irligi bo‘yicha eng xavfli tabiiy ofatlarga zilzila va suv toshqinlari kiradi. Zilzila natijasida, odatda, aholi punktlari, shahar kommunikatsiyalari, yo‘llar, ko‘priklar, asosiy neft va gaz quvurlari, elektr uzatish tarmoqlari kabilar to‘liq yoki qisman buziladi. Yer qimirlashi oqibatida, qurbonlar berilishi va inshootlarning buzilishidan tashqari, tirik qolgan odamlarda kuchli ruhiy larza yoki shok kelib chiqadi, jamiyat faoliyatining turli sohalarida boshqaruv buziladi, shaxsiy mulk va davlat mulki ko‘p miqdorda yo‘qotiladi, aholini oziq-ovqat, suv va eng zarur narsalar bilan ta’minlash tizimi izdan chiqadi, transport ishi to‘xtab qoladi, jinoyatchilik (talon-torojlik, moradyorlik kabilar) darajasi, epidemiyalar kelib chiqish imkoniyati ortadi.

Yana bir dahshatli tabiiy ofat suv toshqinlari bo‘lib, ular daryolar va har xil suv havzalari mavjud bo‘lgan joylarda yuz berishi mumkin. Toshqinlar bino va inshootlarning vayron bo‘lishi yoki buzilishi, qishloq xo‘jalik ekinlarining yo‘q qilinishi, temir yo‘l tarmoqlari va avtomobil trassalari, ko‘priklar, elektr uzatish tarmoqlari va boshqa xalq xo‘jaligi ob’ektlarining buzilishiga olib keladi. Jala, tuproq ko‘chkisi (o‘pirilish) yoki sellar tufayli kelib chiqadigan kutilmagan yoki oldindan bilib bo‘lmaydigan toshqinlar eng xavfli bo‘lib, daryoning yuqori qismida suv sathining keskin ko‘tarilishiga olib keladi. Toshqinlarni avariya yoki qo‘poruvchilik natijasida gidrotexnika inshootlari (to‘g‘on, damba kabilar)dagi

falokat keltirib chiqarishi mumkin. Bunday hollarda tayyorgarlik tadbirlari o‘tkazish mumkin bo‘lmaganligi sababli, yo‘qotishlar ayniqsa, katta bo‘lishi mumkin. Bunda, xuddi zilzilada bo‘lgani kabi, operativ vaziyat murakkablashadi, ko‘plab mulkiy jinoyatlar sodir etiladi. Evakuatsiya tufayli aholini yordamga jalb qilish imkoniyati ancha kamayadi, lekin zilziladan farqli ravishda, toshqin, tog‘lardan sel oqimlari kelishini oldindan aniqlash imkoniyati mavjud. Demak, aholini, moddiy va boshqa boyliklarni ko‘chirish uchun oldindan zarur choralar ko‘rish, yetkazilishi mumkin bo‘lgan zarar miqdorini kamaytirish uchun profilaktik tadbirlar majmuini amalga oshirish mumkin.

Biologik hodisalar keltirib chiqaradigan tabiiy favqulodda vaziyatlar aholining hayoti va sog‘lig‘i uchun jiddiy xavf tug‘diradi. Ular orasida eng ko‘p tarqalgan va xavflilari epidemiya va epizootiyalardir. Epidemiyalar deganda, odamlarning o‘limga olib keladigan va muayyan hududni zararlaydigan turli xavfli yuqumli kasalliklar bilan yoppasiga zararlanishi tushuniladi. Bunday kasalliklarga o‘lat, qora chechak, vabo, kuydirgi, tepkili terlama kabilar kiradi.

Qishloq xo‘jaligiga epizootiyalar katta zarar keltiradi. Ularga mollarning ommaviy yuqumli kasalliklari bo‘lgan oqsim, kuydirgi, quturish, o‘lat, chechak kabilar kiradi. Bu kasalliklar bilan kasallangan hayvonlar bilan aloqaga kirishganda va zararlangan chorva mahsulotlarini ovqatga ishlatganda odamlar uchun jiddiy xavf tug‘diradi. Shu bois epizootiyalar chog‘ida veterinar shifokorlar ichki ishlar organlari va boshqa davlat organlari bilan hamkorlikda ommaviy kasallanish tarqalishining oldini olish borasida profilaktik tadbirlar majmuini amalga oshiradilar: o‘lgan hayvonlarning jasadlari yo‘q qilinadi, zararlangan hududda karantin belgilanadi va har xil cheklov tartiblari joriy etiladi.

Oqibatlarining va yetkazadigan zararining og‘irligi bo‘yicha tabiiy ofatlarga eng yaqini texnogen, ya’ni katta sanoat va transport halokatlaridir. Ular ko‘pincha odamlarning aybi bilan, aniqrog‘i, jinoiy mas’uliyatsizlik yoki tegishli mansabdor shaxslarning o‘ziga ortiqcha ishonishlari yoki terrorchilarning ekstremistik harakatlari natijasida kelib chiqadi.

tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar — muayyan hududda odamlar qurbon bo‘lishiga, odamlarning sog‘lig‘iga yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishiga, jiddiy moddiy talafotlarga hamda odamlarning hayot faoliyati sharoitlari buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy ofat yoki boshqa ofat natijasida, karantinli va inson uchun xavfli bo‘lgan boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishi natijasida yuzaga kelgan vaziyatlar[21].

Tabiiy ofatlar, texnogen falokatlar va halokatlar, epidemiya hamda boshqa biologik hodisalar ko‘plab odamlarning hayoti va sog‘lig‘iga haqiqiy xavf soladi, moddiy boyliklarni yo‘q qiladi, jamoat tartibini saqlash va maxsus huquqiy tartib xavfsizligi uchun favqulodda sharoit tug‘diradi.

[21] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 171-son qarori

2-§. Aholini favqulodda vaziyatlardan himoya qilish tizimi va ichki ishlar organlarining bu sohadagi vazifalari

Mustaqillik yillarida favqulodda holat va vaziyatlarda mavjud kuch va vositalar faoliyatini tartibga soluvchi o‘ziga xos qonunchilik bazasi shakllandi. Unda O‘zbekiston Respublikasining (*2021-yil 15-dekabr*) “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi konstitusiyaviy qonuni va (*2022-yil 17-avgust*) “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunlari o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, u aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni kompleks jihatdan tartibga soluvchi asosiy qonun hisoblanadi.

Qonunda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning asosiy prinsiplari insonparvarlik, inson hayoti va sog‘lig‘ining ustuvorligi, oshkoralik, axborotning o‘z vaqtida berilishi va ishonchli bo‘lishi, favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish choralarining oldindan ko‘rilishi aniq ko‘rsatilgan.

Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi axborot, agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, oshkora bo‘ladi.

Davlat hokimiyat va boshqaruv organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek korxona, muassasa va tashkilotlar rahbarlari aholining va hududlarning favqulodda vaziyatlardan muhofazalanish holati hamda ularning xavfsizligini ta’minlash yuzasidan ko‘rilgan choralar haqida, oldindan bashorat qilinayotgan va ro‘y bergan favqulodda vaziyatlar to‘g‘risida, ulardan aholini muhofaza qilishning usul va yo‘llari haqida ommaviy axborot vositalari hamda boshqa kanallar orqali aholini o‘z vaqtida va ishonchli tarzda xabardor etishlari shart.

Mansabdor shaxslar tomonidan aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi axborotning yashirilishi, o‘z vaqtida taqdim etilmasligi yoki bila turib yolg‘on axborot taqdim etilishi ularning qonun hujjatlariga muvofiq javobgarligiga sabab bo‘ladi.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimliklarining, vazirlik va idoralarning, korxona, muassasa va tashkilotlarning boshqaruv organlari, kuchlari hamda vositalaridan iborat[22].

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi tarkibi va faoliyat ko‘rsatishi tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha maxsus vakolatli davlat boshqaruv organi O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligidir.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi:

– favqulodda vaziyatlarning oldini olish, bunday vaziyatlarda odamlarning hayotini asrab qolish va sog‘lig‘ini saqlash, moddiy va madaniy boyliklarni

[22] O‘zbekston Respublikasining 2022-yil 17-avgustdagi “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-790-son qonuni.

muhofaza qilish, shuningdek favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish va zararini kamaytirish yuzasidan choralar ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

– aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida maxsus dasturlar ishlab chiqilishi va ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilishini tashkil etadi;

– o‘z vakolati doirasida vazirlik va idoralar, korxona, muassasa va tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar qabul qiladi;

– boshqaruv organlarining, aholini va hududlarni muhofaza qilish kuchlari va vositalarining favqulodda vaziyatlar sharoitida harakat qilishga tayyor bo‘lishini tashkil etadi;

– favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish kuchlari va vositalari boshqaruvini amalga oshiradi, boshqaruv punktlari, xabar berish va aloqa tizimlarini tuzadi;

– favqulodda vaziyatlar sharoitida avariya-qutqaruv ishlari va kechiktirib bo‘lmaydigan boshqa ishlar o‘tkazilishini tashkil etadi;

– aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlari bajarilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

– ishlab chiqarish va ijtimoiy ob’ektlar bo‘yicha loyihalar va qarorlar yuzasidan davlat ekspertizasi o‘tkazilishida ishtirok etadi;

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Ichki ishlar organlarini favqulodda vaziyatlar sharoitida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitusiyaviy tuzumni himoya qilish, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta’minlash, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasidan iborat umumiy vazifani bajarish bilan bog‘liq.

Qonunning 38-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda quyidagi asosiy vazifalari belgilangan:

Jumladan:

- favqulodda vaziyat zonasida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish;
- aholini xabardor qilish, hududdagi zarur uchastkalarni o‘rab olish (to‘sib qo‘yish) bo‘yicha choralar ko‘rish, qarovsiz qolgan mol-mulkni qo‘riqlash;
- sog‘liqni saqlash organlari bilan birgalikda favqulodda vaziyatlarda halok bo‘lgan odamlarning hisobini yuritish favqulodda vaziyatlar sharoitida ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: maxsus huquqiy rejim; yangi tuzilmalar, boshqaruv va aloqa tizimini yaratish, shuningdek, qo‘shimcha kuch va vositalarni jalb qilish hamda bir qator hollarda maxsus operatsiyalar o‘tkazish[23].

Favqulodda vaziyatlar sharoitida ichki ishlar organlarining tayyorligini va samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash maqsadida operativ shtablar tashkil qilinadi. Bunday shtablarga ichki ishlar organlarining vakolatiga kiruvchi vazifalarni

[23] O‘zbekston Respublikasining 2022-yil 17-avgustdagi “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-790-son qonuni.

bajarayotganida ichki ishlar organining boshlig‘i rahbarlik qiladi.

Favqulodda vaziyatlar sharoitida yuzaga keladigan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun yaqin atrofdagi ichki ishlar organlarining qo‘shimcha kuch va vositalari, operativ maqsadlarga xizmat qiladigan qo‘shilmalar va harbiy qismlar hamda O‘zbekiston Respublikasi IIV maxsus bo‘linmalari, yong‘in xavfsizligi xizmatining bo‘linmalari, patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash qismlari jalb etiladi.

Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2019-yil 31-oktabrdagi “Ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish davomida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlashni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi 351-son buyrug‘iga asosan IIO xodimlari va FVVning tegishli tarkibiy bo‘linmalarining belgilangan muddatlarda hamkorlikdagi ishtiroki ta’minlanadi, jumladan:

favqulodda vaziyatlar, shu jumladan yonginlarni yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan xavflar va tahdidlar barvaqt aniqlanadi hamda profilaktikasi amalga oshiriladi, shuningdek yongin xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ishlar tashkil qilinadi;

ommaviy tadbirlar o‘tkaziladigan ob’ektda tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning, shu jumladan yonginlarning oldini olish borasida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda profilaktik ko‘riklar amalga oshiriladi,

ommaviy tadbirlar o‘tkaziladigan ob’ektlardagi rahbarlar tarkibi va qutqaruv guruhlari shaxsiy tarkibiga favqulodda vaziyatlarda harakat qilish hamda ommaviy tadbirlardagi chiqishlarda qatnashuvchi san’atkorlar, sportchilar va boshqa shaxslarga ommaviy tadbirlarni o‘tkazish davrida yuzaga kelish ehtimoli bo‘lgan favqulodda vaziyatlarda harakatlanish bo‘yicha yo‘riqnoma beriladi; ommaviy tadbirlarni o‘tkazish davrida ob’ektda radiatsion kimyoviy hamda biologik (bakteriologik) muhofaza ishlari amalga oshiriladi[24].

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarni bartaraf etishning yagona davlat tizimi doirasida Ichki ishlar vazirligining zimmasiga quyidagi ishlarni bajarish yuklatilgan:

favqulodda vaziyatlarda jamoat tartibini hamda moddiy va madaniy boyliklarning qo‘riqlanishini ta’minlash, yong‘inning oldini olish va uni o‘chirishni tashkil qilish hamda u bilan bog‘liq birinchi navbatda bajariladigan qutqaruv ishlarini o‘tkazish;

yong‘inga qarshi hamda qutqaruv ishlarini bajaruvchi, jamoat tartibini muhofaza qiluvchi funksional kichik tizimlarni tashkil qilish hamda ularning faoliyatiga rahbarlik qilish.

Alohida sharoitlarda O‘zbekiston Respublikasi IIV tadbirlarning bir qismini boshqa idoralar (Davlat xavfsizlik xizmati, Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi) bilan hamkorlikda amalga oshiradi. Bularga quyidagi tadbirlar kiradi:

jamoat tartibining muhofaza qilinishini kuchaytirish, o‘ta muhim

[24] O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2019-yil 31-oktabrdagi “Ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish davomida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlashni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi 351-son buyrug‘i.

ob'ektlarning qo'riqlanishi va mudofaasini kuchaytirish, millatlararo to'qnashuvlarda qarama-qarshi taraflarni ajratish, avariya-qutqaruv ishlarini tashkil qilish va o'tkazish, yong'inlarning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik va ularni o'chirishni tashkil qilish, jinoyatchilar bilan muzokaralar olib borish, g'ayriqonuniy ravishda tuzilgan qurolli tuzilmalarni qurolsizlantirish, jangovar (kuchga asoslangan), rejimli-to'suvchi, operativ qidiruv harakatlar ishlariga oshirish, o'rab olingan ob'ektga yoki alohida hududga yo'l ochish, portlovchi qurilmalar (moddalar, o'q-dorilar)ni zararsizlantirish, aholini xavfsiz joyga ko'chirish, jabrlanganlarni kuzatib borish, g'ayriqonuniy harakatlarni hujjatlashtirish.

Ichki ishlar organlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari quyidagilardan iborat:

– o'z tasarrufidagi korxona, muassasa va tashkilotlarning favqulodda vaziyatlar sharoitida harakat qilishga shay bo'lib turishini ta'minlashlari;

– tarmoqning va o'z tasarrufidagi ob'ektlarning favqulodda vaziyatlar sharoitida barqaror ishlash imkoniyatini oshirish tadbirlarini ishlab chiqishlari va amalga oshirishlari;

– favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha harakatlar rejasini, nizomlar, qoidalar va yo'riqnomalarni kelishib olish uchun O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga taqdim etishlari;

– o'z tasarrufidagi ob'ektlar xodimlarini qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari tarkibida favqulodda vaziyatlarda muhofazalanish usullariga va harakat qilishga o'rgatishlari;

– favqulodda vaziyatlar to'g'risida xabar berish mahalliy tizimlarini yaratishlari va ularni doimo shay holatda saqlab turishlari;

– aholining va hududlarning muhofazalanish holati to'g'risida belgilangan tartibda axborot berishlari, shuningdek tarmoq xodimlarini favqulodda vaziyat tahdidi borligi to'g'risida xabardor qilishlari;

– moddiy va moliyaviy resurslar rezervlarini yaratishlari;

– favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish rejalariga muvofiq o'z tasarrufidagi ishlab chiqarish va ijtimoiy ob'ektlarda hamda ularga tutash hududlarda avariya, qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlar tashkil etilishi, moliyalanishi va o'tkazilishini ta'minlashlari;

– o'ta muhim ob'ektlar va ularning xodimlarini favqulodda vaziyatlar sharoitida o'z faoliyatlarini davom ettirishlari ta'minlanadigan punktlarga evakuatsiya qilish tadbirlarini amalga oshirishlari;

– favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish maxsus kuchlari va vositalari tashkil etilishini, tayyorgarlikdan o'tkazilishini va shay bo'lib turishini ta'minlashlari;

– o'z tasarrufidagi ob'ektlar loyihalanishi, qurilishi va rekonstruksiya qilinishi chog'ida aholini va hududlarni muhofaza qilish masalalariga oid talablar bajarilishini nazorat qilib borishlari;

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishlari shart.

Ichki ishlar organlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ro'yxati belgilab qo'yiladigan, potensial xavf manbai bo'lgan ob'ektlarda

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassislar shtat lavozimlarini joriy etadilar. Boshqa ob’ektlarda esa mas’ul shaxslar tayinlanadi.

3-§. Ichki ishlar organlarining favqulodda vaziyatlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash faoliyatini tashkil etish

Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganida, O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq, davlat hokimiyati organlari, korxona, muassasa va tashkilotlar faoliyati uchun fuqarolar, shuningdek yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari muayyan darajada cheklanishiga yo‘l qo‘yadigan alohida huquqiy tartib joriy etilishi mumkin.

Jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlashning asosiy sub’ektlaridan biri ichki ishlar organlari bo‘lib, ularning asosiy majburiyat va huquqlari quyidagicha:

ichki ishlar organlari, o‘zining asosiy vazifalarini bajarishidan tashqari, falokatlar, halokatlar, tabiiy ofatlar va boshqa favqulodda holatlarda odamlarni qutqarish va ularga zarur yordam ko‘rsatish bo‘yicha kechiktirib bo‘lmas choralar ko‘rishi, barcha toifalardagi mulkdorlarning qarovsiz qolgan mulkini qo‘riqlashi, qonunga muvofiq, favqulodda holat huquqiy tartibini ta’minlashda, shuningdek epidemiya va epizootiyalar vaqtida qo‘riqlash-karantin tadbirlarini o‘tkazishda ishtirok etishi shart.

Bundan tashqari, ichki ishlar organlari tegishli rahbar yoki uning o‘rinbosari qaroriga muvofiq, tabiiy ofatlar, falokatlar va halokatlar oqibatlarini bartaraf etish, qo‘riqlash-karantin tadbirlari o‘tkazish chog‘ida, joy hududini o‘rab olishi yoki to‘sib qo‘yishi, zarur bo‘lsa, transport vositalarini ko‘zdan kechirishi kerak. Ushbu vazifalarni bajarish uchun Ichki ishlar vazirligi bo‘linmalariga favqulodda holat tartibi sharoitida tegishli vakolatlar berilgan bo‘lib, ular ushbu vakolatlardan faqat qonun doirasida foydalanishlari kerak.

Ichki ishlar organlari bevosita fuqarolarga yoki umuman jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish hamda ularga chek qo‘yishga qaratilgan davlat-hokimiyat choralarini qo‘llashlari mumkin. Ularga quyidagilar kiradi: yashash va xizmat xonalariga kirish huquqi, hujjatlarni tekshirish, davlat, jamoat va shaxs transportidan foydalanish, qurol va maxsus vositalar ishlatish, huquqbuzarlarni ushlab turish huquqlari va boshqalar.

Ichki ishlar organlarining mazkur vaziyatdagi faoliyatini shartli ravishda uchta o‘zaro bog‘liq guruhga bo‘lish mumkin:

1) ehtimol tutilgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish;

2) favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganida qonunlarda nazarda tutilgan huquqiy tartibga solish va ta’sir ko‘rsatish choralari majmuidan foydalangan holda jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash;

3) aholiga hamda korxona va muassasalarning tegishli mansabdor shaxslariga odamlarni qutqarish va egasiz mulkni qo‘riqlashda yordam berish, zarur bo‘lganida esa bu ishda bevosita ishtirok etish[25].

[25] O‘zbekston Respublikasining 2022-yil 17-avgustdagi “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-790-son qonuni.

Ushbu vazifalarni bajarish borasidagi ishlarning asosiy qismi ichki ishlar organlariga to‘g‘ri keladi. Mazkur vaziyatda jamoat tartibini saqlash xizmati ichki ishlar organlarining alohida sharoitlarda faoliyat ko‘rsatadigan asosiy tashkiliy-tahliliy va muvofiqlashtiruvchi xizmatlardan biri hisoblanadi.

Favqulodda vaziyatlarda ichki ishlar organlarining faoliyatini tashkil qilishning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

– maxsus huquqiy rejim sharoitida faoliyat yuritish;

– yangi tuzilmalar, boshqaruv va aloqa tizimini yaratish;

– qo‘shimcha kuch va vositalarni jalb qilish hamda zarur hollarda maxsus operatsiyalar o‘tkazish.

Favqulodda vaziyatlarda ichki ishlar organlarining tayyorligini va samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash maqsadida operativ shtablar tashkil qilinadi. Bunday shtablarga ichki ishlar organlarining vakolatiga kiruvchi vazifalarni bajarayotganida ichki ishlar organining boshlig‘i rahbarlik qiladi.

Bundan tashqari, ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibidan iborat maxsus bo‘linmalar (maxsus yig‘ma otryad) tuziladi, maxsus guruhlar shakllantiriladi.

Favqulodda vaziyatlarda yuzaga keladigan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun yaqin atrofdagi ichki ishlar organlarining qo‘shimcha kuch va vositalari, operativ maqsadlarga xizmat qiladigan qo‘shilmalar va harbiy qismlar hamda O‘zbekiston Respublikasi qo‘shinlarining maxsus harbiy qismlari, yong‘in xavfsizligi xizmatining bo‘linmalari, patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash qismlari jalb etiladi.

Favqulodda vaziyatlarda ichki ishlar organlari samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash maqsadida maxsus boshqaruv punktlari tashkil qilinadi, ularning ish tartibi belgilanadi hamda aloqa jadvali va uni amalga oshirish shartlari, axborot almashish qoidalari, aloqa texnik vositalarining hisoblarini o‘z ichiga oladigan maxsus aloqa tartibi ishlab chiqiladi. Bundan tashqari barcha kuch va vositalarning hamkorligi tashkil qilinadi[26].

Ayrim hollarda maxsus sharoitlarda operativ vaziyatni normallashtirishning zaruriy va samarali vositasi maxsus operatsiya bo‘ladi. Maxsus operatsiya deganda, ichki ishlar organlari, qorovul qo‘shinlari (sharoitdan kelib chiqib) va boshqa hamkorlik qiluvchi organlar bir maqsadda operativ shtab rahbarining boshchiligida amalga oshiradigan operativ, razvedkaga, rejimga, qo‘shinlarga oid yoki boshqa tadbirlar va harakatlar majmui tushuniladi. Maxsus operatsiyalarni tayyorlash va o‘tkazish tartibi maxsus normativ hujjatlarda belgilab qo‘yiladi.

Tabiiy ofatlar, texnogen halokatlar, epidemiyalar va boshqa ofatlar sharoitida jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash borasida aniq va samarali faoliyat ko‘rsatish maqsadida, turli darajalardagi jamoat tartibini saqlash xizmatlari, mahalliy sharoitlar va vaziyatni inobatga olgan holda, bir qator muhim tayyorgarlik tadbirlarini amalga oshiradilar. Ushbu tadbirlar tegishli sharoitlarda (zilzila, toshqin, dovul, kimyoviy korxonadagi falokat kabilarda) jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash borasidagi maxsus rejalarni ishlab chiqish va ularga tuzatishlar kiritishni o‘z

[26] Hamkorlik – ichki ishlar organlari kuch va vositalarining maqsadga erishish (operatsiyani bajarish) uchun amalga oshiradigan, maqsadlari, vazifalari, ularni bajarish joyi, vaqti, usullari bo‘yicha muvofiqlashtirilgan harakatlari.

ichiga oladi. Bunda murakkablik darajasi va oqibatlarining og‘irligi kabilar bo‘yicha turli variantlari inobatga olinadi. Barcha toifalardagi shaxsiy tarkib bilan alohida sharoitlarda faoliyat ko‘rsatish uchun doimiy ravishda tayyorgarlik ishlari olib boriladi.

Favqulodda (ekstremal) sharoitda jalb etilgan barcha kuch va vositalarni boshqarish hamda ichki ishlar organlari xizmatlarining yuzaga kelgan vaziyat bo‘yicha tez va samarali chora ko‘rishga qaratilgan harakatlarining uyg‘unligi va aniqligi talab etiladi. Shu bois ichki ishlar organining har bir xodimi umumiy vazifani ham, o‘zining bevosita xizmat majburiyatlarini ham bilishi kerak. Uning harakatlari kasbiy jihatdan to‘g‘ri va qonunga asoslangan bo‘lishi lozim.

Butun tayyorgarlik ishlariga ichki ishlar organining boshlig‘i yoki uning xizmat bo‘yicha o‘rinbosari rahbarlik qiladi. U ayni vaqtda operativ shtab rahbari ham bo‘lishi mumkin.

Rahbar joyni baholash uchun quyidagilarni o‘rganadi:

– ofat kelib chiqishi mumkin bo‘lgan hududlar hamda falokat kelib chiqish ehtimolini;

– hodisalarning bashorat qilinayotgan miqyosini (ehtimol tutilgan vayrongarchiliklar, hayotiy muhim ob’ektlar faoliyatining to‘xtab qolishi, aholi o‘rtasidagi yo‘qotishlar va boshqalar).

Joyni baholashdan chiqarilgan xulosalarda quyidagilar belgilanadi:

– operativ zonalar chegarasi;

– asosiy vazifalar, kuch va vositalar soni;

– eng murakkab va xavfli joylar;

– kuch va vositalarning harakat hududiga borish yo‘li va tartibi;

– aholini xavfli zonalardan olib ketish yo‘nalishlari va tartibi.

Mahalliy aholi holatini baholashda rahbar quyidagilarni o‘rganadi:

– tabiiy ofat, epidemiyalar, sanoat avariyalari zonasida aholining o‘zini qanday tutishi mumkinligini;

– jinoyatchilik dinamikasida qanday o‘zgarishlar yuz berishi, jinoiy tuzilmalar, jinoyat olamining obro‘mandlari qanday harakatlar qilishi, moradyorlik, eng zarur narsalar bilan chayqovchilik qilish va shu kabilarni;

– ichki ishlar organlarining maxsus apparati bilan aloqalarning buzilishi va aholining ichki ishlar organlariga yordam berish imkoniyatlarining o‘zgarishini[27].

Mahalliy aholini baholashdan chiqariladigan xulosalarda quyidagilar belgilanadi:

– ma’muriy huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish hamda ularga chek qo‘yish borasidagi vazifalarning hajmi va xususiyati;

– zarur kuch va vositalar miqdori, operativ-tergov guruhlarining joylashuvi;

– aholi orasidagi yo‘qotishlarni hisobga olish va halok bo‘lganlarni tanib olish ishlarining tashkil qilinishi;

– chetga chiqish, respublikaga kirish va fuqarolik xizmatining tegishli hujjatlarini rasmiylashtirish borasidagi ishlarning taxminiy hajmi;

[27] O‘zbekston Respublikasining 2022-yil 17-avgustdagi “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-790-son qonuni.

– jabrlanganlarga yordam berish uchun jamoatchilik kuchlarini jalb qilish imkoniyati.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi IIVda turli xil favqulodda holatlar yuzaga kelganida operativ chora ko‘rishning taxminiy tartibi ishlab chiqilgan. Shu bois IIV, Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar va Toshkent viloyati IIBB, viloyatlar IIB, Transportda xavfsizlikni ta’minlash bo‘linmalari o‘zlariga beriladigan kuch va vositalar haqida o‘z vaqtida axborot olishlari, ularni baholashlari, ulardan foydalanish tartibini belgilash hamda maxsus yig‘ma otryadlar, IIV ta’lim muassasalari bo‘linmalari oldiga vazifalar qo‘yishlari mumkin va shart.

Favqulodda vaziyatlar vujudga kelganda tegishli barcha kuch va vositalarining, shu jumladan ichki ishlar organlarining qanday tartibda faoliyat olib borish tartiblari oldindan ishlab chiqilgan boshqaruv qarorlarida belgilangan bo‘ladi. Vujudga kelgan favqulodda vaziyat barcha elementlarining majmui va o‘zaro aloqadorligidan kelib chiqib baholash xulosalari operativ shtab rahbariga o‘z qarorini uzil-kesil ifodalash imkonini beradi. Ushbu qarorda u quyidagilarni belgilaydi:

– harakatlarning umumiy maqsadi, operativ zonalar, jalb etiladigan aniq kuch va vositalar, ularning vazifalari va to‘planish joylari, yetib kelish va harakatni boshlash muddatlari;

– ularni har tomonlama ta’minlash tartibi;

– harakatlarni o‘zaro muvofiqlashtirish tartibi;

– barcha jalb etilgan sub’ektlarni boshqarish va ularning o‘zaro aloqa qilish tartibi;

– qurol va maxsus vositalarni qo‘llash shartlari va tartibi.

Kasbiy tayyorgarlik xususiyatini xodimlar bilan muayyan xizmat naryadlari va operativ guruhlar tarkibida amaliy mashg‘ulot va mashqlar o‘tkazishni uyushtirish tashkil qiladi. Ushbu naryadlar va guruhlar tarkibida xodimlar u yoki bu favqulodda vaziyat yuzaga kelganida xizmat o‘taydilar. Bunday mashg‘ulotlarda ular turli xil sharoitlarda bajaradigan aniq vazifalarni hamda ularni hal qilish usullarini o‘rganadilar. Bunda qo‘yilgan maqsadlarga erishishning taktik usullari barcha qo‘yilayotgan talablarni inobatga olgan holda izchil o‘rganiladi, shuningdek naryadlarning harakatlari yarim avtomat darajasiga yetkazilishi kerak. Bunday mashqlar muayyan joydagi bo‘linmalarda, haqiqiysiga juda yaqin sharoitda, bahorgi-yozgi va kuzgi-qishki davrlar boshlanishidan avval muntazam o‘tkaziladi.

Kasbiy tayyorgarlikda shaxsiy tarkibni belgilangan vazifalarni (albatta, qonun doirasida) bajarishga safarbar etish, yuksak uyushqoqlik va intizomga, ijrochilik, hushyorlik va oqilona tashabbuskorlikka erishish maqsadi ko‘zlanadi.

Favqulodda sharoitlarda harakat qilish uchun shaxsiy tarkibni psixologik tayyorlash katta ahamiyatga ega. Shaxsiy tarkib xizmat tayyorgarligi tizimida jamoadan tashqari xatti-harakat xususiyatlarini, olomon psixologiyasini, xodimlarning murakkab vaziyatlarda harakat qilish usullari va shu kabilarni o‘rganishi kerak. Yaqinlari va qarindoshlari avariya yoki tabiiy ofat qurbonlari bo‘lishi mumkin bo‘lgan, lekin shunga qaramay qo‘yilgan vazifani bajarishlari shart bo‘lgan ichki ishlar organlari xodimlarining o‘zlari qanday ma’naviy-psixologik

holatda bo‘lishlarini inobatga olish ayniqsa muhimdir.

Aloqa guruhi shtab hamda operativ-qidiruv va qutqaruv guruhlari, naryadlar, berilgan kuchlar bo‘linmalari, Milliy gvardiya, mahalliy hokimiyat organlarining vakili, Favqulodda vaziyatlar vazirligi kabilar o‘rtasida uzluksiz aloqani ta’minlaydi. Ta’minotchilar, tibbiyot xodimlari va boshqa xizmatlar o‘zlarining bevosita vazifalarini aniq bajarishlari kerak.

Savol va topshiriqlar:

1. Favqulodda vaziyatlarni keltirib chiqaruvchi hodisalar nimalardan iborat?
2. Tabiiy xususiyatga ega bo‘lgan hodisalar nimalardan iborat?
3. Tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlar nimalardan iborat?
4. Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar nimalardan iborat?
5. Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha Favqulodda vaziyatlar vazirligining vazifalari nimalardan iborat?
6. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etishda Ichki ishlar vazirligining vazifalari nimalardan iborat?
7. Ichki ishlar organlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari nimalardan iborat?
8. Jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlashning asosiy sub’ektlaridan biri ichki ishlar organlari bo‘lib, ularning asosiy majburiyat va huquqlari nimalardan iborat?
9. Favqulodda vaziyatlarda ichki ishlar organlarining faoliyatini tashkil qilishning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
10. Mahalliy aholini baholashdan chiqariladigan xulosalar nimalardan iborat?

XV BOB ICHKI ISHLAR ORGANLARI MAXSUS MUASSASALARI VA KONVOY XIZMATINING FAOLIYATI

1-§. Ichki ishlar organlari maxsus muassasalarining huquqiy maqomi va faoliyatining asosiy yo‘nalishlari

Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlash, jinoyatchilik hamda boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurash faoliyatida jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan shuningdek, ayblanayotgan shaxslarni ushlab turish shu bilan bir qatorda qo‘riqlashda, ma’muriy tartibda qamoq jazosi tayinlagan sudlar qarorlarining ijrosini ta’minlashda, ish va yashash joyi noaniq bo‘lgan shaxslarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatishda, shuningdek ularni saqlash hamda qo‘riqlashda ichki ishlar organlarining maxsus muassasalari alohida o‘rin egallaydi. Bunday faoliyatni tashkil qilish ichki ishlar organlarida muhim o‘rin tutadi.

Ichki ishlar organlari tizimidagi maxsus muassasalar jinoyat protsessi davomida shaxslarni jamiyatdan ajratgan holda saqlash va ularning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida tashkil etiladi. Ushbu muassasalarning huquqiy maqomi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 2011-yil 29-sentabrdagi “Jinoyat ishini yuritish chog‘ida qamoqda saqlash to‘g‘risida”gi O‘RQ-298-sonli qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan belgilanadi[28].

Qonunning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

Asosiy prinsiplar: Qamoqda saqlash qonuniylik, adolatliylik, insonparvarlik, shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, aybsizlik prezumpsiyasi hamda hamma uchun tenglik asosida amalga oshiriladi.

Qonuniylik: Barcha xatti-harakatlar qat’iy qonun doirasida amalga oshiriladi.

Fuqarolarning qonun oldida tengligi: Jinsi, irqi, millati, dini va ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar barcha shaxslarga bir xil munosabatda bo‘linadi.

Insonparvarlik hamda shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish: Hibsga olinganlarga nisbatan qiynoqlar yoki boshqa shafqatsiz muomala turlarini qo‘llash qat’iyan man etiladi.

Aybsizlik prezumpsiyasi: Shaxsning aybdorligi sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan isbotlanmaguncha u aybsiz hisoblanadi[29].

Ushbu Qonun qiynoqlarning oldini olish va ushlangan shaxslarning xalqaro standartlarga mos ravishda saqlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonunining 14-moddasida ushlab turilgan, qamoqqa olingan,

[28] https://strategy.uz/index.

[29] 2011-yil 29-sentabrdagi O‘RQ-298-sonli “Jinoyat ishini yuritish chog‘ida qamoqda saqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni.

ma’muriy qamoqqa olingan hamda ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning Vakilga murojaat qilish tartibi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-noyabrdagi “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq, 2017-yil 1-apreldan boshlab jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxslarni ushlab turish muddati 72 soatdan 48 soatga qisqartirildi. Shu bilan birga, qamoqqa olish va uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot choralarini qo‘llashning, shuningdek dastlabki tergovning ruxsat etilgan maksimal muddati 1 yildan 7 oyga qisqartirilishi belgilandi[30].

Ichki ishlar organlari tizimida maxsus muassasalarning faoliyatini ta’minlash davlatning huquqni muhofaza qilish vazifalarini amalga oshirishdagi eng muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunning 16-moddasiga muvofiq, ichki ishlar organlari quyidagi maxsus muassasalarning faoliyatini ta’minlashi shart.

Ichki ishlar organlari maxsus muassasalariga quyidagilar kiradi:

– vaqtincha saqlash hibsxonalari;

– tergov hibsxonalari;

– jazoni ijro etish muassasalari;

– ma’muriy qamoqqa olingan shaxslarni saqlash uchun mo‘ljallangan maxsus qabulxonalar;

– aniq yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslarni reabilitatsiya qilish markazlari;

– voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazlari;

– ichki ishlar organlari kinologiya bo‘linmalari[31].

Maxsus muassasalar faoliyatining ahamiyati

Ushbu muassasalarning xizmati o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning ish hajmi va miqyosi ichki ishlar organlarining asosiy funksiyalaridan birini tashkil etadi. Xususan, ichki ishlar organlari ushbu muassasalarda:

– ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlar va mahkumlarni qo‘riqlashni va saqlanishini ta’minlaydi.

– jazoni ijro etish muassasalari va qamoqda saqlash joylarida shaxslarning saqlanish sharoitlarini va huquqlarini kafolatlaydi.

– mahkumlarni jazoni ijro etish muassasalariga taqsimlaydi hamda ularni, shuningdek ma’muriy qamoqqa olingan shaxslarni qo‘riqlab borishni (konvoy) va ko‘chirishni amalga oshiradi.

Ichki ishlar organlarining maxsus muassasalari faoliyati o‘rganilganda ularning xizmati o‘ziga xos ekanligini ko‘rish mumkin. Ishining hajmi va miqyosini, davlatning huquqni muhofaza qilish vazifalarini amalga oshirishdagi ahamiyatini inobatga olgan holda, ushbu yo‘nalish, aslida, ichki ishlar organlarining asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Surishtiruv, tergov, sud organlarining jinoyatlarni ochish hamda tergov qilish, shuningdek jazoning ijro etilishini ta’minlash

[30] 2011-yil 29-sentabrdagi O‘RQ-298-sonli "Jinoyat ishini yuritish chog‘ida qamoqda saqlash to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni.

[31] O‘zbeksiton Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi O‘RQ-407-son qonuni.

faoliyatining samaradorligi uning tashkil qilinishi va amalga oshirilishiga bevosita bog‘liqdir[32].

Vaqtincha saqlash hibsxonalari

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudyaning qamoqqa olish to‘g‘risidagi qaror hamda ajrimlari ijrosini ta’minlash maqsadida ichki ishlar organlari qamoqqa olingan shuningdek, ushlangan shaxslarni saqlash, qo‘riqlash va kuzatishni tashkil etadilar. Shu maqsadda ichki ishlar organlari patrul-post xizmati hamda jamoat tartibini saqlash bo‘linmalari tizimida vaqtincha saqlash hibsxonalari tashkil etilgan.

Vaqtincha saqlash hibsxonalarida jinoyat sodir etishda gumon qilinib ushlangan shaxs ichki ishlar organiga olib kelingan vaqtdan boshlab 48 soatdan oshmagan muddatda saqlanishi mumkin, agarda bu vaqt ichida qonunda belgilangan tartibda unga nisbatan ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish choralari qo‘llanilishi bundan istisno.

Vaqtincha saqlash hibsxonalariga joylashtirish uchun asos prokurorning sanksiyasi olingan surishtiruvchi va tergovchining qarori hamda sudyaning ajrimi hisoblanadi.

Bunday holatlar Jinoyat protsessual kodeksining 221-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan.

Jinoyat protsessual kodeksining 221-moddasiga asosan jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxs quyidagi asoslar mavjud bo‘lganda vaqtincha ushlab turilishi mumkin:

– shaxs jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganligidan keyin qo‘lga tushsa;

– jinoyat shohidlari, shu jumladan jabrlanuvchilar uni jinoyat sodir etgan shaxs tariqasida to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatsalar;

– uning o‘zida yoki kiyimida, yonida yoki uyida sodir etilgan jinoyatning yaqqol izlari topilsa;

– shaxsni jinoyat sodir etishda gumon qilish uchun asos bo‘ladigan ma’lumotlar mavjud bo‘lib, u qochmoqchi bo‘lsa yoki doimiy yashaydigan joyi yo‘q yoki shaxsi aniqlanmagan bo‘lsa.

Ichki ishlar organlariga xizmat ko‘rsatuvchi vaqtincha saqlash hibsxonalari soni va turlariga ko‘ra Ichki ishlar vazirligi, Ichki ishlar bosh boshqarmasi, viloyatlar Ichki ishlar boshqarmasi va Transportda xavfsizlikni ta’minlash boshqarmalari, tuman (shahar) ichki ishlar boshqarmalari (bo‘limlari) qoshida tuziladi hamda umumshahar, tumanlararo va umumiy (yagona) turlarga bo‘linadi. Bunda:

– umumshahar vaqtincha saqlash hibsxonalari tumanlarga bo‘lingan shaharlarda tashkil etiladi va tegishli tuman (shahar) ichki ishlar organlariga xizmat ko‘rsatish uchun mo‘ljallanadi;

– tumanlararo vaqtincha saqlash hibsxonalari bir-biriga yaqin joylashgan ikki yoki undan ortiq ichki ishlar organlariga xizmat ko‘rsatadi;

– vaqtincha saqlash hibsxonalari alohida tuman (shahar) va tarmoq ichki ishlar organiga xizmat ko‘rsatish uchun tashkil qilinadi.

[32] O‘zbeksiton Respublikasining 2017-yil 9 yanvardagi O‘RQ-420-son qonuni.

Hibsga olinganlar, ushlanganlar va gumon qilinganlarni vaqtincha saqlash hibsxonalarida ushlab turish – ularning jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanishlariga barham berish, qochib ketishlarining, dalillarni yashirishlari yoki yo‘q qilib yuborishlarining oldini olish maqsadida qisqa muddatga ozodlikdan mahrum qilishdir. Ushlab turish jinoyat ishi qo‘zg‘atilgunga qadar ham, ish qo‘zg‘atilgandan keyin ham amalga oshirilishi mumkin. Ish qo‘zg‘atilgandan keyin ushlab turishga faqat surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimiga muvofiq yo‘l qo‘yiladi.

Shaxslarni vaqtincha saqlash hibsxonalarida ushlab turish uchun asos hisoblanadi:

– sudning shaxsni qamoqqa olish haqidagi hukmi yoki ajrimi;

– tergovchi yoki surishtiruvni amalga oshirayotgan shaxsning prokuror sanksiyasi olingan ushbu ehtiyot chorasini tanlash to‘g‘risidagi qarori;

– tergovchi yoki surishtiruvni amalga oshirayotgan shaxs tuzgan hamda ichki ishlar organining boshlig‘i yoki uning o‘rinbosari tasdiqlagan jinoiy-protsessual ushlab turish to‘g‘risidagi bayonnoma;

– ma’muriy ishlar bo‘yicha sudyaning ma’muriy qamoqqa olish to‘g‘risidagi qarori;

– amaldagi qonunlarda nazarda tutilgan qamoqqa olish haqidagi boshqa hujjatlar.

Ichki ishlar organlarida maxsus qabul qilish maskanlari bo‘lmagan taqdirda, qonunda belgilangan tartibda vaqtincha saqlash hibsxonalarida ma’muriy qamoqqa olingan shaxslar ham saqlanishi mumkin[33].

Muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslarni reabilitatsiya qilish markazlari.

Muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslarni reabilitatsiya qilish markazi muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslarni ularning shaxsi aniqlangungacha ma’muriy sudning ajrimi asosida o‘ttiz sutkadan ko‘p bo‘lmagan muddatga saqlab turish va reabilitatsiya qilish uchun mo‘ljallangan ichki ishlar organlari tizimidagi davlat muassasasi hisoblanadi.

Muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxsni reabilitatsiya markaziga joylashtirish tartibi O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksida belgilangan.

Mazkur kodeksga muvofiq muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxsni reabilitatsiya markaziga joylashtirishga asoslar aniqlangan taqdirda, ichki ishlar organi bunday shaxs ichki ishlar organiga keltirilgan paytdan e’tiboran 48 soat ichida uni reabilitatsiya markaziga o‘ttiz sutkadan ko‘p bo‘lmagan muddatga joylashtirish to‘g‘risida sudga iltimosnoma yuborish uchun materiallarni tayyorlashi shart.

Muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxsni reabilitatsiya markaziga joylashtirish to‘g‘risidagi iltimosnoma va uni reabilitatsiya markaziga joylashtirish zarurligini tasdiqlovchi materiallar muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxs

[33] O‘zbeksiton Respublikasining 2017-yil 9 yanvardagi O‘RQ-420-son qonuni.

aniqlangan yoki reabilitatsiya markazi joylashgan yerdagi tuman (shahar) sudiga ichki ishlar organi tomonidan beriladi.

Muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxsni reabilitatsiya markaziga joylashtirish to‘g‘risidagi iltimosnoma sudga yozma shaklda beriladi va ichki ishlar organining rahbari yoki uning o‘rinbosari tomonidan imzolanadi. Iltimosnomada quyidagilar ko‘rsatilishi kerak: ariza berilayotgan sudning nomi; ichki ishlar organining nomi va joylashgan yeri (pochta manzili); muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi; iltimosnomaga asos bo‘lgan holatlar; berilgan iltimosnomaning asoslarini tasdiqlovchi dalillar; muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxsni reabilitatsiya markaziga joylashtirish to‘g‘risidagi iltimos, joylashtirish muddatini ko‘rsatgan holda; ilova qilinayotgan hujjatlarning ro‘yxati.

Iltimosnomada ichki ishlar organining telefon, faks raqamlari, elektron manzili ko‘rsatilishi mumkin.

Muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxsni reabilitatsiya markaziga joylashtirish to‘g‘risida yuqorida ko‘rsatilgan talablarni buzgan holda berilgan iltimosnoma ichki ishlar organiga qaytariladi[34].

Huquqiy maqom va huquqiy kafolatlar

Hibsda saqlanayotgan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun belgilangan huquq va erkinliklarga, qonunda nazarda tutilgan cheklovlar bilan birga, ega bo‘ladilar. Ular bepul ovqat, moddiy-maishiy va tibbiy-sanitariya ta’minoti bilan ta’minlanish huquqiga ega.

So‘nggi islohotlarga ko‘ra, qiynoqlarning oldini olish maqsadida maxsus muassasalarga joylashtirishning yangi tartibi joriy etildi. 2025-yildagi o‘zgartirishlarga muvofiq, shaxslar tergov hibsxonasiga joylashtirilishidan oldin 2 soat ichida majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilishi shart. Agar ko‘rik davomida tan jarohatlari aniqlansa, bu haqda darhol prokurorga xabar beriladi.

Nazorat va monitoring Maxsus muassasalarda qonunchilikka rioya etilishi ustidan quyidagi organlar nazoratni amalga oshiradi:

Prokuratura nazorati: Bosh prokuror va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar tomonidan amalga oshiriladi.

Parlament nazorati (Ombudsman): Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) va uning mintaqaviy vakillari maxsus muassasalarga moneliksiz kirish, u yerda saqlanayotgan shaxslar bilan holi uchrashish va suhbatlashish huquqiga ega. Ombudsman bilan uchrashuvlar maxfiylik asosida, xodimlar ko‘rib turadigan, lekin eshitmaydigan sharoitda o‘tkaziladi[35].

Muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxsni reabilitatsiya markaziga joylashtirish to‘g‘risidagi iltimosnomaga quyidagilar ilova qilinadi:

– muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxsni aniqlagan mansabdor shaxsning shaxsni reabilitatsiya markaziga joylashtirish to‘g‘risida sudga iltimosnoma kiritish to‘g‘risidagi, tegishli tuman (shahar) ichki ishlar organi rahbari tomonidan tasdiqlangan qarori;

[34] O‘zbeksiton Respublikasining 2017-yil 9 yanvardagi O‘RQ-420-son qonuni.
[35] O‘zbeksiton Respublikasining 2017-yil 9 yanvardagi O‘RQ-420-son qonuni..

– yashash manzillari (manzillar bo‘yicha byuro) haqida axborot beruvchi organning ma’lumotnomasi, shuningdek muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxsning O‘zbekiston Respublikasidagi ma’lum bo‘lgan oxirgi yashash joyini tekshirish natijalari to‘g‘risidagi ma’lumot;

– muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxsning tushuntirishi yoki bunday shaxs tomonidan tushuntirish berish rad etilganligi to‘g‘risida tegishli tarzda tuzilgan dalolatnoma;

– muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxsni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish natijalari to‘g‘risida tibbiy ma’lumotnoma;

– muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxsning huquqlari, shu jumladan advokatning yuridik yordamidan foydalanish va o‘z yaqinlariga telefon orqali qo‘ng‘iroq qilish huquqi tushuntirilganligi haqidagi bayonnoma.

Rejim va ichki tartib-qoidalar

Muassasalarda shaxslarning alohida-alohida joylashtirilishi (masalan, erkaklar ayollardan, voyaga yetmaganlar kattalardan alohida) ta’minlanadi. Shuningdek, xavfsizlikni ta’minlash maqsadida audiovizual va elektron texnik vositalardan foydalaniladi, bu haqda hibsdagi shaxslar ogohlantirilishi shart.

Iltimosnomaga bildirilgan iltimosnomani asoslovchi boshqa hujjatlar ham ilova qilinishi mumkin.

Muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxsni reabilitatsiya markaziga joylashtirish to‘g‘risidagi iltimosnoma taqdim etilgan paytdan e’tiboran 24 soat ichida sudya tomonidan yopiq sud majlisida yakka tartibda ko‘rib chiqiladi.

O‘ziga nisbatan reabilitatsiya markaziga joylashtirish to‘g‘risidagi iltimosnoma ko‘rib chiqilayotgan shaxs va ichki ishlar organining vakili sud majlisida ishtirok etishi shart. Sud majlisida advokat ishtirok etishi mumkin.

Iltimosnomani ko‘rib chiqish ichki ishlar organi vakilining muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxsni reabilitatsiya markaziga joylashtirish zarurligi va joylashtirish muddati asoslab beriladigan ma’ruzasi bilan boshlanadi. So‘ngra o‘ziga nisbatan iltimosnoma ko‘rib chiqilayotgan shaxs, agar sud majlisida ishtirok etayotgan bo‘lsa, advokat, sudga kelgan boshqa shaxslar eshitiladi, taqdim etilgan materiallar tekshiriladi.

Qaror sudya tomonidan alohida xonada chiqariladi.

Iltimosnomani ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha sud quyidagi qarorlardan birini chiqaradi:

– iltimosnomani qanoatlantirish va muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxsni reabilitatsiya markaziga joylashtirish to‘g‘risida;

– iltimosnomani qanoatlantirishni rad etish to‘g‘risida.

Iltimosnomani qanoatlantirish yoki qanoatlantirishni rad etish to‘g‘risidagi qaror u o‘qib eshittirilgan paytdan e’tiboran kuchga kiradi va darhol ijro etilishi lozim.

Qaror ijro etish uchun darhol ichki ishlar organi vakiliga, agar sud majlisida ishtirok etgan bo‘lsa, advokatga va o‘ziga nisbatan qaror chiqarilgan shaxsga topshiriladi.

Muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxsni reabilitatsiya markaziga joylashtirish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha chiqarilgan

qaror ustidan u chiqarilgan kundan e'tiboran uch kun ichida apellyatsiya tartibida shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

Apellyatsiya instansiyasi sudi qaror ustidan berilgan shikoyatni (protestni) u kelib tushgan kundan e'tiboran uch kun ichida ko'rib chiqib, uning natijasi bo'yicha quyidagi qarorlardan birini chiqaradi:

– qarorni o'zgarishsiz, shikoyatni (protestni) esa qanoatlantirmasdan qoldirish to'g'risida;

– muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxsni reabilitatsiya markaziga joylashtirishga oid iltimosnomani qanoatlantirish haqidagi qarorni bekor qilish va shaxsni reabilitatsiya markazidan ozod qilish to'g'risida;

– iltimosnomani qanoatlantirmasdan qoldirish haqidagi qarorni bekor qilish va muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxsni reabilitatsiya markaziga joylashtirish to'g'risida.

Mazkur muassasalar faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-apreldagi qarori bilan tasdiqlangan "Ichki ishlar organlarining muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarni reabilitatsiya qilish markazlari to'g'risida"gi nizomga asosan amalga oshiradi.

Reabilitatsiya markazlarida muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarni saqlash bo'yicha reabilitatsiya markazlarining ichki rejimiga muvofiq quyidagi maxsus shart-sharoitlar ta'minlanadi:

– reabilitatsiya markazlarida saqlanayotgan shaxslarning xavfsizligini ta'minlash va ularni tashqi salbiy ta'sirlardan himoya qilish;

– reabilitatsiya markazlari hududiga begona shaxslarning erkin kirishini hamda bu yerda saqlanayotgan shaxslarning markaz hududidan erkin chiqishini cheklash;

– reabilitatsiya markazlarida saqlanayotgan shaxslarni doimiy va uzluksiz nazorat qilish, shaxsiy ko'rikdan o'tkazish, ularning buyumlari, olayotgan va yuborayotgan pochta jo'natmalari hamda yo'qlovlarini ko'zdan kechirish.

Muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarni reabilitatsiya qilish markazlarining asosiy vazifalari etib:

– muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarni saqlash va ularning shaxsini aniqlash;

– muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslar bilan profilaktika tadbirlarini amalga oshirish;

– muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarni reabilitatsiya qilish belgilangan.

Mazkur vazifalarga muvofiq reabilitatsiya markazlari quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

– muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarni saqlash va ularning shaxsini aniqlash bo'yicha:

– muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarni kecha-kunduz qabul qilish va ro'yxatga olish bo'yicha;

– muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarni ularning shaxsini va psixologik jihatdan mosligini hisobga olgan holda joylashtirish bo'yicha;

– muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, ularga yuklangan majburiyatlarni bajarishini tashkil etish bo‘yicha;

– muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan har bir shaxsning davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda ichki ishlar organlarining tegishli sohaviy xizmatlari orqali shaxsini aniqlash maqsadida ularni belgilangan tartibda tekshiruvdan o‘tkazish bo‘yicha;

– muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslar bilan profilaktika tadbirlarini amalga oshirish bo‘yicha:

– g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo‘lgan muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslarga jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini singdirish bo‘yicha;

– muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslarning huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bu haqida tegishli davlat organlari va boshqa tashkilotlarni xabardor qilish;

– doimiy yashash joylariga yuborilishi lozim bo‘lgan g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo‘lgan chet el fuqarolari haqida tegishli davlat organlari va tashkilotlarni belgilangan tartibda xabardor qilish bo‘yicha;

– muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslarni reabilitatsiya qilish bo‘yicha:

– muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslar uchun sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlari talablariga hamda yong‘in xavfsizligi qoidalariga javob beradigan moddiy-maishiy sharoitlar yaratish bo‘yicha;

– muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslarni belgilangan normalar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash bo‘yicha;

– muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslarga psixologik yordam ko‘rsatish, ya’ni ularning psixofiziologik moyilliklari, qobiliyatlari, qiziqishlari va boshqa holatlarini hisobga olgan holda ijtimoiy moslashuv chora-tadbirlarini amalga oshirish bo‘yicha;

– mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, bandlik va mehnat munosabatlari organlari bilan hamkorlikda ijtimoiy foydali mehnat bilan shug‘ullanmayotgan va reabilitatsiya markazlariga joylashtirilgan mehnatga layoqatli muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslarni ishga joylashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish bo‘yicha;

– muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, statsionar sharoitlarda yordam ko‘rsatishga muhtoj deb topilgan shaxslarni belgilangan tartibda sog‘liqni saqlash organlari tizimidagi davolash-profilaktika muassasalariga yuborish bo‘yicha;

– qarovsiz qolgan keksalar va nogironlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda “Saxovat” keksalar va nogironlar uchun internat uylariga, ruhiy kasallikka chalingan nogironlarni “Muruvvat” nogironlar uchun internat uylariga, kasallarni davolash muassasalariga joylashtirish chora-tadbirlarini ko‘rish bo‘yicha;

– muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslarning shaxsi aniqlangandan so‘ng ularni doimiy yoki vaqtincha yashash joylariga yuborish choralarini ko‘rish bo‘yicha funksiyalarni amalga oshiradi.

Reabilitatsiya markazlari o‘z zimmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalar samarali bajarilishi uchun javob beradi.

Reabilitatsiya markazlari O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan tashkil etiladi, qayta tashkil etiladi va tugatiladi. Mazkur markazlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda viloyatlar markazlarida hamda Toshkent shahrida, shuningdek, zarurat bo‘lganda aholi zich joylashgan boshqa hududlarda tashkil etiladi.

Reabilitatsiya markazlari tegishlicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalarining Patrul-post xizmati hamda jamoat tartibini saqlash boshqarmalariga bo‘ysunadi.

Reabilitatsiya markazlariga keltirilgan muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslarni qabul qilish va ro‘yxatga olish, saqlash, tekshirish hamda reabilitatsiya qilish tartibi, ularning huquqlari va majburiyatlari, ularning moddiy-maishiy shuningdek, tibbiy ta’minoti hamda ularni doimiy yashash joylariga jo‘natish tartiblari tegishli hujjatlarda belgilangan.

Ma’muriy tartibda hibsga olingan shaxslarni saqlash maxsus qabulxonasi (ma’muriy qamoqxona)

Maxsus muassasalarning ushbu turida ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan, sud tomonidan jazo chorasi sifatida ma’muriy qamoq qo‘llanilgan shaxslar saqlanadi.

Ma’muriy qamoqxonalarning asosiy vazifasi – shaxsni qonunlarga rioya etish va ularni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, shuningdek ana shu huquqbuzarning o‘zi, boshqa shaxslar tomonidan ham yangi huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishdir.

Sudning shaxsni ma’muriy qamoqqa olish to‘g‘risidagi qarorining ijrosini ma’muriy huquqbuzarlik ishi materiallarini sudga taqdim etgan organ yoki mansabdor shaxs ta’minlaydi. Ta’minlash davomida ular qamoqqa olingan shaxslarni qo‘riqlash va kuzatishni tashkil etadilar. Ma’muriy qamoqxonada shaxsni saqlash muddati qonunda uch sutkadan o‘n besh sutkagacha qilib belgilangan bo‘lib, ushbu muassasaga shaxsni joylashtirish uchun quyidagilar asos hisoblanadi:

– ma’muriy ishlar bo‘yicha sudyaning ma’muriy qamoqqa olish to‘g‘risidagi qarori;

– amaldagi qonunlarda nazarda tutilgan qamoqqa olish haqidagi boshqa hujjatlar.

O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 9-yanvardagi “Ma’muriy qamoqni o‘tash tartibi to‘g‘risida”gi O‘RQ-420-sonli qonunining 24-moddasiga muvofiq, ma’muriy qamoqqa olingan shaxslardan maxsus qabulxonada saqlash bilan bog‘liq xarajatlar jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudi sudyasining qaroriga ko‘ra har bir sutka uchun bazaviy hisoblash miqdorining 15 foizi miqdorida undiriladi[36].

[36] https://strategy.uz/index.

Ma’muriy qamoqqa olingan shaxslarning mehnatidan foydalanishni tashkil etish tuman (shahar) hokimliklari zimmasiga yuklatiladi. Agarda shaxs ma’muriy qamoqni o‘tash vaqtida mehnatga jalb etilib, shu tariqa o‘zining maxsus qabulxonada saqlanishi bilan bog‘liq xarajatlar o‘rnini qoplasa, undan mazkur xarajatlar undirilmaydi. Mehnatga qobiliyatsiz shaxslar ham ushbu xarajatlarni to‘lashdan ozod qilinadi. Bundan tashqari, jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudi sudyasi muayyan holatlarni, shaxsning moddiy ahvoli va shaxsini inobatga olgan holda, uni saqlash xarajatlari undirilishidan ozod qilishi mumkin.

2-§. Ichki ishlar organlari konvoy xizmatlarining faoliyati, asosiy vazifalari hamda elektron brasletlardan foydalanish tartibi

O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari tizimida odil sudlovni amalga oshirish hamda qonuniylikni ta’minlashda konvoy xizmatining o‘rni beqiyosdir Ushbu faoliyatning asosiy maqsadi ushlangan hamda qamoqqa olingan shaxslarning tergov hamda sud organlaridan qochib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik, ularning xavfsizligini ta’minlash hamda sud-tergov jarayonlarining uzluksizligini kafolatlashdir. Konvoy tadbirlari qat’iy belgilangan tartib va buyruqlar asosida, malakali xodimlardan iborat tarkib tomonidan bajariladi, konvoy xizmati ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash shu bilan bir qatorda jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi muhim bo‘g‘ini bo‘lib, u shaxslarni izolyatsiya qilish va ularning harakatlanishini to‘liq nazorat ostiga olishni ta’minlaydi.

Konvoy faoliyati – jinoyat sodir etishda gumon qilinuvchi va ayblanuvchi shaxslarning belgilangan tartibda tayinlangan joyga qo‘riqlov ostida olib borilishini tashkil etish hamda amalga oshirish borasidagi faoliyatdir;

konvoy ostidagi shaxslar – konvoy qilinayotgan, jinoyat sodir etganlikda gumon qilinib ushlab turilgan, o‘ziga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo‘llanilgan shaxslar hamda mahkumlar;

konvoy bo‘linmalari – konvoy ostidagi shaxslarni belgilangan manzilga qo‘riqlab borish borasidagi vazifalarni amalga oshiruvchi ichki ishlar organlarining bo‘linmalari;

elektron braslet – konvoy ostidagi shaxslar qochishga uringan (elektron brasletni yechish, shikast yetkazish, konvoychi xodimdan uzoqlashish va boshqa) holatlar haqida onlayn rejimida avtomatik tarzda tovushli va vizual xabar beruvchi, shuningdek, konvoy ostidagi shaxslarning harakatlanishini onlayn nazorat qilish imkoniyatni yaratuvchi elektron qurilma.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-iyuldagi 383-sonli “Ichki ishlar organlari tomonidan konvoy harakatlarini amalga oshirishda elektron brasletlardan foydalanishni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, konvoy ostidagi shaxslarning qochish holatlarini barvaqt oldini olish hamda ularning harakatlarini onlayn tarzda kuzatish tartibi joriy etilgan. Ushbu tartibga ko‘ra, elektron brasletlardan jinoyat sodir etganlikda gumon qilinib ushlab

turilgan shaxslar, qamoqqa olingan ayblanuvchilar va mahkumlarni konvoy qilish (qo‘riqlab borish) jarayonida ularni doimiy nazorat qilish maqsadida foydalaniladi[37].

Elektron brasletlardan foydalanishning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

– elektron braslet konvoy qilinuvchining oyog‘iga (boldir qismiga), agar jarohat yoki boshqa tibbiy to‘siqlar mavjud bo‘lsa, qo‘lining bilak qismiga taqiladi.

– qurilma konvoy ostidagi shaxs qochishga uringanda, brasletni yechishga yoki unga shikast yetkazishga harakat qilganda onlayn rejimda avtomatik tarzda tovushli va vizual xabar beradi hamda “GPS” signallari orqali shaxsning turgan joyini aniqlash imkonini beradi.

– elektron brasletdan foydalanishdan oldin va konvoy harakatlari yakunlangandan so‘ng uning maxsus tasmasiga dezinfeksiya vositalari (antiseptik yoki spirt) yordamida ishlov berilishi shart.

– homilador ayollarga, implant qilingan kardiostimulyatori bor shaxslarga, yuqumli teri kasalliklari mavjud bo‘lganlarga hamda tug‘ma nogironligi sababli oyoq a’zosi bo‘lmagan shaxslarga elektron brasletlar taqilmaydi.

Mazkur tizim konvoy harakatlari davomida xavfsizlikni ta’minlash va konvoy ostidagi shaxslar ustidan masofaviy nazoratni kuchaytirishning zamonaviy huquqiy hamda texnik mexanizmi hisoblanadi.

Ushlangan va qamoqqa olinganlarni vaqtinchalik saqlash hibsxonasida qo‘riqlash ichki ishlar organlarining naryadlari, ularni konvoy qilish konvoy xizmati xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Konvoy xizmati mavjud bo‘lmagan joylarda konvoy tadbirlari hududiy ichki ishlar organlari boshliqlarining buyruqlari asosida Ichki ishlar vazirligi tomonidan belgilangan tartib va buyruq asosida malakali xodimlardan iborat maxsus konvoy guruhlari tomonidan amalga oshiriladi[38].

Konvoy xizmatlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– ushlangan va qamoqqa olinganlarni ushlab turish kameralarida va vaqtincha saqlash hibsxonalarida qo‘riqlash;

– vaqtincha saqlash hibsxonalaridan tergov jarayonlarini amalga oshirish uchun tergov hibsxonalariga, umumiy yuvinish joylariga (hammomlarga), ichki ishlar organlariga qarashli vaqtincha saqlash hibsxonalaridan tuman (shahar) va tumanlararo vaqtincha saqlash hibsxonalariga hamda ushbu joylardan qayta yo‘nalishda konvoy qilish, tergov jarayonlarida, sog‘liqni saqlash muassasalariga keltirilgan vaqtda hamda kameralarga sanitariya ishlovlarini berish jarayonida qo‘riqlash ishlarini amalga oshirish;

– vaqtincha saqlash hibsxonalaridan tuman (shahar) va viloyat sudlariga konvoy tadbirlarini amalga oshirish, sud jarayonlarida ushlangan hamda qamoqqa olinganlarni qo‘riqlash tadbirlarini amalga oshirish;

---

[37] https:lux.uz.doks.

[38] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-iyuldagi 383-sonli “Ichki ishlar organlari tomonidan konvoy harakatlarini amalga oshirishda elektron brasletlardan foydalanishni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

– ushlangan va qamoqqa olinganlarni vaqtincha saqlash hibsxonalaridan tergov hibsxonalariga, u yerdan rejali yo‘nalishlarga, almashtirish joylariga konvoy qilish.

Konvoy xizmati barcha ichki ishlar organlari tomonidan o‘zlari joylashgan hududda xizmat olib borishi uchun tashkil etiladi va joriy qilinadi.

Ushlangan va qamoqqa olinganlarni respublika, viloyat hududidan tashqariga avtotransport, temir yo‘l va havo transportlarida konvoy qilish faqat O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar hamda Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmalari, viloyatlar Ichki ishlar boshqarmalari shuningdek, Transportda xavfsizlikni ta’minlash boshqarmasi rahbarlarining ruxsati bilan, ayrim hollarda, ehtiyot chorasi o‘zgartirilganligi bois, etap qilish (ko‘chirish) sudning ajrimi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Konvoy tadbirlarini amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar hamda Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmalari, viloyatlar Ichki ishlar boshqarmalari shuningdek, Transportda xavfsizlikni ta’minlash boshqarmasi tarkibida konvoy xizmatlari (batalon, rota, vzvod, bo‘linma) tashkil etiladi. Ushbu xizmatlarning shtat birliklarining me’yoriy miqdori Ichki ishlar vazirligi, Ichki ishlar bosh boshqarmasi va Ichki ishlar boshqarmalari boshliqlarining buyruqlari bilan tasdiqlanadi hamda bunday xizmatlarni tashkil qilishdan maqsad – ularning qaysi xizmatlarga bo‘ysunish va konvoy xizmatining bo‘linma (batalon, rota, vzvod, bo‘linma)larining joylashuvlari ham ko‘rsatib o‘tiladi.

Bundan tashqari, mahalliy sharoitni inobatga olgan holda, tumanlararo konvoy bo‘linmalari tashkil etilishi mumkin. Bunday konvoy bo‘linmalari shaxsiy tarkibining soni konvoy tadbirlari amalga oshiriladigan yo‘nalishlar soni hamda har bir konvoy naryadiga kamida 4 nafar konvoy xodimi ajratilishini hisobga olib aniqlanadi.

Ushlangan va qamoqqa olinganlarni konvoy qilish tadbirlari O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar hamda Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmalari, viloyatlar Ichki ishlar boshqarmalarining Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash boshqarmalari, Transportda xavfsizlikni ta’minlash boshqarmasi jamoat tartibini saqlash bo‘limiga taalluqli xizmatlari tomonidan puxta, aniq ishlab chiqilgan va tasdiqlangan (asosiy va zaxira) yo‘nalishlari bo‘yicha amalga oshiriladi.

Konvoy tadbirlarini amalga oshirishda temir yo‘l va avtoyo‘llardagi harakatlar yuzasidan qorovul qo‘shinlari, shuningdek, joylardagi tergov hibsxonalari rahbariyati bilan kelishiladi.

Mavjud bo‘lgan kuch va texnik vositalardan oqilona foydalanish, konvoy tadbirlarini amalga oshirish jarayonida favqulodda holatlar sodir etilishining oldini olish maqsadida Ichki ishlar vazirligi, Ichki ishlar bosh boshqarmalar hamda ichki ishlar boshqarmalarining mas’ul xodimlari qorovul qo‘shinlarining konvoy bo‘linmalari bilan yaqindan hamkorlik o‘rnatib, ushlangan va qamoqqa olinganlarni

kuzatish yoki qabul qilish vaqtlari, soni, manzillari hamda yo‘nalishlari bo‘yicha oldindan axborot almashtiruv tizimini yo‘lga qo‘yadilar.

Ushlangan va qamoqqa olinganlarni maxsus jihozlangan avtotransport vositalaridan tashqari, samolyot (vertolyot), passajir poezdlarining vagonlarida hamda piyoda konvoy qilishga ruxsat etiladi. Transportda konvoy tadbirlari amalga oshirilganda konvoy xodimi hamda konvoy qilinadiganlar uchun sarf bo‘ladigan xarajatlar O‘zbekiston Havo yo‘llari, O‘zbekiston Temir yo‘llari va boshqa vazirlik hamda idoralarning o‘zaro kelishuvlari asosida to‘lanadi.

Samolyot (vertolyot)da ushlangan va qamoqqa olinganlar bilan konvoy tadbirlarini amalga oshirish faqatgina O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, Toshkent shahar hamda Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmalari, viloyatlar Ichki ishlar boshqarmalari shuningdek, Transportda xavfsizlikni ta’minlash boshqarmasi boshliqlarining ruxsati bilan, joylardagi fuqaro aviatsiyasi tashkilotlariga oldindan berilgan talabnomaga asosan, agar boshqa turdagi transport vositalari bilan konvoy qilishning imkoniyati bo‘lmasa yoki shaxsni zudlik bilan ma’lum bir manzilga yetkazish zarurati tug‘ilganda, amalga oshiriladi.

Ushlangan va qamoqqa olinganlarni passajir poezdlari vagonlarida konvoy qilish faqat ushbu yo‘nalish bo‘yicha rejali qatnaydigan qorovul qo‘shinlarining yo‘nalishlari o‘tmagan bo‘lsa, boshqa transport vositalari bilan konvoy qilishning imkoniyati bo‘lmaganda hamda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri yoki uning o‘rinbosarlari, Qoraqalpog‘iston Respublika Ichki ishlar vaziri, Toshkent shahar va Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmalari, viloyatlar Ichki ishlar boshqarmalari hamda Transportda xavfsizlikni ta’minlash boshqarmasi boshliqlarining ruxsati bilan amalga oshiriladi. Ushlangan va qamoqqa olinganlarni shahar atrofiga qatnaydigan poezdlarda konvoy qilish qat’iyan man etiladi.

Ushlangan va qamoqqa olinganlarni quyidagi hollarda piyoda konvoy qilishga ruxsat etilishi mumkin:

– temir yo‘l bekatlarida va aeroportlarda – maxsus jihozlangan avtotransport vositalaridan (almashtiruv tadbirlari amalga oshiriladigan joylardan) vagonlar, samolyotlarga (vertolyotlarga) va aksincha, qachonki ularga transport vositasi bilan yaqin borishning imkoniyati bo‘lmasa;

– maxsus jihozlangan avtotransport vositalardan – sud binolarida va sayyor o‘tkaziladigan sud jarayonlari uchun maxsus ajratilgan vaqtincha saqlash xonalariga, kuchaytirilgan tartibdagi tergov hibsxonalariga, tergov harakatlarini olib borish uchun voqea sodir etilgan joyga olib chiqilganda, tibbiyot muassasalariga, sanitar-nazorat ko‘rigidan o‘tkaziladigan joylarga (hammomlarga) va aksincha;

– vaqtincha saqlash hibsxonasi yoki konvoy xodimidan qochib ketgan shaxsni ushlangan joydan yaqin orada joylashgan ichki ishlar organlarining vaqtincha saqlash hibsxonalariga olib borish uchun transport vositasidan foydalanishning imkoniyati bo‘lmasa.

Ushlangan va qamoqqa olinganlarni aholi gavjum bo‘ladigan ko‘chalar bo‘ylab, poezd vagonlaridan fuqarolarning tushish yoki chiqish vaqtlarida, passajir platformalarida, yo‘lovchilar ko‘p bo‘lgan vokzal va boshqa binolar ichidan piyoda konvoy tadbirlarini amalga oshirish taqiqlanadi.

Ushlangan va qamoqqa olinganlar bilan aholi yashash joylarida piyoda konvoy tadbirlarini amalga oshirish faqat, bunday joylardan transport vositalaridan foydalanishning imkoniyati bo‘lmagan hollardagina ruxsat etiladi.

Tadbirlar amalga oshirilayotgan jarayonda xavfsizlikni ta’minlash va favqulodda holatlarning oldini olish maqsadida konvoy tarkibiga kinolog xodim xizmat iti bilan kiritilishi mumkin.

Konvoy xizmatlarining tezkorligini oshirish, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash va ushlangan hamda qamoqqa olinganlarni mustahkam qo‘riqlash maqsadida maxsus transport vositalari, kabina bilan kuzov o‘rtasida aloqa o‘rnatish vositalari bilan jihozlanadi.

Shuningdek, ushlangan va qamoqqa olinganlarni transport vositalariga chiqarish va undan tushirishda xavfsizlikni ta’minlash uchun metall panjaralar bilan to‘silgan (o‘ralgan) yo‘laklar, sudlanuvchilarni ajratib turish hamda sud jarayonida sudlanuvchilarni ushlab turish va ularning xavfsizligini ta’minlash maqsadida himoyalovchi to‘siqlar (temir panjaralar) bilan o‘ralgan xona (qafaslar), sayyor o‘tkazilayotgan sud jarayonlarida ko‘chma temir qafaslar tashkil etiladi.

Konvoy bilan maxsus radioaloqa va simli (telefon, telegraf) aloqa yordamida bog‘lanib turiladi.

Konvoy qilish uchun asoslar. Ushlangan va qamoqqa olinganlarni tergov harakatlari va sud jarayonlariga konvoy qilish tadbirlarini amalga oshirish uchun tergovchi, surishtiruvchi, sud, vaqtincha saqlash hibsxonalari va tergov hibsxonalari boshliqlari bergan yozma talabnoma asos bo‘ladi.

Agar ichki ishlar organlari tasarrufida konvoy bo‘linmasi mavjud bo‘lmasa ichki ishlar organi boshlig‘ining o‘zi vaqtincha saqlash hibsxonasidan ushlangan va qamoqqa olinganlarni konvoy qilish bo‘yicha qaror qabul qiladigan bo‘lsa, bunday hollarda uning o‘zi yetarli miqdorda konvoy tayinlash choralarini ko‘radi. Tergov va surishtiruv olib borayotgan xodimlarning talabnomalari bo‘yicha tergov harakatlari uchun vaqtincha saqlash hibsxonalaridan ushlangan va qamoqqa olinganlarni konvoy qilish tadbirlari tergov va surishtiruv o‘tkazayotgan ichki ishlar organlarining konvoy bo‘linmalari (naryadlari) tomonidan amalga oshiriladi.

Talabnomalardan tashqari ushlangan va qamoqqa olinganlar bilan konvoy tadbirlarini amalga oshirishga quyidagilar ham asos bo‘la oladi:

– tegishli sudning etap qilish to‘g‘risidagi ajrimi;

– alohida tergov harakatlarini (masalan, statsionar sud-psixiatriya ko‘rigidan o‘tkazish) amalga oshirish uchun surishtiruv ishlarini olib boruvchi vakolatli shaxs tomonidan qabul qilingan sud ajrimi;

– sud tomonidan chiqarilgan sud ajrimiga asosan vaqtincha saqlash hibsxonasida saqlash yoki qamoqqa olish yo‘li bilan ehtiyot chorasi o‘zgartirilgani to‘g‘risidagi sud ajrim muddatlarining tugaganligi, shuningdek, qamoq jazosi belgilangani to‘g‘risidagi sud ajrimi qabul qilinishi bilan (tergov hibsxonalariga konvoy qilinadi);

– vaqtincha saqlash hibsxonasi boshlig‘ining ko‘rsatmasi bilan tibbiy muassasalarga yuborish, umumiy foydalanishga mo‘ljallangan hammomlarga va almashtiruv joylariga konvoy qilish.

Ushlangan va qamoqqa olinganlarni qo‘riqlash, ular bilan konvoy tadbirlarini amalga oshirish jarayonida xavfsizlik choralarini ko‘rish tartib va qoidalari. Ushlangan va qamoqqa olinganlarni qo‘riqlash va konvoy qilishda konvoy xodimlariga qonunda belgilangan tartibda xavfsizlik choralarini qo‘llash vakolati berilgan.

Ushlangan hamda qamoqqa olinganlarning vaqtincha saqlash hibsxonasi xodimlariga (konvoy xodimlariga) bo‘ysunishdan bosh tortishlari, jismoniy qarshilik ko‘rsatishlari yoki qonunda cheklab qo‘yilgan boshqa jismoniy harakatlarning sodir etilishi, shuningdek konvoy xodimlariga yoki boshqa atrofdagilarga yetkazilishi mumkin bo‘lgan zarar yoki talafotning oldini olish maqsadida, ularga nisbatan qo‘l kishanlarini qo‘llashga ruxsat etiladi. Qo‘l kishanlari, shuningdek o‘ta xavfli jinoyatchilarni yoki vaqtincha saqlash hibsxonasidan hamda konvoy xodimlaridan qochishga uringan shaxslarni konvoy qilishda ham qo‘llaniladi (ushlangan va qamoqqa olinganlarni samolyotlarda (vertolyotlarda) va yengil avtotransport vositalarida konvoy qilishda, shuningdek o‘ta xavfli va o‘ta og‘ir turdagi jinoyatlarni sodir etganligi uchun uzoq muddatga qamoq jazosi qo‘llanilishi to‘g‘risidagi sud hukmi o‘qilayotganda, jinoyatchilarga nisbatan qo‘l kishanlarini qo‘llash shart). Ayrim hollarda qo‘l kishanlari o‘rnida qonunchilikda belgilangan tartibda xavfsizlik choralarini ko‘rishning boshqa (qo‘lni bog‘lash, sambo) usullarini ham qo‘llash mumkin.

Xizmat quroli oxirgi chora sifatida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining amaldagi buyrug‘i talablari asosida qo‘llaniladi.

Xizmat quroli ko‘chalarda, jamoat va aholi yashash joylarida, transport vositasida, shuningdek yong‘inga xavfli yoki portlovchi moddalar saqlanadigan omborxonalar joylashgan hududlarda, agarda qurol qo‘llayotgan xodimning boshqa bir begunoh shaxsga yoki yuqorida sanab o‘tilgan ob’ektlarga zarar yetkazmasligiga to‘liq ishonch hosil qilingandan keyin qo‘llanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi davlat chegaralari hududida qurol qo‘llashning zarurati tug‘ilganida, qurol qo‘llayotgan shaxs o‘qning davlat chegarasidan o‘tmasligi va chegarani qo‘riqlayotgan naryadlarga, chegara belgilariga zarar yetmaslik choralarini ko‘rishi kerak.

Qurol qo‘llagan xodim uni qo‘llash natijasida jarohat olgan shaxsga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatadi, tibbiy yordam xodimlarini chaqirish choralarini ko‘radi, shuning bilan bir qatorda, sodir bo‘lgan holat tafsilotini (vaqtincha saqlash hibsxonasi, konvoy qismi yoki ichki ishlar organlari bo‘yicha) navbatchiga ma’lum qiladi. Bunday holat o‘lim bilan tugallanganda, voqea joyiga prokuratura va tegishli idora xodimlari yetib kelgunga qadar, ushbu joyni qo‘riqlab, boshqa shaxslar tomonidan jamoat tartibi buzilishi hamda boshqa huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish chora-tadbirlarini ko‘radi.

Savol va topshiriqlar:

1. Ichki ishlar organlari maxsus muassasalarining turlarini aytib bering?
2. Vaqtincha saqlash hibsxonalarining asosiy vazifalarini sanab bering.
3. Ichki ishlar organlarining saqlash hibsxonalari qanday turlarga bo‘linadi?

4. Muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslarni reabilitatsiya qilish markazlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini aytib bering.

5. Ma’muriy tartibda hibsga olingan shaxslarni saqlash maxsus qabulxonasining asosiy vazifasi va unga shaxsni joylashtirish uchun asoslarni aytib bering.

6. Ichki ishlar organlari konvoy xizmatlarining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

7. Ichki ishlar organlari tomonidan shaxslarni konvoy qilish qanday tartibda amalga oshiriladi?

3-§. Ichki ishlar organlari nazorat-litsenziya faoliyatining mohiyati va ahamiyati

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar jarayonida jamoat xavfsizligini ta’minlash va tadbirkorlik sub’ektlari uchun qulay muhit yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu borada ichki ishlar organlarining nazorat-litsenziya faoliyati alohida o‘rin tutadi. Ushbu faoliyatning huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-iyuldagi “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi O‘RQ-701-son qonuni bilan tartibga solinadi.[20]

Nazorat-litsenziya faoliyatining mohiyati shundaki, u alohida turdagi faoliyat (harakatlar) bilan shug‘ullanish chog‘ida fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga zarar yetkazilishining, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga putur yetishining, shuningdek, jamoat xavfsizligiga xavf tug‘ilishining oldini olishga qaratilgan. Ichki ishlar organlari litsenziyalash va ruxsat berish sohasida maxsus vakolatli organ sifatida belgilangan bo‘lib, ular muayyan talab hamda shartlar asosida hujjatlarni rasmiylashtirish, litsenziyalarning ushbu shartlarga rioya etishini nazorat qilish shuningdek, huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash vakolatiga ega. Ushbu faoliyatning ahamiyati quyidagi muhim jihatlarda namoyon bo‘ladi:

Jamoat xavfsizligini ta’minlash: Ichki ishlar organlari qurol-yarog‘, pirotexnika vositalari hamda portlovchi va zaharli moddalar kabi muomalada bo‘lishi cheklangan buyumlar ustidan qat’iy nazorat o‘rnatadi.

Huquqiy tartibni saqlash: Avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash, xavfli yuklarni tashish hamda ommaviy tadbirlarni o‘tkazish kabi yo‘nalishlarda ruxsat berish tartib-taomillari orqali fuqarolarning xavfsizligi kafolatlanadi.

Davlat nazoratini amalga oshirish.

Litsenziya, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari orqali muayyan sohalarda sub’ektlarning yagona davlat hisobi yuritiladi va ular faoliyati ustidan masofaviy hamda joyiga chiqqan holda nazorat olib boriladi

[20] https:lux.uz.doks.

Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri – jamoat xavfsizligini ta’minlash hisoblanadi. Ayniqsa, faoliyatning litsenziyalanadigan turlarini amalga oshirish yoki faoliyatni (harakatlarni) ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar asosida yoki xabardor qilish tartibida amalga oshirish chog‘ida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan qonunchilikda belgilangan talablar hamda shartlarga rioya qilinishi ustidan davlat nazoratini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Ichki ishlar organlari tomonidan ushbu faoliyatni amalga oshirish orqali shaxs hayoti hamda sog‘ligi, jamiyat xavfsizligi va davlat osoyishtaligiga zarar yetkazilishi mumkin bo‘lgan xavflar bartaraf etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6196-son farmonida belgilanganidek, mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini, jismoniy va yuridik shaxslarning qonuniy manfaatlarini, fuqarolar hayoti va sog‘lig‘ini ishonchli himoya qilishni, shuningdek, jamoat xavfsizligini ta’minlash va atrof-muhitni muhofaza qilishni ichki ishlar organlarining tizimli faoliyatisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Nazorat-litsenziya tizimi deganda, keng ma’noda huquqiy normalarda mustahkamlangan, vakolatli davlat organlarining muayyan harakatlarni sodir etishga litsenziya (ruxsat) olishi yoki korxona, muassasa va tashkilotlar, birlashmalar yoki alohida shaxslarning muayyan vakolatlar olishi shartligini nazarda tutuvchi tartib tushuniladi. Nazorat-litsenziya tizimi ijtimoiy munosabatlarning turli sohalarida amal qiladi. Masalan, davlat siri sohasida korxona, muassasa hamda tashkilotlarning davlat siri bo‘lgan ma’lumotlardan foydalanish, axborotni himoya qilish vositalarini yaratish, shuningdek, davlat sirini saqlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish va xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq ishlarni bajarish borasidagi faoliyatga litsenziya beriladi, maxsus texnik vositalar muomalasi sohasida jismoniy va yuridik shaxslarning ma’lumotlarni raqamlovchi texnikani ishlab chiqarish, ta’mirlash, sotish (realizatsiya qilish) va ishlatish bilan bog‘liq faoliyati tartibga solinadi. Ichki ishlar organlarining litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari sohasidagi huquqiy asoslarini, O‘zbekiston Respublikasining “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi O‘RQ-701-son qonuni hamda u asosida qabul qilingan qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi. Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasining “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi O‘RQ-701-son qonunining maqsadi litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Nazorat-litsenziya tizimi deganda, keng ma'noda huquqiy normalarda mustahkamlangan, vakolatli davlat organlarining muayyan harakatlarni sodir etishga litsenziya (ruxsat) olishi yoki korxona, muassasa va tashkilotlar, birlashmalar yoki alohida shaxslarning muayyan vakolatlar olishi shartligini nazarda tutuvchi tartib tushuniladi. Nazorat-litsenziya tizimi ijtimoiy munosabatlarning turli sohalarida amal qiladi. *Masalan,* davlat siri sohasida korxona, muassasa va tashkilotlarning davlat siri bo'lgan ma'lumotlardan foydalanish, axborotni himoya qilish vositalarini yaratish, shuningdek, davlat sirini saqlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq ishlarni bajarish borasidagi faoliyatga litsenziya beriladi, maxsus texnik vositalar muomalasi sohasida jismoniy va yuridik shaxslarning ma'lumotlarni raqamlovchi texnikani ishlab chiqarish, ta'mirlash, sotish (realizatsiya qilish) va ishlatish bilan bog'liq faoliyati tartibga solinadi.

Litsenziyalash — bu litsenziya berish to'g'risidagi arizani topshirish, qabul qilish va ko'rib chiqish, litsenziyani berish, uning amal qilish muddatini uzaytirish, amal qilishini to'xtatib turish, qayta tiklash hamda tugatish, shuningdek litsenziyani bekor qilish, qayta rasmiylashtirish va chaqirib olish jarayoni bilan bog'liq tadbirlar majmui.

faoliyatning litsenziyalanadigan turi — O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilishi uchun litsenziya olish talab qilinadigan, qonun bilan belgilanadigan faoliyat turi.

litsenziya, ruxsat berish va xabardor qilish talablari hamda shartlari — faoliyatning litsenziyalanadigan turlarini amalga oshirish yoki faoliyatni (harakatlarni) ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar asosida yoki xabardor qilish tartibida amalga oshirish chog'ida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan bajarilishi shart bo'lgan, qonunchilikda belgilangan talablar hamda shartlar majmui.[21]

Ichki ishlar organlarida nazorat litsenziya faoliyatini amalga oshiruvchi maxsus bo'linmalar faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi tizimiga kiradi. Ushbu xizmatlar tizimiga – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi tarkibida Nazorat-litsenziyalash faoliyatini tashkil etish bo'limi; Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar va Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmalari, viloyatlar Ichki ishlar boshqarmalari Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash boshqarmalari tarkibida Nazorat-litsenziyalash faoliyatini tashkil etish bo'linmalari kiradi.

Tuman (shahar) Ichki ishlar boshqarmalari (bo'limlari) Jamoat tartibini saqlash bo'lim (bo'linma)larida nazorat-litsenziyalash faoliyati bo'yicha inspektor lavozimi joriy etilgan. Bunday lavozimlar joriy etilmagan joylarda esa ushbu vazifa

[21] O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-iyuldagi "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'RQ-701-son qonuni

tuman (shahar) Ichki ishlar boshqarma (bo‘lim) Jamoat tartibini saqlash bo‘lim (bo‘linma) inspektorlari yoki Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘limi profilaktika (katta) inspektorlaridan birining zimmasiga yuklatiladi. Biroq, ushbu xodimlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar va Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmalari, viloyatlar Ichki ishlar boshqarmalari Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash boshqarmalarida belgilangan muddatda ish o‘rganish kursini tamomlab, sinov topshirishlari shart.

Normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan ichki ishlar organlari tomonidan nazorat qilinadigan nazorat-litsenziya ob’ektlarini quyidagi *uch guruhga* bo‘lish mumkin:

– ***buyum va narsalar*:** bosmaxona jihozlari (shrift va matritsalar, bosmaxona bo‘yoqlari); muhr va shtamplar;

– ***moddalar*:** portlovchi moddalar va portlatuvchi vositalar; zaharlovchi moddalar, tez ta’sir etuvchi zaharlovchilar; narkotik vositalar, psixotrop moddalar, prekursorlar; ionlashtiruvchi nurlanish tarqatuvchi radioaktiv vositalar; methanollar;

– ***ob’ektlar*:** omborxonalar, buyum va vositalar bazasi, qurol ta’mirlash, pirotexnik, shtampelli-gravyuralik ustaxonalar, tez ta’sir etuvchi vositalarni tahlil qilish va sotish tashkilotlari, laboratoriyalari, o‘qotar qurollar va o‘q-dorilar bilan savdo qiladigan do‘konlar va radioaktiv moddalarni saqlash omborlari hamda ularni ko‘mish joylari.

Ichki ishlar organlari tomonidan nazorat-litsenziya faoliyatini amalga oshirishdan *ko‘zlangan asosiy maqsad* – foydalanilishi uchun litsenziya talab etiladigan buyum, modda va jihozlarni (narsalarni) sotib olish, sotish, saqlash, hisobga olish, tashish va foydalanish hamda ishlab chiqarishda o‘rnatilgan tartib-qoidalarning buzilishini oldini olish hamda ularning yo‘qolishi, o‘g‘irlanishi, jinoiy va boshqa maqsadlarda foydalanishga yo‘l qo‘ymaslikdan iborat.

Shu sababli, ichki ishlar organlarining nazorat-litsenziyalash faoliyati bilan shug‘ullanuvchi xizmatlari zimmasiga quyidagi asosiy vazifalar yuklatilgan:

– nazorat-litsenziya ob’ektlarining holatini o‘rganish va baholash;

– foydalanilishi uchun litsenziya talab etiladigan buyum, modda va jihozlarni saqlash, tashish, sotib olish, foydalanish va ishlab chiqarish uchun so‘rab, bildirilgan arizalarni ko‘rib chiqish;

– nazorat-litsenziya ob’ektlarining faoliyat ko‘rsatishiga ruxsat berish;

– ob’ektlarni tekshirishni rejalashtirish, tekshirib borish va bu borada amalga oshirilgan ishlar hisobini yuritish;

– ma’muriyat, profilaktika inspektorlari va boshqa aloqador xizmatlar bilan birgalikda ob’ektlarni ko‘zdan kechirish hamda natijalarini rasmiylashtirish;

– ov quroli mavjud shaxslarning hisobini olib borish, hisobga olinmagan qurollarni aniqlash hamda hisobga qo‘yish choralarini ko‘rish;

– nazorat-litsenziya ob’ektlari ustidan nazorat olib borish, bu borada aniqlangan huquqbuzarlik holatlari bo‘yicha tegishli qonuniy choralarni ko‘rish.

Savol va topshiriqlar:

1. Nazorat-litsenziya tizimi, litsenziyalash deganda nimani tushunasiz?
2. Ichki ishlar organlarining nazorat-litsenziya faoliyatini tartibga soluvchi qanday normativ-huquqiy hujjatlarni bilasiz?
3. Ichki ishlar organlari tomonidan nazorat qilinadigan nazorat-litsenziya ob’ektlari qanday turlarga ajratiladi?
4. Ichki ishlar organlari tizimida nazorat-litsenziya faoliyatini amalga oshiruvchi bo‘linmalarning asosiy vazifalarini aytib bering.
5. Ichki ishlar organlari nazorat-litsenziya faoliyatida qanday turdagi litsenziya (ruxsatnoma)ni berishi mumkin?
6. Ichki ishlar organlarining nazorat-litsenziya faoliyati qanday tartibda tashkil etiladi va amalga oshiriladi?
7. Ichki ishlar organlarining fuqaro va xizmat qurollari muomalasini nazorat qilib borish yo‘nalishlarini aytib bering.
8. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida nazorat-litsenziya tizimi qoidalarini buzish bilan bog‘liq qanday holatlar uchun ma’muriy javobgarlik nazarda tutilgan?

XVI BOB ICHKI ISHLAR ORGANLARINING YO‘L HARAKATI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH FAOLIYATI

1-§. Ichki ishlar organlarining Yo‘l harakati xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiluvchi normativ-huquqiy hujjatlar

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng o‘tgan yillar davomida respublikamizning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning uzoq yillarga mo‘ljallangan strategik rejalari asosida uning mustahkam bazasini yaratish yuzasidan katta ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda esa transport kommunikatsiyalari tizimini takomillashtirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida rivojlangan transport kommunikatsiyalari tizimini qaror toptirmay turib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish mushkul.

O‘zbeksiton Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqorolik jamiyatini yanada rifojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish” bilan belgilangan ustuvor yo‘nalishida transport vositalarining xavfsiz harakatlanishini ta’minlash dolzarb masalalardan ekanligi, shu jumladan, yo‘l infratuzulmasini takomillashtirish va xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish orqali yo‘llarda tan jarohati va o‘lim bilan bog‘liq yo‘l transport hodisalarini qisqartirish, shu jumladan yo‘llarda harakatni tartibga solish tizimini to‘liq raqamlashtirish va jamoatchilikning ushbu sohadagi ishlarda bevosita ishtirokini ta’minlash belgilab berildi[39].

Shu sababli, o‘tgan yillar davomida mamlakatimizda yo‘l-transport infratuzulmasini jadal rivojlantirish maqsadida, yuzlab kilometrlik avtomobil yo‘llarini qurish, mavjudlarini zamon talablariga mos holda rekonstruksiya qilish, yo‘llarda avtotransport vositalari qatnovini kengaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Shuningdek, o‘tgan yillar davomida respublikamiz aholisining turmush darajasi yildan yilga yaxshilanib borishi barobarida transport vositalarining soni bir necha barobarga ko‘paydi. Bu esa o‘z navbatida yo‘llarda harakat xavfsizligini ta’minlash, harakat ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilish, yo‘l-transport hodisalarining oldini olishni taqozo etadi[40].

Yo‘l harakati xavfsizligi yo‘l harakati qatnashchilarining yo‘l-transport hodisalari va ularning oqibatlaridan himoyalanganlik darajasini aks ettiruvchi yo‘l harakati holati bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash sohasida o‘ziga xos tajriba va huquqiy baza shakllangan.

Qonun hujjatlariga muvofiq, respublikamizda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan bo‘lib, o‘tgan yillar

[39] https://strategy.uz/index.

[40] O‘zbeksiton Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

davomida mazkur sohani samarali tartibga solish maqsadida mamlakatimizda bir qator qonun hamda qonun osti hujjatlari qabul qilindi.

Dastlabki amalga oshirilgan ishlardan biri 1991-yilda O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng 1994-yilda 1968-yilgi ikkita Vena konvensiyalarini imzoladi hamda ular asosida yangi milliy Yo‘l harakati qoidalarini ishlab chiqdi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tatbiq etildi. Transport vositalarining takomillashib, ko‘cha-yo‘l tarmoqlarining o‘sib, murakkablashib borishi yo‘l harakati qoidalarini qayta ko‘rib chiqib, unga o‘zgartirish hamda qo‘shimchalar kiritishni taqozo qildi. Shu zayil yo‘l harakati qoidasiga 2001-yilda o‘zgartirish va yangiliklar kiritildi, shuningdek, yangi nashrda Vazirlar Mahkamasi qarori bilan qayta tasdiqlandi. Hozirgi vaqtda amaldagi “Yo‘l harakati qoidasi” 2022-yil 12-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 172-sonli qarori bilan tasdiqlangan[41].

Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash sohasidagi maxsus vakolatli davlat organlariga quyidagilar kiradi:

– O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi;

– Avtomobil yo‘llari qurish va foydalanish tashkiloti;

– O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati[42].

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmatiga yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash sohasida quyidagi vakolatlar berilgan:

– yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish;

– yo‘l harakati xavfsizligi sohasidagi normativ hujjatlarni ishlab chiqish;

– yo‘l harakati qatnashchilarining qonunga, yo‘l harakati qoidalariga hamda boshqa qonun hujjatlarining yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashga oid qismiga rioya etishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

– og‘ir vaznli, yirik gabaritli, xavfli va maxsus yuklarni tashuvchi transport vositalarining qatnov yo‘nalishlarini belgilashda ishtirok etish;

– yo‘llarni, temir yo‘llarni kesib o‘tish joylarini, avtomobilga yoqilg‘i quyish shoxobchalarini, transport vositalarining konstruksiyalarini qurish, rekonstruksiya qilish loyihalariga rozilik berish;

– foydalanishdagi transport vositalarining texnik holati ustidan nazoratni amalga oshirish, transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigini o‘tkazish;

– yo‘llarning va temir yo‘llarni kesib o‘tish joylarining saqlanishi, ularning yo‘l harakatini tartibga solish vositalari bilan jihozlanishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

– yo‘l harakati xavfsizligi sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq bo‘lmagan yo‘llardan, shuningdek temir yo‘llarni kesib o‘tish joylaridan foydalanishni taqiqlash;

---

[41] https://lex.uz/ru/docs/2646376.

[42] O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 19-yanvardagi “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi 900-sonli qonuni.

– transport vositalarining, yo‘l harakati qoidalari buzilishining hamda yo‘l-transport hodisalarining hisobini va ro‘yxatini yuritish;

– transport vositalarini boshqarish huquqini beruvchi guvohnomalar berish;

– qonun hujjatlariga muvofiq, o‘zining vakolat doirasiga kiritilgan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish[43].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi PQ-3127-sonli qaroriga muvofiq, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlarini hayotga tatbiq etish Ichki ishlar vazirligi va uning hududiy bo‘linmalari zimmasidagi eng muhim vazifa etib belgilandi:

birinchidan – yo‘l harakati xavfsizligi respublika, o‘rta va quyi bo‘linmalari faoliyatini tashkil etishning sifat jihatidan yangi tartibini o‘rnatish, bunda ularning asosiy vazifalari hamda funksiyalari, rahbarlar va xodimlarning o‘ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishi uchun shaxsiy javobgarligi aniq belgilanishi hamda taqsimlanishini nazarda tutish;

ikkinchidan – yo‘llarda, ayniqsa Toshkent shahrida yo‘l-transport hodisalarining sodir etilishi hamda tirbandlikning hosil bo‘lishiga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni tizimli ravishda kompleks tahlil qilish shuningdek, bartaraf etish asosida yo‘l harakati qoidalari buzilishi profilaktikasi, yo‘l-transport hodisalari va yo‘llar bandligining oldini olish tizimini takomillashtirish;

uchinchidan – huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash hamda ularga chek qo‘yishning, nazoratning yuqori samaradorligini ta’minlovchi yo‘l harakatini avtomatlashtirilgan tarzda tartibga solish, videokuzatuv va yo‘l harakati qoidalari buzilishini qayd etish tizimlarini, boshqa texnik vositalarni, avvalo viloyat markazlarida yanada kengaytirish;

to‘rtinchidan – yo‘llarni saqlash va ularni yo‘l belgilari, axborot ko‘rsatkichlari, yo‘l harakatini tartibga solishning boshqa texnik vositalari bilan jihozlash bo‘yicha o‘rnatilgan talablarga so‘zsiz rioya etilishini ta’minlash;

beshinchidan – fuqarolar orasida yo‘l harakati ishtirokchilarining yo‘l harakati qoidalariga rioya qilish madaniyatini oshirishga qaratilgan samarali tushuntirish ishlari tizimini, shu jumladan aholi orasida targ‘ibot-tashviqot ishlarining shakl va usullarini kengaytirish hamda takomillashtirish orqali rivojlantirish;

oltinchidan – yo‘l harakati ishtirokchilarining huquqlariga so‘zsiz rioya etilishini, ularning sha’nini shu bilan bir qatorda qadr-qimmatini hurmat qilinishini, xizmatni o‘tash vaqtida muomala madaniyati va odob-axloq qoidalariga qat’iy amal qilinishini ta’minlash;

yettinchidan – yo‘l-patrul xizmati xodimlarining xizmat vazifalarini lozim darajada bajarishi ustidan nazoratni korrupsiya va vakolatini suiiste’mol qilish holatlarini istisno etadigan tarzda kuchaytirish, shuningdek kadrlarni tanlash, ularni kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlashning ta’sirchan mexanizmini joriy etish;

sakkizinchidan – davlat xizmatlarini ko‘rsatishning soddalashtirilgan tartib-taomillarini nazarda tutuvchi hamda ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi

[43] O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 19-yanvardagi “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi 900-sonli qonuni.

ishlarni ko‘rib chiqishning shaffofligini ta’minlovchi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo‘llash[44].

Mazkur qaror bilan yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar belgilab berildi:

– Toshkent va Nukus shaharlari, viloyat markazlarida yo‘l harakati xavfsizligini boshqarishning yagona markazlashtirilgan axborot-kompyuter tizimini yaratish;

– huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash hamda ularga chek qo‘yish, avtomobil harakati ustidan samarali nazoratni ta’minlash maqsadida yo‘l-patrul xizmati statsionar postlarini maqbullashtirish, ularni belgilangan namunaviy sxema bo‘yicha bosqichma-bosqich rekonstruksiya va modernizatsiya qilish, moddiy-texnik jihozlash;

– Toshkent shahar, Samarqand va Xorazm viloyatlarida mototsiklda yo‘l-patrul xizmatini o‘tashni tashkil etish, tajriba natijalarini tahlil qilgan holda yo‘l-patrul xizmatining mazkur turini mamlakatning boshqa hududlarida joriy etish;

– yo‘l-patrul xizmati maxsus avtotransport vositalarini audio va video qayd etish qurilmalari, shuningdek ularning xodimlarini mobil videokameralar bilan bosqichma-bosqich jihozlash;

– yo‘l harakati sohasida ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish va rasmiylashtirish, tegishli notarial harakatlarni hisobga olish, avtotransport vositalarining texnik ko‘rikdan o‘tishini nazorat qilish, shuningdek yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmalari tomonidan davlat xizmatlarini ko‘rsatish tartib-taomillarini soddalashtirishni ta’minlovchi elektron tizim ishlab chiqish;

– avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini, shu jumladan o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish shuningdek, o‘qitishning zamonaviy usullarini joriy qilishni nazarda tutgan holda, yanada takomillashtirish.

Shuningdek, tegishli qaror bilan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Yo‘l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlangan.

Ichki ishlar organlarining yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash faoliyatini samarali huquqiy tartibga solish maqsadida, o‘tgan yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining bir qator qarorlari ham qabul qilinib, sohaga tatbiq etildi. Bularga:

– “Yo‘l-transport hodisalarini hisobga olish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 303-son (2011-yil 15-noyabr) qarori;

– “Avtomototransport vositalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va ularga ro‘yxatdan o‘tkazish davlat raqami belgilarini berish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 683-son (2017-yil 31-avgust) qarori;

– “Avtomototransport vositalari va shahar elektr transporti vositalari haydovchilarini tayyorlash hamda qayta tayyorlash bo‘yicha nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish faoliyatini litsenziyalash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 408-son (2018-yil 31-may) qarori;

[44] https://lex.uz/docs.

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yo‘l-patrul xizmati xodimlarining yo‘l harakati qatnashchilari bilan o‘zaro munosabatlari hamda maxsus moslamalardan foydalanishi tartibi to‘g‘risida”gi 975-son (2018-yil 1-dekabr) qarori;

– “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 125-son (2021-yil 9-mart) qarori;

– “Avtomobil yo‘llarida inson xavsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 190-son (2022-yil 4-aprel) qarori;

2024-yil 19-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi O‘RQ-900-son qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun qabul qilinganidan olti oydan so‘ng, ya’ni 2024-yilning 21-iyul kunidan kuchga kirishi, shuningdek shu sanadan e’tiboran O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-348-son qonuni o‘z kuchini yo‘qotishi e’tiborga molik. Yangi qonunga ko‘ra Ichki ishlar vazirligining Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlovchi maxsus vakolatga ega organ sifatida qayd etilganligini ta’kidlab o‘tish joiz.

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi 2025-yil 20-fevraldagi O‘RQ-1033-son qonun bilan ayrim qonun hujjatlariga yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash va yo‘l-transport hodisalarining oldini olishga qaratilgan, shu jumladan, qo‘pol qoidabuzarliklar sodir etgan shaxslarga nisbatan jazo muqarrarligini ta’minlash, transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum etilgan shaxs tomonidan transport vositalarini takroran boshqarganlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilash, yo‘l harakati qoidabuzarliklari bo‘yicha hisoblanadigan jarima ballari belgilangan miqdordan oshganligi uchun ma’muriy jazo qo‘llash, shuningdek siqilgan tabiiy gazda, suyultirilgan neft gazida ishlaydigan transport vositalari ishtirokidagi hodisalar bo‘yicha alohida moddalarda ma’muriy va jinoiy javobgarlikni belgilashni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda.

Barcha yo‘nalishlarda qonun ijrosini ta’minlash bevosita yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash sohasida davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi organlar, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati tizimida doimiy ravishda amalga oshirilishi kerak. Mazkur xizmat faoliyatini samarali tashkil etish, avvalo “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonunning mazmun-mohiyatini rahbarlar chuqur o‘rganishlari hamda qonun normalarini barcha xodimlar tomonidan amaliyotda qo‘llash uchun ularda zarur bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga doir kompleks chora-tadbirlarni tizimli amalga oshirishlarini taqozo etadi. Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati o‘z faoliyatni to‘liq “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonun asosida amalga oshiradi. Xizmat tizimiga kiruvchi barcha tarkibiy tuzilmalar hamda ularning xodimlari mazkur qonun bilan ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan asosiy

vazifalar va faoliyat yo‘nalishlarini qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlar doirasi hamda asosiy prinsiplarga rioya etgan holda qonun normalari talablari asosida amalga oshirishlari zarur.

O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida ichki ishlar organlarining yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash faoliyatining asosiy qoidalari, muhim yo‘nalishlari, uni takomillashtirish bo‘yicha ustuvor vazifalar hamda boshqa ijtimoiy munosabatlar, masalalar huquqiy jihatdan belgilab berilgan bo‘lsa, ularni amaliy faoliyatga joriy etish mexanizmlari O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining idoraviy normativ-huquqiy hujjatlari, xususan buyruq, yo‘riqnoma va nizomlar bilan belgilab beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi IIVning idoraviy normativ-huquqiy hujjatlari bilan ichki ishlar organlarining yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash faoliyatining quyidagi yo‘nalishlari alohida nizom va yo‘riqnomalar bilan tartibga solingan:

– yo‘l-patrul xizmati faoliyatini tashkil etish;

– muntazam yo‘l-patrul maskani, blok-postlarida xizmatni tashkil etish;

– avtomobil transportida yo‘lovchilar va bagaj tashish qoidalarini hamda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish xavfsizligini ta’minlash;

– yo‘l harakati xavfsizligi xizmatlari huzuridagi ro‘yxatlash va imtihon olish bo‘limlari faoliyatini tashkil etish;

– avtomototransport vositalari bilan bog‘liq ishonchnomalarni, ularni boshqa shaxsga berish va ijaraga berish shartnomalarini yo‘l harakati xavfsizligi xizmati organlarida ro‘yxatga olish (hisobga qo‘yish);

– transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazishni tashkil etish;

– yo‘l-transport hodisalarini hisobga olish, ularning oldini olishga qaratilgan xizmat faoliyatini tashkil etish;

– yo‘l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma’muriy ishlarni ko‘rib chiqish;

– yo‘l harakati xavfsizligi xizmatlarining ichki ishlar organlari boshqa bo‘linmalari bilan hamkorligini tashkil etish va boshqalar.

2-§. Ichki ishlar organlarining yo‘l harakati xavfsizligi xizmatlari tizimi

Ichki ishlar organlari tizimini isloh etish jarayonida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar yo‘l harakat xavfsizligi xizmatlari faoliyatini tubdan isloh etishga imkon berdi.

2021-yil 26-martdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6196-son farmoniga asosan, Ichki ishlar vazirligi tuzilmasini takomillashtirish orqali turdosh sohaviy xizmatlar faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirishning yagona tizimini joriy etish maqsadida:

Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi, Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasi, Yo‘l harakati xavfsizligi bosh

boshqarmasi, Probatsiya xizmatini o‘z ichiga oladigan Jamoat xavfsizligi departamenti tashkil etildi. Bugungi kunda Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati bosh boshqarmasining rasmiy nomlanishi “IIV Jamoat xavfsizligi departamenti Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati” bo‘lib belgilandi.

Tizimda olib borilgan islohotlar natijasida yo‘l harakati xavfsizligi xizmatlarining quyidagi tarkibiy tuzilmalarini o‘z ichiga olgan yangi tizimi shakllandi:

1) O‘zbekiston Respublikasi IIV Jamoat xavfsizligi departamenti Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati bosh boshqarmasi;

2) Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalarining yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmalari;

3) Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining yo‘l-patrul xizmati brigadasi;

4) Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmasi hamda viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmalari yo‘l-patrul xizmati batalonlari (otryadlari);

5) Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV hamda viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari tuman (shahar) boshqarmalari (bo‘limlari)ning yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limlari (bo‘linmalari, guruhlari)[45];

Tizimning eng yuqori bo‘g‘ini – O‘zbekiston Respublikasi IIV Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati bosh boshqarmasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi markaziy apparatining tuzilmaviy bo‘linmasi hisoblanib, yo‘llarda huquqbuzarliklarni oldini olish va ularning profilaktikasi, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ishlar tashkil etilishini ta’minlaydi. Bosh boshqarma o‘z vakolatlari doirasida respublikada yo‘l harakati xavfsizligi xizmati bo‘linmalariga umumiy rahbarlik qiladi, o‘z funksiyalarini Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar va Toshkent viloyati IIBB, viloyatlar IIB hamda shahar-tuman IIBning tegishli apparatlari orqali amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi IIV Jamoat xavfsizligi departamenti Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati Bosh boshqarmasining asosiy vazifalari:

– yo‘l-transport infratuzilmasining holati, yo‘l-transport hodisalari dinamikasi, yo‘l harakati qoidalarining buzilishi, yo‘llarning tirbandligi, transport vositalarining texnik holatini hisobga olgan holda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risidagi ma’lumotlarni kompleks va tizimli tahlil qilish, shuningdek mazkur sohada vujudga keladigan muammolar hamda kamchiliklarning sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish;

– ichki ishlar organlarining yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmalarining yo‘l-transport hodisalari shuningdek, yo‘l harakati qoidalarining buzilishlari bilan kurashish borasidagi faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish;

– yo‘l harakati xavfsizligi ta’minlanishini, shu jumladan yo‘l harakati qoidalari buzilishi profilaktikasi va ularga chek qo‘yishni, yo‘l-transport hodisalari hamda yo‘llar tirbandligini oldini olishni, huquqbuzarliklar sodir etilishiga aloqador

[45] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PF-6196-son farmoni.

bo‘lgan shaxslarni izlab topish, shu bilan bir qatorda shaxslar aniqlanishini tashkil etish;

– ichki ishlar organlarining boshqa bo‘linmalari, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o‘zaro hamkorlikni tashkil etish, shuningdek aholi bilan yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash masalalari bo‘yicha ochiq muloqotlar olib borish;

– yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashga oid qonun hujjatlarini, huquqni qo‘llash amaliyotini, shuningdek uning shakllari va uslublarini yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish.

Bosh boshqarma o‘ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi sohalarga doir funksiyalarni amalga oshiradi:

– yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risidagi ma’lumotlarni kompleks va tizimli tahlil qilish, shuningdek mazkur sohada vujudga keladigan muammolar va kamchiliklarning sabablari hamda shart-sharoitlarini bartaraf etish sohasida;

– ichki ishlar organlarining yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmalarining yo‘l-transport hodisalari va yo‘l harakati qoidalarining buzilishlari bilan kurashish borasidagi faoliyatini tashkil etish hamda muvofiqlashtirish sohasida;

– yo‘l harakati xavfsizligi ta’minlanishini tashkil etish sohasida;

– ichki ishlar organlarining boshqa bo‘linmalari, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o‘zaro hamkorlikni tashkil etish, shuningdek aholi bilan yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash masalalari bo‘yicha ochiq muloqotlar olib borish sohasida;

– yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashga oid qonun hujjatlarini, huquqni qo‘llash amaliyotini, shuningdek uning shakllari va uslublarini yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish sohasida.

Ichki ishlar organlarining yo‘l harakati xavfsizligi xizmati faoliyatini boshqarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi IIV Yo‘l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi tarkibida bir qator tarkibiy tuzilmalar (xizmat, bo‘lim va guruh) faoliyat yuritadi.

Tizimning keyingi bo‘g‘ini – Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalarining yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmalari o‘zlariga berilgan vakolat doirasida tarkibidagi bo‘lim va bo‘linmalar, yo‘l-patrul xizmati brigadasi, batalonlari hamda otryadlari, tuman (shahar) boshqarmalari (bo‘limlari)ning yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limlari (bo‘linmalari, guruhlari) faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradilar. Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmalari hududiy darajada yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq tadbirlarini tashkillashtiradi va o‘tkazadi.

Birinchi va ikkinchi bo‘g‘indagi davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati apparatlari asosiy e’tiborni joylardagi bo‘ysunuvchi xizmatlarning apparatlari hamda bo‘linmalariga kundalik tashkiliy-metodik rahbarlikni ta’minlashga qaratib, asosan tashkilotchilik faoliyatini amalga oshiradilar. Ular yo‘llarda harakat xavfsizligini ta’minlash va jamoat tartibini amalda saqlash funksiyalarini faqat operativ vaziyat murakkablashgan (favqulodda holatlar, tabiiy ofatlar va boshqa) hollarda bajaradilar. Bu apparatlar o‘zlarining operativ bo‘ysunishida bo‘lgan

yo‘l harakati xavfsizligi xizmati bo‘linmalari – yo‘l-patrul xizmatining saf bo‘linmalari hamda boshqa xizmat va bo‘linmalarga rahbarlik qilib, asosan boshqaruv funksiyalarini bajaradi.

Yo‘l-patrul xizmati O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati tuzilmasidagi bo‘linma hisoblanadi va o‘z vakolati doirasida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashni amalga oshiradi. Yo‘l-patrul xizmati saf bo‘linmalariga safdagi brigada, batalon, alohida otryad, divizion, mobil guruh va ekipaj bo‘linmalari kiradi.

Yo‘l-patrul xizmatini o‘tashning asosiy turlariga quyidagilar kiradi:

– avtomobil, mototsiklda patrullik qilish;

– piyoda patrullik qilish;

– xizmatni postlarda (shu jumladan muntazam yo‘l-patrul xizmati maskanlarida) o‘tash;

– transport vositalarini kuzatuvi va eskortini amalga oshirish[46].

Tizimning quyi bo‘g‘ini Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV hamda viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari tuman (shahar) boshqarmalari (bo‘limlari)ning yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limlari (bo‘linmalari, guruhlari)ni o‘z ichiga olib, ular yo‘l harakati xavfsizligi xizmati bo‘linmalari zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishning bevosita tashkilotchi va ijrochilari hisoblanadi. Mazkur bo‘g‘indagi yo‘l harakati xavfsizligi xizmatlari yo‘llarda harakat xavfsizligini ta’minlash, avtomototransport vositalarining texnik holati, ulardan foydalanish qoida va me’yorlarga amal qilishni nazorat qilish vazifalarini amalga oshiradi.

Yuqoridagi barcha bo‘g‘indagi tarkibiy tuzilmalar yaxlit tarzda ichki ishlar organlari yo‘l harakati xavfsizligi xizmatlarining tizimini tashkil etadi hamda qonun hujjatlari bilan zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajaradilar.

3-§. Ichki ishlar organlari yo‘l harakati xavfsizligi xizmatlarining asosiy vazifalari

Ichki ishlar organlari yo‘l harakati xavfsizligi xizmatlari faoliyatining asosiy mazmunini yo‘llarda yo‘l harakatini tashkil etish, yo‘llarda harakat xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish, sodir etilgan odam o‘limi bilan bog‘liq yo‘l-transport hodisalarini issiq izlardan fosh etish hamda ularning sodir etilishida aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish tashkil qiladi. Bunda asosiy e’tibor yo‘l-transport hodisalarining oldini olishga – ularning kelib chiqish sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish uchun zarur choralar ko‘rish, aholi orasida tarbiyaviy hamda tushuntirish ishlari olib borish, huquqiy tashviqot kabilarga qaratiladi.

Yo‘l harakatini tashkil etish – yo‘l harakatini boshqarish hamda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha tashkiliy-huquqiy, tashkiliy-texnik tadbirlar va boshqaruv harakatlari majmui;

[46] 2018-yil 20-iyundagi O‘zbekiston Respublikasi IIVning “Yo‘l-patrul xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi 168-sonli buyrug‘i.

Yo‘l harakati xavfsizligi – yo‘l harakati ishtirokchilarining yo‘l-transport hodisalari va ularning oqibatlaridan himoyalanganlik darajasini aks ettiruvchi yo‘l harakati holati;

Yo‘l harakati monitoringi – yo‘l harakatini tashkil etishning asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi hamda yo‘l harakatini tashkil etishning texnik vositalari holati haqidagi axborotni hisobga olish, umumlashtirish, unga ishlov berish va uni tahlil qilish;

Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash – yo‘l-transport hodisalari yuzaga kelishi sabablarining oldini olishga, bunday hodisalar oqibatlarining og‘irligini kamaytirishga qaratilgan faoliyat[47].

Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmatining yo‘l harakati sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

– yo‘l harakati sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqishda hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

– yo‘l harakati sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek normativ hujjatlar loyihalarini o‘z vakolatlari doirasida ishlab chiqadi;

– yo‘l harakati to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan davlat nazoratini o‘z vakolatlari doirasida amalga oshiradi;

– og‘ir vaznli, yirik gabaritli, xavfli va maxsus yuklarni tashuvchi transport vositalarining harakatlanish yo‘nalishlarini belgilashda ishtirok etadi;

– yo‘llarni, temir yo‘llar kesishmalarini, shuningdek avtomobillarga yoqilg‘i quyish stansiyalarini va yo‘llar bo‘ylab hamda yo‘l bo‘yi hududlarida joylashgan boshqa inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish hamda kapital ta’mirlash loyihalarini yo‘l harakatini tashkil etishga oid qism bo‘yicha ko‘rib chiqadi va kelishadi;

– qurilishi (rekonstruksiya qilinishi) va kapital ta’mirlanishi tugallangan yo‘l ob’ektlarini, temir yo‘llar kesishmalarini foydalanishga qabul qilish bo‘yicha komissiyalarning ishida ishtirok etadi;

– foydalanishdagi transport vositalarining texnik holati ustidan nazoratni amalga oshiradi, transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigini o‘tkazadi (bundan jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan M1 toifasidagi transport vositalari mustasno);

– yo‘l harakatining monitoringini tashkil etadi va amalga oshiradi;

– yo‘l harakatini tashkil etish texnik vositalarining texnik holati, shuningdek yo‘llarning va temir yo‘llar kesishmalarining saqlanishi, ularning yo‘l harakatini tartibga solish vositalari bilan jihozlanishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

– yo‘l harakati sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq bo‘lmagan yo‘llardan va temir yo‘llar kesishmalaridan foydalanishni belgilangan tartibda taqiqlaydi;

– yo‘l harakatini tashkil etish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiradi;

[47] O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 19-yanvardagi “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi 900-sonli qonuni.

– yo‘l harakatini tashkil etishning texnik vositalarini o‘rnatish yoki olib tashlash yuzasidan yo‘l egalariga ko‘rsatmalar kiritadi, ularni bajarish muddatlari va sifati ustidan nazoratni amalga oshiradi[48];

Normativ-huquqiy hujjatlarda ichki ishlar organlari yo‘l harakati xavfsizligi xizmatlariga quyidagi asosiy vazifalar yuklatilgan:

– yo‘l harakatini tartibga solish va xavfsizligini samarali tizimini yaratish, yo‘l-patrul xizmati bo‘limlari tomonidan xizmat hududlarida jamoat tartibini ta’minlash;

– ichki ishlar organlarining boshqa xizmatlari bilan birgalikda qo‘poruvchilik-terrorchilik ko‘rinishidagi faoliyati, narkotik moddalar, o‘qotar qurol va o‘q-dorilarni noqonuniy tashish hamda boshqa jinoiy xatti-harakatlarning oldini olish, aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha samarali hamkorlikni ta’minlash;

– yo‘l-transport hodisalari bilan samarali kurashishni tashkil etish, ularni oldini olish choralarini ishlab chiqish, shuningdek, olib qochilgan va o‘g‘irlangan transport vositalarini qidirish;

– zamonaviy kompyuter texnikalari va texnologiyalarini, samarali dispetcherlik xizmati va axborot-kompyuter tizimlaridan foydalangan holda yo‘l harakati xavfsizligini boshqarish tizimini barpo etish;

– avtomototransport vositalarining texnik holati, ulardan foydalanish me’yorlari va qoidalariga amal qilinishining samarali nazoratini tashkil etish;

– tegishli muassasa va tashkilotlar bilan birgalikda yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha standart, me’yor va qoidalarni ishlab chiqish, yo‘llarni, avtotransport vositalari parkini saqlash, ularga rioya qilinishi nazoratini ta’minlash, yo‘llar, temir yo‘l kesishmalari, avto yonilg‘i quyish shoxobchalarini qurish va ta’mirlash loyihalarini yo‘l harakati xavfsizligi talablarini e’tiborga olgan holda ko‘rib chiqish;

– yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashga yo‘naltirilgan samarali profilaktika ishlarini tashkil etish.

Quyidagilar yo‘l-patrul xizmatining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- yo‘l harakati qatnashchilarining hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulkini muhofaza qilish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

- transport vositalarining xavfsiz va uzluksiz harakatlanishini ta’minlash;

- yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, shu jumladan yo‘llar tirbandligining oldini olish, yo‘l-transport hodisalari va yo‘l harakati qoidalari buzilishlarining profilaktikasi, shuningdek ular bilan kurashishni ta’minlash, qoidabuzarliklar sodir etilishiga aloqador bo‘lgan shaxslarni izlab topish va ularning shaxsini aniqlash;

- yo‘l harakati qatnashchilariga huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishda yordam ko‘rsatish;

- yo‘llarda harakatlanishni tartibga solish, ommaviy tadbirlar favqulodda vaziyatlarda zarur bo‘lgan yo‘l uchastkalarini yopish (to‘sish), transport vositalari va piyodalarning harakatini cheklash yoki to‘xtatish bo‘yicha shoshilinch choralarni ko‘rish;

[48] O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 19-yanvardagi “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi 900-sonli qonuni.

- olib qochib ketilgan yoki yo‘l-transport hodisasi sodir bo‘lgan joydan ketib qolgan avtotransport vositalari qidiruvini amalga oshirish, tezkor-qidiruv tadbirlari va tergov harakatlarini olib borishda ko‘maklashish;

- ko‘chalar, maydonlar, transport magistrallarida, shuningdek ommaviy tadbirlar o‘tkazilishida fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash;

- sodir etilgan yo‘l harakati qoidalarini buzish bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni vakolati doirasida ko‘rib chiqish va ularga nisbatan chora ko‘rish;

- yo‘l-transport hodisalari sodir bo‘lgan joyda kechiktirib bo‘lmaydigan tergovga qadar tekshiruv harakatlarini olib borish, jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish;

- yo‘l-transport hodisalarining kelib chiqish sabablarini va bunga imkon bergan shart-sharoitlarni tahlil qilish hamda ularni bartaraf etish choralarini ko‘rish, yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmalari huzuridagi jamoatchilik kengashlari bilan hamkorlikda jamoatchilik fikrini o‘rganish;

- yo‘l-transport hodisalarining profilaktikasi hamda yo‘l harakatini tashkil qilishga oid ijobiy tajribalarni, shu jumladan xorijiy amaliyotni o‘rganish orqali amaliyotga joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

- yo‘l harakati ishtirokchilarining yo‘l harakati qoidalariga rioya qilish madaniyatini oshirishga qaratilgan samarali tushuntirish ishlarini, shu jumladan aholi orasida targ‘ibot-tashviqot ishlarini, xususan ommaviy axborot vositalarini keng jalb qilgan holda, tashkil qilish;

- ichki ishlar organlarining boshqa bo‘linmalari, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorlikni tashkil etish, shuningdek aholi bilan yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash masalalari bo‘yicha ochiq muloqotlar olib borish.

- YPX qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham amalga oshirishi mumkin.

Ichki ishlar organlari yo‘l harakati xavfsizligi xizmatlari o‘z vazifalarini bajarish uchun quyidagi yo‘nalishlardagi funksiyalarni amalga oshiradi[49]:

1) yo‘llardagi harakatlanishning nazoratini amalga oshirish bo‘yicha:

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan avtomobilda xorijiy yuk tashuvchilarning O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirishlari, bo‘lishlari, yuk olib o‘tishlari va chiqib ketishlari tartibi talablari ijrosini ta’minlash ishlarini tashkillashtiradi;

– yo‘l-patrul xizmatini mustahkamlash, uni takomillashtirish bo‘yicha asoslangan takliflar tayyorlaydi, uning samarasini oshirishga oid me’yoriy hujjatlarni tayyorlaydi, o‘quv seminarlar o‘tkazadi;

– harakatlanishni nazorat qilish uchun jalb etiladigan boshqa texnik vositalarga vertolyot, radiotelekuzatuv va hokazo ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanish choralarini ko‘radi va nazorat qilib boradi;

– yo‘l-patrul xizmati bo‘linmalarining ichki ishlar organlarining boshqa bo‘linmalari bilan fuqarolar xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurash,

[49] https://lex.uz/docs/6764454.

jamoat tartibini saqlash tadbirlarida samarali hamkorligini tashkillashtiradi va nazorat qiladi;

– maxsus avtomobillarni, xorijiy delegatsiyalarni, avtomobillar jamlanmasini, qimmatbaho, katta hajmli hamda xavfli yuklarni to‘siqsiz harakatlanishini va kuzatuvini ta’minlaydi;

– alohida imtiyozga ega bo‘lgan avtomobil yo‘nalishida maxsus avtoyo‘llarda, eskort hamda kuzatuvlarni amalga oshirilishining xavfsiz usul va taktikalarini ishlab chiqadi. Maxsus tadbirlar, xalq sayillari hamda turli bayramlar o‘tkazilishida harakat xavfsizligini ta’minlash borasidagi ishlarni tashkillashtiradi;

– yo‘l-patrul xizmati xodimlarining qonunchilikka va xizmat intizomiga rioya etishlari yuzasidan nazoratni tashkil etadi, oshkora va xufiyona tekshiruvlar o‘tkazadi;

– Respublika hududida yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha tezkor vaziyatni tahlil qiladi, zarurat tug‘ilganida bor kuch va vositalarni to‘g‘ri taqsimlash shu bilan bir qatorda o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida takliflar ishlab chiqadi;

– zarurat tug‘ilganda xorijiy transport vositalarining harakatlanishi uchun belgilangan yo‘llarda tegishli xizmatlar bilan kelishilgan maxsus YPX maskanlari (postlari) joylashuvi (dislokatsiyasi)ni tayyorlab, IIV rahbariyatiga tasdiqlash uchun taqdim etadi;

– yo‘l-patrul xizmatini zaruriy tezkor xizmat transporti, aloqa va texnik vositalari hamda kiyim-bosh, jihozlar bilan ta’minlash bo‘yicha takliflarni ko‘rib chiqish uchun ishlab chiqadi;

– ularni foydalanishga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyalarining ishida o‘rnatilgan tartibda ishtirok etadi. Yo‘l-patrul xizmatida mavjud barcha texnikadan foydalanish ustidan nazoratni tashkil etadi.

– yo‘l-patrul xizmati xodimlari tomonidan harakat, qatnashchilarining hayoti sog‘lig‘i va mol-mulkini muhofaza etish, ularning qonuniy huquq va manfaatlarini hamda jamiyat va davlat manfaatlarini himoya etilishini ta’minlaydi;

– respublika avtomobil yo‘llarida transport vositalarining xavfsiz va uzluksiz harakatlanishining ta’minlanishini tashkillashtiradi hamda nazorat qiladi;

– yo‘l harakati sohasidagi jinoiy va ma’muriy huquqbuzarliklarning oldini olish hamda barham berish choralari ko‘rilishini tashkillashtiradi shu bilan bir qatorda nazorat qiladi;

– kuch va vositalarni oqilona ishga solish yo‘li bilan transport vositalari hamda piyodalarning xavfsiz harakatlanishini yo‘l harakati qoidalari buzilishining oldini olish, shuningdek, ularni aniqlashni, zaruriyatiga qarab haydovchi, piyoda hamda yo‘lovchilarga, bundan tashqari yo‘l-transport hodisasi oqibatida jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam berilishini tashkil etadi va ta’minlaydi[50];

2) yo‘llarda harakatlanish doirasida ma’muriy qonunchilikni qo‘llash bo‘yicha:

– ma’muriy qonunchilikning yo‘llarda harakatlanishiga oid qismini takomillashtirish maqsadida, tegishli vazirlik, idora va tashkilotlar hamkorligida takliflar tayyorlaydi;

[50] https://lex.uz/docs/6764454.

– yo‘l harakati qoidalarining buzilishini hisobini, ma’muriy qonunchilikni qo‘llash amaliyotini umumlashtiradi, ma’muriy huquqbuzarliklar bo‘yicha tuzilgan hujjatlarni qonunchilikda belgilangan tartibda ko‘rilishini tashkil qiladi va uning nazoratini olib boradi;

– ma’muriy qonunchilikni qo‘llashda uning samarasini oshirish maqsadida sud idoralari bilan hamkorlik qilishni tashkil etadi.

3) qidiruv va surishtiruv ishlari bo‘yicha:

– ichki ishlar organlarining boshqa xizmatlari bilan hamkorlikda olib qochilgan, o‘g‘irlangan va haydovchilari yo‘l-transport hodisasi sodir bo‘lgan joydan yashiringan transport vositalarini qidirish, transport vositalari bilan bog‘liq jinoyatlarini issig‘ida ochish ishlarini tashkillashtiradi hamda nazorat qiladi;

– mulkchilik shaklidan qat’i nazar, avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish ustaxonalarida ta’mirlash ishlarining qonuniyligini tekshirish ishlarini tashkillashtiradi va nazorat qiladi.

– yo‘l harakati xavfsizligiga qarshi va transport vositalaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan huquqbuzarliklar oqibatida sodir bo‘lgan yo‘l-transport hodisalari yuzasidan surishtiruv ishlarining o‘tkazilishini tashkil etadi va nazorat qiladi;

– yo‘l-transport hodisalari sodir etilgan joyda kechiktirib bo‘lmaydigan harakatlarni amalga oshirilishini, shu jumladan odamlarni boshqa joyga ko‘chirish, ularga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish, shikastlangan transport vositalarini belgilangan joyga olib borish va qarovsiz qoldirilgan mol-mulkni qo‘riqlash ishlarini tashkillashtiradi va nazorat qiladi;

4) avtomototransport vositalarining texnik holatini nazorat qilish bo‘yicha:

– avtomototransport vositalarini, ularning tirkama, yarim tirkamalarini belgilangan muddatlarda davlat texnik ko‘rigidan o‘tkazishni tashkil qiladi, uning to‘liq va sifatli amalga oshirilishi ustidan nazoratni ta’minlaydi. Texnika ko‘rigi natijalarini umumlashtirib, hisobot tayyorlaydi;

– avtomototransport vositalari, trolleybus va tramvaylarning yangi yoki qayta tayyorlangan rekonstruksiya qilingan, qayta jihozlangan nusxalarini sinash va qabul qilishda qatnashadi;

– ishlab chiqarilayotgan avtomototransport vositalarini Davlat namunalariga mosligini nazorat qilishni tashkil qilib, tegishli vazirlik va idoralarga foydalanishda bo‘lgan avtomototransport vositalarining xavfsizligini oshirish bo‘yicha takliflar kiritadi;

– tegishliligidan qat’i nazar, keng foydalanishda bo‘lmagan alohida transport vositalari loyihalari asosida tayyorlangan (jumladan mustaqil tayyorlangan) va qayta jihozlangan transport vositalari namunalarini ko‘rib chiqadi hamda ularning foydalanilishi yuzasidan qarorlar qabul qiladi;

– avtomototransport vositalarining holati ustidan texnik nazoratni ulardan foydalanishda xavfsizlikni ta’minlash, me’yoriy talablar bajarilishini nuqtai nazaridan tashkil etadi;

– vazirliklar, idoralar va tashkilotlar tomonidan transport vositalarining texnik holatini yaxshilash, haydovchilar intizomini mustahkamlash, harakatlanish

xavfsizligi xizmatlari ish samarasini oshirish chora-tadbirlarini olib borilishining nazoratini tashkil qiladi;

– korxona va tashkilotlar, fuqarolar tomonidan konstruksiyasiga murakkab bo‘lmagan o‘zgartirishlar kiritilgan yoki qayta jihozlangan transport vositalarining texnik holati bo‘yicha xulosalar tayyorlaydi;

– murakkab bo‘lgan qayta jihozlash va konstruksiyasiga o‘zgartirish kiritish (boshqa rusumdagi dvigatel o‘rnatish, yo‘lovchi tashuvchi hamda maxsus avtomobillarni qayta jihozlash va boshqa shu kabi) masalalarini ko‘rib chiqadi hamda bunday qayta jihozlangan, konstruksiyasiga o‘zgartirish kiritilgan transport vositalarining texnik holati bo‘yicha xulosalar tayyorlaydi.

5) avtotransportda ekologiya muammolarini hal etish bo‘yicha:

– ekologik talon sertifikati, ruxsatnomalar va boshqa tegishli hujjatlarning namunalarini ishlab chiqadi, ularni ko‘paytirishni tashkil etadi va davlat xizmati idoralarini ta’minlaydi;

– maxsus blankalarning, sarflanishini, ulardan tushayotgan yig‘ilmalarning to‘la va to‘g‘ri olinayotganligini nazorat qiladi;

– atrof-muhitni avtomototransport vositalarining zararli ta’siridan himoya qilish tadbirlarini amalga oshirilishini, bu boradagi me’yoriy hujjatlar talablarini bajarilishining nazoratini ta’minlaydi;

– daxldor tashkilot va idoralar bilan hamkorlikda atrof-muhitni avtotransportning zararli ta’siridan muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishda qatnashadi.

6) avtomototransport vositalarini ro‘yxatga olish, qayta ro‘yxatlash va ro‘yxatdan o‘chirish, ularning hisobini olib borish shuningdek, haydovchilarni tayyorlash (qayta tayyorlash) ishlarini nazorat qilish bo‘yicha:

– haydovchilik hujjatlari, guvohnomasi, taloni, vaqtinchalik ruxsatnoma va namunalarni ishlab chiqadi. Xalqaro harakatlanishda qatnashayotgan transport vositalariga xalqaro talablar darajasidagi haydovchilik hujjatlarini beradi;

– o‘rnatilgan tartibda qat’iy hisobdagi blankalarning saqlanishi, berilishi va hisobga olinishini tashkil etadi hamda nazoratni ta’minlaydi;

– Davlat raqam belgilarining Davlat namunalarini ishlab chiqishda qatnashadi, texnik pasport, texnik talon, xalqaro harakatlanishda ishtirok etayotgan transport vositalari hujjatlarining namunalarini tayyorlaydi;

– ro‘yxatlash va imtihon olish bo‘linmalari faoliyatini zamonaviy texnika vositalari asosida takomillashtirish choralarini ko‘rib boradi;

– ro‘yxatga olingan, qayta ro‘yxatdan o‘tkazilgan va ro‘yxatdan o‘chirilgan transport vositalari haqidagi ma’lumotlarni IIV, IIBB hamda IIBlari axborot markazlariga qo‘yilishini tashkillashtiradi va nazorat qiladi;

– avtotransport vositalarini ro‘yxatga olish, qayta ro‘yxatlash, ro‘yxatdan chiqarish va qayta jihozlashda yuzaga kelgan ba’zi bir muammolarni o‘rganib chiqib, qonuniy hal qilish choralarini ko‘radi;

– haydovchilarni tayyorlash (qayta tayyorlashni) barcha toifadagi haydovchi tayyorlash o‘quv dasturlarini, tibbiy va kasbiy ko‘rikni takomillashtirish bo‘yicha tadbirlarni ishlab chiqishda qatnashadi;

– ro‘yxatlash va imtihon qabul qilish bo‘linmalarining faoliyatini tashkillashtiradi hamda nazorat qiladi, ularga avtomototransport vositalarini ro‘yxatlash, imtihon qabul qilish, guvohnoma berish sohasida amaliy uslubiy yordam ko‘rsatadi;

– avtotransport vositalarining yo‘l harakati xavfsizligiga xalaqit beradigan qayta jihozlashlarga yo‘l qo‘yilmasligini nazariy jihatdan asoslaydi va ularning ro‘yxatga olinishini taqiqlaydi;

– avtomototransport vositalarining savdosi bilan shug‘ullanuvchi korxona, firma va tashkilotlarni hisob ma’lumotnomasi bilan ta’minlaydi hamda hisobini yuritadi;

– yo‘l harakati qoidalariga zarur qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan takliflar tayyorlaydi[51].

Savol va topshiriqlar:

1. Ichki ishlar organlarining yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash faoliyatining huquqiy asoslarini aytib bering.
2. Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash sohasidagi maxsus vakolatli davlat organlarini sanab bering.
3. Qonun hujjatlarida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmatiga yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash sohasida qanday vakolatlar berilgan?
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlarini aytib bering.
5. Ichki ishlar organlarining yo‘l harakati xavfsizligi xizmatlari tizimini bilasizmi?
6. Ichki ishlar organlari yo‘l harakati xavfsizligi xizmatlari yo‘l-patrul xizmati safdagi bo‘linmalariga qanday tarkibiy tuzilmalar kiradi?
7. Yo‘l-patrul xizmatini o‘tashning qanday turlarini bilasiz?
8. Ichki ishlar organlari yo‘l harakati xavfsizligi xizmatlarining asosiy vazifalarini aytib bering.
9. Ichki ishlar organlari yo‘l harakati xavfsizligi xizmatlari o‘z zimmasidagi vazifalarni bajarish uchun qanday yo‘nalishlardagi funksiyalarni amalga oshiradi?

[51] O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 19-yanvardagi “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi 900-sonli qonuni.

XVII BOB ICHKI ISHLAR ORGANLARINING HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI FAOLIYATI

1-§. Ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatining huquqiy asoslari, tizimi tushunchasi

Jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolar xavfsizligini ta’minlash va huquqiy tartibotni mustahkamlash — har qanday demokratik davlatning muhim vazifalaridan biridir. Bu borada ichki ishlar organlari yetakchi rol o‘ynaydi, chunki aynan shu tuzilmalar huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish va profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishda bevosita ishtirok etadi. Ichki ishlar organlari tomonidan olib borilayotgan profilaktik faoliyat belgilangan huquqiy asoslar, tizimli yondashuv va muvofiqlashtirilgan mexanizmlar asosida amalga oshiriladi.

Mazkur paragrafda ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatining huquqiy asoslari, tizimining mazmuni va tuzilmasi, shuningdek, ushbu sohadagi amaliy mexanizmlar va ularning samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillar tahlil qilinadi. Bu orqali profilaktik tadbirlarning xolis va tizimli amalga oshirilishiga xizmat qiladigan huquqiy bazaning ahamiyati hamda ichki ishlar organlari faoliyatidagi o‘rni namoyon bo‘ladi.

“Islohotlar yo‘lidagi eng katta to‘siq va g‘ov — bu korrupsiyadir. … Qurilish sohasi eng korrupsiyalashgan sohalardan biri edi. Shaffof qurilish dasturi joriy etilganidan keyin bu yo‘nalishda ham ijobiy o‘zgarishlar sezilmoqda[52]” - degan so‘zlari bilan Prezident Sh.Mirziyoyev mamlakatimizda huquqni muhofaza qilish va huquqbuzarliklarning oldini olish sohasiga alohida e’tibor qaratganligini bildirdi.

O‘zbekiston Respublikasida huquqbuzarliklar profilaktikasi - bu jamiyatda barqarorlikni saqlash, fuqarolarning huquqiy manfaatlarini himoyalash va xavfsiz muhit yaratishda muhim vosita sanaladi. Ichki ishlar organlari esa ana shu profilaktik vazifalarni amalga oshiradigan asosiy tuzilma bo‘lib, ularning faoliyatining huquqiy asoslari va tizimi, samarali mexanizmlari davlat siyosatining darajasida belgilanadi.

Mazkur paragrafda ichki ishlar organlari huquqbuzarliklarni profilaktika qilish faoliyatining huquqiy zaminlari, tizimiy tuzilishi va amaliy yo‘nalishlari batafsil yoritiladi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasining ***huquqiy asoslari*** – jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy va boshqa barcha sohalardagi munosabatlarni tartibga soluvchi, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini, jamoat va boshqaruv tartibini hamda huquqbuzarliklar, xususan ijtimoiy xavfli qilmishlar uchun javobgarlikni belgilovchi normalarni o‘z ichiga olgan qonun va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlari tizimidan iborat.

O‘zbekistonda huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning muhim asosi hisoblangan O‘zbekiston

[52] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2025-yil 5-mart kuni korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha milliy kengashi yig‘ilishidagi nutqidan. Manbaa: https://iibb.uz/uz/news.

Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi 2014-yil 14-maydagi qonunining qabul qilinishi bevosita bu yo‘nalishdagi islohotlarni yangi bir bosqichga ko‘tardi.

O‘zbekiston Respublikasida huquqbuzarliklar profilaktikasi sohadagi faoliyat aniq huquqiy asoslarga ega bo‘lib, ular qonunlar va tegishli qonunosti hujjatlar orqali tartibga solinadi.

1. Asosiy qonun — O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida davlat fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kafolatlashi, 14-moddasida esa qonun ustuvorligi va huquqiy davlat tamoyillari mustahkamlangan. Bu normalar profilaktika faoliyatining umumiy konstitutsiyaviy asoslarini belgilab beradi.

2. “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonun:

Bu qonun 2014-yil 14-mayda qabul qilingan va sohadagi asosiy me’yoriy hujjat hisoblanadi.

Qonunning maqsadi — jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlashdir.

Qonun 6-bob, 41 moddadan iborat bo‘lib, quyidagilarni tartibga soladi:

- huquqbuzarliklar profilaktikasining sub’ektlari (ichki ishlar organlari, prokuratura, mahalla, ta’lim muassasalari va boshqalar);

- har bir sub’ektning huquq va majburiyatlari;

- huquqbuzarlik xavfi yuqori bo‘lgan shaxslar bilan ishlash tartibi;

- hamkorlik va muvofiqlashtirish mexanizmlari;

- majburiy tushuntirish ishlari va nazorat choralari;

3. Jinoyat kodeksi va Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks.

Jinoyat kodeksi va Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda profilaktikaga oid qator normalar mavjud, jumladan:

Jinoyat va huquqbuzarliklar uchun javobgarlik belgilanishi orqali huquqiy tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatiladi.

Ayrim moddalarda qayta jinoyatchilikning oldini olish maqsadida nazorat ostida turish, mahkum etilganlarni ro‘yxatga olish, ish bilan ta’minlash kabi profilaktik tadbirlar nazarda tutilgan.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari:

- 2017-yil 10-apreldagi “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5005-son farmoni;

- 2017-yil 14-martdagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–2833-son qarori;

- 2017-yil 18-apreldagi “Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–2896-son qarori;

- 2021-yil 2-apreldagi “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5050-son qarori;

- 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–27-son farmoni;

- 2025-yil 3-yanvardagi “2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1-son qarori;

- 2025-yil 18-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish tizimi natijadorligini yanada oshirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi PQ-253-son qarori va boshqa bir qancha farmon va qarorlari;

5. Ichki ishlar vazirligining buyruq va yo‘riqnomalari.

6. Mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risidagi qonunlar:

“Mahalla to‘g‘risida”gi qonun, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi va boshqa qonunlar profilaktika sohasida mahallaning faol ishtirokini belgilaydi.

Mahalla raislari va fuqarolar yig‘inlari profilaktika bo‘yicha tadbirlar o‘tkazish, yoshlar bilan ishlash, nozoratdagi shaxslar bilan aloqa o‘rnatishda ishtirok etadi.

O‘zbekiston Respublikasida huquqbuzarliklar profilaktikasi aniq qonunchilik bazasiga ega bo‘lib, bu soha Konstitutsiyaviy qoidalardan tortib, maxsus qonun va Prezident qarorlarigacha bo‘lgan keng huquqiy maydonda tartibga solinadi. Ushbu huquqiy asoslar profilaktika ishlarining samaradorligi va tizimli amalga oshirilishi uchun huquqiy zamin yaratadi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasining institutsional asolari – huquqbuzarliklar profilaktikasi murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, uning samaradorligi ko‘p jihatdan bu sohada ishtirok etuvchi institutlarning tizimli faoliyatiga bog‘liq. Institutsional asoslar - bu profilaktika sohasidagi davlat va nodavlat tashkilotlari, ularning vakolatlari, o‘zaro hamkorlik mexanizmlari va vazifalarini qamrab oluvchi mustahkam tuzilma hisoblanadi.

O‘zbekistonda huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid institutsional tizim Prezident farmonlari, Qonunlar, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, shuningdek, tegishli davlat idoralarining normativ-huquqiy hujjatlari bilan belgilangan. Bu tizimning markazida quyidagi asosiy sub’ektlar turibdi:

1. Ichki ishlar organlari - huquqbuzarliklarning oldini olishda yetakchi rol o‘ynaydigan asosiy davlat organidir. Ular jinoyatchilikka qarshi kurash, jamoat tartibini saqlash, profilaktik tadbirlarni amalga oshirish va aholi bilan doimiy muloqotni ta’minlash orqali profilaktika sohasida faol ishtirok etadi.

2. Prokuratura organlari - huquqbuzarliklarni bartaraf etish va profilaktika choralarining qonuniyligini nazorat qiladi. Prokurorlar jinoyat ishlarini kuzatib borish, tahlil qilish va tahdidlarni oldindan aniqlashda ishtirok etadi.

3. Mahalla va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari - joylardagi profilaktika ishlarining “birlamchi bo‘g‘ini” hisoblanadi. Mahalla raislari,

profilaktika inspektorlari va fuqarolar yig‘inlari aholi o‘rtasida huquqiy madaniyatni oshirish, yoshlar bilan ishlash, “xavf guruhi”dagi shaxslarni nazorat qilish ishlarini amalga oshiradilar.

4. Ta’lim muassasalari va tarbiya muassasalari - yosh avlodni huquqiy ong va madaniyat bilan qurollantirish, huquqbuzarliklarning ildiz sabablarini bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega.

5. Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) va ommaviy axborot vositalari - aholi o‘rtasida huquqiy targ‘ibotni kuchaytirish, jamiyatning huquqbuzarliklarga nisbatan murosasiz munosabatini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi.

6. Oila instituti - huquqbuzarliklarning oldini olishda tarbiya, ijtimoiy nazorat va axloqiy yondashuvlar orqali muayyan ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onalar va oila a’zolarining mas’uliyati bu borada hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Institutsional asoslar nafaqat sub’ektlarning mavjudligi, balki ular o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik, ma’lumot almashinuvi, muvofiqlashtirilgan harakatlar bilan ham belgilanadi. Huquqbuzarliklar profilaktikasining institutsional tizimi faqatgina ma’muriy yoki jazolovchi funksiyalar bilan emas, balki ta’lim, ijtimoiy faoliyat, axloqiy tarbiya kabi sohalarni ham qamrab oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Jamiyatda osoyishtalik va xavfsizlikni ta’minlash uchun huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid ishlarni tubdan qayta ko‘rib chiqishimiz lozim. Bu faqatgina ichki ishlar organlarining vazifasi emas, balki butun jamiyatning vazifasi bo‘lishi shart”[53]. Bu qarash profilaktika sohasidagi institutsional yondashuvning keng qamrovli va kompleks xarakterga ega ekanligini yaqqol ko‘rsatadi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasining tizimi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi “Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–2896-son qarori bilan tasdiqlangan “Ichki ishlar organlari tayanch punkti to‘g‘risida Nizom”da keltirib o‘tilgan bo‘lib, unga ko‘ra tayanch punktlari tuman (shahar) ichki ishlar boshqarmalari (bo‘limlari)ning asosiy quyi bo‘g‘ini hisoblanib, ular ichki ishlar organlarining jamoatchilik bilan hamkorligini ta’minlash hamda qishloqlar, ovullar va mahallalarda jamoat tartibi, fuqarolar xavfsizligi, huquqbuzarliklar profilaktikasi hamda jinoyatchilikka qarshi kurashishni bevosita ta’minlash maqsadida tashkil etiladi. Ichki ishlar organlari tayanch punktlari faoliyatining vazifalari va tashkiliy-huquqiy asoslari, profilaktika inspektorlarining vakolatlari, huquq va majburiyatlari, ularning davlat organlari va boshqa tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda aholi bilan huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi hamkorlik qilish tartibi mazkur Nizom bilan belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi PQ–2896-son qarorida tayanch punktlari o‘z faoliyatini profilaktika katta inspektorlari va profilaktika inspektorlari hamda profilaktika (katta) inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo‘yicha yordamchilari tarkibida amalga oshirishi belgilangan.

[53] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, Toshkent – 2020-y.

Mazkur sub’ektlar kengayib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi PQ-1-son qarori bilan mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasi samaradorligini yanada oshirish maqsadida **2025-yil 1-martdan e’tiboran** ichki ishlar organlari **profilaktika (katta) inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo‘yicha yordamchisi lavozimini tugatilib,** bo‘shayotgan shtat birliklari hisobidan mikrohududlarda kunlik jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikning oldini olish, shu jumladan, ijtimoiy profilaktika tizimini joyida tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat qilib borish maqsadida ichki ishlar organlari **profilaktika bosh inspektori lavozimi joriy etilib,** uning zimmasiga mahalla huquq-tartibot maskani faoliyatiga rahbarlik qilish vazifasi yuklangan.

Bundan tashqari, yuqoridagi qaror bilan viloyatlar markazlari va kriminogen vaziyat og‘ir tuman (shahar)lar mahallalarida xizmat olib boruvchi ichki ishlar organlari **profilaktika kichik inspektori** lavozimi ham joriy etilib, uning zimmasiga quyidagi asosiy vazifalar yuklatildi:

- mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan fuqarolar, maktab bitiruvchilari hamda talabalar bilan ijtimoiy profilaktika choralari doirasida manzilli ishlarni amalga oshirish;

- mahallalar hududida sodir etiladigan ayrim turdagi ma’muriy huquqbuzarliklar bo‘yicha belgilangan tartibda bayonnomalar tuzish.

Shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatining tizimiga profilaktika katta inspektorlari, profilaktika inspektorlari, profilaktika kichik inspektorlari va bosh inspektorlariga umumiy rahbarlikni amalga oshiruvchi huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati boshlig‘i ham kiradi.

Profilaktika inspektori shtat birliklarining soni tayanch punkti tomonidan xizmat ko‘rsatiladigan hudud (mahallalar)ning kriminogen vaziyati, aholi soni va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda tegishli qoidalar asosida belgilanadi.

Tayanch punktlari faoliyatini tashkil etish uchun ichki ishlar organlarining boshqa bo‘linmalari ham jalb etilishi mumkin.

2021-yil 2-apreldagi “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5050-son qaroridagi “Mahalla huquq-tartibot maskani to‘g‘risida Nizom”ga ko‘ra, mahalla huquq-tartibot maskani faoliyatini:

- profilaktika bosh inspektori, profilaktika katta inspektori, profilaktika inspektori, profilaktika kichik inspektori;

- hududda xizmat qilish uchun biriktirilgan yoki tashkiliy-shtat tuzilmasi asosida kiritilgan tuman (shahar) ichki ishlar organining xotin-qizlar masalalari bo‘yicha inspektori, probatsiya bo‘linmasi inspektori, tezkor vakil, patrul-post xizmati xodimlari, yo‘l harakati xavfsizligi inspektori;

- hududda jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklar profilaktikasiga ko‘maklashish uchun yuborilgan Milliy gvardiya qo‘riqlash bo‘linmasining naryadi, boshqa vakolatli davlat organlarining xodimlari va jamoat tuzilmalarining vakillari tarkibida amalga oshiradi.

2-§. Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatini vazifalari

Mustaqillikning ilk yillarida rivojlanayotgan O‘zbekistonda ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati oldiga juda ko‘plab vaziflar qo‘yilgan edi. Lekin keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–27-son farmoni bilan mahallada jamoat xavfsizligini samarali ta’minlash maqsadida ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari zimmasiga yuklatilgan vazifalar maqbullashtirilib, ularning aniq chegarasi belgilanib, yagona ro‘yxati tasdiqlandi. Ular quyidagilar:

1. Biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida vakolatli davlat organlari va tashkilotlarning huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha faoliyati natijalarini umumlashtirish va yagona axborot-tahlil tizimiga kiritilishini ta’minlash.

2. Biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududidagi kriminogen vaziyatni muntazam ravishda o‘rganib borish, huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga barham berish bo‘yicha qonunchilikda belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

3. Biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida aholi o‘rtasida huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus va viktimologik profilaktikasini amalga oshirish.

4. Huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslarni belgilangan tartibda profilaktik hisobga va ma’muriy nazoratga olish, ular bilan yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy moslashtirish ishlarini individual dastur tuzgan holda tashkil etish.

5. Yoshlar, ayniqsa ularning uyushmagan qismi bilan manzilli tarbiyaviy va profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali ular orasida huquqbuzarliklarning oldini olish.

6. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan voyaga yetmaganlar masalalari bo‘yicha inspektor-psixologlarga ko‘maklashish.

7. Voyaga yetmaganlar va yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga, terrorizm, ekstremizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoyalashga yo‘naltirilgan ishlarni bevosita amalga oshirish.

8. Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarga himoya orderini berish va himoya orderi talablarining ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish.

9. Ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risida bayonnomalar tuzish va O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga muvofiq tegishli ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish.

10. Jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish, ularning murojaatlarini belgilangan tartibda ko‘rib chiqish.

11. Vakolatli davlat organlari va tashkilotlar bilan yaqin hamkorlikda biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida har bir oilani bevosita joyida o‘rgangan holda, fuqarolarning jamoat xavfsizligiga oid va huquqbuzarliklarga sabab bo‘lishi

mumkin bo‘lgan muammolari va noroziliklarini aniqlash, ularni bartaraf etish bo‘yicha zarur choralarni ko‘rish.

12. Biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida pasport rejimi qoidalariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish.

13. Tajovuzkor ruhiy kasallar, spirtli ichimlikka ruju qo‘yganlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda davlat sog‘liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog‘liqni saqlash muassasalariga ko‘maklashish.

14. Probatsiya nazoratidagilarning xulq-atvorini nazorat qilishda, o‘rnatilgan cheklovlarga rioya etishini tekshirishda, shuningdek, yangi jinoyat sodir etishining oldini olishda probatsiya inspektorlariga ko‘maklashish.

15. Biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida jamoat tartibini saqlashga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, “Fidokor yoshlar” jamoatchilik patrul guruhlari faoliyatini tashkil etish. Fuqarolarni, ularning roziligi bilan, huquqbuzarliklar profilaktikasi choralarini amalga oshirishda ko‘maklashishga jalb etish.

16. Davlat organlari, jamoat va boshqa tashkilotlar rahbarlariga huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari hamda ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf qilish hamda mahalladagi mavjud ijtimoiy muammolarni hal etmaganlik yuzasidan taqdimnomalar kiritish.

17. Biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan fuqaroviy va xizmat quroli hamda uning o‘q-dorilarini saqlash qoidalariga rioya etilishini nazorat qilishga ko‘maklashish.

18. Biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida taqiqlangan tashkilotlar hamda terrorchilik, ekstremistik va boshqa g‘ayriqonuniy, buzg‘unchilik yo‘nalishidagi guruhlar faoliyatiga aloqador shaxslarni aniqlashga ko‘maklashish.

19. OIV/OITSning tarqalishini barvaqt oldini olish, axloqsizlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklarga qarshi kurashish hamda fohishaxonalarning saqlanishiga chek qo‘yishga ko‘maklashish.

20. Doimiy yashash joyini uzoq muddatga tark etgan shaxslarni aniqlash va hisobini yuritish, ularning chet elda bo‘lish joylari va muddatlarini aniqlash yuzasidan qarindoshlari bilan muntazam ish olib borish, uzoq muddat mobaynida chet elda bo‘lib qaytgan shaxslar bilan profilaktik ishlarni amalga oshirish.

21. Jinoyatlarni aniqlash va fosh etish hamda surishtiruv, tergov va sud organlaridan yashirinib yurgan, jazodan bo‘yin tovlayotgan, bedarak yo‘qolgan shaxslarni hamda qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda boshqa shaxslarni qidirish, shuningdek, shaxsi noma’lum murdalarning shaxsini aniqlash bo‘yicha tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirishga ko‘maklashish.

22. Shaxsni majburiy keltirish to‘g‘risida surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimini belgilangan tartibda ijro etish.

PF–27-son farmon bilan profilaktika inspektorlarini ularning vazifa va faoliyat yo‘nalishlari bilan bog‘liq bo‘lmagan tadbirlarga jalb qilish hamda faoliyatiga asossiz aralashish taqiqlandi.

Ichki ishlar vazirligi Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati tomonidan tahlil qilinganda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga

oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–27-son farmoni qabul qilingunga qadar profilaktika inspektorlari 128 ta vazifani bajarib kelganligi aniqlandi.

Bundan taqshari, **profilaktika bosh inspektorlariga** mikrohududlarda kunlik jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikning oldini olish, shu jumladan, ijtimoiy profilaktika tizimini joyida tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat qilib borish maqsadida mahalla huquq-tartibot maskani faoliyatiga rahbarlik qilish vazifasi, viloyatlar markazlari va kriminogen vaziyat og‘ir tuman (shahar)lar mahallalarida xizmat olib boruvchi ichki ishlar organlari **profilaktika kichik inspektori zimmasiga** esa quyidagi asosiy vazifalar yuklatilgan:

- mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan fuqarolar, maktab bitiruvchilari hamda talabalar bilan ijtimoiy profilaktika choralari doirasida manzilli ishlarni amalga oshirish;

- mahallalar hududida sodir etiladigan ayrim turdagi ma’muriy huquqbuzarliklar bo‘yicha belgilangan tartibda bayonnomalar tuzish.

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuni *(15-modda)* hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi PQ–2896-son qarorida tayanch punktlari o‘z faoliyatini profilaktika katta inspektorlari va profilaktika inspektorlari tarkibida amalga oshirishi ko‘rsatilib, tayanch punktlarining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

- huquqbuzarliklar profilaktikasini, ayniqsa voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida tashkil etish, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini, ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni aniqlash, o‘rganish va bartaraf etish;

- jinoyatlarni aniqlash, bartaraf etish va fosh etishda, tergov, sud va sud hujjatlarini ijro etishdan yashirinib yurgan shaxslarni, shuningdek bedarak yo‘qolgan fuqarolarni qidirishda ishtirok etish;

- voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ularni Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga, yosh avlodni terrorizm, diniy ekstremizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoyalashga yo‘naltirilgan ishlarni bevosita amalga oshirish;

- aholi bilan uning eng muhim muammolarini hal etish va ijtimoiy keskinlikni yumshatish masalalarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish;

- huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning, g‘ayrijtimoiy xulq-atvorga ega, huquqbuzarlik sodir etishga moyil, shuningdek huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning ijtimoiy reabilitatsiyasi va moslashuvini ta’minlash;

- huquqbuzarliklar profilaktikasi, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish masalalari bo‘yicha ichki ishlar organlarining boshqa bo‘linmalari, davlat organlari, tashkilotlar, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro hamkorlikni amalga oshirish.

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuni *(*15^1*-modda)* hamda 2021-yil 2-apreldagi PQ-5050-son qarorida mahalla huquq-tartibot maskani o‘z faoliyatini profilaktika bosh inspektori, profilaktika katta inspektori, profilaktika inspektori, profilaktika kichik inspektori tarkibida ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari hamda boshqa davlat organlari bilan hamkorlikda olib borishi ko‘rsatib o‘tilib, ularga quyidagi asosiy vazifalar belgilab berilgan:

- mahallada (qishloqda) jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishni bevosita amalga oshirish;

- fuqarolarning xavfsizligi va osoyishtaligini ta’minlash borasida ichki ishlar organlari, boshqa davlat organlari va jamoat tuzilmalarining mahallalar kesimida birgalikda ishlashini tashkil etish;

- aholi muammolarini hal etish, shuningdek, huquqbuzarlikdan jabrlangan, g‘ayriijtimoiy xulq-atvorga ega, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni ijtimoiy moslashtirish ishlarini tashkil etish;

- mahallaning (qishloqning) kirish-chiqish joylarida va hududdagi boshqa ob’ektlarda o‘rnatilgan videokuzatuv moslamalaridan foydalangan holda, yagona markazlashgan elektron kuzatish va monitoringni amalga oshirish orqali huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish, aniqlash va fosh etishda birgalikda olib borishi ko‘rsatib o‘tilgan.

3-§. Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatini majburiyatlari

Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatini majburiyatlari turli xil normativ-huquqiy hujjatlarda keltirib o‘tilgan. Quyida ularni birma-bir ko‘rib chiqamiz:

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risidagi davlatning majburiyatlari:

1. Davlatning asosiy vazifasi sifatida jamiyat xavfsizligini ta’minlash. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining **12-moddasi**da davlatning asosiy vazifalari qatorida:

Jamiyatda huquqiy tartib va xavfsizlikni ta’minlash;

Huquqbuzarliklarni oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish belgilangan. Bu modda davlatning fuqarolarning hayoti, salomatligi va mulkini himoya qilish, jamiyatda tinchlik va tartibni saqlash borasidagi majburiyatlarini ko‘rsatadi.

2. Huquq va erkinliklarni himoya qilish. **16-modda**da har bir shaxsning huquq va erkinliklari ta’minlanishi ta’kidlanadi. Bu huquqlar fuqarolarning qonuniy manfaatlarini, shu jumladan huquqbuzarliklardan muhofazani ham o‘z ichiga oladi. Davlat o‘z fuqarolarining huquqlarini buzilishidan himoya qilish, huquqbuzarliklar va jinoyatlarni profilaktika qilish orqali ta’minlaydi.

3. Inson qadr-qimmati va huquqlari ustuvorligi. **18-modda** inson qadr-qimmati, hayoti va erkinliklarini himoya qilish davlatning asosiy vazifasi ekanligini belgilaydi. Davlatning huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid siyosati ham ana shu prinsiplarga asoslanadi, huquqbuzarliklarni jazolash orqali emas, balki ularning kelib chiqishini oldini olish orqali odamlarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish.

4. Davlat organlarining mas’uliyati. Konstitutsiyaning **85-moddasi** davlat organlarining faoliyati huquq asosida amalga oshirilishini belgilaydi. Ichki ishlar organlari va boshqa profilaktika sohasidagi davlat organlari o‘z vazifalarini qonun doirasida bajarib, jamiyatda huquqiy tartibni va huquqbuzarliklarning oldini olishni ta’minlaydi.

5. Huquqiy davlat qurish va huquqbuzarliklarni oldini olish. Konstitutsiyada O‘zbekistonning **huquqiy davlat** ekanligi ta’kidlanadi (1-modda). Huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biri — huquqni muhofaza qilish va huquqbuzarliklarni profilaktika qilish. Davlat o‘z fuqarolarining huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, profilaktik tadbirlarni amalga oshirish orqali huquqiy davlat maqsadlariga erishadi.

6. Mahalla instituti va jamoatchilikning ishtiroki. Qonunchilik va amaliy siyosatda mahalla instituti jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Konstitutsiyada mahallaning jamiyat va davlat qurilishidagi o‘rni ko‘rsatilgan bo‘lib, mahalla orqali jamoatchilik ishtiroki huquqbuzarliklarni profilaktika qilishda samarali vosita sifatida qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida davlatning huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha majburiyatlari — jamiyatda tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash, inson huquqlarini himoya qilish, huquqiy davlat qurish prinsiplariga asoslangan.

Davlat:

huquqbuzarliklarning oldini olish choralarini amalga oshiradi;

huquqbuzarlik sodir bo‘lmasligi uchun shart-sharoit yaratadi;

huquqbuzarlik sodir etganlarni qonuniy tarzda jazolaydi;

jamoatchilik ishtirokida profilaktik tadbirlarni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuni 3-bobi *(Ichki ishlar organlarining majburiyatlari va huquqlari)* 16-moddasi *(Ichki ishlar organlarining majburiyatlari)*da ham huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatining quyidagi majburiyatlari keltirilgan:

- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, yuridik va jismoniy shaxslarning mulkini, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini himoya qilish bo‘yicha o‘z vakolatlari doirasida barcha zarur choralarni ko‘rishi;

- jamoat joylarida, shu jumladan ko‘chalarda, maydonlarda, istirohat bog‘larida, transport magistrallarida, vokzallarda, aeroportlarda, shuningdek ommaviy tadbirlarni o‘tkazish chog‘ida fuqarolarning xavfsizligini ta’minlashi;

- jinoyatlar, boshqa huquqbuzarliklar va hodisalar to‘g‘risidagi arizalarni, xabarlarni va boshqa axborotni, shu jumladan elektron shakldagi shunday arizalarni, xabarlarni va boshqa axborotni qabul qilishi hamda ro‘yxatga olishi, murojaat etuvchiga qonunchilikda belgilangan tartibda keyinchalik xabar bergan holda ular bo‘yicha o‘z vaqtida choralar ko‘rishi;

- jinoyat, ma’muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joyga, hodisa joyiga darhol yetib kelishi, g‘ayriqonuniy qilmishlarga chek qo‘yishi, fuqarolarning xavfsizligiga tahdidlarni bartaraf etishi, jinoyat, ma’muriy huquqbuzarlik sodir etilganligi holatlarini, hodisa holatlarini hujjatlashtirishi, jinoyat, ma’muriy huquqbuzarlik, hodisa izlarining saqlanishini ta’minlashi;

- jismoniy va yuridik shaxslarning turar joylariga hamda boshqa xonalariga mulkdorlarning va ular vakillarining xohishiga xilof tarzda yoki ular yo‘qligida ichki ishlar organlari xodimlari kirganligining barcha hollari to‘g‘risida yigirma to‘rt soat ichida prokurorni yozma shaklda xabardor qilishi;

- jinoyat, ma’muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joyda yoki hodisa joyida jabrlangan fuqarolarga, shuningdek nochor ahvolda qolgan fuqarolarga birinchi tibbiy yordam yoki boshqa xil yordam ko‘rsatilishini tashkil etishi;

- o‘z vakolatlari doirasida ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishi;

- jinoyatlarning oldini olish, ularni aniqlash, ularga chek qo‘yish va ularni fosh etish, shuningdek ularni tayyorlash va sodir etishga aloqador bo‘lgan shaxslarni aniqlash hamda topish choralarini ko‘rishi;

- ayrim protsessual harakatlarni bajarishda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlarga, surishtiruv va tergov organlariga, sudga O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan tartibda yordam berishi;

- jinoyat ishlari bo‘yicha, zarur bo‘lgan hollarda esa jinoyat ishi qo‘zg‘atilguniga qadar, ekspertizalarni, ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha ekspertizalarni, shuningdek tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish maqsadida narsalar va hujjatlarni tekshirishni tayinlashi hamda o‘tkazishi;

- sog‘lig‘ining holatiga, yoshiga ko‘ra yoki boshqa sabablarga ko‘ra o‘zi to‘g‘risida ma’lumotlar bera olmaydigan shaxslarni identifikatsiya qilish choralarini ko‘rishi;

- chaqiruv bo‘yicha kelishdan bo‘yin tovlayotgan shaxslarni majburiy keltirish to‘g‘risidagi sud ajrimlarini, prokurorning, tergovchining surishtiruvchining va tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining qarorlarini bajarishi;

- ruhiy holati buzilgan shaxslarni keyinchalik majburiy yo‘sinda davolash uchun, ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni va mahkumlarni, shuningdek ma’muriy qamoqqa olingan shaxslarni qo‘riqlab borishni va boshqa yerga ko‘chirishni amalga oshirishi;

- uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasining ijro etilishini nazorat qilishni amalga oshirishi;

- muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash, ozodlikdan mahrum qilish, umrbod ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jinoiy jazolarni, shuningdek jinoiy-huquqiy ta’sir ko‘rsatishning boshqa choralarini qonunga muvofiq ijro etishi;

- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslar ustidan ma’muriy nazoratni sudning qarori asosida amalga oshirishi;

- transport vositasini boshqarishga bo‘lgan huquqdan mahrum qilish, fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o‘q-dorilarini ularning haqini to‘lash sharti bilan olib qo‘yish, ma’muriy qamoqqa olish, chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni O‘zbekiston Respublikasi hududidan ma’muriy tarzda chiqarib yuborish, voyaga yetmaganlarni ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalariga joylashtirish to‘g‘risidagi sud qarorlarini ijro etishi;

- surunkali ichkilikbozlik, giyohvandlik va zaharvandlik bilan kasallangan, ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilinganlarni majburiy tarzda davolashni sudning hukmi, ajrimi va qarori asosida amalga oshirishi;

- huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishi, ularning sabablarini va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlashi hamda ularni bartaraf etish choralarini ko‘rishi;

- qonunda nazarda tutilgan shaxslarning profilaktik hisobini yuritishi;

- profilaktika tadbirlarini rejalashtirish va o‘tkazish maqsadida, jinoyatlar hamda ma’muriy huquqbuzarliklarning, ularni sodir etgan shaxslarning, huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning, qidiruv e’lon qilinganlarning, bedarak yo‘qolganlarning, fuqaroviy va xizmat quroliga ega bo‘lganlarning hisobini yuritishi, ushbu ma’lumotlarning tahlilini amalga oshirishi hamda profilaktika tadbirlarini o‘tkazishi;

- huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslarni aniqlashi va ular bilan yakka tartibda profilaktika ishlarini olib borishi;

- voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishi;

- huquqbuzarliklar yoki g‘ayriijtimoiy harakatlar sodir etgan voyaga yetmaganlarni, shuningdek nazoratsiz va qarovsiz qolganlarni ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazlariga, yashash, tarbiyalanish va ta’lim olish uchun alohida sharoitlarga muhtoj bo‘lgan voyaga yetmaganlar uchun mo‘ljallangan ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalariga yoki hududiy ichki ishlar organining xizmat binosiga olib borishi;

- ijtimoiy reabilitatsiya va ijtimoiy moslashtirish choralarini ko‘rishi;

- tanosil kasalliklariga, odamning immunitet tanqisligi virusiga (OIV infeksiyasiga), ruhiy holati buzilishi xastaligiga, surunkali ichkilikbozlikka, giyohvandlikka yoki zaharvandlikka chalingan, shuningdek psixotrop moddalarni yoki aql-iroda faoliyatiga ta’sir qiluvchi boshqa moddalarni iste’mol qiladigan, chaqiruv bo‘yicha yetib kelishdan bo‘yin tovlagan shaxslarni olib kelishda sog‘liqni saqlash muassasalariga qonunchilikda belgilangan hollarda va tartibda ko‘maklashishi;

- avariyalar, falokatlar, yong‘inlar, tabiiy ofatlar va boshqa favqulodda vaziyatlarda aholini xabardor qilish, odamlarni qutqarish, ularga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish, hududning zarur uchastkalarini o‘rab olish (to‘sish) yuzasidan kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ko‘rishi, shuningdek qarovsiz qolgan mol-mulkni qo‘riqlashga doir vazifalarni bajarishi;

- O‘zbekiston Respublikasi hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etilgan hollarda uning huquqiy rejimini ta’minlashda ishtirok etishi;

- xavf tahdid solgan taqdirda, sudyalarning, prokurorlarning, tergovchilarning, surishtiruvchilarning, jabrlanuvchilarning, guvohlarning hamda jinoyat protsessi boshqa ishtirokchilarining, shuningdek ular oila a’zolarining hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulki himoya qilinishini ta’minlash choralarini ko‘rishi;

- egasiz mol-mulk va xazinalar tegishincha davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, fuqarolar yoki yuridik shaxslar ixtiyoriga topshirilguniga qadar ularning saqlanishini ta’minlash bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ko‘rishi;

- fuqarolar va mansabdor shaxslardan qalbakilik belgilari bo‘lgan hujjatlarni, shuningdek tegishli asoslarsiz ularda bo‘lgan, muomalada bo‘lishi taqiqlangan yoki cheklangan narsalarni bayonnoma tuzgan hamda uning ko‘chirma nusxasini mazkur fuqarolarga va mansabdor shaxslarga bergan holda olib qo‘yishi;

- xizmatga doir axborotning, shuningdek xizmat majburiyatlarini bajarishi chog‘ida o‘ziga ma’lum bo‘lib qolgan davlat sirlarini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlarning maxfiyligini va saqlanishini ta’minlashi;

- karantin, sanitariya-epidemiologiya tadbirlarini, ekologiyaga va atrof-muhitni muhofaza qilishga doir tadbirlarni o‘tkazishda ishtirok etishi hamda mazkur sohadagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish bo‘yicha choralar ko‘rishi;

- huquqbuzarliklar profilaktikasi, jamoat tartibini saqlash hamda jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida, shuningdek boshqa sohalarda ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy faoliyatni amalga oshirishi, o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda fan va texnologiyalar yutuqlarini rivojlantirishi hamda ulardan foydalanishi, yangi usullarni, texnik va boshqa vositalarni joriy etishi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi PQ–2896-son qarorida tayanch punktlari o‘z faoliyatini profilaktika katta inspektorlari va profilaktika inspektorlari tarkibida amalga oshirishi ko‘rsatilib, profilaktika inspektorlarining quyidagi majburiyatlari ko‘rsatilgan:

- inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, yuridik va jismoniy shaxslarning mulkini himoya qilish, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha o‘z vakolatlari doirasida zarur choralar ko‘rish;

- jinoyat, ma’muriy huquqbuzarlik yoki boshqa hodisa sodir etilgan joyga darhol yetib kelish, g‘ayriqonuniy qilmishlarga chek qo‘yish, fuqarolarning xavfsizligiga qaratilgan tahdidlarni bartaraf etish, hodisa holatlarini hujjatlashtirish, jinoyat, ma’muriy huquqbuzarlik yoki boshqa hodisa izlarining saqlanishini ta’minlash;

- jinoyat, ma’muriy huquqbuzarlik yoki boshqa hodisa sodir etilgan joyda jabrlangan, shuningdek nochor ahvolda qolgan fuqarolarga birinchi tibbiy yoki boshqa turdagi yordam ko‘rsatilishini tashkil etish;

- o‘z xizmat majburiyatlarini bajarish munosabati bilan unga ma’lum bo‘lgan fuqarolarning shaxsiy hayoti, sha’ni va qadr-qimmatiga taalluqli ma’lumotlarni ularning roziligisiz oshkor etmaslik, xizmat ma’lumotlari, shuningdek, tijorat va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa sirlarning maxfiyligi va saqlanishini ta’minlash;

- huquqbuzarliklar profilaktikasi tadbirlarini o‘tkazishda fuqarolar hayoti va sog‘lig‘i, yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulki xavfsizligini ta’minlash;

- chaqiruv bo‘yicha kelishdan bo‘yin tovlayotgan shaxslarni majburiy keltirish to‘g‘risidagi sud ajrimlari, prokurorning, tergovchining yoki surishtiruvchining qarorlarini tegishli hududda bajarilishini ta’minlash;

- qonun hujjatlari bilan ichki ishlar xodimlari uchun belgilangan cheklov va taqiqlarga rioya etish kabi majburiyatlari ko‘rsatilgan.

Savol va topshiriqlar:

1. “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qachon qabul qilingan va uning asosiy maqsadi nima?
2. Huquqbuzarliklar profilaktikasining institutsional tizimida markaziy o‘rin tutuvchi (yetakchi) sub’ekt qaysi organ hisoblanadi?
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi PQ-1-son qaroriga ko‘ra, 2025-yil 1-martdan e’tiboran qaysi yangi lavozim joriy etildi va uning asosiy vazifasi nimalardan iborat?
4. 2021-yil 29-noyabrdagi PF–27-son farmon bilan profilaktika inspektorlarining faoliyatida qanday muhim o‘zgarish yuz berdi *(vazifalar soni va ularning chegaralanishi bo‘yicha)* ?
5. Profilaktika kichik inspektori qaysi hududlarda xizmat olib boradi va uning zimmasiga yuklatilgan asosiy vazifalar nimalardan iborat?
6. “Mahalla huquq-tartibot maskani” tarkibiga profilaktika inspektorlaridan tashqari yana qaysi soha vakillari yoki tuzilmalar kirishi mumkin?
7. Ichki ishlar organlari xodimlari jinoyat yoki ma’muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joyga yetib kelganlarida qanday majburiyatlarni bajarishlari shart?
8. Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanganlarga himoya orderini berish va uning ijrosini nazorat qilish kimning vakolatiga kiradi?

XVIII BOB ICHKI ISHLAR ORGANLARINING MA'MURIY NAZORAT FAOLIYATI

1-§. Ichki ishlar organlarining ma'muriy nazorat faoliyatining mohiyati, ahamiyati va turlari

Ichki ishlar organlari jamiyatda huquq-tartibotni ta'minlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklar profilaktikasi, xavfsizlikni saqlash kabi muhim vazifalarni amalga oshiradi. Ushbu organlarning ma'muriy nazorat faoliyati esa huquqiy tartibni saqlash va jamiyatda barqarorlikni ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi.

Ma'muriy nazorat - bu davlat organlari va mutaxassislari tomonidan belgilangan qonun va qoidalarga rioya etilishini ta'minlashga qaratilgan tizimli faoliyatdir.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-apreldagi "Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat to'g'risida"gi qonuni jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat o'rnatish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun xizmat qiladi. Mazkur qonunda ma'muriy nazorat, ma'muriy cheklov, nazorat ostidagi shaxs va nazorat ostidagi shaxsning yashash joyi (yashash joyi) tushunchalariga aniq ta'rif berilgan.

ma'muriy nazorat - nazorat ostidagi shaxslarga sud tomonidan belgilanadigan ma'muriy cheklovlarni qo'llashdan iborat tarbiyaviy-profilaktik ta'sir ko'rsatish choralari majmui;

ma'muriy cheklov - huquqlar va erkinliklarni vaqtinchalik cheklash yoki zimmaga majburiyatlar yuklatish bo'lib, ushbu cheklash yoki majburiyat yuklatish jazoni ijro etish muassasasidan ozod qilingan shaxsga nisbatan sud tomonidan belgilanadi;

nazorat ostidagi shaxs - o'ziga nisbatan ma'muriy nazorat amalga oshirilayotgan shaxs;

nazorat ostidagi shaxsning yashash joyi - nazorat ostidagi shaxs doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olingan turar joy.

Ichki ishlar organlarining ma'muriy nazorati turli yo'nalishlarda amalga oshirilib, jamiyatda qonun ustuvorligini mustahkamlashda va huquqbuzarliklarni oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu nazoratning turlari va shakllari ixtiyoriylik, tezkorlik, samaradorlik kabi hususiyatlar bilan ajralib turadi, shuningdek, ular ichki ishlar organlarining faoliyatini samarali tashkil etishga ko'maklashadi.

Shu munosabat bilan, ichki ishlar organlarining ma'muriy nazorat faoliyatining mohiyati, uning ahamiyati hamda turlarini o'rganish huquq-tartibot sohasidagi nazariy va amaliy bilimlarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari ma'muriy nazorat tushunchasiga yuridik adabiyotlarda turlicha ta'riflar keltirilgan. Quyida ularning bir nechtasini keltirib o'tamiz.

Ma’muriy nazorat - bu davlat organlari, birinchi navbatda ichki ishlar organlari tomonidan jinoyat yoki ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning faoliyatini belgilangan tartibda kuzatish, cheklash va tartibga solish choralaridir.

Boshqa bir ta’rifda esa **ma’muriy nazorat** - jazo muddati tugagan yoki shartli ozod etilgan shaxslarning qayta jinoyat sodir etishining oldini olish uchun ularning xatti-harakatlari ustidan belgilangan shaklda olib boriladigan profilaktik nazorat turidir.

Ma’muriy nazoratning ahamiyati ma’muriy nazorat davlat organlari va muassasalarning faoliyatida qonunchilik normalari va ma’muriy-huquqiy talablarga rioya etilishini ta’minlashga qaratilgan muhim mexanizm hisoblanadi. Ichki ishlar organlarining ma’muriy nazorati jamiyatda huquq-tartibotni mustahkamlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni bartaraf etish, shuningdek, barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlashda asosiy ahamiyatga ega.

Ma’muriy nazoratning ahamiyati quyidagilarda ifodalanadi:

1. Qonunchilikning ijrosini ta’minlash: Ma’muriy nazorat orqali ichki ishlar organlari o‘z faoliyatida qonunlarga va ma’muriy normalarga qat’iy amal qilishini nazorat qiladi. Bu davlat boshqaruvining huquqiy asosini mustahkamlaydi.

2. Jamoat tartibi va xavfsizlikni saqlash: Ma’muriy nazorat orqali huquqbuzarliklar va huquqqa zid harakatlarni vaqtida aniqlash va oldini olish imkoni yaratiladi, bu esa jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini ta’minlaydi.

3. Huquqbuzarliklarni oldini olish: Nazorat orqali ma’muriy huquqbuzarliklar va jinoyatchilikning oldini olish, ularning keskinlashishining oldini olish choralari ko‘riladi.

4. Davlat organlari faoliyatini takomillashtirish: Ma’muriy nazorat ichki ishlar organlarining samaradorligini oshirish, ularning ichki ish faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirishga yordam beradi.

5. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish: Ma’muriy nazorat fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari buzilishining oldini olishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Shu tariqa, ichki ishlar organlarining ma’muriy nazorat faoliyati jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash, davlat va jamoat manfaatlarini muhofaza qilish hamda huquqiy barqarorlikni mustahkamlashda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ichki ishlar organlarining ma’muriy nazorat faoliyati turlari:

Jamoat tartibini saqlash bo‘yicha nazorat. Ko‘chalar, bozorlar, ommaviy tadbirlar o‘tadigan joylar, transport ob’ektlarida jamoat tartibini ta’minlash.

Qonunbuzarliklarni oldini olish va profilaktika ishlarini yuritish.

Yo‘l harakati xavfsizligi ustidan nazorat. Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati (DYXX) orqali amalga oshiriladi. Yo‘l qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish, haydovchilar va piyodalarning huquqbuzarligini aniqlash va chora ko‘rish.

Sud tomonidan haydovchilik huquqidan mahrum etilgan haydovchilarni mazkur cheklovlarga rioya qilishlari ustidan nazorat.

Qurol va o‘q-dorilar muomalasi ustidan nazorat. Fuqarolar va tashkilotlarda qurol saqlash va tashish tartibiga rioya etilishini nazorat qilish. Ruxsatnomalarning amal qilishi, qurollarning ro‘yxatga olinishi va saqlanishi ustidan nazorat.

Pasport tizimi va migratsiya qoidalari ustidan nazorat. Fuqarolarning vaqtincha yoki doimiy ro‘yxatda turishi, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekistonda bo‘lishi ustidan nazorat. Viza, yashash guvohnomalari, propiska va vaqtincha ro‘yxat masalalari.

Ma’muriy huquqbuzarliklarning oldini olish va ularni aniqlash bo‘yicha nazorat. Qonunbuzarliklarni aniqlash, rasmiylashtirish va tegishli jazo choralarini qo‘llash. Profilaktik hisobda turishi lozim bo‘lgan shaxslar ustidan muntazam nazorat.

Psixotrop moddalarning qonuniy muomalasi ustidan nazorat. Psixotrop moddalarning qonuniy muomalasiga ruxsat berilgan dorixonalar, psixotrop moddalarning retsept asosida berilishi, ular saqlanadigan joyga qo‘yilgan talablarga rioya qilinishi.

Ommaviy tadbirlar va yig‘ilishlar ustidan nazorat. Miting, konsert, sport musobaqalari kabi ommaviy tadbirlarda xavfsizlikni ta’minlash. Tadbirlarning qonun talablariga muvofiq o‘tishi ustidan nazorat.

Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyati ustidan xizmat nazorati. Har bir ichki ishlar organining o‘z shaxsiy tarkibi faoliyati ustidan nazorat qilish, intizom, xizmat vazifalarini bajarish sifati va shaffoflikni ta’minlash ichki xavfsizlik bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Profilaktik nazorat (huquqbuzarliklarning oldini olish). Profilaktika inspektorlari orqali jinoyatchilikka moyil shaxslar, nosog‘lom oilalar, o‘zini tutishi xavfli bo‘lgan fuqarolar bilan ishlash. Mahalla va jamoatchilik bilan hamkorlikda ishlar olib boriladi.

Ijtimoiy muassasalar ustidan nazorat. Masalan, maktab, kollej, bozor, mehmonxona, mehnat jamoalarida huquqbuzarliklarning oldini olish ishlarini tashkil etish va nazorat qilish.

Ichki ishlar organlarining ma’muriy nazorat faoliyati jamiyatda qonuniylik, jamoat xavfsizligi va tartibni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Bu faoliyatning turli yo‘nalishlardagi amalga oshirilishi uning samaradorligini ta’minlab, huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

2-§. Ichki ishlar organlari faoliyatida maxsus ma’muriy nazoratni o‘rnatish va ta’minlash tartibi

Maxsus ma’muriy nazorat – bu ichki ishlar organlari tomonidan ma’muriy huquqbuzarliklar, jinoyat sodir etgan yoki ijtimoiy xavfli xatti-harakatlarni amalga oshirgan shaxslarning xatti-harakatlarini nazorat qilish, ularni kuzatish va ular bilan profilaktik ishlar olib borish tartibidir.

Ma’muriy nazorat o‘rnatish tartibi. Ma’muriy nazorat o‘rnatish zarurligi to‘g‘risidagi asoslantirilgan taqdimnoma sudga quyidagilar tomonidan yuboriladi:

sud tomonidan o‘ta xavfli residivist deb topilgan shaxslarga nisbatan — ularni ozod etishdan kamida bir oy oldin jazoni ijro etish muassasasining boshlig‘i tomonidan;

jazoni ijro etish muassasalarida turgan og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan yoki har qanday qasddan

qilingan jinoyatlar uchun ikki yoki undan ortiq marta ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxslarga nisbatan, agar ular jazoni o‘tash davrida belgilangan tartibda saqlash rejimini qasddan buzuvchilar deb topilgan bo‘lsa, — ularni ozod etishdan kamida bir oy oldin jazoni ijro etish muassasasining boshlig‘i tomonidan;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarga nisbatan — sudlanganlik holatining tugatilishi yoki sudlanganlikning olib tashlanishi muddatlari doirasida ichki ishlar organining boshlig‘i tomonidan ushbu shaxslar jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilganidan keyin bir yil ichida ikki yoki undan ko‘proq ma’muriy huquqbuzarliklarni sodir etganligidan dalolat beruvchi materiallar asosida.

Ma’muriy nazorat o‘rnatish zarurligi to‘g‘risidagi taqdimnomada ma’muriy nazoratni o‘rnatish zarurati, o‘rnatiladigan ma’muriy cheklovlar yuzasidan takliflar va o‘ziga nisbatan ma’muriy nazorat o‘rnatilishi mumkin bo‘lgan shaxsning o‘zi tanlagan yashash joyi haqidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

Agar jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilayotgan shaxsning ma’lum sabablarga ko‘ra aniq turar joyi bo‘lmasa, jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati unga yashash joyi bilan ta’minlash, doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishga hamda ishga joylashishga yordam berishni so‘rab, shuningdek nogironligi bo‘lgan shaxslarni yoki og‘ir kasalliklarga chalingan shaxslarni davolash masalalarini oldindan hal qilish to‘g‘risida tegishli mahalliy davlat hokimiyati organlariga, ichki ishlar organlariga va sog‘liqni saqlash muassasalariga iltimosnoma yuboradi.

Ma’muriy nazorat o‘rnatish zarurligi to‘g‘risidagi taqdimnoma olingan paytdan e’tiboran o‘n kundan kechiktirmay jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudining sudyasi tomonidan sud majlisida ichki ishlar organi vakilining majburiy ishtirokida va o‘ziga nisbatan ma’muriy nazorat o‘rnatish zarurligi to‘g‘risidagi taqdimnoma ko‘rib chiqilayotgan shaxs ishtirokida yakka tartibda ko‘rib chiqiladi.

Agar o‘ziga nisbatan ma’muriy nazorat o‘rnatish zarurligi to‘g‘risidagi taqdimnoma ko‘rib chiqiladigan, sud majlisi o‘tkaziladigan vaqt va joy haqida xabardor qilingan shaxs uzrsiz sabablarga ko‘ra sud majlisiga kelmasa, shuningdek sud majlisini boshqa kunga qoldirish to‘g‘risida iltimosnoma taqdim etilmagan bo‘lsa, taqdimnoma sud tomonidan ushbu shaxsning ishtirokisiz ko‘rib chiqilishi mumkin.

Sudning ma’muriy nazorat o‘rnatish to‘g‘risidagi qarorida ma’muriy nazoratni o‘rnatish uchun asos, uning muddati va nazorat ostidagi shaxsga nisbatan o‘rnatiladigan ma’muriy cheklovlar ko‘rsatiladi. Agar ma’muriy nazorat jazoni ijro etish muassasasidan ozod etish chog‘ida belgilangan bo‘lsa, sudning ma’muriy nazorat o‘rnatish to‘g‘risidagi qarorida nazorat ostidagi shaxs tanlagan yashash joyiga yetib keladigan muddat ham ko‘rsatiladi.

Jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilayotgan shaxsning aniq yashash joyi ma’lum bo‘lmagan taqdirda, sud uning ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo‘llanishidan oldin yashagan oxirgi yashash joyi bo‘yicha ma’muriy nazorat o‘rnatish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Nazorat ostidagi shaxsning yashash joyi bo‘lmagan taqdirda, sud mahalliy davlat hokimiyati organlariga nazorat ostidagi

shaxsni turar joy bilan ta’minlash choralarini ko‘rish majburiyatini yuklash to‘g‘risida qaror chiqaradi.

Ma’muriy nazorat nazorat ostidagi shaxsning yashash joyidagi ichki ishlar organi tomonidan amalga oshiriladi va quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

ma’muriy nazorat muddati mobaynida nazorat ostidagi shaxslarning hisobini yuritish, shu jumladan ularning turmush tarzi, xulq-atvori va niyatlari to‘g‘risida axborot to‘plash;

nazorat ostidagi shaxsning ijtimoiy reabilitatsiyasi va ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish;

nazorat ostidagi shaxsning o‘ziga nisbatan belgilangan ma’muriy cheklovlarga rioya etishi va yashash, ish, o‘qish yoki xizmat joyi bo‘yicha zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

nazorat ostidagi shaxs bilan uning huquqbuzarliklar sodir etishining oldini olishga qaratilgan yakka tartibdagi profilaktika ishlarini amalga oshirish;

nazorat ostidagi shaxsning o‘ziga nisbatan belgilangan ma’muriy cheklovlarni buzganligi va zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi faktlarini aniqlash hamda hujjatlashtirish bo‘yicha choralar ko‘rish.

Yashash joyi o‘zgargan taqdirda ma’muriy nazoratni nazorat ostidagi shaxsning yangi yashash joyidagi ichki ishlar organi amalga oshiradi.

Ma’muriy nazoratni amalga oshirish bo‘yicha tadbirlarni o‘tkazish davriyligi va vaqti sud belgilagan ma’muriy cheklovlardan, nazorat ostidagi shaxsning turmush tarzi, oilaviy ahvoli, xulq-atvoridan, shuningdek uning shaxsini tavsiflovchi boshqa holatlardan kelib chiqqan holda ichki ishlar organi tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

Ma’muriy nazorat nazorat ostidagi shaxsning bir maromdagi hayot faoliyatiga to‘sqinlik qilmasligi kerak, qoida tariqasida, uning ishdan, o‘qishdan yoki xizmatdan bo‘sh vaqtida amalga oshiriladi.

Ma’muriy nazorat olti oydan bir yilgacha muddatga o‘rnatiladi. Ma’muriy nazorat muddati ma’muriy nazoratni o‘rnatish to‘g‘risida sud tomonidan qaror chiqarilgan paytdan e’tiboran, ma’muriy nazorat jazoni ijro etish muassasalaridan shaxsni ozod etish chog‘ida o‘rnatilgan hollarda esa, nazorat ostidagi shaxs tanlagan yashash joyiga yetib kelgan paytdan e’tiboran hisoblanadi.

Ma’muriy nazorat muddatining o‘tishi quyidagi hollarda to‘xtatib turiladi:

nazorat ostidagi shaxsga qidiruv e’lon qilinganda;

nazorat ostidagi shaxs sud tomonidan bedarak yo‘qolgan deb topilganda.

Nazorat ostidagi shaxs ma’muriy huquqbuzarlikni sodir etgan taqdirda, ma’muriy nazorat muddati ichki ishlar organining taqdimnomasi bo‘yicha sud tomonidan olti oygacha bo‘lgan muddatga, lekin sudlanganlik holatining tugallanishi yoki sudlanganlikning olib tashlanishi muddatidan ortiq bo‘lmagan muddatga uzaytirilishi mumkin.

Ichki ishlar organlari faoliyatida maxsus ma’muriy nazoratni o‘rnatish va ta’minlash tartibi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari, ayniqsa “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuni, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Ichki ishlar vazirligi buyruqlari va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Nazoratni tashkil etishning asosiy maqsadlari:

- qonunga xilof harakatlarning oldini olish.
- jinoyat sodir etish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy nazorat ostida ushlab turish.
- sud yoki tergov organlarining qarorlari asosida belgilangan cheklovlarni amalga oshirish.
- jinoyatchilikka qarshi kurashda profilaktik tadbirlarni samarali tashkil etish.

Nazoratni amalga oshirish shakllari:

Sud hukmi asosida nazorat — masalan, shartli ravishda ozodlikdan mahrum etilganlar, jazo muddati tugagan, lekin qo‘shimcha kuzatuv belgilangan shaxslar.

Profilaktik nazorat — ichki ishlar organlari hisobida turadigan shaxslar bilan profilaktik suhbatlar, uy-joyda tekshiruvlar o‘tkazish.

Ma’muriy nazorat — jinoyat sodir etgan va jazo muddati tugaganidan keyin belgilanadigan nazorat (Jinoyat kodeksi va Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks asosida).

Elektron kuzatuv vositalari yordamida nazorat — brasletlar va elektron qurilmalar orqali kuzatish (agar amalda joriy qilingan bo‘lsa).

Maxsus ma’muriy nazorat quyidagi organlar tomonidan amalga oshiriladi:

- hududiy ichki ishlar bo‘limlari;
- jinoyatchilikning oldini olish bo‘linmalari;
- ma’muriy nazoratni amalga oshiruvchi maxsus inspektorlar;
- patrul-post xizmati.

Nazorat choralari:

- shaxsning yashash joyini belgilash;
- belgilangan vaqtda ichki ishlar organlariga kelib ro‘yxatdan o‘tish;
- belgilangan joylar (masalan, jamoat joylari, alkogolli ichimliklar sotiladigan joylar)ga borishni cheklash;
- tungi vaqtda uyda bo‘lish majburiyati;
- xorijga chiqishni cheklash.

Qonunchilik asoslari:

- O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida” hamda “Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma’muriy nazorat to‘g‘risida”gi qonunlari;
- Ichki ishlar vazirligining buyruqlari;
- O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekslari;
- Sud hukmlari va qarorlari.

Ma’muriy nazoratni o‘rnatish tartibi

Ma’muriy nazorat o‘rnatish zarurligi to‘g‘risidagi asoslantirilgan taqdimnoma sudga quyidagilar tomonidan yuboriladi:

- sud tomonidan o‘ta xavfli residivist deb topilgan shaxslarga nisbatan - ularni ozod etishdan kamida bir oy oldin jazoni ijro etish muassasasining boshlig‘i tomonidan;

- jazoni ijro etish muassasalarida turgan og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan yoki har qanday qasddan qilingan jinoyatlar uchun ikki yoki undan ortiq marta ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxslarga nisbatan, agar ular jazoni o‘tash davrida belgilangan tartibda saqlash rejimini qasddan buzuvchilar deb topilgan bo‘lsa, ularni ozod etishdan kamida bir oy oldin jazoni ijro etish muassasasining boshlig‘i tomonidan;

- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarga nisbatan, sudlanganlik holatining tugatilishi yoki sudlanganlikning olib tashlanishi muddatlari doirasida ichki ishlar organining boshlig‘i tomonidan ushbu shaxslar jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilganidan keyin bir yil ichida ikki yoki undan ko‘proq ma’muriy huquqbuzarliklarni sodir etganligidan dalolat beruvchi materiallar asosida.

Ma’muriy nazorat o‘rnatish zarurligi to‘g‘risidagi taqdimnomada ma’muriy nazoratni o‘rnatish zarurati, o‘rnatiladigan ma’muriy cheklovlar yuzasidan takliflar va o‘ziga nisbatan ma’muriy nazorat o‘rnatilishi mumkin bo‘lgan shaxsning o‘zi tanlagan yashash joyi haqidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

Agar jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilayotgan shaxsning ma’lum sabablarga ko‘ra aniq turar joyi bo‘lmasa, jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati unga yashash joyi bilan ta’minlash, doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishga hamda ishga joylashishga yordam berishni so‘rab, shuningdek nogironligi bo‘lgan shaxslarni yoki og‘ir kasalliklarga chalingan shaxslarni davolash masalalarini oldindan hal qilish to‘g‘risida tegishli mahalliy davlat hokimiyati organlariga, ichki ishlar organlariga va sog‘liqni saqlash muassasalariga iltimosnoma yuboradi.

Ma’muriy nazorat o‘rnatish zarurligi to‘g‘risidagi taqdimnoma olingan paytdan e’tiboran o‘n kundan kechiktirmay jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudining sudyasi tomonidan sud majlisida ichki ishlar organi vakilining majburiy ishtirokida va o‘ziga nisbatan ma’muriy nazorat o‘rnatish zarurligi to‘g‘risidagi taqdimnoma ko‘rib chiqilayotgan shaxs ishtirokida yakka tartibda ko‘rib chiqiladi.

Agar o‘ziga nisbatan ma’muriy nazorat o‘rnatish zarurligi to‘g‘risidagi taqdimnoma ko‘rib chiqiladigan, sud majlisi o‘tkaziladigan vaqt va joy haqida xabardor qilingan shaxs uzrsiz sabablarga ko‘ra sud majlisiga kelmasa, shuningdek sud majlisini boshqa kunga qoldirish to‘g‘risida iltimosnoma taqdim etilmagan bo‘lsa, taqdimnoma sud tomonidan ushbu shaxsning ishtirokisiz ko‘rib chiqilishi mumkin.

Sudning ma’muriy nazorat o‘rnatish to‘g‘risidagi qarorida ma’muriy nazoratni o‘rnatish uchun asos, uning muddati va nazorat ostidagi shaxsga nisbatan o‘rnatiladigan ma’muriy cheklovlar ko‘rsatiladi. Agar ma’muriy nazorat jazoni ijro etish muassasasidan ozod etish chog‘ida belgilangan bo‘lsa, sudning ma’muriy nazorat o‘rnatish to‘g‘risidagi qarorida nazorat ostidagi shaxs tanlagan yashash joyiga yetib keladigan muddat ham ko‘rsatiladi.

Jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilayotgan shaxsning aniq yashash joyi ma’lum bo‘lmagan taqdirda, sud uning ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo‘llanishidan oldin yashagan oxirgi yashash joyi bo‘yicha ma’muriy nazorat o‘rnatish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Nazorat ostidagi shaxsning yashash joyi

bo‘lmagan taqdirda, sud mahalliy davlat hokimiyati organlariga nazorat ostidagi shaxsni turar joy bilan ta’minlash choralarini ko‘rish majburiyatini yuklash to‘g‘risida qaror chiqaradi.

Nazorat ostidagi shaxs sud majlisida ishtirok etgan taqdirda sudning ma’muriy nazorat o‘rnatish, uning muddatini uzaytirish yoki ma’muriy cheklovlarni qisman bekor qilish to‘g‘risidagi qarori nazorat ostidagi shaxsga sud tomonidan e’lon qilinadi.

Sudning qarori tegishincha jazoni ijro etish muassasasiga yoki nazorat ostidagi shaxsning yashash joyidagi ichki ishlar organiga keyinchalik nazorat ostidagi shaxsga tilxat olib topshirish uchun yuboriladi.

Sudning qarorini nazorat ostidagi shaxsga topshirish chog‘ida uning huquq va majburiyatlari, o‘ziga nisbatan belgilangan ma’muriy cheklovlarni buzganlik va zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganlik, shu jumladan ma’muriy nazoratdan bo‘yin tovlash maqsadida yashash joyini o‘zboshimchalik bilan tark etganlik uchun javobgarligi, o‘ziga nisbatan ma’muriy nazorat jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilishidan oldin o‘rnatilgan shaxsga esa, tanlagan yashash joyiga belgilangan muddatda yetib bormaganlik uchun javobgarligi tushuntiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-apreldagi “Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma’muriy nazorat to‘g‘risida”gi qonunida o‘ziga nisbatan ***ma’muriy nazorat o‘rnatiladigan shaxslar toifalari*** ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, ular:

sud tomonidan o‘ta xavfli residivist deb topilgan;

og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan;

har qanday qasddan qilingan jinoyatlar uchun ikki yoki undan ortiq marta ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan;

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga binoan og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat hisoblanadigan qilmishlarni sodir etganlik uchun boshqa davlat hududida ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni o‘tagan.

Ma’muriy nazorat sudlanganligi olib tashlangan yoki sudlanganlik holati tugallangan shaxslarga nisbatan o‘rnatilishi mumkin emas.

Nazorat ostidagi shaxslarga nisbatan sudning sodir etilgan qilmishning xususiyati hisobga olingan holdagi qarori asosida quyidagi ma’muriy cheklovlar belgilanishi mumkin:

yashash joyidan sutkaning belgilangan vaqtida tashqarida bo‘lishni taqiqlash;

muayyan joylarda bo‘lishni taqiqlash;

sud tomonidan belgilangan hudud doirasidan ichki ishlar organlarining ruxsatisiz chiqishni taqiqlash;

ro‘yxatdan o‘tish uchun har oyda bir martadan to‘rt martagacha ichki ishlar organiga (ichki ishlar organining tayanch punktiga) kelish;

alkogolli ichimliklarni iste’mol qilishni taqiqlash.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan ma’muriy cheklovlar nazorat ostidagi shaxsning turmush tarziga, oilaviy ahvoliga, shuningdek uning shaxsini tavsiflovchi boshqa holatlarga qarab to‘liq hajmda yoki alohida-alohida tarzda belgilanadi.

Ma’muriy cheklovlarning ro‘yxati uzil-kesil bo‘lib, unga qo‘shimchalar kiritilishi yoki u kengaytirib sharhlanishi mumkin emas.

Qo‘llaniladigan ma’muriy cheklovlar sud tomonidan ichki ishlar organining taqdimnomasiga yoki nazorat ostidagi shaxsning yoki uning vakilining arizasiga, shuningdek mehnat jamoasining, jamoat birlashmasining va fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organining iltimosnomasiga binoan nazorat ostidagi shaxsning turmush tarzi va xulq-atvori haqidagi ma’lumotlar inobatga olingan holda qisman bekor qilinishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-apreldagi “Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma’muriy nazorat to‘g‘risida”gi qonuni 14-moddasida nazorat ostidagi shaxsning huquqlari ko‘rsatilgan. Ular advokat xizmatlaridan foydalanish, ko‘rib chiqilayotgan masala yuzasidan izohlar berish, dalillar taqdim etish, sudda ma’muriy nazorat o‘rnatish va cheklovlar qo‘llash to‘g‘risidagi materiallar bilan tanishib chiqish hamda ulardan zarur ma’lumotlarni yozib olish, materiallar va hujjatlardan texnika vositalari yordamida o‘z hisobidan ko‘chirma nusxalar olish yoki ulardagi ma’lumotlarni o‘zgaki shaklda qayd etish;

ma’muriy nazoratni muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risida, shuningdek belgilangan ma’muriy cheklovlarni qisman bekor qilish haqida sudga bevosita yoki vakili orqali arizalar bilan murojaat etish;

sud majlisining bayonnomasi bilan tanishish hamda u bo‘yicha o‘z mulohazalarini bildirish;

sudning ma’muriy nazorat o‘rnatish, u bilan bog‘liq ma’muriy cheklovlar va uning muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi qarori ustidan shikoyat qilish;

ish bo‘yicha keltirilgan protestlar va kelib tushgan shikoyatlardan xabardor bo‘lish va ularga nisbatan e’tirozlar bildirish;

yashash joyidan tashqarida bo‘lish yoki sud tomonidan belgilangan hudud doirasidan qisqa muddatga chiqish uchun ruxsatnomalar olish to‘g‘risidagi arizalar bilan ichki ishlar organlariga murojaat etish;

bevosita yoki vakili orqali ichki ishlar organlarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining ma’muriy nazoratni o‘rnatish va amalga oshirish chog‘idagi harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish.

Shu bilan birga nazorat ostidagi shaxs quyidagi ma’muriy nazorat qoidalariga rioya etishi shart:

jazoni ijro etish muassasasidan ozod qilinganidan keyin o‘zi tanlagan yashash joyiga sud tomonidan belgilangan muddatda yetib borish;

jazoni ijro etish muassasasidan ozod qilinganidan keyin, shuningdek yashash joyi o‘zgarganidan so‘ng o‘zi tanlagan yashash joyiga yetib kelgan kundan e’tiboran uch kun ichida hisobga qo‘yilish uchun ma’muriy nazoratni amalga oshiruvchi ichki ishlar organiga kelish;

o‘ziga nisbatan belgilangan ma’muriy cheklovlarga rioya etish;

ma’muriy nazoratni amalga oshiruvchi ichki ishlar organidan yashash joyidan tashqarida bo‘lish yoki sud tomonidan belgilangan hudud doirasidan tashqariga qisqa muddatga chiqish uchun ruxsatnoma olingan taqdirda, qisqa muddatga chiqilayotgan hududning ichki ishlar organini xabardor qilish;

qisqa muddatga chiqish joyidan qaytib kelganida doimiy yashash joyi bo‘yicha ichki ishlar organini xabardor qilish;

ma’muriy nazoratni amalga oshiruvchi ichki ishlar organini ishga joylashganligi, yashash, ish, o‘qish yoki xizmat joyi o‘zgarganligi yoki mehnat shartnomasi bekor qilinganligi to‘g‘risida uch kun ichida xabardor qilish;

yashash joyidagi ichki ishlar organiga ushbu organ tomonidan belgilangan muddatda chaqiruvga ko‘ra borish;

o‘ziga nisbatan belgilangan ma’muriy cheklovlarga rioya etish va zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish bilan bog‘liq masalalar yuzasidan og‘zaki va yozma tushuntirishlar berish.

Ma’muriy nazoratni amalga oshirishda ichki ishlar organlari quyidagi huquqlarga ega:

nazorat ostidagi shaxsning xulq-atvori to‘g‘risida ish, o‘qish yoki xizmat joyi ma’muriyatidan, jamoat birlashmasidan, yashash joyidagi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organidan, shuningdek fuqarolardan ma’lumotlarni so‘rash va olish;

nazorat ostidagi shaxsga uy-joy berish va uni ishga joylashtirish to‘g‘risida tegishli davlat organlariga, boshqa korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga iltimosnomalar yuborish;

profilaktik suhbat o‘tkazish uchun nazorat ostidagi shaxsni uning yashash joyidagi ichki ishlar organlariga chaqirish, nazorat ostidagi shaxsning talabi bilan bunday suhbatlarni advokat, jamoatchilik, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organi vakillari yoki yaqin qarindoshlari ishtirokida o‘tkazish;

nazorat ostidagi shaxsdan o‘ziga nisbatan belgilangan ma’muriy cheklovlarga rioya etish hamda zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish bilan bog‘liq masalalar yuzasidan og‘zaki va yozma tushuntirishlar talab qilish.

Ichki ishlar organlari ma’muriy nazoratni amalga oshirish bo‘yicha alohida tadbirlarni o‘tkazishda davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, boshqa tashkilotlar va fuqarolar bilan hamkorlik qilishi mumkin.

Ma’muriy nazoratni amalga oshirishda ichki ishlar organlari huquqlar bilan birgalikda majburiyatlarga ham ega. Ular quyidagilar:

nazorat ostidagi shaxsga uning huquqlari va majburiyatlarini tushuntirishi, shuningdek o‘ziga nisbatan belgilangan ma’muriy cheklovlarni buzganlik hamda zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganlik uchun javobgarlik to‘g‘risida ogohlantirishi;

ma’muriy nazorat muddati mobaynida nazorat ostidagi shaxslarning hisobini yuritishi;

nazorat ostidagi shaxslarni o‘zlari tanlagan yashash joyida doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish va ularni ishga joylashtirish yuzasidan zarur choralar ko‘rishi;

ma’muriy nazorat ostidagi shaxsning o‘ziga nisbatan belgilangan ma’muriy cheklovlarga rioya etishi va yashash, ish, o‘qish yoki xizmat joyi bo‘yicha zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishi ustidan tizimli ravishda nazoratni amalga oshirishi;

nazorat ostidagi shaxs bilan uning huquqbuzarliklar sodir etishining oldini olishga qaratilgan yakka tartibdagi profilaktika ishlarini olib borishi;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilinganidan keyin yashash joylariga belgilangan muddatda uzrli sabablarsiz yetib kelmagan, shuningdek yashash joylarini o‘zboshimchalik bilan tark etgan yoki sud tomonidan belgilangan hudud doirasidan ruxsatnomasiz chiqib ketgan nazorat ostidagi shaxslarning qidiruvini amalga oshirishi shart.

Ma’muriy nazoratni o‘rnatish va amalga oshirish nazorat ostidagi shaxsning boshqa huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzmasligi, uning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitmasligi kerak.

Savol va topshiriqlar:

1. Ma’muriy nazorat to‘g‘risidagi normativ-huquqiy hujjatlarni sanab bering.
2. Ma’muriy nazoratga olinishi mumkin bo‘lgan shaxslar toifalarini aytib bering.
3. Ma’muriy nazoratning asosiy vazifasini aytib bering.
4. Ma’muriy nazoratning asosiy prinsiplarini aytib bering.
5. Nazorat ostidagi shaxs tushunchasiga ta’rif bering.
6. Nazorat ostidagi shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan ma’muriy cheklovlar va ularni qo‘llash asoslari haqida tushuncha bering.
7. Ma’muriy nazoratni tugatish tartibi haqida tushuncha bering.
8. Ma’muriy nazorat ostidagi shaxs qanday majburiyatlarga ega.

XIX BOB ICHKI ISHLAR ORGANLARI JAZOLARNI IJRO ETISH FAOLIYATI

1-§. Jazolarni ijro etuvchi muassasalarning huquqiy asoslari va faoliyatining asosiy yo‘nalishlari

Jazolarni ijro etuvchi muassasalarning huquqiy asosi etib, O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, O‘zbekiston Respublikasining jinoyat va jinoyat ijroiya Kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi 407-son qonuni[54], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-avgust kunidagi “Ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lgan jazolarni ijro etish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3200-sonli qarori[55], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6196-son farmoni[32], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5050-son qarori[56].

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 15-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” gi O‘RQ–817-son qonuni[57].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-aprel kunidagi PF–6218-son “Milliy qonunchilik bazasini kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti faoliyatini yanada samarali tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 445-son qarorlari bilan tartibga solingan.

Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Jinoyat-ijroiya Kodeksi, shuningdek unga muvofiq qabul qilinadigan O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga asosan, ichki ishlar organlari amalga oshiradi. Ichki ishlar organlarida jazoni ijro etish faoliyati bilan tashkil etilgan bo‘lib, Ichki ishlar vazirligi Jazoni ijro etish bosh boshqarmasi tomonidan amalga oshirilgan.

Jazoni ijro etish bosh boshqarmasi ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarni jazosini ijro etish, qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo‘llanilgan gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarni saqlash, ularni qo‘riqlash va boshqa yerga ko‘chirish

[54] O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 02.12.2024-y., 03/24/1008/0988-son.

[55] O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 30.04.2021-y., 06/21/6218/0398-son.

[32] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.04.2025-y., 06/25/65/0331-son.

[56] O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 30.04.2021-y., 06/21/6218/0398-son.

[57] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.02.2023-y., 03/23/817/0091-son.

bo‘yicha faoliyatni muvofiqlashtirish va tashkil etishni ta’minlovchi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi markaziy apparatining mustaqil tarkibiy bo‘linmasi hisoblangan[58].

Ichki ishlar organlarida amalga oshirilgan islohotlar natijasi o‘laroq, jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning yaxlit tizimini shakllantirish, ichki ishlar organlarining eng quyi bo‘g‘inidan respublika darajasigacha samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yish va zamonaviy ish uslublarini joriy etish orqali mamlakatimizda huquq-tartibot va qonuniylikni mustahkamlash, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash maqsadida Ichki ishlar vazirligi Jazoni ijro etish bosh boshqarmasi faoliyati tamomlanib, tarkibiy shatat birliklari bilan birga Jazoni ijro etish departamenti faoliyati tashkil etildi[59].

Jazoni ijro etish departamenti bevosita Ichki ishlar vaziriga bo‘ysunadi va Vazirning zimmasiga ichki ishlar organlarining jinoiy jazolarni ijro etish tizimini rivojlantirish va unda qat’iy intizomni ta’minlash uchun shaxsiy javobgarlik belgilab qo’yildi.

Ichki ishlar organlarining barcha tergov hibsxonalari va jazoni ijro etish muassasalari hududiy ichki ishlar organlarining tuzilmaviy-funksional bo‘ysunuvidan chiqarilib, Jazoni ijro etish departamenti bo‘ysunuviga o‘tkazildi.

Tergov hibsxonalari va jazoni ijro etish muassasalari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish va ularda kunlik nazoratni olib borish maqsadida Jazoni ijro etish departamenti tizimida 6 ta mintaqaviy muvofiqlashtirish markazlari joriy etildi.

Jazolarni ijro etuvchi muassasalar huquqiy nuqtai nazardan davlat organlari bo‘lib, ularning faoliyati to‘g‘ridan-to‘g‘ri qonun va normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi. Ularning asosiy maqsadi – sud hukmlari yoki tergov organlari tomonidan belgilagan jazoni muvaffaqiyatli va adolatli bajarish, jinoyatchilarni reabilitatsiyalash, jamiyatga axloqan qayta tarbiyalashdan iboratdir.

Shuningdek, Ichki ishlar vazirligi jazoni ijro etish tizimini raqamlashtirish orqali sohada inson omilini istisno etish va jazoni o‘tashning tartibotini ta’minlash joriy etildi. Jumladan:

- jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibsxonalarida qat’iy intizom va qonuniylikni ta’minlash, korrupsiyaviy holatlarning oldini olish, shuningdek, mahkumlarni saqlash holati ustidan nazorat olib borish jarayonlarini to‘liq avtomatlashtirish;

- jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlar, shu jumladan ularning qarindoshlari tomonidan qonun bilan taqiqlanmagan buyumlarni erkin bozor mexanizmlariga asoslangan elektron do‘konlar orqali sotib olish imkoniyatini yaratish;

[58] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-avgust kunidagi “Ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lgan jazolarni ijro etish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3200-sonli qarori.

[59] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-mart kunidagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6196-son farmoni.

- mahkumlarni qayta tarbiyalashning taktikasini to‘g‘ri belgilash va ular tomonidan huquqbuzarlik sodir etilishining barvaqt oldini olish maqsadida har bir mahkumning xulq-atvori va shaxsi haqidagi ma’lumotlar elektron bazasini yuritish va uning asosida mahkumlarni taqsimlash jarayonini to‘liq raqamlashtirish choralari amalga oshirish;

Mahkumlarni mehnatga jalb qilish orqali qayta tarbiyalash va sohaga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish maqsadida mavjud shtat birliklari doirasida quyidagi lavozimlar kiritildi:

- jazoni ijro etish departamenti boshlig‘ining axborot texnologiyalari hamda ishlab chiqarishni rivojlantirish bo‘yicha o‘rinbosarlari lavozimi joriy etildi.

Jazoni ijro etish muassasalarining asosiy yo‘nalishlari:

- mahkumni axloqan tuzatish - unda qonunga itoatkor xulq-atvorni, insonga, jamiyatga, mehnatga, jamiyat turmushi qoidalari va an’analariga hurmat munosabatini shakllantirishdan iborat;

- mahkumni axloqan tuzatishning asosiy vositalariga jazoni ijro etish va o‘tashning belgilangan tartibi (rejimi), ijtimoiy-foydali mehnat, tarbiyaviy ish, umumiy va hunar ta’limi, kasb tayyorgarligi va jamoat ta’siri kiradi;

- axloqan tuzatish vositalari jazo turini, sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, shuningdek mahkumning shaxsi va xulq-atvorini inobatga olgan holda qo‘llaniladi;

- ijtimoiy-foydali mehnatga jalb qilish orqali ularning kasb-hunarini shakllantirish va jamiyatga foyda keltirishga yo‘naltirish;

- tarbiyaviy ish ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarni axloqan tuzatishning asosiy vositalaridan biri bo‘lib, mahkumlarda qonun talablariga va jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor qoidalariga rioya etishga, shuningdek bilim va madaniy saviyasini oshirishga intilishni shakllantirishga qaratilgan bo’lib, jazoni ijro etish muassasalarida ma’naviy, huquqiy, jismoniy va boshqa tarbiyaviy ishlar olib boriladi.

- tarbiyaviy ish yakka tartibda, guruh bilan va ommaviy shaklda olib boriladi;

- jazoni o‘tashning belgilangan tartibini rejim mahkumlarni batamom ajratib qo‘yish, ularni qo‘riqlash va nazorat qilib turishni, mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish, shuningdek ularning o‘z majburiyatlarini ado etishini, muayyan toifadagi mahkumlarni alohida-alohida saqlashni, muassasa turiga qarab mahkumlarni har xil sharoitda saqlashni hamda mahkumlarning va muassasa xodimlarining xavfsizligini;

- mahkumlarga tibbiy yordam ko‘rsatish, ularga dori-darmon vositalari berish, sanitariya nazoratini tashkil etish va olib borish, davolash-profilaktika muassasalaridan foydalanish, sog‘liqni saqlash organlarining tibbiy xodimlarini jalb etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadi;

- voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo choralarini ijro etishda tarbiya koloniyalari orqali amalga oshirilishi belgilab qoyilgan.

Ularning asosiy vazifalari qatoriga mahkumlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni ijtimoiy hayotga qayta moslashtirish, mehnat va ta’lim orqali tarbiyalash, shuningdek, jinoyatchilikning qaytalanishini oldini olish kiradi. Undan

tashqari Jazoni ijro etish Departamenti o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqqan holda quyidagi funksiyalarni ham amalga oshiradi:

Mahkumlarga nisbatan jinoiy jazolarni ijro etish, qamoqqa olingan shaxslarni tergov hibsxonalarida saqlashni tashkil etish va muvofiqlashtirish sohasida:

- jazoni ijro etish tizimini raqamlashtirish, mahkumlarning “elektron nazorati”ni ta’minlovchi axborot texnologiyalarini joriy qilish orqali jazolarni ijro etishni tashkil qilish;

- sudlarning, shuningdek, ish yurituvida jinoyat ishi bo‘lgan boshqa organlarning tegishli hukm, ajrim va qarorlarini aniq va so‘zsiz ijro etish;

- mahkumlarning jazoni ijro etish uchun o‘z vaqtida yuborilishini, ularning joylashtirilishini, shuningdek, mahkumlarning va qamoqqa olingan shaxslarning belgilangan tartibda bir jazoni ijro etish muassasasi va tergov hibsxonasidan boshqasiga ko‘chirilishini ta’minlash;

- amnistiya va afv etish to‘g‘risidagi hujjatlar ijrosini o‘z vaqtida tashkil etish;

- mahkumlarning va qamoqqa olingan shaxslarning ajratib qo‘yilishi, qo‘riqlanishi va nazorat qilinishini ta’minlash;

O‘zbekiston Respublikasi vakolatli davlat organlarining jinoyat ishi yurituvi sohasidagi xalqaro hamkorlik bilan bog‘liq, shu jumladan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lmagan mahkumlarni topshirish (ekstraditsiya qilish) bilan bog‘liq qarorlarining ijro etilishini tashkil etish;

- sud hujjatlarining ijro etilishini ta’minlash bo‘yicha tashkiliy-uslubiy yordam ko‘rsatish;

- ichki ishlar organlarining jazoni ijro etish tizimidagi bo‘linmalari va muassasalarida axborot-tahliliy ishlarni tashkil etish, ularning faoliyatini rejalashtirish va prognoz qilish;

- jinoiy jazoni ijro etish va qamoqda saqlash faoliyatini tashkil etish va ta’minlash bo‘yicha uslubiy materiallarni ishlab chiqish.

Jazoni ijro etish muassasalarida va tergov hibsxonalarida qo‘riqlash va xavfsizlikni ta’minlash, mahkumlar va qamoqqa olingan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilinishiga rioya etish sohasida:

- jazoni ijro etish muassasalarida va tergov hibsxonalarida huquq-tartibot va qonuniylikni ta’minlash;

- jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibsxonalari hududlarida bo‘lgan mahkumlar va qamoqqa olingan shaxslarning, shuningdek, xodimlar (ishchilar va xizmatchilar) va fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash;

jazoni ijro etish muassasalari, tergov hibsxonalari, ishlab chiqarishdagi mahkumlarni mehnatga jalb etadigan tashkilotlar ob’ektlarini nazorat qilishning zamonaviy axborot texnologiya va muhandislik-texnik vositalaridan foydalangan holda lozim darajada qo‘riqlashni tashkil etish;

jazoni ijro etish muassasalarning xavfsizligini ta’minlash borasida Qorovul qo‘shinlari, hududiy ichki ishlar organlari, prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati va boshqa vakolatli davlat organlari bilan hamkorlikda texnik, tezkor va profilaktik tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirish;

hududiy hokimliklar bilan hamkorlikda jazoni ijro etish muassasalaridan 50 metr masofada ma’muriy, maishiy, xo‘jalik bino va inshootlari qurilishi uchun yer uchastkalarini ajratishga, ularni ijaraga berishga, shuningdek, balandligi 6 metrdan ortiq bo‘lgan bino va inshootlarni qurishga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

Departament, uning bo‘linmalari va muassasalarida yong‘in xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

mahkumlar orasida ko‘ngilli yong‘in o‘chirish otryadlarini tashkil etish, ularga tushuntirishlar berishda Favqulodda vaziyatlar vazirligining hududiy tuzilmalari bilan hamkorlik qilish;

mahkumlar va qamoqqa olingan shaxslarning taklif, ariza va shikoyatlarini belgilangan tartibda ko‘rib chiqishni ta’minlash;

mahkumlar va qamoqqa olingan shaxslar tomonidan jazoni ijro etish, qamoqda saqlashning belgilangan tartibiga rioya etilishini ta’minlash;

jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibsxonalarida tegishli belgilangan normalarga mos keladigan ushlab turish shart-sharoitlarini yaratish;

mahkumlar va qamoqqa olingan shaxslarning moddiy-maishiy ta’minotini va ularga tibbiy xizmat ko‘rsatilishini samarali tashkil etish, shuningdek, mahkumlarga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llashni amalga oshirish;

Mahkumlarni tarbiyalash, ular tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishini oldini olish, shuningdek, ularga ozod etilganidan so‘ng ijtimoiy moslashuvi uchun ko‘maklashish faoliyatini tashkil etish sohasida:

- mahkumlar jazodan ozod etilganidan so‘ng jamiyatga moslashishi uchun davlat siyosati doirasida imtiyoz va imkoniyatlardan foydalanishi, mehnat bozorida yuqori talabga ega mutaxassisliklarni egallash imkoniyatini yaratish bo‘yicha choralarni ko‘rish;

- mahkumlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, milliy g‘oya va Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, ma’naviy barkamol, mustaqil fikr va keng dunyoqarashga ega shaxs sifatida kamol toptirish yuzasidan tadbirlarni amalga oshirish;

- davlat ta’lim standartlari doirasida ta’lim olayotgan mahkumlarni yuqori saviyadagi bilim olishi va kasbiy tayyorgarlikdan o‘tishini ta’minlaydigan umumiy o‘rta va kasb-hunar ta’limini tashkil etish, bu borada mutasaddi organlar bilan hamkorlikni ta’minlash;

- mahkumlarni axloqan tuzatish jarayoniga vakolatli davlat organlari, jamoatchilik tashkilotlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini keng jalb qilishni tashkil etish;

- mamlakatimizda turli sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini mahkumlarga yetkazish va ularda bu borada daxldorlik hissini shakllantirishni ta’minlash;

- tarbiyaviy, ijtimoiy va psixologik ishlarni tashkil etish bo‘yicha ilg‘or tajribalardan foydalanish;

- mahkumlarning muammolarini muntazam ravishda o‘rganib borish, ularning oilasidagi ijtimoiy va moddiy muammolarini hal etishda hududiy davlat organlari bilan hamkorlik qilish;

- mahkumlarni qonunga itoatkorlik ruhida tarbiyalash va ozodlikka tayyorlash ishlarining ta’sirchan shakl va usullarini tatbiq etish;

- mahkumlar va qamoqqa olingan shaxslar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasiga, shu jumladan huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon beruvchi shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni tashkil etish;

- jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibsxonalarida tezkor-qidiruv faoliyatining samaradorligini tizimli ravishda tahlil qilish va uni takomillashtirish bo‘yicha choralarni ko‘rish;

- jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibsxonalariga taqiqlangan predmetlarning kirib kelish yo‘llarini aniqlash va bartaraf etish.

Jazoni ijro etish muassasalari va ularning tashkilotlarining moliya-xo‘jalik va ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini oshirish orqali mahkumlarning bandligini ta’minlash sohasida:

- moliyaviy-iqtisodiy faoliyatni samarali tashkil etish, olib borilayotgan moliyaviy va xo‘jalik harakatlarning maqsadga muvofiqligi hamda qonunchilikka mosligi ustidan nazorat qilishni ta’minlash;

- jazoni ijro etish muassasalarida ishlab chiqarish hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini muvofiqlashtirish va rivojlantirish, zamonaviy marketing usullarini joriy etish;

- ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ommalashtirish va ularni bozorga kiritish choralarini ko‘rish hamda bu borada davlat va xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish;

- jazoni ijro etish muassasalarining ishlab chiqarish faoliyatiga shu sohada amaliy tajribaga ega bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish, shu bilan birga ularni lavozimga shahodatlangan lavozimlar hisobidan tayinlash;

- Departament, uning bo‘linmalari va muassasalarini moddiy-texnik jihatdan ta’minlash, mol-mulkdan maqsadga muvofiq tarzda foydalanish, texnik xizmat ko‘rsatish va qo‘riqlash, shuningdek, ularni saqlanishi va oqilona ishlatilishi bo‘yicha zarur choralar ko‘rish;

- jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibsxonalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ishlab chiqarish faoliyatiga fan va texnika yutuqlarini, ilg‘or tajriba va texnologiyalarni, boshqaruvning yangicha usul va shakllarini joriy qilish;

- shartnomaviy-huquqiy va talabnoma-da’vo ishlarini yuritish;

- o‘z ishlab chiqarish (qishloq xo‘jaligi) joylarida, alohida hollarda esa boshqa korxonalarda, mahkumlarning axloqiy va moddiy manfaatdorligi uchun shart-sharoitlar yaratish yo‘li orqali ularning ish bilan bandligini ta’minlashdan iboratdir.

Xulosa o‘rnida, jazolarni ijro etuvchi muassasalarning huquqiy asosi va faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini, jazoni ijro etish muassasalarida va tergov hibsxonalarida qo‘riqlash va xavfsizlikni ta’minlash, mahkumlar va qamoqqa olingan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli

himoya qilinishiga rioya etilishini, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, xodimlarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilishning samarali tizimini tashkil etishdan iboratdir.

Savol va topshiriqlar:

1. Jazolarni ijro etuvchi muassasalarning huquqiy asoslari nimalardan iborat?
2. O‘zbekiston Respublikasida jinoyat-ijroiya tizimining faoliyati qaysi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi?
3. “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonun jazoni ijro etish tizimida qanday ahamiyatga ega?
4. Jazoni ijro etish tizimini takomillashtirish bo‘yicha Prezident qaror va farmonlarining roli qanday?
5. Jazoni ijro etish bosh boshqarmasi qanday vazifalarni bajargan va uning o‘rniga qaysi tuzilma tashkil etilgan?
6. Jazoni ijro etish departamenti qanday tashkilot, u kimga bo‘ysunadi?
7. Tergov hibsxonalari va jazoni ijro etish muassasalari qaysi tizim bo‘ysunuviga o‘tkazildi?
8. Jazoni ijro etish departamenti tizimida tashkil etilgan mintaqaviy muvofiqlashtirish markazlarining vazifasi nimadan iborat?
9. Jazolarni ijro etuvchi muassasalarning asosiy maqsadi nima?
10. Mahkumlarni axloqan tuzatish tushunchasi nimani anglatadi?

2-§. Jazolarni ijro etuvchi muassasalar tizimi hamda ularning vazifalari

Jazolarni ijro etish tizimi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga qarashli Jazoni ijro etish departamenti tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu department O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6196-son farmoni asosida tashkil etildi.

Ichki ishlar organlarining jazoni ijro etish tizimi quyidagilardan tashkil topgan:

- Departament;
- mintaqaviy muvofiqlashtirish markazlari;
- jazoni ijro etish koloniyalari, shu jumladan davolash huquqi asosida;
- tarbiya koloniyasi;
- tergov hibsxonalari;
- mahkumlar uchun ixtisoslashgan kasalxona;
- tezkor harakatlar otryadi;
- markaziy omborxona.

Departament ichki ishlar organlarining jazoni ijro etish tizimi uchun yagona boshqaruv faoliyatini amalga oshiradi.

Mintaqaviy muvofiqlashtirish markazlari ichki ishlar organlari tergov hibsxonalari va jazoni ijro etish muassasalarining faoliyatini tashkil etish va kunlik nazoratini olib borish borasidagi ishlarni amalga oshiradi[60].

Tezkor harakat otryadi favqulodda holatlarda jazoni ijro etish departamenti, uning bo‘linmalari va muassasalarida xavfsizlikni ta’minlash va o‘rnatilgan tartibni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus vazifalarni bajarish uchun mo‘ljallangan.

Markaziy omborxona mol-mulk, asbob-uskuna va jazoni ijro etish muassasalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni hisobga olish va saqlash, shuningdek jazoni ijro etish departamenti, uning bo‘linmalari va muassasalari ehtiyojlari uchun asosiy vositalar, tovar-moddiy qimmatliklarni markazlashtirilgan tarzda sotib olish va tarqatish uchun mo‘ljallangan.

Jazoni ijro etish koloniyalari, tarbiya koloniyalari, tergov hibsxonalari va mahkumlarga mo‘ljallangan ixtisoslashgan kasalxonalar faoliyatining asosiy yo‘nalishlari qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Jazoni ijro etish departamenti uning bo‘linmalari va muassasalari quyi turuvchi boshliqlarning yuqori turuvchi boshliqlarga va O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziriga bo‘ysunuvi va hisobot berishi asosida faoliyat yuritadi.

Jazoni ijro etish departamenti o‘z faoliyati bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha belgilangan tartibda ichki ishlar organlarining boshqa bo‘linmalari, huquqni muhofaza qilish va boshqa davlat organlari, tashkilotlar, shuningdek ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Jazoni ijro etish departamenti mustaqil balansga, bank hisobvarag‘iga, O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan hamda o‘zining to‘liq nomi yozilgan blank va muhrga, shtampga ega, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan ta’sis etiladigan Jazoni ijro etish departamenti faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari aks ettirilgan ramzga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 5-martdagi “Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq jazolarni ijro etish muassasalarining faoliyati samaradorligini ta’minlash bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 128-sonli qarori 1-ilovasiga muvofiq “Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazolarni ijro etish muassasalari to‘g‘risidagi nizom”ning 4-bobida “Jazoni ijro etish muassasalarining asosiy vazifalari va funksiyalari” belgilab berilgan.

Unga ko‘ra quyidagilar jazoni ijro etish muassasalarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- mahkumlarga nisbatan jinoiy jazolarni ijro etish;
- jazoni ijro etish muassasalarida qo‘riqlash va xavfsizlikni ta’minlash, mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya qilish;
- mahkumlarni ozod qilishga tayyorlash, ishga joylashishga va maishiy hayotidagi ehtiyojlarini aniqlash, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingandan keyin ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirish, shuningdek, ularning

[60] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 5050-son qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 02.04.2021-y., 07/21/5050/0280-son.

huquqbuzarliklarni sodir etishining oldini olish maqsadida tarbiyaviy ishlar olib borish;

- jazoni ijro etish muassasalari va davlat unitar korxonalarining moliya xo‘jalik va ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini oshirish, mahkumlarning bandligini ta’minlash;

Shaxsiy tarkib va kadrlar bilan ishlash, xodimlarni qayta tayyorlash, o‘ziga yuklangan vazifalardan kelib chiqqan holda jazoni ijro etish muassasalari quyidagi funksiyalarni ham amalga oshiradi:

Mahkumlarga nisbatan jinoiy jazolarni ijro etish sohasida:

- sudlarning hukmlari, ajrimlari va qarorlari aniq va so‘zsiz ijro etilishini ta’minlaydi;

- mahkumlar qonunchilik talablariga muvofiq joylashtirilishini ta’minlaydi;

- mahkumlarni afv etish to‘g‘risidagi materiallarni o‘z vaqtida rasmiylashtiradi va ularni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi afv etish masalalari bo‘yicha Komissiyaga taqdim etish uchun jazoni ijro etish departamentiga yuboradi;

- amnistiya va afv etish to‘g‘risidagi hujjatlarning o‘z vaqtida ijro etilishini ta’minlaydi;

- mahkumlarning ajratib qo‘yilishi, qo‘riqlanishi va nazorat qilinishini ta’minlaydi;

O‘zbekiston Respublikasi vakolatli davlat organlarining jinoyat ish yurituvi sohasidagi xalqaro hamkorlik bilan bog‘liq, shu jumladan, chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lmagan mahkumlarni topshirish (ekstraditsiya qilish) bilan bog‘liq qarorlarini ijro etadi;

Jazoni ijro etish muassasalarida qo‘riqlash va xavfsizlikni ta’minlash, shuningdek, mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya qilish sohasida:

- jazoni ijro etish muassasalarida huquq-tartibot va qonuniylikka rioya etilishini ta’minlaydi;

- jazoni ijro etish muassasalari hududlarida bo‘lgan mahkumlar, shuningdek, xodimlar (ishchilar va xizmatchilar) va fuqarolarning xavfsizligini ta’minlaydi;

- yong‘in xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

- jazoni ijro etish muassasalarida, mahkumlarni mehnatga jalb etadigan tashkilotlarning ishlab chiqarish ob’ektlarida nazorat qilishning zamonaviy muhandislik-texnik qo‘riqlash vositalaridan foydalangan holda zarur darajada kuzatuv va nazorat tashkil etilishini ta’minlaydi;

- taklif, ariza va shikoyatlarni belgilangan tartibda ko‘rib chiqadi;

- mahkumlar tomonidan jazoni ijro etishning belgilangan tartibiga rioya etilishini ta’minlaydi;

- jazoni ijro etish muassasalarida tegishli belgilangan normalarga mos keladigan saqlash shart-sharoitlarini yaratadi;

- mahkumlarning moddiy-maishiy ta’minotini va ularga tibbiy xizmat ko‘rsatilishini tashkil etadi, shuningdek, mahkumlarga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash va ularning majburiy davolanishini amalga oshiradi;

- malakasini oshirish, huquqiy va ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha ishlarni tashkil etadi;

- tuzalish yo‘liga o‘tmaganlar — ularga tarbiyachilar biriktirilib, ma’naviy qiyofasini yaxshilashga doir chora-tadbirlar amalga oshiriladi, ularni sodir etgan jinoyatidan pushaymon bo‘lishga va qonunga itoatkor turmush tarziga rioya qilishga undaydi;

- tuzalish yo‘liga o‘tganlar — ularda mustaqil mehnat ko‘nikmasini uyg‘otish va ijtimoiy faol hayotiy pozitsiyasini rivojlantirish maqsadida ularga nisbatan to‘liq ijtimoiy moslashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi[61].

Mahkumlarni ozod qilishga tayyorlash, ishga joylashishga va maishiy hayotidagi ehtiyojlarini aniqlash, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingandan keyin ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirish, shuningdek, ularning huquqbuzarliklarni sodir etishining oldini olish maqsadida tarbiyaviy ishlar olib borish sohasida:

- mahkumlar o‘rtasida qonunlarga itoatkorlik, shaxsga, jamiyatga, mehnatga, insoniy qadriyatlar va an’analarga nisbatan hurmatni shakllantirish, bilim va madaniy darajasini oshirishga qaratilgan tarbiyaviy-profilaktik va tushuntirish ishlarini amalga oshiradi;

- mahkumlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi, huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon beruvchi shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni tashkil etadi;

- ma’muriy nazorat o‘rnatilishi lozim bo‘lgan mahkumlar toifasini aniqlab, tegishli taqdimnomalarni sudga kiritadi;

- tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshiradi;

- jazoni ijro etish muassasalariga taqiqlangan predmetlarning (narkotik vositalar, psixotrop, portlovchi va zaharli moddalar, diniy-ekstremistik tusdagi adabiyotlar va boshqalar) kirib kelishi yo‘llarini aniqlanishi va bartaraf etilishini ta’minlaydi;

- mahkumlar o‘rtasida huquqiy targ‘ibot ishlarini tashkil etadi va o‘tkazadi;

- mahkumlarni ozod etilganidan so‘ng keyinchalik ishga joylashtirish maqsadida ularni mehnat bozorida talab bo‘lgan kasbni egallashlari uchun kasbga tayyorlashni tashkil etadi;

- jazoni ijro etish muassasalaridan qochgan mahkumlar va qamoqqa olingan shaxslar, shuningdek, manzil-koloniyalarda saqlanayotgan va ushbu muassasalar hududini o‘zboshimchalik bilan tark etgan mahkumlarni qidirish va ushlashni amalga oshiradi;

Jazoni ijro etish muassasalari va davlat unitar korxonalarining moliya xo‘jalik va ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini oshirish, mahkumlarning bandligini ta’minlash sohasida:

- moliyaviy-iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va buxgalteriya hamda statistika hisobotlarini zarur darajada yuritish orqali olib borilayotgan moliyaviy va xo‘jalik faoliyatining maqsadga muvofiqligi hamda qonunchilikka mosligi ustidan nazorat qilishni tashkil etadi;

[61] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 04.09.2023-y., 09/23/430/0671-son.

- jazoni ijro etish muassasalari va ularning korxonalarida ishlab chiqarish hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini tashkil etadi va rivojlantirishga ko‘maklashadi;

- jazoni ijro etish muassasalarini moddiy-texnik ta’minlash, mol-mulkdan maqsadga muvofiq foydalanish, texnik xizmat ko‘rsatish va qo‘riqlash, shuningdek, ularning saqlanishi va oqilona ishlatilishi bo‘yicha zarur choralarni ko‘radi;

- shartnomaviy-huquqiy va talabnoma da’vo ishlarini yuritishni amalga oshiradi;

- ishlab chiqarish (qishloq xo‘jaligi) uchastkalarida, alohida hollarda esa boshqa korxonalarda mahkumlarning axloqiy va moddiy manfaatdorligi uchun shart-sharoitlar yaratish yo‘li bilan ularning ish bilan bandligini ta’minlaydi;

- jazoni ijro etish muassasalari faoliyatini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilaydi;

- jazoni ijro etish muassasalari va ularning hududlarini jihozlashga qo‘yiladigan umumiy talablarni, muassasalarda rejim turlarini, ularni qo‘riqlash va xavfsizligini ta’minlashni;

- mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta’minlashni;

- mahkumlar bilan tarbiyaviy ishlar olib borishda ular o‘rtasida huquqbuzarliklar va tartibbuzarliklarning barvaqt oldini olishni;

- jazoni ijro etish muassasalari huzuridagi korxonalarning ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish va mahkumlarning bandligini ta’minlashni;

- 14 ta jazoni ijro etish koloniyalarining 60 ta yashash yotoqxonalarini kubrik tipidagi xonalarga o‘zgartirish yo‘li bilan rekonstruksiya qilishni;

- jazoni ijro etish koloniyalarining yashash yotoqxonalarini kubrik tipidagi xonalarga o‘tkazgan holda ularni bosqichma-bosqich qurish va rekonstruksiya qilish choralari amalga oshirilmoqda[62].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ob’ektlarni qurish va rekonstruksiya qilish orqali zamonaviy texnik qo‘riqlash vositalari va videokuzatuv moslamalari xarid qilinib, ushbu yunalishda bosqichma-bosqich jadal ishlar amalga oshirildi.

Mavjud va tashkil etiladigan maydonlardan samarali va oqilona foydalanish maqsadida koloniyalardagi yashash yotoqxonalarini qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilib, texnik topshiriqlar tayyorlandi.

Ushbu loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlashda sanitariya qoidalariga va normalariga hamda shaharsozlik normalariga, qoidalariga rioya etilishi hamda loyiha-smeta hujjatlari ekspertizadan o‘tkazilishi ta’minlandi.

Jazoni ijro etish muassasalarini videokuzatuv vositalari va videoregistratorlar bilan ta’minlash bo‘yicha xarajatlar O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining asoslangan hisob-kitoblari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ajratiladigan budjet mablag‘lari, Jazoni ijro etish

[62] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-avgustdagi 445-sonli qaroriga asosan chiqarilgan. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.08.2022-y., 09/22/445/0739-son.

departamentining Markazlashtirilgan jamg‘armasi hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbaalar hisobiga amalga oshirilishi belgilab qo’yildi[63].

Xulosa o‘rnida Jazoni ijro etuvchi muassasalar tizimi – bu davlat tomonidan belgilangan jinoiy jazolarni amalda bajarilishini ta’minlaydigan tashkilotlar majmuasidir. Ushbu tizim jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, sud tomonidan tayinlangan jazolarning adolatli va samarali ijrosini amalga oshirish maqsadida faoliyat yuritadi.

Shuningdek, bu muassasalar fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan biri sifatida jinoiy jazoni faqat jazo chorasi sifatida emas, balki ijtimoiy-tarbiyaviy vosita sifatida qo‘llashni maqsad qiladi. Shu orqali mahkumlarni ijtimoiy hayotga moslashtirish va ularni jamiyatga foydali shaxs sifatida qayta tarbiyalash imkoniyatini yaratadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Jazoni ijro etish departamenti qaysi farmoni asosida tashkil etilgan?
2. Ichki ishlar organlarining jazoni ijro etish tizimiga kiruvchi muassasalarni sanab bering?
3. Departamentning tizimdagi asosiy boshqaruv vazifasi nimadan iborat?
4. Mintaqaviy muvofiqlashtirish markazlari qanday vazifalarni bajaradi?
5. Tezkor harakat otryadi qanday holatlarda faoliyat olib boradi?
6. Markaziy omborxonaning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
7. Jazoni ijro etish muassasalarining asosiy vazifalari qaysilar? Kamida 4 tasini ayting?
8. Mahkumlarga nisbatan jinoiy jazolarni ijro etish jarayonida muassasalar qanday funksiyalarni bajaradi?
9. Mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun muassasalarda qanday choralar ko‘riladi?
10. Mahkumlarni ozodlikka tayyorlash jarayonida qanday tarbiyaviy ishlar amalga oshiriladi?

3-§. Jazolarni ijro etuvchi muassasalarning majburiyatlari

Har qanday huquqiy davlatning asosiy vazifalaridan biri bu - jamiyatda qonuniylik va tartib-intizomni ta’minlash, jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan adolatli jazo choralarini qo‘llash bu jazolarning amalda to‘liq va qonuniy asosda ijro etilishini tashkil etishdan iborat. Jazolarni ijro etuvchi muassasalar esa ushbu jarayonning bevosita ijrochisi bo‘lib, ular sud tomonidan tayinlangan jazolarni amalga oshirish, mahkumlarning huquq va erkinliklarini saqlash, ularni qayta tarbiyalash va jamiyatga qayta moslashtirish kabi bir qator muhim majburiyatlarni bajaradi.

Ushbu muassasalarning asosiy faoliyati nafaqat jazoni ijro etishga, balki jinoyatchilikning oldini olish, mahkumlar bilan ishlashning pedagogik va psixologik

[63] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-avgustdagi 445-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.08.2022-y., 09/22/445/0739-son.

asoslarini shakllantirishga, ularning ijtimoiy-psixologik holatini yaxshilashga ham qaratilgan. Shuning uchun ham jazoni ijro etuvchi muassasalar zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar murakkab bo'lib, ko'p qirrali va jamiyat hayotida katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jazoni ijro etuvchi muassasalar zimmasidagi majburiyatlar bir nechta yo'nalishlarni qamrab oladi jumladan, sud hukmlarini qonuniy ijro etish, mahkumlarning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularni mehnat, ta'lim va tarbiya orqali ijtimoiy hayotga tayyorlash, muassasa ichida xavfsizlik va tartibni saqlash hamda qayta jinoyatchilikning oldini olish. Bu majburiyatlar jinoyatga qarshi kurashda faqat jazo chorasi bilan emas, balki tarbiyaviy va ijtimoiy yondashuv orqali natijaga erishishni ko'zlaydi.

Jazoni ijro etish muassasalariga quyidagi majburiyatlar yuklatilgan:

- mahkumlar va qamoqqa olingan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarish hamda majburiyatlarini ado etish bo'yicha o'z vakolatlari doirasida zarur choralarni ko'rish;

- sudlarning, shuningdek, ish yurituvida jinoyat ishi bo'lgan boshqa organlarning tegishli hukmlari, ajrimlari va qarorlari asosida ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq jazolarni ijro etish, qamoqqa olingan shaxslarni saqlash;

- jazoni ijro etish tizimining faoliyati haqida zarur ma'lumotlarni tayyorlash va IIV rahbariyatiga taqdim etish;

- mahkumlarni qonunga itoatkorlik ruhida tarbiyalash, ularga psixologik, ijtimoiy, huquqiy yordam ko'rsatish va kasb-hunar o'rgatish orqali kelgusidagi ijtimoiylashuvga tayyorlash ishlarini sifatli va to'laqonli amalga oshirishni ham belgilab beradi.

Jazolarni ijro etuvchi muassasalar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Jazolarni ijro etuvchi muassasalar o'ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalarning samarali bajarilishi uchun javobgardir.

Shuningdek, jazolarni ijro etuvchi muassasalarning majburiyatlariga yana quyidagilarni kiritish ham mumkin.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar saqlash sharoitiga qarab umumiy turar joylarda, xonalarda yoki kameralarda yashaydi, ushbu turar joylar, xonalar yoki kameralar belgilangan tartibda tasdiqlangan sanitariya-gigiena hamda qurilish normalari va qoidalariga mos kelishi kerak.

Bir mahkumga to'g'ri keladigan yashash maydoni normasi quyidagi miqdordan kam bo'lishi mumkin emas:

- umumiy turar joylarda - ikki kvadrat metr;

- tergov hibsxonalari va turmalarning umumiy kameralarida - ikki yarim kvadrat metr;

- ayollar va voyaga yetmaganlar saqlanadigan koloniyalardagi umumiy turar joylarda - uch kvadrat metr;

- bemor mahkumlar saqlanadigan palatalarda - to'rt kvadrat metr;

- intizomiy bo'linmalarning kameralarida hamda soqchisiz yoki kuzatuvchisiz yurish huquqidan foydalanayotgan mahkumlar yashashi uchun, shuningdek jazoni

manzil-koloniyalarda o‘tayotgan shaxslar uchun mo‘ljallangan xona tipidagi turar joylarda - to‘rt yarim kvadrat metrni tashkil etadi.

Mahkumlarga yotish uchun alohida joy, ko‘rpa-to‘shak, choyshab va kerakli inventar beriladi.

Yashash xonalari mahkumlarni turkum(otryad)lar, brigadalar bo‘yicha joylashtirishdan kelib chiqib yotoqxonalar, ma’naviy-ma’rifiy ishlar uchun mo‘ljallangan xonalar, shaxsiy buyumlar saqlanadigan xonalar kabilar tarzida sanitariya-gigiena talablariga rioya etgan holda quriladi. Jumladan, xonalar quruq bo‘lishi, shamollatib turish imkoniga ega bo‘lishi, tabiiy va sun’iy (elektr) yorug‘ligiga, tegishli jihozlarga, shu jumladan stol, taburetka, tumbochka kabi amaldagi normativ hujjatlarda belgilangan turishi lozim inventarlarga ega bo‘lishi, har bir xonaga radio ulangan bo‘lishi kerak.

Yilning sovuq paytlarida mahkumlar yashaydigan xonalardagi havo issiqligi 18–20 darajadan kam bo‘lmasligi lozim.

Normal maishiy-kommunal sharoitlarni yaratish maqsadida jazoni ijro etish muassasalarining mahkumlar yashaydigan joylarida oshxona, hammom, sartaroshxona, dezinfeksiya va kir yuvish xonalari, kiyim-bosh, poyabzal ustaxonalari va boshqa shu kabi bino va xonalar joylashtiriladi.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarga organizmning energiyaga va ozuqaviy moddalarga bo‘lgan fiziologik ehtiyojini ta’minlaydigan ovqat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda respublika byudjeti hisobidan beriladi, bundan manzil-koloniyalarda jazoni o‘tayotganlar mustasno.

Manzil-koloniyalarda jazoni o‘tayotgan homilador ayollarga va emizikli onalarga ishdan ozod etilgan davrida respublika byudjeti hisobidan ovqat beriladi.

Manzil-koloniyalarda jazoni o‘tayotgan, kasalligi tufayli yoki intizomiy bo‘linmaga kiritilib ishdan ozod qilingan mahkumlarga manzil-koloniyalarning korxonalari, muassasalari va tashkilotlari hisobidan ovqat berilib, ovqatning qiymati keyinchalik mahkumlarning oylik ish haqidan ushlab qolinadi[64].

Ozodlikdan mahrum etishga hukm etilgan shaxslar, jazoni manzil-koloniyalarda o‘tayotgan shaxslar bundan mustasno respublika byudjeti hisobidan belgilangan namunada kiyim, mavsumga qarab, mahkumning jinsi va iqlim sharoitlarini inobatga olgan holda ichki kiyim va poyabzal bilan ta’minlanadilar.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o‘tayotgan mahkumlar, tergov hibsxonalari va vaqtincha saqlash hibsxonalarida saqlanayotgan shaxslar, shuningdek, maxsus qabulxonalarda ma’muriy qamoq jazosini o‘tayotgan shaxslar uchun shart-sharoitlarni yanada yaxshilash maqsadida Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan[65].

[64] O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 14-martdagi O‘RQ-530-sonli qonuni tahririda -Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.03.2019-y., 03/19/530/2769-son.

[65] O‘zbekiston Respublikasi “Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalari”ning 149, 158, 368, 369, 503-bandlari va 3-ilovasi ro‘yxat raqami 2495, 29.07.2013-y.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 88-moddasida mahkumlarni mehnatga jalb etishdan asosiy maqsad ularda ijtimoiy-foydali faoliyat bilan shug‘ullanish ehtiyojini shakllantirishdan iborat.

Respublikamizda mahkumlarning mehnatga oid munosabatlari mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bilan, shuningdek Jinoyat-ijroiya kodeksining 88–96-moddalarida nazarda tutilgan istisno va cheklashlarni hisobga olgan holda, tartibga solinadi[66].

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning ish haqidan chegirib qolish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar;
- sud qarorlarini va boshqa ijro hujjatlarini ijro etish;
- oylik ish haqi hisobidan berilgan yordam pulini to‘lash va hisob-kitobdagi xatolar oqibatida ortiqcha to‘langan pulni qaytarish;
- zararni qoplash, basharti zarar miqdori mahkumning o‘rtacha ish haqidan oshib ketsa.

Bunday hujjatlarga: sud hukmi, qarori, ajrimi asosida beriladigan ijro ro‘yxatlari: notariat organlari qaydlari: o‘rtoqlik sudlari qarorlari asosida beriladigan ijro ro‘yxatlari kiradi.

Sud qarorlari va boshqa ijro hujjatlari bo‘yicha chegirib qolinadigan pul mablag‘i daromad solig‘i va boshqa majburiy to‘lovlar ayrib tashlangan ish haqidan aniqlanadi. Undirib olish JIKning 92-moddasida nazarda tutilgan bo‘lib, mahkumning shaxsiy hisobvarig‘iga eng kam oylik ish haqi summasi o‘tkazilganidan keyin hisoblanadi.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxs og‘ir kasallikka chalingan taqdirda, telefon orqali qo‘shimcha so‘zlashishga, shuningdek shifokorning ruxsati bilan qo‘shimcha uchrashuvga ruxsat beriladi.

Mahkumlarga tibbiy yordam ko‘rsatish, ularga dori-darmon vositalari berish, sanitariya nazoratini tashkil etish va olib borish, davolash-profilaktika muassasalaridan foydalanish, sog‘liqni saqlash organlarining tibbiy xodimlarini jalb etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan hukm qilingan shaxslar majburiy davolanishda bo‘lishi davrida davolash maqsadida va ularning jismoniy holati hisobga olingan holda, shuningdek tibbiy ko‘rsatmalarga muvofiq ularga nisbatan mehnat terapiyasi qo‘llaniladi.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning tibbiy-sanitariya ta’minoti respublika byudjeti hisobidan amalga oshiriladi[67].

Umumiy, qattiq va maxsus tartibli koloniyalarda jazo muddatini o‘tayotgan hukm qilingan shaxslarga tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari davolash huquqi asosidagi koloniyalar va mahkumlar uchun ixtisoslashgan kasalxonada amalga oshiriladi.

---

[66] O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 23-maydagi O‘RQ-542-sonli qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son.

[67] Mahkumlar uchun ixtisoslashgan kasalxonalar Jinoyat ijroiya kodeksining 52¹-moddasi.

Manzil-koloniyalarida jazo muddatini o‘tayotgan hukm qilingan shaxslarga tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari majburiy davolash uchun mo‘ljallangan narkologiya muassasalarida amalga oshiriladi.

Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llashga hukm qilingan shaxslarni tekshirish va davolash O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan standartlar va klinik bayonnomalarga muvofiq amalga oshiriladi.

Hukm qilingan shaxsni majburiy davolash davomiyligi o‘n sakkiz oydan oshmasligi kerak.

Statsionar davolanish uchun yotqizilgan alkogolizm bilan kasallangan hukm qilingan shaxslarning narkologik statsionar bo‘limidagi minimal davolanish muddati qirq besh kundan, giyohvand yoki zaharvandlarni esa oltmish kundan kam bo‘lmasligi lozim.

Har bir hukm qilingan shaxsga tibbiy karta (kasallik tarixi) to‘ldiriladi, unga hukm qilingan shaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlar kiritiladi.

Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan hukm qilingan shaxslar bilan tegishli davolash ishlarini tashkil etish hamda samarali tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiyani yo‘lga qo‘yish maqsadida jazoni ijro etish muassasasi rahbarining buyrug‘i bilan doimiy faoliyat yuritadigan tibbiy komissiya (bundan buyon matnda tibbiy komissiya deb yuritiladi) tashkil etiladi.

Tibbiy komissiya tarkibi ichki ishlar organlari xodimlari orasidan kamida besh kishidan iborat tarkibda shakllantiriladi.

Bunda, jazoni ijro etish muassasasi davolash-profilaktika yordamini ko‘rsatish bo‘limi boshlig‘i tibbiy komissiya raisi hamda shifokor-narkolog, shifokor-psixiatr va shifokor-terapevtlari komissiya a’zolari hisoblanadi.

Majburiy davolash kursi tugallanmagan hukm qilingan shaxs jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan taqdirda, ushbu muassasa ma’muriyati hukm qilingan shaxs yashaydigan manzildagi narkologiya muassasasi hamda ichki ishlar organlariga quyidagi muddatlarda xabardor qiladi:

- sud tayinlagan jazo muddatini o‘tab bo‘lganligi munosabati bilan ozod etilishidan o‘n kun oldin;

- jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish, jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish, amnistiya akti yoki afv etish munosabati bilan ozod etilgan kundan boshlab uch kun ichida.

- bunda, narkologiya muassasasiga hukm qilingan shaxsning tibbiy ambulator kartasidan ko‘chirma ham yuboriladi.

- xabarnomaning bir nusxasini O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti Tibbiyot bo‘limiga yuboriladi[68].

Xulosa qiladigan bo‘lsak, jazolarni ijro etuvchi muassasalarning majburiyatlarini, nafaqat jinoyat uchun tayinlangan jazoni amalda qo‘llash, balki jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash, inson huquqlarini hurmat qilish va jinoyatchilikni kamaytirishga ham xizmat qiladi. Bu muassasalarga yuklatilgan

[68] Manba. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 19.08.2025-y., 10/25/2591-3/0746-son.

majburiyatlar esa mazkur maqsadlarga erishishda asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bois, jazoni ijro etuvchi muassasalar faqatgina jazoni qo‘llovchi organ sifatida emas, balki mahkumlar bilan ishlaydigan, ularni ijtimoiy moslashtiruvchi va hayotda yangi yo‘l tanlashlariga ko‘maklashuvchi muassasalar sifatida ham qaraladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Jazolarni ijro etuvchi muassasalar mahkumlarga nisbatan qanday asosiy majburiyatlarni bajaradi?
2. Mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash uchun muassasalar qanday choralar ko‘radi?
3. Sud hukmlari va boshqa organlar qarorlarini ijro etish jarayonida jazoni ijro etish muassasalari qanday vazifalarni bajaradi?
4. Mahkumlarni ijtimoiy hayotga qayta moslashtirish uchun qanday tarbiyaviy va ijtimoiy ishlar olib boriladi?
5. Mahkumlar yashaydigan xonalar va turar joylarga qo‘yiladigan sanitariya-gigiena talablari nimalardan iborat?
6. Bir mahkumga to‘g‘ri keladigan yashash maydoni normasi qanday belgilanadi? (kamida 3 turini ayting)
7. Mahkumlarga beriladigan maishiy sharoitlar (yotoq, inventar, yotoqxona jihozlari va boshqalar) qanday tashkil etiladi?
8. Mahkumlar uchun ovqatlanish tartibi qanday tashkil etiladi va u qaysi mablag‘lar hisobidan ta’minlanadi?
9. Mahkumlarni kiyim-bosh va poyabzal bilan ta’minlash tartibi qanday?
10. Jinoyat-ijroiya kodeksiga ko‘ra mahkumlarni mehnatga jalb etishning asosiy maqsadi nimadan iborat?

4-§. Jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib-qoidalari

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining Ichki tartib qoidalari, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, Jinoyat protsessual kodeksi, Jinoyat-ijroiya kodeksi hamda O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 28-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksiga mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” O‘RQ-948-son qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti va uning tizimidagi jazoni ijro etish muassasalarining bino va inshootlaridan samarali foydalanish hamda sohaga zamonaviy

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 358-son qaroriga muvofiq ichki tartibini belgilaydi[69].

Jazoni ijro etish muassasalarida ichki tartib qoidalari deganda, biz asosan, jazo samaradorligini oshirish va ijrosini ta’minlash maqsadida, jazoni ijro etuvchi organlar yoki muassasalarning vaziyatlari va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda jazoni ijro etish muassasalarning ichki tartibi qoidalari belgilanishini tushunamiz. Ichki tartib qoidalarda xususan jazoni ijro etish bilan bog‘liq bo‘lgan tashkiliy texnik muammolari belgilangan bo‘lib, ushbu normalar O‘zbekiston Respublikasi IIVning normativ hujjatlari bilan tartibga solinadi[70].

Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etuvchi muassasalarning ichki tartib qoidalari 15 ta bob, 83 ta paragraf, 431 ta banddan iborat bo’lib, birinchi bob umumiy qoidalar deb yuritiladi va unda ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etuvchi muassasalarning ichki tartib qoidalari jazoni ijro etuvchi muassasalar turlari va ularni tashkil etish hamda tugatish, yashash maydoni va jazoni ijro etuvchi muassasalarning to‘ldirish limiti, jazoni ijro etuvchi muassasalarning tekshirish va yuridik maqomi belgilangan.

Jumladan, jazoni ijro etuvchi muassasalarni tekshirish huquqiga, O‘zbekiston Respublikasi IIV Jazoni ijro etish departamenti boshlig‘i, uning o‘rinbosarlari shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIVning, viloyatlar IIBlarning boshliqlari (bo‘ysunuvchi muassasalarda) egadirlar.

Mahkumlar o‘ziga nisbatan insoniy muomalada bo‘linishi hamda inson shaxsiga xos bo‘lgan sha’ni va qadr-qimmati hurmat qilinishi huquqiga ega.

Mahkumlarda ularning roziligisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o‘tkazilishi mumkin emas.

Mahkumlarga O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etish huquqi beriladi.

Jazoni ijro etish muassasida mahkumlarning ishdan bo‘sh vaqtida oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalarni sotib olishlari uchun Face-ID identifikatsiya tizimi mavjud bo‘lgan infokiosk (bundan buyon matnda infokiosk deb yuritiladi) tashkil etiladi hamda ushbu infokiosk har kuni ishlashi ta’minlanadi.

Mahkum infokioskdan foydalanish uchun Face-ID identifikatsiya tizimi orqali yuz qiyofasidan uning shaxsi identifikatsiya qilinadi va unga infokioskning shaxsiy menyusiga kirish uchun shaxsiy identifikatsiya ID- raqami beriladi.

Shaxsiy menyuda har bir mahkumga uning shaxsiy hisobida mavjud mablag‘, oy davomida xarid qilish mumkin bo‘lgan mablag‘ limiti hamda xaridlar tarixi aks ettiriladi.

---

[69] O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2012-yil 29-dekabrdagi 174-son buyrug‘i ro‘yxat raqami 2495, 2013-yil 29-iyul O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 31-son, 414-modda bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar.

[70] O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2012-yil 29-dekabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” 174-sonli buyrug‘i.

Mahkum oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalarni sotib olish uchun infokioskning buyurtma menyusiga kirib, zarur mahsulotlarni tanlaydi va buyurtma beradi.

Infokiosk orqali amalga oshirilgan buyurtmaning yetkazib berish muddati mahkumning shaxsiy menyusida ko‘rsatiladi hamda infokiosk qurilmadan mahkumga buyurtma cheki chiqariladi.

Buyurtma berilgan mahsulotning besh kun muddatda jazoni ijro etish muassasasiga yetib kelishi jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati tomonidan nazorat qilinadi.

Buyurtma berilgan mahsulot jazoni ijro etish muassasasiga yetib kelgandan so‘ng ushbu mahsulot jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati tomonidan mahkumlarga imzo qo‘ydirilgan holda tarqatiladi.

Jazoni ijro etish muassasasining har bir turar joy sektorida, sanoat zonalarida, qisqa va uzoq muddatli uchrashuvlarni o‘tkazish uchun mo‘ljallangan binolarda, mahkumlar murojaatlarni qoldirishi uchun qulay bo‘lgan joyda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakiliga (Ombudsmanga) murojaatlar qutisi, tarbiya koloniyalarida esa qo‘shimcha ravishda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakiliga (Bolalar Ombudsmaniga) murojaatlar qutisi o‘rnatiladi.

Ombudsman qutisiga murojaatlarni mahkumlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlari tashlaydi va mazkur murojaatlar jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati tomonidan ko‘zdan kechirilmaydi.

Ombudsman qutisi tegishincha faqat O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) yoki uning Devoni xodimlari tomonidan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) yoki uning kotibiyati xodimlari tomonidan ochiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) yoki uning Devoni xodimlari tomonidan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar Ombudsmani) yoki uning kotibiyati xodimlari tomonidan qutidan murojaatlarni olgandan so‘ng ushbu qutining muhrlanishini ta’minlaydi[71].

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2012-yil 29-dekabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 174-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2012-yil 29-dekabr kunidagi “Tergov hibshonasining ichki tartib-qoidalari to‘g‘risida”gi 175-sonli buyruqlari talablari asosida tartibga solingan.

Mahkumlarni jazoni ijro etish muassasalariga qabul qilish jazoni ijro etish muassasalari ma’muriyati tomonidan amalga oshiriladi.

Mahkumlar jazoni ijro etish muassasalari boshlig‘i rahbarligidagi komissiya tomonidan qabul qilinadi.

[71] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.03.2025-y., 10/25/2495-9/0230-son.

Turli noaniqliklar yuzaga kelishining oldini olish maqsadida mahkumlar jazoni ijro etish muassasalariga shaxsiy hujjatlar yig‘ma jildlaridagi ma’lumotlar asosida so‘rovdan o‘tkazilgach qabul qilinadi.

Jazoni ijro etish muassasalariga qabul qilish vaqtida mahkumlar to‘liq shaxsiy tintuvdan o‘tkaziladi, ularning narsalari va buyumlari ko‘zdan kechiriladi.

Jazoni ijro etish muassasalariga yetib kelgan mahkumlar ularning shaxsini o‘rganish va sharoitga moslashib olishlari uchun o‘n besh sutkagacha muddatga odatda qabul bo‘limi (karantin)ga joylashtiriladi, manzil-koloniyaga kelgan hamda xo‘jalik xizmatiga oid ishlarni bajarish uchun tergov hibsxonalari va turmalarda qoldirilgan shaxslar bundan mustasno.

Jazoni ijro etish muassasalariga qabul qilingan har bir mahkum to‘g‘risidagi ma’lumotlar “Mahkumlar harakatining hisobini yuritish va ularning shaxsiy hujjatlar yig‘ma jildlarini qayd etish daftari”ga qayd etib boriladi.

Maxsus bo‘lim tomonidan sudning qaroriga muvofiq aliment to‘lashi yoki moddiy zararni qoplashi lozim bo‘lgan mahkumlar ro‘yxati jazoni ijro etish muassasalarining moliya bo‘limiga, alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikdan majburiy davolanishi lozim deb topilgan mahkumlar ro‘yxati esa tibbiyot bo‘limiga topshiriladi.

Mahkumlarga mavsumga qarab beriladigan kiyim, ko‘rpa-to‘shak va inventarlarning qayd varaqalari berilib, shaxsiy hisobvaraqlar ochiladi.

Mahkumlarni ko‘chirish tartibi va asoslari mahkum butun jazo muddatini, odatda, bitta jazoni ijro etish muassasalarida o‘taydi.

Mahkumni bir koloniyadan ayni shu turdagi boshqa koloniyaga jazoni o‘tashni davom ettirish uchun o‘tkazishga uning xavfsizligini ta’minlash maqsadida uning roziligini olgan holda, shuningdek mahkumning mazkur jazoni ijro etish muassasalarida qolishiga to‘sqinlik qiluvchi boshqa hollarda yo‘l qo‘yiladi.

Mahkumlarni ko’chirishga quyidagi hollarda yo‘l qo‘yiladi:

- mahkumlar tergov qilinayotgan shaxslardan alohida ko‘chiriladi;
- homilasi yigirma to‘rt haftalikdan oshgan yoki uch yoshga to‘lmagan bolasi bor ayollar boshqa mahkumlardan alohida ko‘chiriladi;
- mahkum bemorlar, homilador ayollar va bolasi bor ayollar, zarurat bo‘lganda, tibbiy xodimlar kuzatuvida ko‘chiriladi;
- mahkumlarning xavfsizligini ta’minlash maqsadida ularni boshqa hollarda ham ajratilgan tarzda ko‘chirishga yo‘l qo‘yiladi.

Quyidagi hollarda mahkumlarni zudlik bilan ko‘chirish zarur:

- sil kasalligi bilan og‘rigan;
- teri tanosil kasalligi bilan og‘rigan;
- asab kasalligi bilan og‘rigan bemorlar, tuzalishi katta muddatni talab qiluvchi;
- OITS kasalligi bilan kasallangan bemorlar.

Mahkumni bir koloniyadan ayni shu turdagi boshqa koloniyaga jazoni o‘tashni davom ettirish uchun o‘tkazishga uning xavfsizligini ta’minlash maqsadida uning roziligini olgan holda, shuningdek mahkumning mazkur jazoni ijro etish muassasalarida qolishiga to‘sqinlik qiluvchi boshqa hollarda yo‘l qo‘yiladi.

Mahkum kasal bo‘lib qolgan taqdirda uni koloniyadan yoki turmadan ixtisoslashgan davolash muassasasiga o‘tkazishga tibbiy xulosa asosida yo‘l qo‘yiladi.

Mahkumlarni bir jazoni ijro etish muassasalaridan boshqasiga ko‘chirish jinoyat ijroiya kodeksining 58-moddasi talablariga rioya etgan holda amalga oshiriladi.

Mahkumlar tergov qilinayotgan shaxslardan alohida ko‘chiriladi.

Homilasi yigirma to‘rt haftalikdan oshgan yoki uch yoshga to‘lmagan bolasi bor ayollar boshqa mahkumlardan alohida ko‘chiriladi.

Mahkum bemorlar, homilador ayollar va bolasi bor ayollar, zarurat bo‘lganda, tibbiy xodimlar kuzatuvida ko‘chiriladi.

Mahkumlarning xavfsizligini ta’minlash maqsadida ularni boshqa hollarda ham ajratilgan tarzda ko‘chirishga yo‘l qo‘yiladi.

Ko‘chirish chog‘ida mahkumlar zarur moddiy-maishiy va sanitariya-gigiena sharoitlari bilan ta’minlanadi, ularga mavsumiy kiyim va poyabzal, belgilangan norma bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari beriladi.

Mahkumlarni ko‘chirish davlat hisobidan, soqchi kuzatuvida amalga oshiriladi.

Ko‘chirilayotgan mahkumlarning har biri uchun uch nusxada ro‘yxat tuziladi, uning bir nusxasi mahkumlarning shaxsiy hujjatlar yig‘majildlari bilan birgalikda soqchilar boshlig‘iga, ikkinchi nusxasi soqchilar boshlig‘i tomonidan berilgan tilxat bilan jazoni ijro etish muassasalarining maxsus bo‘limiga, uchinchi nusxasi esa o‘zaro hisob-kitob qilish uchun moliya bo‘limiga topshiriladi.

Maxsus bo‘lim mahkumni ko‘chirishdan oldin quyidagi hujjatlarni yig‘adi va uning shaxsiy hujjatlar yig‘majildiga qo‘shib qo‘yadi:

- moliyaviy ma’lumotnoma va ijro varaqalari;
- tibbiy karta va boshqa tibbiy hujjatlar (kasallik tarixi va tibbiy tekshirish natijalari haqidagi ma’lumotnoma);
- ta’minot varaqasi va taqsimot;
- mahkumning umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limiga oid hujjatlari;
- yakka tartibda olib borilgan tarbiyaviy ishlar daftari;
- tavsifnoma;
- mahkumning uchrashuvlari, telefon orqali so‘zlashuvlari, yo‘qlov, posilka va banderollarining hisobini yuritish varag‘i.

Mahkumni mazkur bandda nazarda tutilgan hujjatlardan birortasi mavjud bo‘lmagan holda ko‘chirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Maxsus bo‘lim boshlig‘i jazoni ijro etish muassasalari boshlig‘ini mahkumni ko‘chirilmaganlik sababini ko‘rsatgan holda bildirgi orqali xabardor qiladi. Bunda jazoni ijro etish muassasalari boshlig‘i tomonidan ushbu holat yuzasidan xizmat tekshiruvi o‘tkazish tayinlanadi va aybdor xodimlarga nisbatan tegishli choralar ko‘riladi.

Maxsus vositalar quyidagi hollarda qo‘llaniladi:

- mahkumlarning jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati vakillariga, boshqa mahkumlarga va o‘zga shaxslarga hujumini daf etish chog‘ida;

- mahkumlar tomonidan sodir etilgan ommaviy tartibsizliklarni, jamoat tartibini guruh bo‘lib buzishlarni to‘xtatish, jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyatiga ashaddiy bo‘ysunmayotgan yoki qarshilik ko‘rsatayotgan huquqbuzarlarni ushlash chog‘ida;

- garovga olinganlarni, mahkumlar egallab olgan binolarni, inshootlarni, xonalarni va transport vositalarini ozod qilish chog‘ida;

mahkumlarni qo‘riqlab borish va qo‘riqlab turish chog‘ida — qochishning oldini olish uchun;

- jazoni ijro etish muassasasidan qochgan mahkumlarni ushlash chog‘ida.

O‘qotar qurol quyidagi hollarda qo‘llanilishi mumkin:

- jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati vakillarini, boshqa mahkumlarni va o‘zga shaxslarni ularning hayoti va sog‘lig‘iga aniq tahdid etuvchi hujumdan himoya qilish, shuningdek qurolni qo‘lga kiritish maqsadida qilingan hujumni daf etish chog‘ida;

- garovga olinganlarni, mahkumlar egallab olgan binolarni, inshootlarni, xonalarni va transport vositalarini ozod qilish chog‘ida;

- jazoni ijro etish muassasasining qo‘riqlanadigan ob’ektlariga, transport vositalariga guruh bo‘lib qilingan yoki qurolli hujumni daf etish yoki mahkumlarni zo‘rlik bilan ozod qilishga urinishlarni to‘xtatish chog‘ida;

- jazoni ijro etish muassasasilardan qochayotgan yoki qurolli qarshilik ko‘rsatayotgan mahkumni ushlash chog‘ida;

- mahkumlar qochishda foydalanayotgan transport vositasini to‘xtatish chog‘ida.

O‘qotar qurol qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham qo‘llanilishi mumkin.

O‘qotar qurolni qo‘llashdan oldin qurol qo‘llanilishi mumkinligi haqida ogohlantirish va yuqoriga qarab ogohlantiruvchi o‘q otish kerak. Quyidagi hollarda o‘qotar qurol ogohlantirishsiz qo‘llanilishi mumkin:

- qo‘qqisdan hujum qilinganda, qurolli hujumni yoki jangovar texnika, transport vositalari, uchish apparatlari, dengiz va daryo kemalaridan foydalangan holda qilingan hujumni daf etishda, garovga olinganlarni ozod qilishda, jazoni ijro etish muassasasilaridan qurol bilan, transport vositalari yordamida yoki yurib ketayotgan transport vositalarida, tunda yoki ko‘rish cheklangan sharoitda qochilganda.

O‘qotar qurol qo‘llanilganda fuqarolar xavfsizligini ta’minlash, shuningdek jabrlanganlarga tibbiy yordam ko‘rsatish uchun iloji boricha barcha choralar ko‘rilishi zarur.

O‘qotar qurol qo‘llanilgan har bir hodisa haqida bildirgi yoziladi va darhol prokurorga xabar qilinadi

Mahkumlarning ovqatlanishi - mahkumlarga ovqatlanish kun tartibida belgilangan soatlarda brigada, turkum va bo‘lim bo‘yicha oshxonada yoki ishlab chiqarish ob’ektlarining ovqat tarqatish joylarida amalga oshiriladi.

Oshxona turar joy sahni bilan ishlab chiqarish sahni orasida joylashgan bo‘lsa, ishlayotgan mahkumlarning ovqatlanishi oshxonada amalga oshiriladi. Bunda

ularning ishga olib chiqilmagan mahkumlardan batamom ajratib qo‘yilishi ta’minlanishi shart.

Tarbiya koloniyalarida nonushta, tushlik va kechki ovqatlanish oshxonalarda tashkil etiladi.

Kommunal-maishiy ob’ektlarning uzluksiz ishlashini ta’minlash maqsadida jazoni ijro etish muassasalari boshlig‘i tomonidan ushbu ob’ektlarda ishlayotgan mahkumlarning alohida ovqatlanishiga ruxsat berilishi mumkin.

Kameralarda saqlanayotgan mahkumlarga ovqat kamerada yoki ish joylarida beriladi.

Qabul bo‘limida saqlanayotgan mahkumlarga ovqat maxsus ajratilgan joyda kamera bo‘yicha beriladi.

Jazoni ijro etish muassasalari ma’muriyati ovqatlanish vaqtida tartib saqlanishini ta’minlashi lozim.

Ishga olib chiqish va ishdan olib qaytish e’lon qilinganidan keyin mahkumlar besh nafardan brigada bo‘lib saflanadi. Bunda har bir brigada oralig‘i besh metrdan bo‘lishi kerak.

Mahkumlar qorovul qo‘shinlarining kunlik harbiy xizmatchilari va turkum boshliqlari tomonidan tezkor navbatchi rahbarligida nazorat varaqchalari asosida ishga olib chiqiladi va ishdan olib qaytiladi.

Mahkumlarni ishga olib chiqish va ishdan olib qaytish - ishga olib chiqilayotgan mahkumlar jazoni ijro etish muassasalari boshlig‘ining buyrug‘iga asosan vaqti-vaqti bilan, ishdan qaytishda esa har doim to‘liqsiz shaxsiy tintuvdan o‘tkaziladi.

Mahkumlarni ishga olib chiqish va ishdan olib qaytishdan yigirma daqiqa oldin tezkor navbatchi tomonidan saflanish uchun tegishli signal beriladi va ular ajratilgan joylarda brigada va turkum bo‘lib saflanadi. Bunda mahkumlarning soni va tashqi qiyofalari turkum boshliqlari tomonidan tekshirib chiqiladi.

Murojaatlarni ko‘rib chiqmaslik yoki murojaatlarga javob bermaslik ma’muriy jazo qo‘llashga asos bo‘ladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilish va ko‘rib chiqishni qonunga xilof ravishda rad etish, ularni ko‘rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzish, yozma yoki elektron shaklda javob yubormaslik, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonunchilikka zid qaror qabul qilish, jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari tiklanishini, murojaat munosabati bilan qabul qilingan qarorning bajarilishini ta’minlamaganlik — mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Mahkumlarni jazoni ijro etish muassasalari ma’muriyati tomonidan shaxsan qabul qilish natijalari bo‘yicha qarorlar ijrosi jazoni ijro etish muassasalari boshlig‘i yoki u vakolat bergan shaxslar tomonidan muntazam ravishda nazorat qilib boriladi.

Jazoni ijro etish muassasalari ma’muriyati mahkumning yaqin qarindoshlari va boshqa fuqarolarni jazoni ijro etish muassasalari boshlig‘i tomonidan tasdiqlangan jadvalga muvofiq qabul qiladi.

Mahkumning yaqin qarindoshlari jazoni ijro etish muassasalari ma’muriyatidan mahkumning ahvoli, sog‘lig‘i hamda unga nisbatan qo‘llanilgan

rag‘batlantirish va intizomiy jazo choralari to‘g‘risida yozma va og‘zaki axborot olish huquqiga ega. Mahkumning yaqin qarindoshlari jazoni ijro etish muassasalariga bevosita kelgan holda murojaat qilgan taqdirda, jazoni ijro etish muassasalari ma’muriyati tomonidan darhol javob berilishi lozim.

Mahkumning yaqin qarindoshlariga, shuningdek advokatga ularning so‘roviga asosan mahkumning xulq-atvori yuzasidan yozma ravishda tavsifnoma beriladi. Mahkumlar sotib olishi va yonida saqlashi taqiqlanmagan oziq-ovqat mahsulotlari, narsa va buyumlar ro‘yhati va mahkumlarning namunaviy kun tartibi ichki tartib qoidalari bilan tartibga solingan.

Savol va topshiriqlar:

1. Jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib-qoidalari qaysi normativ-huquqiy hujjatlar asosida belgilanadi?
2. Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalari nechta bob, paragraf va banddan iborat?
3. Ichki tartib qoidalarining birinchi bobida qanday masalalar belgilangan?
4. Jazoni ijro etish muassasalarini tekshirish huquqiga ega bo‘lgan mansabdor shaxslarni sanab bering?
5. Mahkumlarning insoniy muomalada bo‘lish va sha’ni hamda qadr-qimmatining hurmat qilinishi huquqi nimani anglatadi?
6. Mahkumlar ustida tibbiy yoki ilmiy tajribalar o‘tkazish qanday shartlarda amalga oshiriladi?
7. Mahkumlarning xalqaro inson huquqlarini himoya qiluvchi organlarga murojaat qilish huquqi qachon yuzaga keladi?
8. Jazoni ijro etish muassasalarida infokiosk tizimi qanday maqsadda tashkil etiladi va u qanday ishlaydi?
9. Face-ID identifikatsiya tizimi infokiosk orqali mahsulot sotib olish jarayonida qanday vazifani bajaradi?
10. Ombudsman qutisining vazifasi nimadan iborat va uni kimlar ochish huquqiga ega?

XX BOB ICHKI ISHLAR ORGANLARINING MIGRATSIYA VA PERSONALLASHTIRISH XIZMATLARI FAOLIYATI

1-§. Pasport tizimi tushunchasi, mohiyati va vazifalari.

Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri – O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga doir ishlarni yuritish va pasport tizimini ta’minlash hisoblanadi.

Mamlakatda qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishda aholi hisobi va statistikasi, aholining ichki migratsiyasini (ko‘chishini) tartibga solish bilan chambarchas bog‘liq pasport tizimi katta ahamiyat kasb etadi.

Pasport tizimi – jamoat tartibini saqlash, xavfsizlikni ta’minlash, huquqbuzarliklarni oldini olish, shaxsning sub’ektiv huquq hamda erkinliklarini kafolatlash, jazo muqarrarligini ta’minlash va davlat boshqaruvi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida shaxsni pasportlashtirish, doimiy va vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish va ushbu qoidalarni buzganlik uchun javobgarlik tartibini belgilovchi huquqiy normalar, shuningdek bu boradagi faoliyatni ta’minlashning usul va vositalari, vakolatli sub’ektlari tizimini o‘z ichiga oluvchi ijtimoiy-huquqiy munosabatlar yig‘indisidir.

O‘zbekiston Respublikasida yashayotgan fuqarolarga milliy pasport, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga esa guvohnomalar rasmiylashtirib berish, O‘zbekiston fuqarolari, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni vaqtincha va doimiy ro‘yxatga olish va ro‘yxatdan chiqarish, qolaversa ularning pasport tizimi qoidalariga rioya etib borishlarini ta’minlash hamda ushbu sohadagi huquqbuzarliklarning oldini olishda ichki ishlar organlari, xususan migrasiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘linmalarining asosiy vazifalaridan biridir.

Shu ma’noda pasport tizimini ta’minlash sohasidagi asosiy vazifalarning aksariyat qismi ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan deyish mumkin. Bundan tashqari bir qator davlat organlari ham pasport tizimi sohasidagi funksiyalarni bajaradi. Shu sababli pasport tizimini ta’minlovchi sub’ektlar doirasi keng.

Shunga ko‘ra, *“pasport tizimini ta’minlovchi sub’ektlar”* deganda – qonun hujjatlariga asosan vakolat doirasida shaxsni pasportlashtirish, doimiy va vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish, pasport tizimi qoidalariga rioya etilishini bevosita ta’minlash yoki ushbu jarayonda ko‘maklashishga qaratilgan tizimli faoliyat olib boruvchi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, tashkilot, muassasalar, fuqarolik jamiyatining institutlari va fuqarolarni tushunish mumkin.

Jumladan, hokimliklar, Tashqi ishlar vazirligi organlari, Adliya organlari, Davlat xavfsizlik xizmati, Davlat personallashtirish agentligi, “Davlat belgisi” davlat ishlab chiqarish birlashmasi, Davlat feldegerlik xizmati pasport tizimini ta’minlash bilan bog‘liq turli xil funksiyalarni bajaradi.

Pasport tizimini ta’minlash faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

– shaxsni va fuqarolikni tasdiqlovchi (shu jumladan, xorijga chiqish huquqini beruvchi) hujjatlarni rasmiylashtirish va berishdan iborat shaxsni pasportlashtirish faoliyati;

– aholini respublikaning muayyan hududida yashashi yoki bo‘lishi faktini aniqlashni nazarda tutuvchi doimiy, vaqtincha yoki turgan joyi bo‘yicha hisobga olishdan iborat shaxsni ro‘yxatga olish faoliyati;

– pasport tizimi sohadagi huquqbuzarliklarni oldini olish, aniqlash, ularga nisbatan jazo muqarrarligini ta’minlashdan iborat pasport rejimini ta’minlash faoliyati.

Pasport rejimi tushunchasi – ichki ishlar organlarining pasport tizimi qoidalarini bajarishga qaratilgan tadbirlar yig‘indisidir. Pasport rejimi aksariyat hollarda o‘rnatilgan hududning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda belgilanadi. Pasport rejimining asosiy uchta: oddiy, maxsus, chegara zonasidagi turlari mavjud. Respublikaning deyarli barcha ma’muriy hududlarida o‘rnatilgan, hamma uchun taalluqli bo‘lgan umumiy pasport tizimi qoidalari oddiy pasport rejimi hisoblanadi. Mintaqaning alohida hududlarida (masalan, Toshkent shahrida) yoki o‘ta muhim (alohida toifalangan) ob’ektlardagi pasport tartibotlari maxsus pasport rejimi hisoblanadi. Chegara zonasi deb e’lon qilingan (belgilangan) ma’muriy-hududiy birliklardagi chegara tartib qoidalari chegaradagi pasport rejimini tashkil etadi.

Pasport (fr. rassport) – shaxsning qaysi davlat fuqarosi ekanligini qayd etuvchi hujjat bo‘lib, pasport tizimi qoidalariga rioya qilishni nazorat qilishda deyarli barcha ijtimoiy-huquqiy munosabatlar u bilan bog‘liq holda kelib chiqadi. Ya’ni pasportni yoki identifikatsiya ID-kartani o‘z vaqtida olish, tegishli tartibda saqlash va asrashni ta’minlashga qaratiladi.

Aholining joriy tezkorlik bilan hisobi fuqarolarni qayd etish jarayonida amalga oshiriladi. Ichki ishlar organlarining migrasiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘linmalarining yashash uchun kelgan va ketgan fuqarolar soni haqidagi ma’lumotlaridan statistika organlari viloyat va umuman respublika miqyosida keyinchalik umumlashtirish va tahlil qilish uchun dastlabki material sifatida foydalanadilar. Aholini qayd etish statistik hisob bilan bir vaqtda fuqarolarning shaxsiy hisobini yuritishga ham imkon beradi. Shaxsiy hisob ma’lumotlaridan muayyan shaxslarning yashash joyini aniqlash uchun manzillar bo‘yicha ma’lumotlar berish ishida foydalaniladi.

Pasport tizimi jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashda katta rol o‘ynaydi. Sud va tergovdan yashirinib yurgan jinoyatchilarni topishda pasport tizimining imkoniyatlari katta. Pasport tizimi aholi ko‘chib yurishini nazorat qilish va tartibga solishning eng muhim vositasi hisoblanadi. U turli joylarda yashash va boshqa hududlarga yashash uchun ko‘chish borasida maxsus qoidalar o‘rnatish orqali aholi migrasiyasini tartibga solishga xizmat qiladi.

Pasport tizimi fuqarolarning sub’ektiv huquq va majburiyatlari amalga oshirilishini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Fuqarolar o‘z hayoti davomida ham o‘zaro, ham davlat organlari, jamoat tashkilotlari bilan ko‘plab xilma-xil

munosabatlarga kirishadilar. Fuqaro huquqiy munosabatlar sub'ekti sifatida ularda o‘z nomidan ishtirok etadi, bunda qat'iy individuallashgan, ya'ni bir qator biometrik va biografik parametrlarga ega bo‘lgan tomon sifatida namoyon bo‘ladi. Fuqaro o‘z huquq va majburiyatlarini amalga oshirishini ta'minlash maqsadida bu belgilar (familiya, ism, ota ismi, tug‘ilgan vaqti va joyi kabilar) uning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarda mustahkamlanadi.

Shaxsni tasdiqlovchi asosiy hujjat – uning pasporti yoki identifikatsiya ID-kartasi. Fuqaroda pasportning yoki identifikatsiya ID-kartasining mavjudligi ko‘p hollarda uning aniq sub'ektiv huquqlarini tasdiqlaydi. Masalan, pasportni yoki identifikatsiya ID-kartani saylovda ishtirok etishda, ishga, o‘qishga kirishda, nikohni qayd etishda, ayrim fuqaroviy-huquqiy bitimlarni tuzishda taqdim etish kerak.

Nihoyat, pasport tizimi jamoat tartibini saqlash va mustahkamlashda, jamiyat xavfsizligini ta'minlashda katta rol o‘ynaydi. Pasport bo‘linmalari sud va tergovdan yashirinib yurgan, o‘z majburiyatlarini (masalan, aliment to‘lash majburiyatini) bajarishdan yoki sud hukmi bo‘yicha jazo o‘tashdan bo‘yin tovlayotgan shaxslarni aniqlashda va bir qator boshqa funksiyalarni amalga oshirishda real imkoniyatga egadir. Pasport tizimi muayyan joylarda yashash tartibini belgilab, davlat xavfsizligini ta'minlashga katta hissa qo‘shadi.

Qonun hujjatlari talablariga asosan fuqarolar pasport tizimi qoidalariga rioya etishlari shart. Quyidagi pasport tizimi qoidalarini buzish hisoblanadi:

– O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining pasportsiz yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasiz yoki haqiqiy bo‘lmagan pasport yoki identifikatsiyalovchi ID-karta bilan, doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tmasdan yashashi, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining pasportini yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasini, xorijga chiqish uchun biometrik pasportini qasddan yaroqsizlantirishi yoki uni ehtiyot qilib saqlamaganligi oqibatida yo‘qotib qo‘yishi, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning harakatlanish hujjatini qasddan yaroqsizlantirishi yoki uni ehtiyot qilib saqlamaganligi oqibatida yo‘qotib qo‘yishi, O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi chet el fuqarosining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning haqiqiy bo‘lmagan identifikatsiyalovchi ID-kartasi (O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi) bilan, doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tmasdan yashashi, identifikatsiyalovchi ID-kartasini (O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasini) qasddan yaroqsizlantirishi yoki uni ehtiyot qilib saqlamaganligi oqibatida yo‘qotib qo‘yishi;

– Pasport tizimi qoidalariga rioya etish uchun mas'ul bo‘lgan shaxslar tomonidan shaxslarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarsiz yashashiga yo‘l qo‘yilishi, fuqarolar tomonidan o‘z turar joylarida shaxslarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarsiz, doimiy yashash va vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tmasdan yashashiga yo‘l qo‘yilishi;

– Shaxslar tomonidan yo‘qolganligi to‘g‘risida ariza berilgan o‘z pasportlaridan yoki identifikatsiyalovchi ID-kartalaridan, shuningdek boshqa shaxslarga tegishli bo‘lgan pasportlardan yoki identifikatsiyalovchi ID-kartalardan g‘arazli maqsadlarda foydalanishi;

– Pasportni yoki identifikatsiyalovchi ID-kartani shaxslardan qonunga xilof ravishda olib qo‘yish, pasportni yoki identifikatsiyalovchi ID-kartani garovga olishi;

– Chegara zonasiga, shuningdek fuqarolarning kirishi va bo‘lishiga vaqtincha cheklov belgilangan joylarga kirish hamda ularda yashash qoidalarini buzishi;

– Chegara zonasiga, shuningdek fuqarolarning kirishi va bo‘lishiga vaqtincha cheklov belgilangan joylarga kirishga hamda ularda yashashga oid qoidalarni buzgan fuqarolarning bunday joylarda yashashiga yo‘l qo‘yishi.

O‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi o‘n olti yoshga to‘lishi munosabati bilan identifikatsiyalovchi ID-kartasini o‘z vaqtida olmaganligi uchun ma’muriy javobgarlikka tortilmaydi.

O‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashayotgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs o‘n olti yoshga to‘lishi munosabati bilan identifikatsiyalovchi ID-kartasini o‘z vaqtida olmaganligi uchun ma’muriy javobgarlikka tortilmasligi belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish qoidalarini buzish:

— Chet el fuqarosining yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish qoidalarini buzishi, ya’ni haqiqiy bo‘lmagan hujjatlar bilan yashashi, vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tishning, ko‘chishning yoki yashash joyini tanlashning belgilangan tartibiga rioya etmaganligi, bo‘lish muddati tugagach chiqib ketishdan bo‘yin tovlashi, xuddi shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit o‘tish qoidalariga rioya etmaganligi;

— Chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasida bo‘lishi qoidalarida nazarda tutilgan chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni qabul qilish tartibini mansabdor shaxs tomonidan buzishi;

— Chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni xususiy ishlar bilan O‘zbekiston Respublikasiga taklif qilgan shaxs tomonidan chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tishini, shuningdek ularning bu yerda bo‘lishning belgilangan muddati o‘tgach chiqib ketishini ta’minlash yuzasidan choralar ko‘rilmaganligi, xuddi shuningdek shaxs tomonidan xususiy ishlar bilan kelgan chet el fuqarolariga va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga uy-joy maydoni, transport vositalarini berish yoki boshqa xizmatlar ko‘rsatish, agar bu O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish qoidalari buzilishiga olib kelishi oldindan ayon bo‘lishi.

O‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish qoidalarini buzganligi uchun ma’muriy javobgarlikka tortilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida quyidagi pasport tizimi qoidabuzarliklari uchun tegishli javobgarlik belgilangan:



2-§. Ichki ishlar organlarining pasport tizimi qoidalariga rioya etishni ta’minlash bo‘yicha vazifalari

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Migratsiya va personallashtirish departamenti O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi markaziy apparatining pasport tizimi qoidalariga rioya etilishini, O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini rasmiylashtirishni va migratsiya jarayonlari monitoringini ta’minlovchi tarkibiy bo‘linmasidir.

Departament o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risida”gi va boshqa qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining buyruqlari va farmoyishlariga, shuningdek boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qiladi.

Ichki va tashqi migrasiyani nazorat qilish, hisobini yuritish, xorijiy davlatlarda ularni ijtimoiy-huquqiy jihatdan himoyalash, respublikaning kelgusi migrasion vaziyatini tahlil qilish kabi muhim masalalar bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. So‘nggi yillarda ushbu munosabatlarni tartibga solish zarurati davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Shu bois, davlat rahbarining tashabbusi bilan xavfsizlik tizimini barqarorlashtirish, respublikada tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash borasida

muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 19-yanvardagi “Ichki ishlar organlarining migratsiya va personallashtirish sohasidagi faoliyatini raqamlashtirish orqali sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-14-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 10-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini, chet el fuqarolarini hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni yashash joyi va turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risida” O‘RQ-1074-son qonuni tasdiqlanib mazkur hujjatlarda pasport-viza, migrasiya tizimini takomillashtirishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Shu munosabat bilan, migrasiya jarayonlari va fuqarolikni rasmiylashtirish samaradorligini oshirishning quyidagi asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirish Ichki ishlar vazirligi va uning hududiy bo‘linmalarining eng muhim vazifalari ekanligi belgilab o‘tildi.

Ichki ishlar organlari, xususan migrasiya va personallashtirish xizmati zimmasiga pasport tizimini ta’minlash doirasida quyidagi vazifalar yuklatildi:

– fuqarolarga biometrik pasport, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga harakatlanish hujjatlarini rasmiylashtirib berish va almashtirish;

– O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish va undan chiqish bo‘yicha hujjatlarni rasmiylashtirish, shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansubligini aniqlash;

– O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni vaqtincha va doimiy ro‘yxatga olish hamda ro‘yxatdan chiqarish masalalarini hal qilish;

– O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning pasport tizimiga doir murojaatlarini qabul qilish hamda qonunda belgilangan tartibda hal etish choralarini ko‘rish;

– O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning pasport tizimi qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, fuqarolar, korxona, tashkilot, muassasalar mansabdor shaxslarining pasport-viza qoidalariga rioya etishlarini tekshirib borish, ular tomonidan ushbu qoidalar buzilganda qonunda belgilangan javobgarlik choralarini ko‘rish;

– pasport tizimi qoidalariga rioya etish borasida aholi o‘rtasida targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borish;

– xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasida bo‘lishlarini nazorat qilish;

– fuqarolarni, O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni vaqtincha va doimiy chet elga chiqishlari bo‘yicha hujjatlarini rasmiylashtirish;

– O‘zbekiston Respublikasida xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan hamda ularga nisbatan sodir etilgan huquqbuzarliklar va jinoyatlarning hisobini olib borish;

– fuqarolarga chegara hududlariga borishlari uchun ruxsatnomalar rasmiylashtirish va berish;

– pasport tizimini ta’minlash borasidagi ishlarning tahlilini olib borish hamda ularning natijalarini yuqori Davlat hokimiyati organlariga taqdim etish, shuningdek ular asosida tegishli mutasaddi tashkilotlarga takliflar va taqdimnomalar kiritish;

– o‘ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish jarayonida boshqa davlat organlari, ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari, korxona, tashkilot va muassasalar, jamoat tuzilmalari bilan uzluksiz hamkorlik qilish va boshqalar.

3-§. Ichki ishlar organlarining fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘yicha vazifalari

Jamiyatning barcha jabhalarida olib borilayotgan islohotlarda bevosita ishtirok etmoqdamiz va ushbu islohotlarning barchasi huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati qurishga qaratilayotganligiga hamda yurtimiz taraqqiyoti yo‘lida amalga oshirilayotgan ezgu ishlarning mustahkam asosi bo‘lib xizmat qilayotganligiga guvoh bo‘lmoqdamiz.

Bugun hayotimizning o‘zi Konstitutsiyamizda ifodasini topgan eng asosiy maqsad – inson manfaatlarini har tomonlama ta’minlash masalasini dolzarb vazifa qilib qo‘ymoqda. Inson manfaatlarini ta’minlash uchun esa avvalo, odamlar bilan, xalq bilan muloqot qilish, ularning dardu-tashvishlari, orzu-niyatlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi bilish kerak.

Barchamizga ayonki, inson manfaatlarini yurt tinchligi, jamiyatimizdagi o‘zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitidan ajratgan holda tasavvur etolmaymiz. Bularning barchasi bizning bebaho boyligimiz va uni ko‘z qorachig‘idek saqlash har birimizning muqaddas burchimizdir[72].

Demokratik islohotlar yo‘li – biz uchun yagona va eng to‘g‘ri yo‘lligini, “Jamiyat – islohotlar tashabbuskori” degan yangi g‘oya, kundalik faoliyatimizga tobora chuqur kirib borayotganligini, endi esa islohot jamiyatdagi haqiqiy holatdan kelib chiqib belgilanishini, xalqni qiynayotgan muammolar esa ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlardagi kayfiyatlar, xalq qabulxonalari va boshqa “barometrlar” orqali aniqlanishini – Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev parlamentga Murojaatida ta’kidlab o‘tdi[73].

Murojaatda bugungi kunda ayrim aholi qatlamini yillar davomida qiynab kelgan muammolarga ham to‘xtalib o‘tildi.

Jumladan, birgina fuqarolik masalalariga oid qonunchilikni takomillashtirish orqali inson huquqlarini ta’minlash borasida navbatdagi muhim qadam qo‘yish zarurligini hayotning o‘zi taqozo etayotganligini, ayniqsa, mamlakatimizda uzoq vaqtdan beri yashab kelayotgan, lekin O‘zbekiston fuqarosi degan huquqiy maqomga ega bo‘la olmayotgan minglab yurtdoshlarimizning ana shu muammosini qonuniy hal etish bo‘yicha tashkiliy-huquqiy choralarni ko‘rish vaqti kelganligini, xususan, 1995-yilgacha O‘zbekistonga kelgan va shundan buyon istiqomat qilayotgan shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini to‘g‘ridan-to‘g‘ri

[72] Sh.M. Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., “O‘zbekiston”, 2017-y.

[73] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi. – 2020-y. – 25 yanvar.

berish tartibi belgilandi, shu tariqa 50 mingga yaqin yurtdoshlarimizning fuqarolik bilan bog‘liq uzoq yillardan buyon yechilmasdan kelayotgan muammolari hal etilishi yoki propiska tizimining isloh qilinishi buning yorqin misolidir.

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 29-dekabrdagi parlamentga Murojaatnomasida qator masalalar bilan birga fuqarolikning yo‘qligi, aynan teng huquqlilik, ijtimoiy adolat tamoyillarining buzilishiga, qator ijtimoiy muammolarga olib kelishi qayd etilib, respublikamizda fuqarosizlikni qisqartirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tub islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida:

2005-yil 1-yanvarga qadar, O‘zbekiston hududida doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olingan, shuningdek O‘zbekiston hududida uzluksiz 15 yil davomida doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatda turib, fuqaroligi bo‘lmagan shaxs yashash guvohnomasi yoki identifikatsiya ID-kartasi asosida yashab turgan va chet davlat fuqaroligini qabul qilmagan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni O‘zbekiston fuqarosi deb tan olish taklif etildi.

Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining 2021-yilning 14-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi O‘RQ–696-son qonunga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritishga oid yangi qonun qabul qilindi[74].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 75-sessiyasida o‘zbek tilidagi nutqida, bir qator masalalar va takliflarni ilgari surish barobarida, jamiyatni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar natijasida yangi O‘zbekiston shakllanayotganligini, bugungi kunda mamlakatimizdagi demokratik o‘zgarishlar ortga qaytmaydigan tus olganligini hamda inson huquqlari sohasidagi holat ham butunlay o‘zgarganligini, inson huquqlari bo‘yicha Milliy strategiya qabul qilinganligini, Birlashgan Millatlar Tashkilotining fuqaroligi bo‘lmagan insonlar sonini kamaytirishga qaratilgan chaqirig‘iga javoban, shu yilning o‘zida O‘zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi 50 ming yurtdoshimizga O‘zbekiston fuqaroligi berilganligini aytib o‘tdi[75]. Bu o‘z navbatida, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 75-sessiyasi ishtirokchilari tomonidan olqishlandi.

Respublikamizda olib borilayotgan ushbu xayrli va ijobiy islohotlar, shuningdek, inson huquqlarini, manfaatlarini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar o‘z navbatida jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilmoqda.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, jamiyatda olib borilayotgan islohotlar jarayonida fuqarolik masalalariga oid qonunchilikni takomillashtirish orqali inson huquqlarini ta’minlashga, ayniqsa, yurtimizda uzoq yillardan beri yashab kelayotgan, lekin “O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi” – degan huquqiy maqomga ega bo‘la olmayotgan minglab yurtdoshlarimizning muammolari hal etilishiga, orzu-istaklarini ro’yobga chiqarishga, eng asosiysi ularning hayotdan rozi bo‘lishlariga va jamiyatning teng huquqli a’zosi bo‘lishiga xizmat qilmoqda.

---

[74] O‘zbekiston Respublikasining 2021-yilning 14-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi O‘RQ–696-son qonuni.

[75] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. https://president.uz/uz/lists/view/3851 (23.09.2020).

O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik - shaxsning davlat bilan o‘zaro huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi yig‘indisida ifodalanadigan hamda inson qadr-qimmati, asosiy huquqlari va erkinliklarini e’tirof etish hamda hurmat qilishga asoslanadigan doimiy siyosiy-huquqiy aloqasini belgilaydi.

Fuqarolik – shaxsning maxsus siyosiy-huquqiy holati bo‘lib, unga egalik amalda pasport berish yo‘li bilan belgilanadi. Shunday ekan, fuqarolik to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ham mamlakat pasport tizimining huquqiy asoslari hisoblanadi.

Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini tasdiqlovchi hujjatlardir:

— pasport (identifikatsiyalovchi karta), shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining xorijga chiqish biometrik pasporti;

— O‘zbekiston Respublikasi diplomatik pasporti.

Quyidagilar o‘n olti yoshga to‘lmagan bolaning O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini tasdiqlovchi hujjatdir:

— tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma yoki ma’lumotnoma (bolaning tug‘ilgan joyidan qat’i nazar) — ota-onasidan birining O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi mavjudligini tasdiqlovchi pasport (identifikatsiyalovchi karta) yoki boshqa hujjat taqdim etilganda;

— tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma yoki ma’lumotnoma (bola O‘zbekiston Respublikasida tug‘ilgan taqdirda) — fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar bo‘lgan ota-onaning (yolg‘iz ota yoki onaning) yashash guvohnomasi (fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning identifikatsiyalovchi kartasi).

O‘zbekiston Respublikasida fuqarolikka doir masalalar 2020-yil 13-martdagi “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-610-son qonuni bilan tartibga solingan bo‘lib, ushbu qonun O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini olish va tugatish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.

Mazkur qonun asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-martda “O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga oid masalalarni ko‘rib chiqishning yangilangan tartibini belgilash to‘g‘risida”gi PF-6185-son farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon bilan “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalarini ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risida” nizom tasdiqlandi. Ushbu Nizom bilan O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalari yuzasidan iltimosnomalar, arizalar va ularga ilova qilinadigan hujjatlarni qabul qilish, ko‘rib chiqish hamda qaror qabul qilish tartibi belgilab berildi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalari yuzasidan iltimosnoma va arizalar:

– O‘zbekiston Respublikasi hududida yashab turgan shaxs tomonidan — doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyidagi ichki ishlar organiga;

– O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashovchi shaxs tomonidan — O‘zbekiston Respublikasining konsullik muassasasi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonasining konsullik bo‘limiga topshirilishi belgilab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalari yuzasidan qabul qilingan iltimosnomalar yoki arizalar O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalariga oid “E-Fuqaro” idoralararo ma’lumotlar bazasida ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Ariza beruvchining talabiga binoan uch ish kuni ichida uning iltimosnomasi yoki arizasi qabul qilinganligi va ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida sanasi ko‘rsatilgan holda ma’lumotnoma beriladi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish, O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini tiklash, O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqish, O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini tan olish va O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga mansub emaslik to‘g‘risida ma’lumotnoma berish yuzasidan topshirilgan iltimosnoma yoki arizalarni ko‘rib chiqqanlik uchun “Davlat boji to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq, davlat boji yoki O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 24-dekabrdagi PQ-2095-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Konsullik yig‘imlari tarifida belgilangan miqdorda yig‘imlar undiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish, O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini tiklash, O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini tan olish, O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqish, O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini yo‘qotish va O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga mansub emaslik to‘g‘risida ma’lumotnoma berish bo‘yicha materiallar ikki nusxada yuritiladi. Materiallarning bir nusxasi uni qabul qilgan ichki ishlar organi yoki konsullik muassasasida saqlanadi, ikkinchi nusxa esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik masalalari bo‘yicha komissiyasiga yuboriladi.



O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va tegishli vakolatlar berilgan unga bo‘ysunuvchi tuzilmalar (migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘linmalari):

– O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining fuqarolikdan chiqish haqidagi;

– fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning fuqarolikni qabul qilish haqidagi iltimosnomalarini;

– shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo‘qotganlik bo‘yicha materiallarni ko‘rib chiqish va zarur materiallarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik masalalari bo‘yicha komissiyaga yuborish vazifalarini amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga umumiy tartibda qabul qilish

O‘n sakkiz yoshga to‘lgan va muomala layoqatiga ega bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi chet davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxs O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga umumiy tartibda qabul qilish bo‘yicha iltimosnoma bilan murojaat qilishi mumkin, agar u:

– chet davlat fuqaroligidan chiqishni rasmiylashtirgan bo‘lsa;

– yashash guvohnomasi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning identifikatsiyalovchi kartasi olingan kundan e’tiboran va O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan murojaat qilgan kunga qadar O‘zbekiston Respublikasi hududida uzluksiz besh yil davomida doimiy yashab kelayotgan bo‘lsa. Ushbu shart O‘zbekiston Respublikasida tug‘ilgan va yashab kelayotgan yoki O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bilan nikohda bo‘lgan va nikoh tuzilganidan keyin O‘zbekiston Respublikasi hududida turmush o‘rtog‘i bilan birgalikda uzluksiz uch yil davomida yashab kelayotgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga nisbatan tatbiq etilmaydi;

– tirikchilikning qonuniy manbaiga ega bo‘lsa;

– O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga rioya etish majburiyatini o‘z zimmasiga olsa;

– davlat tilini muloqot qilish uchun zarur darajada bilsa.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga soddalashtirilgan tartibda qabul qilish

O‘n sakkiz yoshga to‘lgan va muomala layoqatiga ega bo‘lgan chet davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxs hisoblangan vatandosh O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga soddalashtirilgan tartibda qabul qilish bo‘yicha murojaat qilishi mumkin, agar u:

– O‘zbekiston Respublikasi hududida yashaydigan va O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan, nasl-nasab shajarasi bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan loaqal bitta o‘zidan oldingi qarindoshga ega bo‘lsa;

– tirikchilikning qonuniy manbaiga ega bo‘lsa;

– O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga rioya etish majburiyatini o‘z zimmasiga olsa;

– davlat tilini muloqot qilish uchun zarur darajada bilsa.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga alohida tartibda qabul qilish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti chet davlat fuqarolariga va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 21-moddasida ko‘rsatilgan tartibda O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini berishi mumkin. Bunday hollarda Komissiyaning talabiga asosan vakolatli organ fuqarolikka qabul qilinayotgan shaxs

tomonidan mazkur qoidalarga muvofiq to‘ldirilgan O‘zbekiston Prezidenti nomiga yozilgan iltimosnoma, chet davlat fuqarosining pasporti, fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning harakatlanish hujjati yoki yashash guvohnomasi (fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning identifikatsiyalovchi kartasi) nusxasini qabul qiladi va ularni Komissiyaga yuboradi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini tiklash

O‘n sakkiz yoshga to‘lgan va muomala layoqatiga ega bo‘lgan chet davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxs “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 22-moddasida ko‘rsatilgan tartibda O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini tiklashi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini tiklash haqidagi iltimosnomada O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi tugatilishi sabablari ko‘rsatiladi.

Agar ariza beruvchi muqaddam “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 25-moddasi birinchi qismi “a” va “g” bandlarida nazarda tutilgan holatlarda O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini yo‘qotganligi yoki ilgari O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi tiklanganligi aniqlansa, uning O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini tiklash bo‘yicha iltimosnomasi va unga ilova qilingan hujjatlar ko‘rib chiqilmasdan qaytariladi.

Fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga nisbatan O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini tan olish

“O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6-moddasi birinchi qismiga muvofiq:

2005-yil 1-yanvarga qadar O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olingan;

muqaddam chet davlat fuqaroligida bo‘lmagan;

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lish istagini bildirgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxs O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olinadi.

“O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq:

ariza bilan murojaat qilgan kunga qadar O‘zbekiston Respublikasida kamida o‘n besh yil davomida doimiy yashab kelayotgan;

ushbu davr mobaynida chet davlat fuqaroligida bo‘lmagan;

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lish istagini bildirgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxs O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olinadi.

Yuqorida keltirilgan shartlardan loaqal birining mavjud emasligi, O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini tan olishni rad etishga asos hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini tan olish ilgari O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi tugatilgan shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqish

O‘n sakkiz yoshga to‘lgan va muomala layoqatiga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi o‘z xohish-istagiga ko‘ra “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining

24-moddasida ko‘rsatilgan tartibda O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini yo‘qotish asoslari va rasmiylashtirish tartibi

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi quyidagi hollarda yo‘qotiladi:

– shaxs chet davlatning harbiy xizmatiga, xavfsizlik organlariga, huquqni muhofaza qiluvchi organlariga, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga xizmatga kirganligi oqibatida;

– agar xorijda doimiy yashovchi shaxs yetti yil mobaynida uzrli sabablarsiz doimiy konsullik hisobida turmagan bo‘lsa;

– agar O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilishni bila turib yolg‘on ma’lumotlar yoki soxta hujjatlarni taqdim etish natijasida amalga oshirilgan bo‘lsa;

– agar shaxs chet davlatning foydasini ko‘zlab faoliyat ko‘rsatgan holda yoki tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar sodir etish yo‘li bilan jamiyat hamda davlat manfaatlariga jiddiy zarar yetkazgan bo‘lsa;

– agar shaxs ixtiyoriy ravishda chet davlat fuqaroligini olgan bo‘lsa;

– agar shaxs chet davlat fuqaroligini tug‘ilganlik bo‘yicha yoki chet davlat fuqarosi bo‘lgan otasining yoki onasining fuqaroligi asosida, voyaga yetmagan yoshida olgan bo‘lsa va yigirma bir yoshga to‘lguniga qadar chet davlat fuqaroligidan chiqishni rasmiylashtirmagan bo‘lsa.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga mansublikni aniqlash

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga mansublikni aniqlash “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 43-moddasiga muvofiq shaxsning arizasiga binoan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansublikni aniqlash O‘zbekiston Respublikasining yoki chet davlatning vakolatli organi so‘rovi bo‘yicha ham amalga oshirilishi mumkin.

Vakolatli organ shaxsning O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga mansubligini, bunga shubha uyg‘otgan boshqa holatlarda ham aniqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga mansublikni aniqlashda shaxsning O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga mansubligi bilan bog‘lanayotgan vaziyat boshlangan paytda amalda bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari qoidalari qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga mansub emaslik haqidagi ma’lumotnomalarni berishga oid materiallarni ko‘rib chiqish tartibi

“O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 5- va 6-moddalarida nazarda tutilgan shaxslarga, basharti ular belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini olmagan bo‘lsa, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini olish asoslariga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanmagan shaxslarga, “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 44-moddasida ko‘rsatilgan tartibda O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga mansub emaslik haqidagi ma’lumotnomalar berilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga mansub emaslik to‘g‘risidagi ma’lumotnomani rasmiylashtirish haqidagi so‘rovnoma doimiy yashash joyidagi ichki ishlar organiga, xorijda yashab turgan shaxs tomonidan esa konsullik muassasasiga topshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalariga oid qarorlarni ijro etish

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalariga oid qarorlarni ijro etish arizani qabul qilgan tegishli vakolatli organ tomonidan amalga oshiriladi.

Qabul qilingan qaror haqida ariza beruvchiga o‘n ish kuni ichida xabar beriladi.

Ariza beruvchining yashash manzili o‘zgarganligi aniqlangan taqdirda, qaror ijro etilishi uchun uch ish kuni ichida vakolatli organ tomonidan tegishli hududiy organga yuboriladi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalariga oid qarorlar “E-Fuqaro” IMBga kiritiladi.

16 yoshga to‘lgan, O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilingan shaxsga vakolatli organ tomonidan identifikatsiyalovchi karta yoki O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining xorijga chiqish biometrik pasporti rasmiylashtiriladi yoki O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi mavjudligini tasdiqlovchi boshqa hujjat beriladi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini olgan shaxsning shaxsiga oid ma’lumotlar bilan birga O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilingan 16 yoshga to‘lmagan bolasi va “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 16-moddasida nazarda tutilgan tartibda farzandlikka olingan bolaning O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilinganligi haqidagi axborot “E-Fuqaro” IMBga kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi tugatilgan shaxsga O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi tugatilganligi to‘g‘risida ma’lumotnoma beriladi. Bunday ma’lumotnoma vakolatli organ gerbli blankasida rasmiylashtirilib, lavozimi ko‘rsatilgan holda organ rahbari tomonidan imzolanadi va gerbli muhr bilan tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi tugatilgan shaxsga rasmiylashtirilgan pasport (identifikatsiyalovchi karta) yoki O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining xorijga chiqish biometrik pasporti vakolatli organ tomonidan olib qo‘yiladi hamda ushbu pasport (identifikatsiyalovchi karta) yoki O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining xorijga chiqish biometrik pasportini bergan ma’lumotlar yig‘ish punktiga yo‘q qilish uchun yuboriladi.

O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan, O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi tugatilgan shaxsga ichki ishlar organi tomonidan fuqaroligi bo‘lmagan shaxsning identifikatsiyalovchi kartasi yoki chet davlat fuqarosining identifikatsiyalovchi kartasi beriladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Pasport tizimi nima?
2. Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasi Bosh boshqarmaning asosiy vazifalari va funksiyalari, Bosh boshqarmaning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi va Bosh boshqarma faoliyatini tashkil etish tartibi qachon tasdiqlandi?
3. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi markaziy apparatining pasport tizimi qoidalariga rioya etilishini, O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini rasmiylashtirishni va migratsiya jarayonlari monitoringini ta’minlovchi tarkibiy bo‘linmasi qanday faoliyatni amalga oshiradi?
4. Ichki ishlar organlarining migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmatlarining huquqiy asoslarini aytib bering.
5. Fuqarolikni rasmiylashtirish sohasida maxsus vakolatli davlat organlarini sanab bering.
6. Qonun hujjatlarida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmatlari sohasida qanday vakolatlar berilgan?
7. Hududiy ichki ishlar organlarining migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmatlari sohasida qanday vakolatlar berilgan?
8. Tuman (shahar) ichki ishlar organlarining migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmatlari sohasida qanday vakolatlar berilgan?
9. O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga umumiy, soddalashtirilgan va alohida tartibda qabul qilish?
10. Fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga nisbatan O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini tan olish qanday tartibda amalga oshiriladi?
11. O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqish qanday tartibda amalga oshiriladi?
12. O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini yo‘qotish asoslari va rasmiylashtirish tartibi qanday tartibda amalga oshiriladi?
13. O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga mansublikni aniqlash?
14. O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga mansub emaslik haqidagi ma’lumotnomalarni berishga oid materiallarni ko‘rib chiqish tartibi?
15. O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalariga oid qarorlarni ijro etish?
16. O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlar?

XXI BOB ICHKI ISHLAR ORGANLARINING TRANSPORT VA TURIZM OB’EKTLARIDA XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH FAOLIYATI

1-§. Ichki ishlar organlarining Transportda xavfsizlikni ta’minlash faoliyatining ahamiyati

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti jarayonida transport tizimi davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida alohida ahamiyat kasb etadi. Transport vositalarining samarali ishlashi, aholining xavfsiz harakatlanishini ta’minlash bevosita huquqni muhofaza qiluvchi organlarning mas’uliyatiga bog‘liqdir. Shu nuqtayi nazardan, Ichki ishlar organlarining transportda xavfsizlikni ta’minlashdagi faoliyati davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur jarayonda ichki ishlar organlarining faoliyati alohida o‘rin tutadi. Chunki temir yo‘l va aeroportlarda xavfsizlikni ta’minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash, yo‘lovchilar va xodimlarning hayoti hamda mulkini himoya qilish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish kabi vazifalar bevosita ular zimmasiga yuklatilgan.

Bugungi kunda temiryo‘l transportidan keng foydalanilayotgani, harakat tarkibining ko‘payishi va yo‘lovchi oqimining ortishi xavfsizlikni ta’minlashni yanada dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Shu bois, temiryo‘l transportida ichki ishlar organlarining faoliyatini o‘rganish va uning samaradorligini oshirish masalasi amaliy hamda nazariy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada rivojlangan davlatlar tajribasini olib qaraydigan bo‘lsak, Rossiya Federatsiyasining “Transport xavfsizligi haqida”gi qonunida transport xavfsizligiga quyidagicha ta’rif berilgan:

Transport xavfsizligi – bu transport infratuzilmasi ob’ektlari va transport vositalarini noqonuniy aralashuv harakatlaridan himoya qilish holati, bunda noqonuniy aralashuv harakati transport majmuasining xavfsiz ishlashiga tahdid soladigan, odamlarning hayoti va sog‘lig‘iga zarar yetkazish, moddiy zarar yetkazish yoki bunday oqibatlarni keltirib chiqaradigan noqonuniy harakat yoki harakatsizlik, shu jumladan terroristik harakat deb hisoblanadi[76].

Mavzuga oid xorijiy olimlarning fiklarini qaraydigan bo‘lsak, G.Horton, A.Martino va S.Chiffilar tomonidan transport xavfsizligiga quyidagicha ta’rif berilgan:

Transport xavfsizligi – bu transportning barcha turlarida, shu jumladan avtomobil, temir yo‘l, havo va dengizda baxtsiz hodisalar, jarohatlar, o‘lim va odamlar va yuklarning shikastlanishining oldini olishga qaratilgan rejalashtirish, boshqarish va chora-tadbirlarning kompleks tizimi. Bu sayohatchilar va yuklarning xavfsiz va samarali harakatlanishini ta’minlash, inson hayoti va mulkini himoya

[76] Федеральный закон Российской Федерации «О транспортной безопасности» от 09.02.2007 г № 16-ФЗ. http://www.consultant.ru.

qilish uchun qoidalar, texnologiya, infratuzilma va operatsion amaliyotlarni o‘z ichiga oladi[77].

Temir yo‘l va aeroportlarda xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha olimlarning fikrlari va tadqiqotlari bu mavzuning nazariy va amaliy jihatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Quyida bu sohadagi bir nechta mutaxassislarning fikrlari va yondashuvlari keltirib o‘tamiz:

Professor A.F.Abdurazzakov “Temir yo‘l va aeroportlarda xavfsizlikni ta’minlashda zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa, intellektual tizimlar (AI, IoT, avtomatik nazorat tizimlari) asosiy o‘rin tutadi. Bu tizimlar yo‘l harakatining xavfsizligini oshirish, xavfli holatlarni oldindan aniqlash va transport tizimining samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi”[78]- deydi. Uning fikricha, temir yo‘lda avtomatik poezdlarni joriy etish va aeroportlarda biometrik nazorat tizimlarini qo‘llash xavfsizlikni ta’minlashda muhim qadamdir.

Huquqshunos R.N.Bekmurodov esa, “Temir yo‘l va aeroportlarda xavfsizlikni ta’minlashda qonunchilikni takomillashtirish va profilaktika choralarini qo‘llash asosiy yo‘nalish bo‘lishi kerak. Yo‘lovchilarning xavfsizlik qoidalariga rioya qilishini ta’minlash uchun xavfsizlik qoidalari haqida bilim va tarbiya choralarini ko‘rish muhim”[79] ekanligini ta’kidlaydi. Uningcha, xavfsizlikning yuqori darajada ta’minlanishi uchun jamiyatning ishtirokini oshirish va ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy tayyorgarligini oshirish zarur.

Professor O.H.Hasanov “Temir yo‘l va aeroportlarda xavfsizlikni ta’minlashda mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi asosiy omildir. Buning uchun maxsus ta’lim dasturlari, treninglar va sertifikatlash tizimlarini joriy etish zarur”[80] -deb hisoblaydi. Uningcha, xodimlarning kasbiy malakasini oshirish va xalqaro standartlarga mos tayyorgarlikni ta’minlash xavfsizlikni oshirishda muhim omildir.

Temir yo‘l va aeroportlarda xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha olimlarning fikrlari transport xavfsizligini ta’minlashda nazariy va amaliy jihatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ularning fikrlariga ko‘ra, xavfsizlikni ta’minlashda texnologiyalarni rivojlantirish, qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va jamiyatning ishtirokini oshirish asosiy yo‘nalishlardir.

Temir yo‘l va aeroportlarda xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha chet el olimlarning fikrlari va tadqiqotlari bu sohadagi eng so‘ngi yangiliklar va tajribalarni anglashda muhimdir. Quyida bu mavzu bo‘yicha mashhur chet el olimlarining fikrlari keltirib o‘tamiz:

Germaniyaning Berlin texnika universitetining doktori Anna Shmidt “Aeroportlarda xavfsizlikni ta’minlashda biometrik tizimlar va avtomatik nazorat tizimlarining ahamiyati katta. Bu tizimlar yo‘lovchilarning harakatini nazorat qilish

---

[77] Horton, G., Martino, A., Chiffi, C., & Vergnani, R. (2017). *Transport safety – Research theme analysis report.* European Commission, DG-MOVE.

[78] Abdurazzakov, A. F. (2024). *Temir yo‘l va aeroportlarda xavfsizlikni ta’minlashda zamonaviy texnologiyalar roli.* Ma’ruza matni, Toshkent davlat transport universiteti, 12-bet.

[79] Bekmurodov, R. N. (2024). *Transportda xavfsizlikni huquqiy jihatdan ta’minlash.* Ma’ruza matni, Toshkent davlat yuridik universiteti, 8-bet.

[80] Hasanov, O. H. (2024). *Transport tizimida xavfsizlik va kadrlar tayyorgarligi.* Ma’ruza matni, Toshkent davlat texnika universiteti, 15-bet.

va terroristik hujumlarning oldini olish imkoniyatini beradi”[81]- deydi. Anna Shmidtning fikricha, aeroportlarda favqulodda holatlarga tezkor va muvaffaqiyatli choralar ko‘rish uchun maxsus tayyorgarlik va rejalar mavjud bo‘lishi kerak.

Fransiyaning Parij texnologiya instituti professori Jan-Lui Rosh “Temir yo‘l va aeroportlarda xavfsizlikni ta’minlashda Big Data va ma’lumotlarni tahlil qilishning ahamiyati katta. Bu tizimlar xavfli holatlarni oldindan aniqlash va transport tizimining samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi”[82]- deya ta’kidlaydi. Uning fikricha, ma’lumotlarni tahlil qilish orqali transport tizimining ishonchliligini oshirish mumkin.

Chet el olimlarining fikrlariga ko‘ra, temir yo‘l va aeroportlarda xavfsizlikni ta’minlashda texnologiyalarni rivojlantirish, qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va jamiyatning ishtirokini oshirish asosiy yo‘nalishlardir. Buning uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, xalqaro standartlarga mos transport tizimini rivojlantirish va xodimlarning kasbiy tayyorgarligini oshirish muhimdir.

Zamonaviy yondashuvlar va xorijiy tajriba. Temir yo‘l va aeroportlarda xavfsizlikni ta’minlash faoliyati bo‘yicha xorijiy davlatlardagi tajribalar, ayniqsa, jinoyatchilikni oldini olish masalasida, ko‘pgina muvaffaqiyatli choralarni o‘z ichiga oladi. Bu tajribalarni quyidagicha tahlil qilish mumkin:

Germaniya tajribasi: Germaniyada temir yo‘l va aeroportlarda integratsiyalangan xavfsizlik tizimlari mavjud. Bu tizimlar yo‘lovchilarning harakatini nazorat qilish, xavfli yuklarni tekshirish va favqulodda holatlarda tezkor choralar ko‘rish imkoniyatini beradi. Jinoyatchilikni oldini olishda aeroportlarda biometrik pasportlar va yo‘lovchilarning ma’lumotlarini tahlil qilish tizimlari jinoyatchilikning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi[83].

Singapur tajribasi: Singapurda temir yo‘l va aeroportlarda intellektual transport tizimlari (AI va IoT) keng qo‘llaniladi. Bu tizimlar yo‘l harakatining xavfsizligini oshirish, xavfli holatlarni oldindan aniqlash va transport tizimining samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi. Jinoyatchilikni oldini olishda intellektual transport tizimlari jinoyatchilikning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi[84].

Xorijiy davlatlardagi tajribalar shuni ko‘rsatadiki, temir yo‘l va aeroportlarda xavfsizlikni ta’minlashda texnologiyalarni rivojlantirish, qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va jamiyatning ishtirokini oshirish asosiy yo‘nalishlardir. Buning uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, xalqaro standartlarga mos transport tizimini rivojlantirish va xodimlarning kasbiy tayyorgarligini oshirish muhimdir.

---

[81] Schmidt, A. (2024). *The role of biometric and automated systems in ensuring airport security.* Lecture notes, Technical University of Berlin, p. 19.

[82] Roch, J.-L. (2024). *The importance of Big Data and data analysis in transport safety.* Lecture notes, Paris Institute of Technology, p. 13.

[83] Federal Ministry of Transport and Digital Infrastructure (BMVI). (2023). *Integrated security systems in German transport infrastructure.* Berlin: BMVI Publications.

[84] Land Transport Authority of Singapore (LTA). (2023). *Intelligent transport systems for road and air safety in Singapore.* Singapore: LTA Press.

Temir yo‘l, turizm va aeroportlarda xavfsizlikni ta’minlash – bu jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik rivojining muhim tarkibiy qismidir. Bu sohalarda xavfsizlikni ta’minlash nafaqat insonlar hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilish, balki mamlakatning iqtisodiy va xalqaro imidjini oshirishda ham katta ahamiyatga ega.

Temir yo‘l transportida xavfsizlikni ta’minlashning ahamiyatiga quyidagilarni kiritish mumkin:

– inson hayotini himoya qilish, temir yo‘l transportida xavfsizlikni ta’minlash yo‘lovchilarning hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilishning asosiy vositasidir.

– iqtisodiy samaradorlik, xavfsiz transport tizimi yo‘lovchilarning mol-mulkini va ularlarning o‘zlarini o‘z vaqtida xavfsiz yetib borishini ta’minlaydi, bu esa ishlab chiqarish va savdoning samaradorligini oshiradi.

– ekologik xavfsizlik, temir yo‘l transporti ekologik jihatdan toza transport vositasi bo‘lib, uning xavfsizligini ta’minlash atmosferani ifloslanishini kamaytirishga ham yordam beradi.

– ijtimoiy barqarorlik, xavfsiz temir yo‘l tizimi aholining ishonchini oshiradi, bu esa jamiyatda osoyishtalik va barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Aeroportlarda xavfsizlikni ta’minlashning ahamiyati quyidagi omillar orqali namoyon bo‘ladi:

– Inson hayotini himoya qilish, aeroportlarda xavfsizlikni ta’minlash yo‘lovchilar, ekipaj a’zolari va aeroport xodimlarining hayoti hamda sog‘lig‘ini himoya qilishda muhim o‘rin tutadi. Xavfsizlik choralari terrorchilik, portlash yoki avariya holatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

– Milliy xavfsizlikni mustahkamlash, aeroportlar davlatning strategik infratuzilmasi hisoblanadi. Shu sababli, xavfsizlik choralarini kuchaytirish mamlakat chegaralarini, havo hududini va milliy manfaatlarni himoya qilishda bevosita ahamiyatga ega.

– Iqtisodiy barqarorlik, xavfsiz aeroportlar xalqaro aviatsiya aloqalarining uzluksiz ishlashini ta’minlaydi. Bu esa turizm, savdo va investitsiyalarning rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

– Texnologik samaradorlik, zamonaviy xavfsizlik tizimlari – biometrik identifikatsiya, sun’iy intellekt asosidagi kuzatuv va avtomatik tahlil vositalari – xavfli holatlarni oldindan aniqlash imkonini beradi.

– Ijtimoiy ishonch, aeroportlarda yuqori darajadagi xavfsizlikni ta’minlash fuqarolar va sayohatchilar orasida ishonchni mustahkamlaydi, bu esa mamlakatning xalqaro imijini yaxshilaydi.

– Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik, aeroport xavfsizlik tizimlari tabiiy ofatlar, texnik nosozliklar yoki boshqa favqulodda holatlarda tezkor va samarali choralar ko‘rish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, temir yo‘l va aeroportlarda xavfsizlikni ta’minlash – bu nafaqat transport tizimlarining barqaror ishlashi, balki davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va milliy xavfsizligini mustahkamlashda ham muhim omildir. Ushbu sohalarda xavfsizlikni ta’minlashda ichki ishlar organlarining o‘rni beqiyosdir. Chunki ular jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikning oldini olish, fuqarolarning hayoti va mulkini himoya qilish, hamda favqulodda holatlarda tezkor harakat qilish orqali barqarorlikni ta’minlaydi.

Shunday qilib, ichki ishlar organlari tomonidan transport sohalarida xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar jamiyatda osoyishtalikni saqlash, milliy manfaatlarni himoya qilish va iqtisodiy taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlashning muhim kafolatidir.

Savol va topshiriqlar:

1. Temir yo‘l transportida xavfsizlikni ta’minlashning ahamiyati nimalardan iborat?
2. Aeroportlarda xavfsizlikni ta’minlashning ahamiyati nimalardan iborat?
3. Temir yo‘l va aeroportlarda xavfsizlikni ta’minlash faoliyati bo‘yicha xorijiy davlatlardagi tajribalar?
4. Xalqaro tajribadan kelib chiqib, O‘zbekiston temir yo‘l va aeroportlarda xavfsizlikni ta’minlash sohasida nimalarni o‘rganishi va amaliyotga tatbiq etishi mumkin?

2-§. Ichki ishlar organlarining transportda xavfsizlikni ta’minlash xizmatlarining tizimi, faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va vazifalari

Ma’lumki, transport sohasida xavfsizlikni ta’minlash – har qanday davlatning ichki xavfsizlik tizimida muhim o‘rin tutadi. Chunki temir yo‘l, havo, avtomobil va dengiz transporti orqali aholining harakatlanishi, tovar va yuklarning tashilishi bevosita milliy iqtisodiyot barqarorligi hamda fuqarolarning hayoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli ichki ishlar organlarining transportda xavfsizlikni ta’minlash xizmatlari ushbu sohada huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash, terrorchilik va jinoyatchilikka qarshi kurashish, shuningdek, transport infratuzilmasini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Menimcha mazkur tizimning asosiy maqsadi — transport ob’ektlarida xavfsiz, barqaror va qonuniy faoliyat yuritish uchun zarur sharoitlarni yaratishdir. Shu yo‘nalishda ichki ishlar organlari xodimlari transport vositalari va infratuzilma ob’ektlarida nazoratni amalga oshiradi, favqulodda holatlarning oldini olish bo‘yicha profilaktik tadbirlar o‘tkazadi hamda fuqarolarning xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan kompleks choralarni amalga oshiradi.

Aynan ushbu maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-mart kunidagi “Transport va turizm ob’ektlarida jamoat xavfsizligini ta’minlashning samarali tizimini joriy etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4229-sonli qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Transportda jamoat xavfsizligini ta’minlash boshqarmasi, Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasining Toshkent metropolitenida ichki ishlar boshqarmasi hamda Toshkent viloyati Ichki ishlar boshqarmasi transportda jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘limi negizida Vazirlikning **Transportda xavfsizlikni ta’minlash bosh boshqarmasi**[85] etib tashkil etildi. Qarorga muvofiq, transportda xavfsizlikni

[85] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.05.2025-y., 06/25/87/0451-son.

ta’minlash bo‘linmalari faoliyatini kundalik tartibga solish masalalari bo‘yicha tegishlicha Qoraqolpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vaziri va viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari boshliqlariga xizmat va tezkor faoliyatni tashkil etish masalalari bo‘yicha bevosita Bosh boshqarmaga bo‘ysundirildi. Amalga oshirilgan islohotlar natijasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6196-sonli farmoniga asosan O‘zbekiston Respublikasi IIV Transportda xavfsizlikni ta’minlash bosh boshqarmasi, Xavfsiz turizmni ta’minlashni muvofiqlashtirish boshqarmasini o‘z ichiga oladigan Transport va turizm ob’ektlarida xavfsizlikni ta’minlash departamenti[86] etib qayta tashkil etildi.

Mazkur departamentning tashkil etilishi transport va turizm infratuzilmalarida xavfsizlikni ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish, zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy etish hamda sohada xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim qadam bo‘ldi. Shu munosabat bilan transportda xavfsizlikni ta’minlash xizmati keng qamrovli tarkibiy tuzilmani o‘z ichiga oldi.

Transport va turizm ob’ektlarida xavfsizlikni ta’minlash departamentining tizimi quyidagi bo‘linmalardan iborat:

- Tashkiliy xizmat;
- Jamoat xavfsizligini ta’minlash xizmati;
- Huquqbuzarliklar profilaktikasini muvofiqlashtirish bo‘limi;
- Jinoyat qidiruv bo‘limi;
- Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo‘limi;
- Jamoat tartibini saqlashni tashkillashtirish bo‘limi;
- Tergov faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi;
- Moliya-iqtisod bo‘limi;
- Kadrlar bo‘limi;
- Harbiy safarbarlik guruhi;
- Ho‘jalik guruhi;
- Metropolitenda xavfsizlikni ta’minlash xizmati;
- Toshkent shahar aeroportlarida xavfsizlikni ta’minlash xizmati;
- Toshkent mintaqasi temir yo‘l transportida xavfsizlikni ta’minlash xizmati;
- “GM Uzbekistan” AJ mahsulotlari va boshqa qimmatbaho yuklarni kuzatish bataloni;
- Neft mahsulotlarini kuzatish bataloni;
- Yo‘lovchilar poezdlarini kuzatish bataloni;
- “Angren” va “Appartak” ko‘mir konlarini qo‘riqlash otryadi;
- Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘linmasi;
- Situatsion-tahliliy markaz.

[86] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.04.2025-y., 06/25/65/0331-son.

Ushbu tizimdagi bo‘linmalar o‘zaro hamkorlikda faoliyat yuritib, jinoyatchilikning oldini olish, fuqarolarning hayoti va mulkini himoya qilishga xizmat qiladi.

Transport va turizm ob’ektlarida xavfsizlikni ta’minlash departamentining faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- bevosita turistik namoyishi ob’ektlari va infratuzilmasi hududlarida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida ichki ishlar organlari xizmatini samarali tashkil qilish;

- ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta’minlash borasidagi faoliyatini axborot-texnik jihatdan ko‘maklashish, ular o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlashtirilgan hamkorlik ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish;

- turistik namoyishi ob’ektlari va infratuzilmasi hududlarida kriminogen vaziyatni tizimli tahlil qilish, turistlarga nisbatan sodir etiladigan huquqbuzarliklar sabablari va sharoitlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish[87].

Transport va turizm ob’ektlarida xavfsizlikni ta’minlash departamentining faoliyatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- metropoliten, temir yo‘l va havo-transport infratuzilmasi ob’ektlarida (keyingi o‘rinlarda – transport ob’ektlari) jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish;

- yo‘lovchilarning harakatlanish xavfsizligini, temir yo‘l va havo transportida tashiladigan tovar-moddiy boyliklarning butligi va qo‘riqlanishini samarali ta’minlash;

- transport ob’ektlarida terroristik tahdidlarni, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlari, o‘qotar qurol, o‘q-dorilar, portlovchi, radioktiv, zaharli, kuchli ta’sir qiluvchi va zaharlovchi moddalarning noqonuniy aylanmasi bilan bog‘liq holatlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishni tashkil qilish;

- jinoyatlarni hamda ularning sabablarini va sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish, ma’muriy huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish;

- transport ob’ektlarida jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashish, shu jumladan sodir etilishi mumkin bo‘lgan terrorchilik va o‘zga jinoiy tajovuzlarning oldini olish, temir yo‘l va havo transporti orqali tashilayotgan tovar moddiy boyliklar butligini ta’minlash;

- transport ob’ektlari hududiga noqonuniy giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, o‘qotar qurol, o‘q-dorilarni, portlovchi, radioaktiv, zaharlovchi hamda qo‘poruvchilikni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa modda va predmetlarning olib kirilishi, shuningdek qonunga xilof ravishda tashilishining oldini olish;

[87] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.05.2025-y., 06/25/87/0451-son.

- transport ob’ektlarida huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish, temir yo‘llarda harakat qoidalarini buzish holatlarining oldini olish;

- qonuniylikni va huquq-tartibotni ta’minlash sohasiga oid qonunchilik bazasini takomillashtirish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish yoki ishlab chiqishda ishtirok etish;

- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda transport ob’ektlari va ularga tutash hududlarda jamoat xavfsizligini ta’minlashning markazlashgan muvofiqlashtirilgan boshqaruvini amalga oshirish[88].

Xulosa qilib aytganda, har bir transport turi – temir yo‘l, havo va metropoliten transporti – o‘zining xos xavfsizlik tizimi va vazifalarini talab qiladi. Transportda xavfsizlikni ta’minlash xizmati ushbu ob’ektlarda jamoat xavfsizligini nazorat qilish, qonunchilikni saqlash, jinoyatlarning oldini olish, aholining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, transportidagi xavfsizlikka ta’sir etuvchi har qanday tahdidlarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan. Amalga oshirilgan islohotlar natijasida transport va turizm sohalarida xavfsizlikni ta’minlashning zamonaviy boshqaruv tizimi shakllantirilib, ichki ishlar organlari faoliyati yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu esa mamlakatda barqarorlikni mustahkamlash, iqtisodiy rivojlanish va xalqaro obro‘ni yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

Savol va topshiriqlar:

1. Transport va turizm ob’ektlarida xavfsizlikni ta’minlash departamentining tizimini aytib bering.
2. Transport va turizm ob’ektlarida xavfsizlikni ta’minlash departamentining faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini aytib bering.
3. Transport va turizm ob’ektlarida xavfsizlikni ta’minlash departamentining faoliyatining asosiy vazifalarini aytib bering.

3-§. Ichki ishlar organlarining turizm ob’ektlarida xavfsizlikni ta’minlash faoliyati

Turizm sohasida xavfsizlikni ta’minlash har bir davlatning ijtimoiy barqarorligi va xalqaro nufuzini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Chunki mamlakatga tashrif buyurayotgan turistlarning hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulki xavfsizligi bevosita davlat imijiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, ichki ishlar organlarining turizm ob’ektlarida xavfsizlikni ta’minlash faoliyati turistlar uchun tinch va xavfsiz muhit yaratish, jamoat tartibini saqlash hamda turizm infratuzilmasida huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan. Ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlar mamlakatda xavfsiz turizm tizimini shakllantirish va xorijiy mehmonlarning ishonchini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, mazkur yo‘nalishdagi faoliyatni yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi

[88] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.05.2025-y., 06/25/87/0451-son.

“O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5611-son[89] hamda 2019-yil 1-fevraldagi “Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5647-son farmonlari[90] va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-martdagi “Transport va turizm ob’ektlarida jamoat xavfsizligini ta’minlashning samarali tizimini joriy etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–4229-sonli qarori tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Transport va turizm ob’ektlarida jamoat xavfsizligini ta’minlashning samarali tizimini joriy etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–4229-sonli qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida joriy etilayotgan Xavfsiz turizmni ta’minlash konsepsiyasini Toshkent shahri, Toshkent va Surxondaryo viloyatlarida tatbiq etish va bosqichma-bosqich amalga oshirish belgilab berildi.

Ichki ishlar organlarining belgilangan shtatlar soni doirasida Toshkent shahar va Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmalari, va Surxondaryo viloyati ichki ishlar boshqarmasining xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmalari tashkil etildi[91].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 26-martdagi PF-6196-son farmoni, “Transport va turizm ob’ektlarida jamoat xavfsizligini ta’minlashning samarali tizimini joriy etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 6-martdagi PQ-4229-son va 2022-yil 25-iyuldagi PQ-333m-son qarorlariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2022-yil 7-dekabrda “Ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta’minlash bo‘linmalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 535-son buyrug‘i qabul qilindi. Ushbu buyruq ichki ishlar organlarining turizm ob’ektlarida xavfsizlikni ta’minlash faoliyatini tartibga soladigan asosiy hujjat hisoblanadi.

Mazkur buyruq bilan Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari, Buxoro, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlari ichki ishlar boshqarmalarining xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmalari to‘g‘risida Namunaviy Nizom tasdiqlandi. Ushbu Nizom Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari, Buxoro, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlari ichki ishlar boshqarmalari xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmalarining maqomi, asosiy vazifa va funksiyalari, shuningdek, huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilab beradi.

Boshqarma O‘zbekistan Respublikasi Ichki ishlar vazirligining quyi bo‘g‘in tuzilmasi bo‘lib, o‘z vakolati doirasida turizm namoyishi ob’ektlari va infratuzilmasi hududlarida jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, turistlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari, hayoti, sog‘ligi

[89] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.06.2023-y., 06/23/86/0329-son.

[90] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.10.2022-y., 06/22/234/0935-son.

[91] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.05.2025-y., 06/25/87/0451-son.

va mol-mulkini himoya qilish bo‘yicha ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshiradi hamda bu borada hududiy ichki ishlar organlarining tegishli xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Shu bilan birga Boshqarma hududiy ichki ishlar organlarining tarkibiy bo‘linmasi hisoblanib, hududiy ichki ishlar organlari boshliqlariga bevosita buysunadi.

Boshqarma faoliyatiga umumiy rahbarlik Vazirlik Transport va turizm ob’eklarida xavfsizlikni ta’minlash departamenti Xavfsiz turizm boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Boshqarma boshliqlari bir vaqtning o‘zida tegishlicha Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi, Toshkent va Surxondaryo viloyatlari ichki ishlar boshqarmalari boshliqlarining o‘rinbosarlari hisoblanadi.

Yana shuni alohida ta’kidlash kerakki, turizm ob’ektlarida xavfsizlikni ta’minlash bo‘linmalari faoliyatini kundalik tartibga solish masalalari bo‘yicha tegishlicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vaziri va viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari boshliqlariga, xizmat va tezkor faoliyatni tashkil etish masalalari bo‘yicha bevosita Bosh boshqarmaga bo‘ysunadi[92].

Boshqarmaning asosiy vazifalari va funksiyalari.

Quyidagilar Boshqarmaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- turizm namoyishi ob’ektlari va infratuzilmasi hududlarida turistlarga nisbatan sodir etilgan huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan manzilli choralar ko‘rish;

- turizm namoyishi ob’ektlari va infratuzilmasi hududlarida jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish, turistlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari, hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulkini himoya qilish;

- hududiy ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta’minlash sohasidagi faoliyatini samarali tashkil qilish, ular o‘rtasida o‘zaro muvofiqlashtirilgan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va qat’iy nazorat qilish;

- ilg‘or xorijiy tajriba va huquqni qo‘llash amaliyotini tahlil qilish asosida ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta’minlash borasidagi faoliyatini takomillashtirish, ushbu yo‘nalishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish yuzasidan takliflar tayyorlash[93].

Ushbu buyruq bilan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Transport va turizm ob’ektlarida xavfsizlikni ta’minlash departamenti Xavfsiz turizm Boshqarmasining call-markazi to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlangan.

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Transport va turizm ob’ektlarida xavfsizlikni ta’minlash departamenti Xavfsiz turizm Boshqarmasining call-markazining asosiy vazifalari va funksiyalari, huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini, shuningdek, turistlarning murojaatlarini telefon

[92] O‘zbekiston Respublikasi IIVning “Ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta’minlash bo‘linmalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 535-son buyrug‘i. 2022-yil 7-dekabr.

[93] O‘zbekiston Respublikasi IIVning “Ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta’minlash bo‘linmalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 535-son buyrug‘i. 2022-yil 7-dekabr.

orqali qabul qilish, ko‘rib chiqishni tashkil etish va hisobini yuritish tartibini belgilaydi.

Call-markaz uzluksiz ravishda tunu-kun faoliyat yuritib, turistlarning murojaatlarini telefon orqali qabul qilish call-markaz xodimlari tomonidan Xavfsiz turizm Boshqarmasi rahbariyati tasdiqlaydigan har oylik navbatchilik jadvali asosida amalga oshiriladi.

Call-markazning asosiy vazifalari va funksiyalari.

Quyidagilar Call-markazning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- xorijiy va mahalliy turistlarning og‘zaki murojaatlarini telefon orqali sutka davomida qabul qilish;

- call-markazga kelib tushgan murojaatlarning o‘z vaqtida, to‘liq va qonun talablariga qat’iy rioya etgan holda, ko‘rib chiqilishini tashkil etish va nazorat qilish hamda bu borada tezkor axborot almashinuvini ta’minlash.

Call-markaz tomonidan murojaatlar **“1173”** qisqa raqamli ishonch telefoni orqali qabul qilinadi hamda ularning ro‘yxati va hisobi maxsus elektron dastur asosida yuritiladi.

Murojaatlarni qabul qilish bo‘yicha telefon orqali olib boriladigan barcha so‘zlashuvlar texnik vositalar yordamida yozib olinadi va ushbu yozuvlar ikki yil davomida saqlanadi.

Call-markazga turistlar va xavfsiz turizmni ta’minlash bo‘linmalari faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan holatlar, shu jumladan ichki ishlar organlari xodimlarining noqonuniy xatti-harakatlari haqida murojaat kelib tushganda, murojaat qiluvchiga ushbu masala bo‘yicha Vazirlikning **“1102”** raqamli **“Ishonch telefoni”**ga qo‘ng‘iroq qilib murojaat qilishi lozimligi tushuntiriladi.

Call-markazga ichki ishlar organlari faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan masalalar bo‘yicha murojaatlar kelib tushganda, murojaat qiluvchiga **“1000”** raqamli **“Ishonch telefoni”**ga qo‘ng‘iroq qilib murojaat qilishi lozimligi tushuntiriladi.

Call-markaz xodimlari tomonidan murojaat qiluvchilarga huquqiy maslahat berilishi taqiqlanadi[94].

Shuningdek, IIVning 535-son buyrug‘i bilan Ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta’minlash bo‘linmalari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida Yo‘riqnoma tasdiqlangan.

Shu bilan birga, xavfsiz turizmni ta’minlash Boshqarmalari huquqbuzarliklar profilaktikasi yo‘nalishidagi faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni[95], Ichki ishlar vazirining “Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2017-yil 12-iyuldagi

[94] O‘zbekiston Respublikasi IIVning “Ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta’minlash bo‘linmalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 535-son buyrug‘i. 2022-yil 7-dekabr.

[95] O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son.

151-son buyrug‘i[96] va sohaga oid boshqa me’yoriy hujjatlar talablari asosida tashkil etishi belgilab berilgan.

Xavfsiz turizmni ta’minlash Boshqarmalari jamoat tartibini saqlash guruhlari esa o‘z faoliyatini Ichki ishlar vazirining 2023-yil 20-fevraldagi 77-son “Ichki ishlar organlari patrul-post xizmati faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi buyrug‘i[97] va sohaga oid boshqa me’yoriy hujjatlar talablari asosida tashkil etishi belgilab berilgan.

Xavfsiz turizmni ta’minlash Boshqarmalarining yo‘l harakati xavfsizligi guruhlari o‘z faoliyatini Ichki ishlar vazirining 2018-yil 20-iyundagi 168-son “Yul-patrul xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi yo’riqnomani tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i va sohaga oid boshqa me’yoriy hujjatlar talablari asosida tashkil etishi belgilab berilgan[98].

Xavfsiz turizmni ta’minlash bo‘linmalarida ishni tashkil qilish tartibi.

Xavfsiz turizmni ta’minlash Boshqarmalari:

- shartnoma asosida turistlar va turistik guruhlarni, shu jumladan avtotransportda harakatlanish vaqtida kuzatib borish hamda moddiy madaniy meros ob’ektlarida jamoat tartibini saqlash bo‘yicha pullik xizmatlar ko‘rsatadi;

- turizm namoyishi ob’ektlari va infratuzilmasi hududlarda xavfsizlikni ta’minlashga jalb qilingan kuch va vositalar, kriminogen vaziyat hamda ichki ishlar organlarida tegishli hisoblarda turgan va jinoyat sodir etishga moyil shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasini shakllantirib boradi;

- xavfsiz turizmni ta’minlash faoliyati samaradorligini oshirish, ish uslublarini takomillashtirish hamda turizm sohasini rivojlantirish maqsadida, mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda turistlar o‘rtasida ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazilishini tashkillashtiradi;

- murojaatlarni qonun talablariga qatiy rioya qilgan holda ko‘rib chiqilishini ta’minlash, bunda chet el fuqarolari tashrif hududida vaqtincha bo‘lishini inobatga olgan holda, ularning murojaatlarini imkon qadar qisqa muddatlarda hal etish choralarini ko‘radi;

- chet davlatlardan tashrif buyurgan turistlar bilan bog‘liq hodisalar, ularga nisbatan va ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlar, shuningdek, xavfsiz turizmni ta’minlash bo‘linmalari xodimlari ishtirokidagi har qanday xizmat intizomi va qonun buzilishi hamda bunday holatlar bo‘yicha kelib tushgan murojaatlar haqida zudlikda Xavfsiz turizm Boshqarmasiga og‘zaki axborot berib, 24 soat ichida yozma ravishda maxsus xabarnoma taqdim etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Transport va turizm ob’ektlarida xavfsizlikni ta’minlash departamentining Xavfsiz turizm boshqarmasi va uning hududiy bo‘linmalariga shartnoma asosida turistlar va turistik guruhlarni,

---

[96] O‘zbekiston Respublikasi IIVning “Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 151-son buyrug‘i. 2017-yil 12-iyul.

[97] O‘zbekiston Respublikasi IIVning “Yo‘l-patrul xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi 168-son buyrug‘i. 2018-yil 20-iyun.

[98] O‘zbekiston Respublikasi IIVning “Ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta’minlash bo‘linmalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 535-son buyrug‘i. 2022-yil 7-dekabr.

shu jumladan avtotransportda harakatlanish vaqtida kuzatib borish hamda moddiy madaniy meros ob’ektlarida jamoat tartibini saqlash bo‘yicha pullik xizmatlar ko‘rsatish huquqiga ega;

- transport ob’ektlarida, birinchi navbatda turizm yo‘nalishdagi poezdlarda xavfsiz turizmni ta’minlash bo‘yicha funksiyalar transportda xavfsizlikni ta’minlash bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladi;

- transport ob’ektlarida sodir etilgan jinoyat va hodisalar haqidagi xabar va arizalarni hisobga olish va qayd etish markazlashgan tartibda transportda xavfsizlikni ta’minlash bo‘linmalarining navbatchilik qismlari tomonidan amalga oshiriladi;

- transport ob’ektlari va ularga tutash hududlarda sodir etilgan jinoyatlar bilan bog‘liq bahsli materiallarni ko‘rib chiqishga doir qaror qabul qilish O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining sohaviy va mintaqaviy nazoratni ta’minlash yuzasidan biriktirilgan o‘rinbosari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi;

- turizm yo‘nalishidagi temir yo‘l transportida harakatlanish davomida sodir etilgan, tegishliligi bo‘yicha ichki ishlar organlariga taalluqli bo‘lgan ma’muriy huquqbuzarliklarni ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish ularda jamoat tartibini samarali ta’minlash uchun kuzatuvchi profilaktika inspektorlari lavozimlarini bosqichma-bosqich joriy etish orqali bevosita poezdlarning o‘zida amalga oshiriladi;

- temir yo‘l vokzallari va aeroportlar atrofida yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari buzilishining oldini olish va chek qo‘yish hududiy ichki ishlar organlari bilan birgalikda transportda xavfsizlikni ta’minlash bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladi[99].

Xulosa o‘rnida, xavfsiz turizmni ta’minlash bo‘yicha yaratilgan tizim, turistik joylarda jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarni oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish chora-tadbirlarini o‘z ichiga oladi. Bu borada ichki ishlar organlarining samarali faoliyatini tashkil etish, transport va turizm infratuzilmasi hududlarida xavfsizlikni ta’minlash va huquqbuzarliklar sabablarini aniqlab, ularga qarshi kurashish asosiy maqsad hisoblanadi, deyish mumkin.

Savol va topshiriqlar:

1. Xavfsiz turizmni ta’minlash Boshqarmalari huquqbuzarliklar profilaktikasi yo‘nalishidagi xodimlar faoliyatini qanday me’yoriy hujjat talablari asosida tashkil qiladi?
2. Xavfsiz turizmni ta’minlash Boshqarmalari jamoat tartibini saqlash guruhlari yo‘nalishidagi xodimlar faoliyatini qanday me’yoriy hujjat talablari asosida tashkil etadi?
3. Xavfsiz turizmni ta’minlash Boshqarmalari yo‘l harakati xavfsizligi guruhlari yo‘nalishidagi xodimlar faoliyatini qanday me’yoriy hujjat talablari asosida tashkil qiladi?

[99] O‘zbekiston Respublikasi IIVning “Ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta’minlash bo‘linmalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 535-son buyrug‘i. 2022-yil 7-dekabr.

4. Xavfsiz turizmni ta’minlash bo‘linmalarida ishni tashkil qilish tartibini tushuntirib bering.

4-§. Ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta’minlash bo‘linmalari tomonidan shartnoma asosida pullik xizmatlar ko‘rsatish tartibi

Hozirgi kunda turizm sohasi jahon iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va xalqaro nufuziga ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Turistlarning xavfsizligini ta’minlash esa davlat organlari, xususan, ichki ishlar organlari zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Shu munosabat bilan, ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta’minlash bo‘linmalari tomonidan shartnoma asosida pullik xizmatlar ko‘rsatish tartibi yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-martdagi “Transport va turizm ob’ektlarida jamoat xavfsizligini ta’minlashning samarali tizimini joriy etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4229-son qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-avgust kuni “Ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta’minlash bo‘linmalari tomonidan shartnoma asosida pullik xizmatlar ko‘rsatish tartibini belgilash to‘g‘risida”gi 669-son qarori qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Xavfsiz turizmni ta’minlashni muvofiqlashtirish boshqarmasi va uning hududiy bo‘linmalariga shartnoma asosida turistlar va turistik guruhlarni, shu jumladan, avtotransportda harakatlanish vaqtida kuzatib borish hamda moddiy madaniy meros ob’ektlarida jamoat tartibini saqlash bo‘yicha pullik xizmatlar ko‘rsatish huquqi berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-avgustdagi 669-son qaroriga asosan “Ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta’minlash bo‘linmalari tomonidan shartnoma asosida turistlar va turistik guruhlarni kuzatib borish bo‘yicha pullik xizmatlar ko‘rsatish tartibi to‘g‘risida” Nizom tasdiqlandi.

Mazkur Nizom ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta’minlash bo‘linmalari tomonidan shartnoma asosida turistlar va turistik guruhlarni kuzatib borish bo‘yicha pullik xizmatlar ko‘rsatish tartibini belgilaydi.

Turistlarni shartnoma asosida kuzatib borish xizmati O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Transport va turizm ob’ektlarida xavfsizlikni ta’minlash departamentining Xavfsiz turizm boshqarmasi hamda uning hududiy bo‘linmalari tomonidan turistlarning xavfsizligini ta’minlash maqsadida amalga oshiriladi. Ushbu xizmat piyoda yoki maxsus avtotransport vositalaridan foydalangan holda bajariladi.

Kuzatuv xizmati turistlarning hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulkini turli tajovuzlardan himoya qilish, shuningdek, ularning transport vositalarida harakatlanishlari davomida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Turistlar transport vositalarida harakatlanayotgan vaqtda kuzatuv xizmati xodimlari maxsus jihozlangan transport vositalaridan foydalanadi. Bu jarayonda yo‘l harakati qoidalariga qat’iy rioya qilinadi va harakatlanish vaqtida maxsus tovush signallari hamda chiroq-mayoqchalardan faqatgina istisno hollarda foydalanishga ruxsat etiladi.

Mazkur kuzatuv xizmati O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi bilan kelishilgan holda tasdiqlangan tariflar asosida to‘lov asosida amalga oshiriladi.

Kuzatuv xizmatini ko‘rsatish uchun murojaat qilish va uni ko‘rib chiqish tartibi quyidagicha belgilanadi, yani kuzatuv xizmatidan foydalanmoqchi bo‘lgan jismoniy yoki yuridik shaxs tegishli hududiy ichki ishlar organining Xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmasiga yozma yoki elektron shaklda murojaat qiladi.

Murojaatda jismoniy yoki yuridik shaxs haqidagi ma’lumotlar, turistlar va transport vositalarining soni, ularni kuzatib borish muddati hamda qatnov yo‘li aniq ko‘rsatilishi shart.

Xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmasi murojaatni qabul qilgan kundanoq uni ko‘rib chiqadi va natijasi haqida buyurtmachiga yozma shaklda ma’lumot beradi.

Murojaatni ko‘rib chiqish jarayonida quyidagi masalalar o‘rganiladi:

- turistlarning shaxsiga oid ma’lumotlar;

- turistik xizmatlar ko‘rsatuvchi tadbirkorlik sub’ektining bunday faoliyatni amalga oshirish uchun qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan tegishli ruxsatnomasining mavjudligi;

- transport vositalari va haydovchilarning hujjatlari amaldagi qonunchilik talablariga muvofiqligi;

- kuzatib borish uchun belgilangan qatnov yo‘li va tashrif buyuriladigan hududlarning xavfsizlik talablariga javob berishi;

- kuzatuv xizmatini amalga oshirish uchun yetarli kuch va vositalarning mavjudligi[100].

Mazkur bandning ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi xatboshilarida qayd etilgan ma’lumotlar buyurtmachi tomonidan taqdim etilishi lozim.

Murojaatni ko‘rib chiqish natijasida kuzatuv xizmatini ko‘rsatishga to‘sqinlik qiluvchi holatlar aniqlanmagan taqdirda, Xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmasi hamda buyurtmachi o‘rtasida uch ish kunidan kechiktirmasdan turistlar yoki turistik guruhlarni kuzatib borish to‘g‘risida shartnoma tuziladi.

Shartnoma shartlari buyurtmachining talablari asosida, kuzatuv xizmatini ko‘rsatish uchun belgilangan tariflar hamda amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq belgilanadi.

Kuzatuv xizmati uchun to‘lov miqdorini hisoblashda maxsus avtotransport vositasida kuzatib borish, Xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmasiga tegishli transport vositalarida turistlarni tashish masofasi, xizmatni bajarish uchun zarur bo‘lgan xodimlar soni, ularni jalb etish vaqti hamda boshqa xarajatlar hisobga olinadi.

[100] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.01.2023-y., 09/23/37/0063-son.

Kuzatuv xizmati shartnoma bo‘yicha belgilangan to‘lov summasi buyurtmachi tomonidan oldindan to‘liq amalga oshirilgandan so‘ng bajariladi.

Quyidagi hollarda kuzatuv xizmatini ko‘rsatish rad etiladi:

- Nizomning 7-bandi hamda 9-bandining ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi xatboshilarida keltirilgan ma’lumotlar buyurtmachi tomonidan to‘liq taqdim etilmaganda;
- buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarni o‘rganish natijasida qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi aniqlanganda;
- kuzatuv xizmatini amalga oshirish ko‘zda tutilgan qatnov yo‘li yoki tashrif rejalashtirilgan hududlar xavfsizlik talablariga javob bermaganda;
- kuzatuv xizmatini amalga oshirish uchun zarur kuch va vositalarni jalb etish imkoniyati mavjud bo‘lmaganda;
- shartnomada belgilangan to‘lov buyurtmachi tomonidan to‘liq to‘lanmaganda[101].

Agar murojaatni ko‘rib chiqish yakunida kuzatuv xizmatini ko‘rsatish rad etilsa, bu haqda sabablar ko‘rsatilgan holda buyurtmachiga yozma yoki elektron shaklda xabar beriladi.

Kuzatuv xizmatini ko‘rsatishning asosiy shartlari

Kuzatuv xizmatini amalga oshirish jarayonida Xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmasi xodimlari O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari hamda Ichki ishlar vazirligining tegishli me’yoriy hujjatlari talablariga qat’iy rioya etishlari shart.

Kuzatuv xizmatini tashkil etish davomida turistlar va boshqa shaxslarning huquq hamda erkinliklari poymol qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Kuzatuv xizmatini ko‘rsatishdan oldin Xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmasi tomonidan quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- turistlarga O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik talablari, umume’tirof etilgan axloq me’yorlariga rioya etish hamda xavfsizlik qoidalariga amal qilish zarurligi haqida tushuntirish beriladi;
- kuzatuv amalga oshiriladigan turistlarning shaxsi va ularning soni shartnomada belgilangan ma’lumotlarga muvofiqligi tekshiriladi;
- kuzatuvda qatnashadigan transport vositasining texnik holati ko‘zdan kechiriladi, haydovchida zarur hujjatlar mavjudligi tekshiriladi va unga yo‘l harakati qoidalariga rioya etish hamda kuzatuv qatnov yo‘nalishi bo‘yicha tegishli yo‘riqnoma o‘tkaziladi[102].

Kuzatuv xizmati yakunlangandan so‘ng Xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmasi va buyurtmachi o‘rtasida ko‘rsatilgan xizmatlarning haqiqiy hajmini aks ettiruvchi dalolatnoma tuziladi. Ushbu dalolatnoma uch ish kuni ichida rasmiylashtiriladi va uning asosida shartnoma summasi belgilangan tariflar bo‘yicha qayta hisoblanib, o‘zaro hisob-kitob amalga oshiriladi.

Kuzatuv xizmatini ko‘rsatish jarayoni shartnomada nazarda tutilgan asoslar va tartibda to‘xtatilishi mumkin.

---

[101] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, *31.01.2023-y., 09/23/37/0063-son*.

[102] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, *31.01.2023-y., 09/23/37/0063-son*.

Kuzatuv xizmatini ko‘rsatishdan tushgan mablag‘lar O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Xavfsiz turizmni ta’minlash jamg‘armasiga o‘tkaziladi.

Shuningdek, shartnomada ko‘rsatilmagan nizolar amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

Turizm namoyishi ob’ektida jamoat tartibini saqlash bo‘yicha xizmat ko‘rsatish tartibi

Turizm namoyishi ob’ektida jamoat tartibini saqlash bo‘yicha xizmat ko‘rsatish to‘g‘risida shartnoma vakolatli shaxs tomonidan hududiy ichki ishlar organining Xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmasiga berilgan murojaat asosida ko‘rib chiqiladi.

Murojaat tushgan kundan boshlab o‘n besh kun muddat ichida Xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmasi tomonidan o‘rganib chiqiladi va uning natijalari haqida murojaat muallifiga yozma tarzda ma’lumot beriladi.

Murojaatni ko‘rib chiqish jarayonida yuridik shaxs vakili yoki jismoniy shaxs bilan birgalikda turizm namoyishi ob’ektining hududi o‘rganiladi hamda bu haqda tegishli dalolatnoma tuziladi.

Dalolatnomada ob’ekt hududining chegaralari, jamoat tartibini saqlash faoliyatini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan Xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmasi xodimlari soni, xizmat xonalari, xizmat olib borish tartibi, patrullik hududi va yo‘nalishlari ko‘rsatiladi.

Shartnoma tuzish hamda unga muvofiq Xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmasiga qo‘shimcha shtat birliklarini ajratish masalasi bo‘yicha hududiy ichki ishlar organi tomonidan murojaat tushgan kundan boshlab besh kun muddatda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga taqdimnoma kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi taqdimnomani olgan kundan boshlab besh kun ichida uni ko‘rib chiqadi va qo‘shimcha shtat birliklarini ajratish yoki ajratmaslik haqida qaror qabul qiladi.

Agar qo‘shimcha shtat birliklari ajratilsa, tuzilgan dalolatnoma asosida Xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmasi va vakolatli shaxs o‘rtasida shartnoma imzolanadi. Mazkur shartnoma bir yil muddatga tuziladi.

Turizm namoyishi ob’ektining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda dalolatnoma va shartnoma loyihasida jamoat tartibini saqlash faoliyatini tashkil etishning alohida shartlari ko‘rsatib o‘tilishi mumkin.

Shartnomada belgilangan Xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmasining majburiyatlari qo‘shimcha shtat birliklari ajratilib, ular joyiga jamlangandan so‘ng bajariladi.

Turizm namoyishi ob’ektlarida jamoat tartibini saqlash xizmatini tashkil etish

Turizm namoyishi ob’ektlarida jamoat tartibini saqlash xizmati Xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmasi naryadlari faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining tegishli me’yoriy hujjatlarida belgilangan talablar asosida tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

Jamoat tartibini saqlash xizmatini ko‘rsatish jarayonida Xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmasi xodimlari O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari

hamda Ichki ishlar vazirligining tegishli hujjatlarida belgilangan talablarga qat’iy rioya etishlari shart.

Shartnoma asosida xizmat ko‘rsatishdan tushgan mablag‘lar O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Xavfsiz turizmni ta’minlash jamg‘armasiga yo‘naltiriladi.

Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta’minlash bo‘linmalari tomonidan shartnoma asosida pullik xizmatlar ko‘rsatish tartibi turistik xavfsizlikni ta’minlash, mamlakatning turistik jozibadorligini oshirish va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shish kabi muhim vazifalarni amalga oshirishga yordam beradi. Shuning uchun bu tartibning samarali yo‘lga qo‘yilishi nafaqat huquq-tartibotni, balki umumiy turizm muhitini rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Savol va topshiriqlar:

1. Ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta’minlash bo‘linmalari tomonidan turistlarni kuzatib borish xizmati qanday maqsadda amalga oshiriladi?
2. Qaysi hollarda kuzatuv xizmatini ko‘rsatish rad etiladi? Uchta sababni sanang.
3. Kuzatuv xizmatini amalga oshirish jarayonida Xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmasi xodimlari nimalarga qat’iy rioya etishlari lozim?
4. Turizm namoyishi ob’ektida jamoat tartibini saqlash bo‘yicha shartnoma qancha muddatga tuziladi?

XXII BOB ICHKI ISHLAR ORGANLARI QO‘RIQLASH FAOLIYATI

1-§. Qo‘riqlash xizmatining huquqiy maqomi va faoliyatining asosiy yo‘nalishlari

Qo‘riqlash faoliyati bu davlat xavfsizligi tizimining strategik bo‘g‘ini bo‘lib, u shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini ichki tahdidlardan himoya qilishga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasining “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi qonunining qabul qilinishi sohada yangi huquqiy davrni boshlab berdi. Bugungi kunda qo‘riqlash xizmati nafaqat jismoniy himoya, balki yuqori texnologiyali xavfsizlik muhitini yaratish demakdir.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Qo‘riqlash departamenti o‘z vakolati doirasida davlat ob’ektlarini, o‘ta muhim, toifalangan va boshqa ob’ektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini shartnoma asosida qo‘riqlashga doir O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligini vazifalari va funksiyalarini, shuningdek, davlat organlari, idoraviy qo‘riqlash tashkilotlari tomonidan qo‘riqlash faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi yuzasidan davlat nazoratini amalga oshiradigan Ichki ishlar vazirligi markaziy apparatining mustaqil tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi.

Huquqiy maqom haqida gap ketganda, xizmat qaysi prinsiplariga tayanib ish ko‘rishi muhim, quyidagi prinsiplarga tayangan holda o‘z faoliyatini amalga oshiradi, xususan:

- qonuniylik;
- yagonalik;
- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ushbu huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarni hurmat qilish;
- ochiqlik va shaffoflik[103].

Qo‘riqlash xizmati o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan huquqiy asoslarga tayangan holda faoliyatini yuritish, tartibga solish va nazoratni olib borishi zarur.

Shundan kelib chiqqan holda, qo‘riqlash xizmati faoliyatining huquqiy asoslari deganda - qo‘riqlash xizmati o‘z faoliyatini amalga oshirishi uchun huquqiy sharoit yaratib beruvchi, muayyan vakolat va majburiyatlar bilan ta’minlovchi hamda xizmatni boshqarishda mavjud kuch, vosita va usullarni samarali qo‘llashni huquqiy, tashkiliy-texnik va taktik masalalarini muvofiqlashtirib, tartibga solib turuvchi normativ-huquqiy hujjatlar tizimi tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Qo‘riqlash xizmatining huquqiy asoslarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, uning huquqiy asoslari davlatimizda amalda bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi.

Quyidagilar qo‘riqlash xizmati faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi:

---

[103] O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organli to‘g‘risida”gi 407-son qonun 5-modda. https://lex.uz/ru/docs/3027843.

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi, “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi va boshqa qonunlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining buyruqlari va farmoyishlari va boshqa normativ hujjatlar.

O‘zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Qo‘riqlash xizmatining huquqiy asoslarini, umumiy va maxsus turlarga ajratish mumkin.

Qo‘riqlash xizmati faoliyatining umumiy huquqiy asoslarini ko‘rib chiqamiz.

Ularning birinchisi, avvalo respublikamizdagi barcha normativ-huquqiy hujjatlarning asosi bo‘lgan - O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida IIVga va uning huzuridagi Qo‘riqlash xizmati faoliyatiga tegishli bo‘lgan va qo‘riqlash ob’ektlarini o‘zida ifodalagan Konstitutsiyaviy-huquqiy normalar mavjud.

Konstitutsiyaning 61-moddasida belgilanishicha “Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shart. Tarixiy, ma’naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi[104]” deyilgan. Shuningdek, 65-moddada “Fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste’molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi. O‘zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta’minlanadi[105]”- deb belgilangan.

Yana bir konstitutsiyaviy huquqiy norma bo‘lmish 68-moddada belgilanishicha “Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir[106]” deb e’tirof etilgan.

Ma’lumki, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish har bir davlatning muhim strategik hamda ekologik siyosati bo‘lib, mavjud tabiat boyliklari O‘zbekiston Respublikasi, ya’ni davlat va uning organlari tomonidan muhofaza qilinishi siyosiy va iqtisodiy ahamiyatga egadir. O‘z navbatida, davlat va uning organlari jumladan, Qo‘riqlash xizmatlari tarixiy va madaniy obidalar, muzeylarni muhofazalash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar majmuini amalga oshiradi. Bu ularni hisobga olishni tashkil qilish, ulardan foydalanish va muhofaza qilishni nazorat etish, yodgorliklarni talon-taroj qilinishi va ularga shikast yetkazilishini oldini olishga qaratilgan chora tadbirlarni amalga oshiradi.

---

[104] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 01.05.2023. https://lex.uz/docs/6445145.

[105] Shu manba.

[106] Shu manba.

IIV huzuridagi Qo‘riqlash xizmatlari mulkdorlarni mol mulklarini g‘ayriqonuniy, jinoiy tajovuzlardan ishonchli, mustahkam qo‘riqlanishni tashkil etishi va ta’minlashni amalga oshiradi.

Keyingi turdagi huquqiy asoslar bu amaldagi qonunlar bo‘lib, ular quyidagicha tartibdan iborat:

- O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi;
- O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi;
- O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi;
- O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.

Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar IIO huzuridagi Qo‘riqlash xizmatlarini faoliyatini tartibga solib ularga muayyan huquq, vakolat va majburiyatlar belgilaydi.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining qo‘riqlash xizmati faoliyatiga tegishli bo‘lgan quyidagi normalari mavjud:

61-moddasida “Oz miqdorda talon taroj” uchun ma’muriy javobgarlik hamda oz miqdordagi talon-tarojlik qiymati belgilab qo‘yilgan.

194-moddasida “Ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik” uchun javobgarlik belgilab qo‘yilgan. Ushbu moddaga ko‘ra ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talabi barcha shaxslar tomonidan bajarilishi shartdir.

195-moddasida “Ichki ishlar organlari xodimlarining o‘z xizmat burchlarini bajarishlariga qarshilik ko‘rsatish” uchun javobgarlik belgilab qo‘yilgan. Bunda ichki ishlar organlari xodimining o‘z vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq qonuniy talablarini bajarish vaqtida shaxs tomonidan bo‘ysunmaslik yoki bajarmaslik natijasida shaxsga nisbatan ma’miriy jazo choralari belgilangan.

284-moddasida belgilanishicha “Huquqbuzarni ushlab keltirish, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma tuzish maqsadida uni huquqbuzarlik qilingan joyda tuzish mumkin bo‘lmasa, huquqbuzar, ichki ishlar organlari xodimi yoki ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma tuzishga vakolatli boshqa shaxs tomonidan ichki ishlar organlariga ushlab keltirishi mumkin[107].

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining jinoiy-huquqiy normalarida IIO huzuridagi Qo‘riqlash xizmati faoliyatida yuzaga keladigan turli holatlar uchun jinoiy javobgarlik choralari belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 27-bobida ko‘rsatilgan quyidagi protsessual-huquqiy normalar talablariga asoslanadi:

220-moddasida ushlab turishning maqsadi ko‘rsatilgan bo‘lib - ushlab turish jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni uning jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanishiga barham berish, qochib ketishi, dalillarni yashirishi yoki yo‘q qilib yuborishining oldini olish maqsadida qisqa muddatga ozodlikdan mahrum qilishdan iboratligi belgilangan.

[107] O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. 01.04.1995-y. https://lex.uz/docs/97664.

221-moddasida esa, ushlab turishning asoslari belgilangan[108].

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining moddalariga asoslanib, IIO huzuridagi Qo‘riqlash xizmatlari o‘z faoliyatini samarali amalga oshirish uchun shartnomaviy huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi fuqarolik-huquqiy normalarga tayanadi. Ular quyidagilarda ifodalanadi, shartnomalarni tuzish, ularning namunaviy shartlari, amal qilish muddatlari, shakli, tuzilish payti hamda shartnomalarni o‘zgartirish yoki bekor qilish asoslari va tartibi belgilangan.

IIO huzuridagi Qo‘riqlash xizmatining maxsus turdagi huquqiy asoslarini tahlil qiladigan bo‘lsak, bizningcha, ular bevosita qo‘riqlash xizmatiga tegishli bo‘lib, IIVgi tizimida Qo‘riqlash xizmati va uning joylardagi boshqarma, bo‘lim va bo‘linmalarini mustaqil xo‘jalik yurituvchi organ, fuqaroviy-huquqiy munosabatlarda yuridik shaxs sifatida tashkil etuvchi, hamda qo‘riqlash xizmatining ma’muriy-huquqiy va boshqaruv faoliyatini samarali amalga oshirish uchun huquqiy sharoit yaratib beruvchi, muayyan huquq, vakolat va majburiyatlar bilan ta’minlovchi, Qo‘riqlash xizmati faoliyatini tashkil etish va boshqarishda mavjud kuch, vosita va usullarini maqsadga muvofiq, samarali qo‘llashning huquqiy, tashkiliy-texnik va taktik masalalarini muvofiqlashtirib, tartibga solib turuvchi normativ-huquqiy hujjatlar yig‘indisidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-noyabrdagi “Ichki ishlar organlarining qo‘riqlash sohasidagi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-360-son qarori[109] bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Qo‘riqlash departamenti to‘g‘risidagi Nizom”da Qo‘riqlash departamentining faoliyatini tartibga solib turuvchi umumiy qoidalar, huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi, faoliyatini tashkil etish tartibi, qo‘riqlash faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish, yuridik shaxslarning idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash va idoraviy qorovullik bo‘linmalarida inspektorlik nazorat tekshiruvlarini o‘tkazish va muvofiqlashtirish, departament bo‘linmalari xodimlarining ijtimoiy himoyasini o‘z ichiga olgan bo‘lim va bandlar mavjud.

Hukumatimiz tomonidan bunday islohotlarni amalga oshirish uchun, huquqiy shart-sharoit yaratish va uni tartibga solish maqsadida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlari asosida Ichki ishlar vazirligi tomonidan Qo‘riqlash xizmatining boshqaruv faoliyatini tartibga soluvchi ichki buyruq va yo‘riqnomalar qabul qilingan.

Yuqorida ta’riflab o‘tilgan normativ-huquqiy hujjatlar IIV huzuridagi Qo‘riqlash departamentining boshqaruv faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy asoslarni tashkil etadi va uning samarali xizmat ko‘rsatishi uchun xizmat qiladi.

Qo‘riqlash xizmatini asosiy faoliyat yo‘nalishlari tegishli qonunchilik bilan aniq belgilanmagan bo‘lsa-da, shu faoliyatga doir bo‘lgan qonunchilik normasi bilan

[108] O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. 01.04.1995-y. https://lex.uz/docs/111460.

[109] https://lex.uz/docs/7865959.

tartibga solingan, xususan “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunning 4-moddasiga[110] muvofiq, Qo‘riqlash xizmatini o‘ziga xos jihatlariga asoslanib uning faoliyat yo‘nalishlarini ajratib olishimiz mumkin.

Jumladan, Qo‘riqlash xizmati o‘z faoliyatni quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiradi:

- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;
- jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash;
- jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashish, shu jumladan terrorchilik harakatlariga chek qo‘yishda hamda garovga olinganlarni ozod qilishda ishtirok etish yo‘li bilan kurashish;
- huquqbuzarliklar profilaktikasi, ularning sabablarini va sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish, huquqbuzarliklarni sodir etishga moyil shaxslarni aniqlash;
- ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish, ma’muriy jazolarni qo‘llash to‘g‘risidagi qarorlarni ijro etish;
- fuqaroviy va xizmat qurolining hamda uning o‘q-dorilarining, sanoat uchun mo‘ljallangan portlovchi materiallarning, shuningdek pirotexnika buyumlarining, giyohvandlik vositalarining, ular analoglarining, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo‘lishi sohasini nazorat qilish;
- davlat ob’ektlarini, o‘ta muhim, toifalangan ob’ektlarni va boshqa ob’ektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo‘riqlash;
- litsenziyalash va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish, shuningdek litsenziya va ruxsat etishga oid talablarga hamda shartlarga rioya etilishini nazorat qilish;
- harbiy-safarbarlik ishlarini va fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirish;
- qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga doir ishlarda ishtirok etish va boshqalar.

Bugungi kunda qo‘riqlash faoliyati faqat postda turish emas, balki zamonaviy qo‘riqlash usullarini xizmat faoliyatiga tadbiq etishmoqda, xususan, intellektual qo‘riqlash tizimini joriy etilgan “Situatsion markazlar” ya’ni videokuzatuv va tahliliy dasturlar orqali ob’ektlarni masofadan nazorat qilishni shuningdek, signalizatsiya, datchiklar, biometrik nazorat tizimlari va dronlar yordamida qo‘riqlashni tashkil etishmoqda.

Qo‘riqlash xizmatining huquqiy maqomi dinamik xarakterga ega bo‘lib, u nafaqat jismoniy ob’ektlarni saqlash, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash omili hamdir. Zamonaviy sharoitda departament faoliyatining ustuvor yo‘nalishi sifatida "Inson omilisiz qo‘riqlash" texnologiyalarini joriy etish, ya'ni intellektual tizimlar orqali xavfni oldindan prognoz qilish belgilangan.

Shuningdek, Qo‘riqlash sohada yagona davlat siyosatini yurituvchi organ sifatida, nodavlat sektor uchun standartlarni belgilaydi va ularning faoliyati qonuniyligi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Bu esa davlat va xususiy sheriklik asosida xavfsizlikning yaxlit ekotizimini yaratishga xizmat qiladi.

---

[110] O‘zbekiston Respubikasining “Ichki ishlar organli to‘g‘risida”gi 407-son qonun 5-modda. https://lex.uz/ru/docs/3027843.

Savol va topshiriqlar:

1. Qo‘riqlash xizmati faoliyatining huquqiy maqomi nimani anglatadi?
2. Qo‘riqlash xizmati faoliyati qaysi asosiy prinsiplarga tayanadi?
3. Qo‘riqlash xizmatining huquqiy asoslarini tashkil etuvchi normativ-huquqiy hujjatlar qaysilar?
4. Qo‘riqlash xizmatining asosiy faoliyat yo‘nalishlari nimalardan iborat?
5. Zamonaviy qo‘riqlash tizimlarida qanday texnologiyalar qo‘llaniladi?

2-§. Qo‘riqlash xizmati tizimi hamda ularning vazifalari

Jamiyatda mavjud har qanday yo‘nalishdagi sohalarda, ishlab chiqarish, xizmatlar ko‘rsatish, ijro etish va boshqarish faoliyatida o‘z oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalarni, to‘la maqsadga muvofiq, samarali amalga oshirish uchun o‘ziga xos muayyan ishlab chiqilgan, tasdiqlangan tizim va tashkiliy tuzilishlarga asoslangan holda faoliyat olib boriladi. Aniq tashkil etilgan va ishlangan tizim, tuzilishga ega bo‘lmagan har qanday yo‘nalishdagi soha, jarayon inqirozga uchrashi ma’lumdir.

Mukammal ishlab turgan mashina kabi, qo‘riqlash xizmati ham aniq tuzilma va murakkab vazifalar zanjiridan iborat. Departamentning tashkiliy tizimi tezkor boshqaruv va qat’iy intizom prinsiplariga qurilgan.

IIO har bir xizmatlari qator tarkibiy qismlari departament, bosh boshqarmalar, boshqarmalar, bo‘limlar, bo‘linmalar, batalon va guruhlardan iborat bo‘lgan tizimni tashkil etadi. Har qanday xizmatda ham mavjud bo‘lgani kabi IIV huzuridagi Qo‘riqlash departamenti ham albatda, o‘ziga xos tizim va tashkiliy tuzilishga ega.

Qo‘riqlash xizmati qariyb yarim asrlik rivojlanish tarixiga ega. Sobiq SSSRda 1952-yilda tashkil etilgan dastlabki qo‘riqlash bo‘linmalarining soqchilik xizmatidan tortib hozirgi vaqtdagi IIV huzuridagi Qo‘riqlash departamenti darajasigacha shakillanib kelgan. Qo‘riqlash xizmati IIV tizimida uning ajralmas tarkibiy bo‘g‘inlaridan biridir. Ushbu xizmat IIV tizimining tarkibiy tuzilmasi sifatida IIO oldida turgan, huquqiy demokratik davlat, insonparvar fuqaroviy jamiyat qurilishida davlat boshqaruvining tarkibiy qismi sifatida jamiyat hayotida muhim o‘rinlardan birini egallaydi.

Respublikada huquqni muhofaza qilish, qonuniylik va huquqiy tartibotni ta’minlash hamda uni muntazam mustahkamlab borish, fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning tinchlik, osoishtaligini ta’minlash, jamoat tartibini saqlash hamda jamiyat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarlik va jinoyatlarni oldini olish, sodir etilgan jinoyatlarni tez va to‘la ochish, iqtisodiyotimizni negizini tashkil etadigan barcha mulkchilik shakllarini g‘ayriqonuniy, jinoiy tajovuzlardan muhofazalash kabi ma’suliyatli vazifalarni to‘la, samarali amalga oshirilishini tashkil etish va ta’minlash uchun IIV huzuridagi Qo‘riqlash departamenti o‘ziga xos muayyan tizim va tashkiliy tuzilishga ega.

Qo‘riqlash xizmati tizimi, tuzilishi tartibi respublikamizning milliy davlat tuzilishi va ma’muriy hududiy bo‘linishiga muvofiq tashkil etilib, markaziy va mahalliy qo‘riqlash xizmati organlarini o‘z ichiga oladi. Jumladan:

- Departamentning markaziy apparati;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri ichki ishlar organlari huzuridagi qo‘riqlash xizmatlari;

- tuman va shahar ichki ishlar organlari huzuridagi qo’riqlash xizmatlari (bo‘linmalari);

- Davlat organlari ob’ektlarini qo‘riqlash boshqarmasi tegishli[111].

Ushbu tizimning barcha bo‘g‘inlari o‘zaro ketma-ketlikda bog‘langan bo‘lib, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni o‘zaro hamkorlikda amalga oshirib, qo‘riqlash xizmati quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Qo‘riqlash Departamenti;

Mustaqillik maydoni va u yerda joylashgan binolarni qo‘riqlash bo‘yicha Komendatura;

Toshkent shahrida joylashgan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ob’ektlarini qo‘riqlash bo‘yicha alohida batalon;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahri Ichki ishlar bosh boshqarmasi, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari qo‘riqlash boshqarmalari;

texnik qo‘riqlash vositalarini monitoring va nazorat qilish markazlari;

batalonlar, alohida otryadlar, komanda, guruhlar (saf bo‘linmalari);

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahri Ichki ishlar bosh boshqarmasi, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalarining tuman (shahar)lar ichki ishlar boshqarmalari (bo‘limlari) qo‘riqlash bo‘limlari (bo‘linmalari).

Qo‘riqlash xizmati ichki ishlar organlari tizimining alohida tarmog‘i bo‘lib, quyidagi bosqichlarda tashkil etilgan:

1) Respublika darajasi - Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Qo‘riqlash departamenti, strategik boshqaruv va nazorat organi;

2) Viloyat darajasi - viloyat IIB huzuridagi qo‘riqlash boshqarmalari, hududiy faoliyatni muvofiqlashtiradi;

3) Tuman (shahar) darajasi - qo‘riqlash bo‘limlari, ob’ektlarni bevosita qo‘riqlashni amalga oshiradi;

4) Ob’ekt darajasi - postlar va qo‘riqlash naryadlari, signalizatsiya va kuzatuv tizimlari. Bu tizim “markazdan hududlargacha” prinsipi asosida ishlaydi.

Bundan tashqari, mazkur tizimning barqaror faoliyati bevosita professional kadrlarga bog‘liq bo‘lib, Departament tarkibida xodimlarni boshlang‘ich tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha ichki ishlar tizimidagi ta’lim muassasalarida xodimlarning jismoniy, jangovar va psixologik tayyorgarlik darajasi doimiy oshirib boriladi.

Qo‘riqlash departamentiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan Departament boshlig‘i rahbarlik qiladi. Shuningdek, Departament boshlig‘i O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan o‘rinbosarlarga ega bo‘ladi. Departament boshlig‘i bo‘lmagan paytlarda uning vazifalarini Departament boshlig‘ining o‘rinbosarlaridan biri amalga oshiradi.

---

[111] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarining qo‘riqlash sohasidagi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-360-son qarori. https://lex.uz/docs/7865959.

Viloyatlarda joylashgan barcha Qo‘riqlash boshqarma, bo‘lim, bo‘linmalari va saf qismlariga viloyat IIBB huzuridagi Qo‘riqlash boshqarmalari rahbarlik qiladi.

Qo‘riqlash xizmatlari faoliyatiga rahbarlik quyidagi tartibda amalga oshiriladi, ya’ni yakka boshchilikka asoslangan holda, yuqori turuvchi boshqaruv tuzilmalarning buyruq va ko‘rsatmalari quyi turuvchi bo‘lim, bo‘linmalari tomonidan bajarilishi shart va majburiydir.

IIVning boshqaruv tizimiga nisbatan Qo‘riqlash departamenti boshqariluvchi tizim sifatida faoliyatini tashkil etadi va olib boradi, departament muayyan xususiyatga ega bo‘lgan o‘ziga xos tuzilma bo‘lganligi bois, boshqaruvchi tizim maqomiga egadir.

Ta’kidlash joizki, Qo‘riqlash xizmati IIV tizimida budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan o‘zini-o‘zi moliyalashtirish asosida ishlaydigan yagona tizim bo‘lib, bu uning iqtisodiy mustaqilligi va xizmat ko‘rsatish sifati uchun mas’uliyatini oshiradi.

Bunday tizimning faoliyati uning oldida turgan vazifalarni bajarishi lozim bo‘lgan amaliy ishlar doirasi bilan belgilanadi, chunki birlashmaning o‘zi ham ana shu vazifalarni bajarish uchun tashkil qilinadi. Ayni vaqtda barcha qo‘riqlash xizmati boshqarma, bo‘lim, bo‘linmalari boshqariluvchi ijtimoiy tizim bo‘lib, to‘g‘ri va teskari bog‘lanish yo‘llari bilan uzviy boshqaruv sub’ektlari va boshqaruv ob’ektlarining majmui kabi ko‘rinishda namoyon bo‘ladi hamda faoliyat olib boradi.

Qo‘riqlash departamenti joylardagi barcha qo‘riqlash boshqarma, bo‘lim va bo‘linmalardan iborat tizimga nisbatan yuqori turuvchi boshqaruv sub’ektidir. Ayni paytda Qo‘riqlash boshqarma, bo‘lim va bo‘linmalar Qo‘riqlash departamentiga nisbatan boshqariluvchi tizim, boshqaruv ob’ektidir.

Shahar, tuman IIO FMB huzuridagi Qo‘riqlash bo‘lim, bo‘linmalar va saf qismlariga nisbatan esa Qo‘riqlash boshqarmalari boshqaruv sub’ekti sifatida, ularning faoliyatiga bevosita rahbarlik qiladi.

Ichki ishlar vazirligining barcha xizmatlari kabi Qo‘riqlash xizmati departamentining boshqaruv tizimi, tuzilishi ham pog‘onali bo‘ysinish xususiyatiga ega, bu har qanday tashkiliy-amaliy ko‘rsatma, buyruq va boshqaruv qarorlarni amalga oshirishda namoyon bo‘ladi.

Qo‘riqlash departamenti boshqaruv tizimining qat’iy pog‘onali boshqarilishi qonuniylik va yakka boshchilik prinsipiga asoslanadi. Yakka boshchilik prinsipi va qat’iy intizom qo‘riqlash xizmati hal etadigan vazifalarning ko‘p qirraligi, og‘ir, murakkab hamda o‘ziga xosligi, shuningdek, ularning amaliy faoliyati qo‘riqlanadigan hudud va inshootlardagi operativ vaziyatlarga bog‘liq.

Qo‘riqlashga qabul qilingan ob’ektlar va ularni muhofazalashga jalb etilgan oddiy, kichik hamda o‘rta boshliqlar tarkibi va shtat birliklari soniga ko‘ra Qo‘riqlash boshqarmalari, ichki ishlar organlari huzuridagi Qo‘riqlash bo‘lim, bo‘linmalarining tarkibida quyidagi qo‘riqlash saf qismlari tashkil topgan.

Qo‘riqlash xizmati normativ-huquqiy hujjatlarga asosan belgilangan bo‘lib faoliyatni vazifalari quyidagilardan iborat. Jumladan:

- shartnoma asosida davlat, o‘ta muhim, toifalangan va boshqa ob’ektlarni, ta’lim muassasalarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini, savdo, xizmat ko‘rsatish, ko‘ngilochar va qurilish ob’ektlarini zamonaviy usullar orqali qo‘riqlash;

- jamoat joylarida jamoat xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etish, yuridik va jismoniy shaxslarga shartnoma asosida jamoat tartibini saqlash bo‘yicha qo‘riqlash-patrullik xizmatlarini ko‘rsatish;

- qo‘riqlanayotgan ob’ektlarda ichki tartib va nazorat-o‘tkazish rejimlarini ta’minlash, shuningdek, ularda jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatlar sodir etilishiga chek qo‘yish bo‘yicha chora-tadbirlarni tashkil etish;

- jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishda ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlariga har tomonlama ko‘maklashish;

- qo‘riqlashning texnik vositalari va tizimlarini qo‘llash sohasida yagona texnik siyosatni yuritish, qo‘riqlash faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya va sun’iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish. Xususan, yirik strategik ob’ektlarni havodan dronlar yordamida nazorat qilish, “Face ID” (yuzni tanish) tizimlarini joriy etish hamda texnik vositalarning kiber himoyasini ta’minlash sohaning ustuvor innovatsion vazifalari etib belgilangan[112].

Qo‘riqlash xizmati o‘ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

shartnoma asosida davlat ob’ektlarini, o‘ta muhim, toifalangan va boshqa ob’ektlarni, ta’lim muassasalarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini zamonaaiy usullar orqali qo‘riqlash sohasida:

o‘ta muhim, toifalangan ob’ektlar, kuchaytirilgan tartibda qo‘riqlanishi talab etiladigan davlat ahamiyatiga molik boshqa ob’ektlarning qo‘riqlanishi hamda mudofaasini ta’minlaydi;

yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulk va boshqa moddiy boyliklarini qo‘riqlash bo’yicha shartnoma asosida xizmatlar ko‘rsatadi, shuningdek, ularning ob’ektlarini qo‘riqlashning muhandislik va texnik vositalari bilan jihozlash choralarini ko‘radi;

ob’ektlarni qo‘riqlashga jalb etilgan saf, idoraviy jihatdan tegishli bo‘lmagan harbiylashtirilgan qo‘riqlash va idoraviy jihatdan tegishli bo‘lmagan qorovullik bo‘linmalari faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha kompleks choralar ko‘radi;

aholining Departament xizmatlaridan foydalanishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga qaratilgan axborot-tushuntirish mazmunidagi chora-tadbirlarni amalga oshiradi:

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga asosan, agar qonunchilikda boshqacha holat nazarda tutilmagan bo‘lsa, transportda tashish jarayonida qo‘riqlanishi belgilangan yuklar, tovar-moddiy boyliklar, xavfli yuklarni qo‘riqlashni (kuzatishni) amalga oshiradi;

ijtimoiy-siyosiy tadbirlar, xususiy tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan tashkil etiladigan madaniy-ommaviy va kungilochar-tomosha dasturlari (musiqiy, adabiy va boshqa festivallar, konsert, teatr, sport, reklama tadbirlari, xalq sayillari, sirk, milliy namoyishlar va o‘yinlar, ko‘rik-tanlovlar va boshqalar) vaqtida shartnoma

[112] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarining qo‘riqlash sohasidagi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-360-son qarori. https://lex.uz/docs/7865959.

asosida fuqarolar xavfsizligini ta’minlash va jamoat tartibini saqash xizmatlarini ko‘rsatadi;

Departament tomonidan qo‘riqlanadigan ob’ektlarda xavfsizlikni ta’minlash va ularga tutash hududlarda jamoat tartibini saqlashda ichki ishlar organlarining tegishli bo‘linmalari va boshqa huquq-tartibot organlari bilan hamkorlik qiladi;

qo‘riqlanayotgan ob’ektlarda ichki tartib va nazorat-o‘tkazish rejimlarini ta’minlash, shuningdek, ularda jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatlar sodir etilishiga chek qo‘yish bo‘yicha chora-tadbirlarni tashkil etish sohasida:

qo‘riqlanayotgan ob’ektlarda ichki, nazorat-o‘tkazish rejimlariga rioya etilishi bo‘yicha ishlarni nazorat qiladi va muvofiqashtiradi;

ichki ishlar organlarining tegishli boshqa bo‘linmalari bilan birgalikda o‘z vakolatlari doirasida qo‘riqlanayotgan ob’ektlarda har qanday tajovuzlarning oldini olish, bartaraf etish samaradorligini oshirish choralarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

qo‘riqlanayotgan ob’ekt va unga tutash hududlarda jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklarni aniqash, bartaraf etish choralarini ko’radi, vakolati doirasida huquqbuzarlarga nisbatan ma’muriy bayonnomalar rasmiylashtiradi, ma’muriy choralar ko‘radi;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga asosan ob’ektlarga qo‘riqlashning texnik vositalarini loyihalash, o‘rnatish (sozlash), ulardan foydalanish borasida xizmatlar ko‘rsatadi;

qo’riqlanadigan ob’ektlarda o‘rnatilgan qo‘riqlashning texnik vositalarini profilaktika qilish borasidagi texnik reglament ishlarini bajaradi, xorijiy va mahalliy korxonalar bilan hamkorlikda qo‘riqlashning texnik vositalarini ishlab chiqaradi;

davlat tashkilotlari va yuridik shaxslarning buyurtmasiga asosan dasturiy ta’minotlar yaratadi, ularni rivojlantiradi hamda takomillashtiradi;

jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi ko‘rashishda ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlariga har tomonlama ko‘maklashish sohasida:

joriy qilingan axborot tizimlarining kiberxavfsizligini ta’minlash choralarini ko‘radi;

qo’riqlanadigan ob’ektlarda foydalanishga tavsiya etiladigan qo‘riqlashning texnik vositalari ro‘yxatini shakllantiradi;

qo‘riqlashning texnik vositalarining soz holatda ishlashi hamda ob’ektga qilinishi mumkin bo‘lgan har qanday tajovuzlardan ishonchli himoyasi ta’minlanganini nazorat qiladi;

o‘ta muhim va toifalangan ob’ektlarda qo’riqlashning texnik vositalarini loyihalash, montaj qilish, sozlash, ta’mirlash va ularga texnik xizmat ko‘rsatish ishlarini bajarish uchun ruxsatnoma beradi;

qo‘riqlashning texnik vositalari va tizimlarini montaj qilish, sozlash, ta’mirlash hamda ularga texnik xizmat ko‘rsatish faoliyatini amalga oshirish uchun yuridik shaxslarning hisobini yuritadi, ular tomonidan qonunchilik hujjatlari, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi hujjatlar talablari hamda shartlariga rioya etilishini nazorat qiladi.

Qo‘riqlash tizimining mustahkamligi uning tashkiliy tuzilishiga bog‘liq. Vazifalarning aniqligi esa har bir xodimga o‘z mas’uliyatini his qilish imkonini beradi. Bu tizim O‘zbekistonda mulk daxlsizligining eng ishonchli kafolati bo‘lib qolmoqda.

Savol va topshiriq:

1. Qo‘riqlash xizmati tizimi qanday tuzilishga ega?
2. Qo‘riqlash xizmati qaysi darajalarda tashkil etilgan?
3. Qo‘riqlash departamentining tizimdagi o‘rni va vazifasi nimadan iborat?
4. Qo‘riqlash xizmati oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalar nimalar?
5. Zamonaviy qo‘riqlash tizimida qanday texnologiyalar va usullar qo‘llaniladi?

3-§. Qo‘riqlash xizmatining huquqlari va majburiyatlari

Jamiyatda mavjud har qanday organ, xizmat, muassasa va tuzilmalarning o‘ziga xos vazifalari mavjud bo‘ladi, ular esa ushbu vazifalarni belgilangan tartibda, qonuniylikka rioya etgan holda amalga oshirish uchun faoliyat yuritadi. Hukumat tomonidan tasdiqlangan normativ-huquqiy hujjatlarida qo‘riqlash xizmati va uning bo‘linmalarining asosiy maqsadlari etib quyidagilar ko‘rsatilgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-noyabrdagi PQ-360-son qarorida qo‘riqlash xizmatining asosiy maqsadlari deb:

- davlat, o‘ta muhim, toifalangan va boshqa ob’ektlarni, ta’lim muassasalarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini zamonaviy usullar hamda raqamli texnologiyalar imkoniyatlari orqali qo‘riqlash tizimini yo‘lga qo‘yish;

- ichki ishlar organlarining qo‘riqlash sohasidagi faoliyatini jamoat xavfsizligini ta’minlash, mahallalardagi huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish yo‘nalishlaridagi vazifalari bilan uzviy ravishda yagona yondashuvda amalga oshirish uchun samarali mexanizmlarni joriy etish.

IIO huzuridagi qo‘riqlash xizmatlari ushbu ikki asosiy maqsadlardan ijrosini ta’minlash uchun quyidagi huquqlarga ega:

qo‘riqlanayotgan ob’ektlar mansabdor shaxslari, ishchi-xizmatchilari va ob’ekt hududidagi boshqa shaxslardan ichki, ruxsat berish rejimlariga rioya qilishni hamda jamoat tartibini saqlashni talab qilish;

qo‘riqlanayotgan ob’ektardagi mol-mulkni saqlash shart-sharoitlari, muhandislik-texnik vositalar holatini tekshirish;

qo‘riqlanayotgan ob’ekt ma’muriyatiga, mansabdor shaxsiga, shartnoma shartlariga muvofiq ob’ektni muhandislik-texnik mustahkamligini ta’minlash, signalizatsiya tizimlari va videokuzatuv bilan jihozlash bo‘yicha taqdimnoma kiritish;

davlat organlari, boshqa tashkilotlar hamda ularning mansabdor shaxslariga tuzilgan shartnomaga muvofiq bajarilishi majburiy bo‘lgan, qo‘riqlash faoliyatini tashkil etish, muhandislik-texnik mustahkamlik, shuningdek, ob’ektarning ichki, ruxsat berish rejimlaridagi kamchiliklar va xatolarni bartaraf etish borasida taqdimnomalar kiritish;

qo‘riqlanayotgan ob’ektdan mol-mulk, moddiy boyliklar va turli yuklarni noqonuniy olib chiqishga yoki olib kirishga urinayotgan shaxslarni ushlash;

qo‘riqlanayotgan ob’ektarga noqonuniy kirganlar yoki huquqbuzarlik qilganlarning shaxsini aniqlash va ma’muriy bayonnoma tuzish maqsadida ushlash va qo‘riqlash xizmati xonalariga olib kelish, ushlab turish, zarur hollarda esa tegishli qaror qabul qilish uchun ularni hududiy ichki ishlar organlariga topshirish;

qonun hujjatlari talablariga muvofiq qo‘riqlash posti hududida fuqarolarning shaxsini tasdiqlaydigan hujjatlarini tekshirish, agar ularda qurol hamda uning o‘q-dorilari, qurolning asosiy qismlari, portlovchi, radioaktiv yoki zaharli moddalar, portlatish qurilmalari, pirotexnika buyumlari, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar, ularning prekursorlari yoki muomalada bo‘lishi taqiqlangan yoki cheklangan boshqa narsalar, qo‘riqlanayotgan ob’ekt hududiga olib kirilishi va undan olib chiqib ketilishi taqiqlangan ashyolar, buyumlar, vositalar bor deb hisoblashga asoslar mavjud bo‘lsa, fuqarolarni shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish, ularning ashyolarini, qo‘l yakuni, bagajini ko‘rikdan o‘tkazish hamda mazkur narsalar, vositalarni va moddalarni olib yurish hamda saqlash uchun qonuniy asoslar mavjud bo‘lmagan taqdirda, ularni olib qo‘yish, transport vositalarini ko‘zdan kechirish va tashib o‘tilayotgan yuklarning tovar-transport hujjatlarga muvofiqligini aniqlash;

sodir etilayotgan jinoyatlarni to‘xtatish, shuningdek, ularni sodir etgan shaxslarni ta’qib etish va ushlash, bir vaqtning o‘zida bir necha ob’ektda “tashvish” signalizatsiyasi ishlab ketgan patrul guruhlarini chaqirish;

o‘z vakolati doirasida mansabdor shaxslardan tushuntirishlar, ma’lumotlar va hujjatlar olish;

fuqarolar va mansabdor shaxslardan xizmat vazifalari bajarilishiga to‘sqinlik qiluvchi huquqbuzarliklar va xatti-harakatlarni to‘xtatishni talab qilish, ushbu talablar bajarilmagan taqdirda, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tegishli choralarni qo‘llash;

qo‘riqlanayotgan ob’ektar nazorat-o‘tkazish joylari va hududlarida noqonuniy olib chiqilayotgan (olib kirilayotgan) mol-mulkni aniqlash va olib qo‘yish, shuningdek, g‘ayriqonuniy harakatlarni aniqlash uchun fuqarolarning hayoti va sog‘ligiga, tekshirilayotgan mol-mulk va atrof muhitga ziyon yetkazmaydigan zamonaviy texnik vositalardan foydalanish;

qo‘riqlanadigan ob’ektarga g‘ayriqonuniy ravishda kirgan yoki kirishga uringan shaxslarni aniqlash, bunday xatti-harakatlarning oldini olishda xizmat itlaridan foydalanish;

qonun hujjatlariga muvofiq qo‘riqlanayotgan ob’ektarda huquqbuzarliklarning oldini olish va bartaraf etishga ko‘maklashish;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda va belgilangan tartibga muvofiq jismoniy kuch ishlatish, o‘qotar qurol va maxsus vositalarni olib yurish va ulardan foydalanish;

o‘z vakolati doirasida ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha bayonnomalar tuzish;

yuridik shaxslardan o‘z vakolati doirasida idoraviy qo‘riqlash faoliyatini tashkil qilish yuzasidan yozma va og‘zaki ma’lumotlarni so‘rab olish;

jamoat xavfsizligini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini qo‘riqlashni to‘laqonli ta’minlash uchun hududlarda patrullikni tashkil etish bilan bog‘liq holda texnik vositalarning butun kompleksidan foydalanish;

maxsus yorug‘lik signallariga va tovushli signallarga, bo‘yoqli rangli grafika sxemasiga ega maxsus avtotransport vositalariga ega bo‘lish.

Zamonaviy xavfsizlik talablaridan kelib chiqib, Qo‘riqlash xizmati xodimlari ob’ekt predmetni uchuvchisiz uchish apparatlari (dronlar) yordamida patrul qilish va intellektual videokuzatuv tizimlari orqali shubhali shaxslarni avtomatik identifikatsiya qilish huquqiga ega.

Shuningdek, qo‘riqlash xizmati qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqarga ham ega bo‘lishi mumkin[113].

Qo‘riqlash xizmati quyidagi majburiyatlarni bajaradi:

jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini o‘z vakolatlari doirasida himoya qilish uchun barcha zarur choralarni ko‘rish;

ob’ekt ma’muriyati tomonidan Qo‘riqlash xizmati rahbarlari bilan kelishgan holda tasdiqlagan kirib-chiqish yo‘riqnomasiga asosan ob’ektda ichki va ruxsat berish rejimiga rioya etilishini ta’minlash;

qo‘riqlanayotgan mol-mulkning o‘g‘irlanishi yoki buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan xo‘jasizlik va beparvolikning har qanday ko‘rinishiga o‘z vaqtida munosabat bildirish;

xizmatni o‘tash joylarida huquqbuzarliklarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish;

qo‘riqlanayotgan ob’ektda jinoyat, ma’muriy huquqbuzarlik izlarining saqlanishini ta’minlash;

qo‘riqlanayotgan ob’ektda huquqbuzarliklarni profilaktika qilish, ularni sodir etishga olib keluvchi sabab va shart-sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish choralarini ko‘rish;

qo‘riqlanayotgan ob’ektda huquqbuzarliklar sodir etilgan joyda jabrlangan, shuningdek, nochor holatdagi fuqarolarga birinchi tibbiy va boshqa yordam ko‘rsatish borasidagi choralarni ko‘rish;

qo‘riqlanadigan ob’ektarda tabiiy va texnogen xususiyatga ega favqulodda hodisa va holatlarning oldini olish, ularni bartaraf etishda ishtirok etish;

ishonib topshirilgan tabel qurollar, maxsus va texnik vositalar, shaxsiy himoya vositalari, xizmat kiyim-boshlari, mol-mulkni ehtiyot qilish va ularning soz holda saqlanishini ta’minlash;

bo‘linmalarning jangovar tayyorgarligini ta’minlash, shuningdek, xizmat-jangovar, ijtimoiy-huquqiy, ma’naviy-psixologik va jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha tegishli dasturlarda belgilangan mashg‘ulotlarning shaxsiy tarkib bilan o‘z vaqtida va sifatli o‘tkazilishini ta’minlash;

bo‘linmalarda belgilangan tartibda safarbarlik tayyorgarligini tashkil etish va ta’minlash.

---

[113] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarining qo‘riqlash sohasidagi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-360-son qarori. https://lex.uz/docs/7865959.

Xodim o‘z huquqlarini amalga oshirishda fuqarolarning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitmasligi, shaxsiy hayot daxlsizligiga oid ma’lumotlarni (agar ular jinoyatga aloqador bo‘lmasa) oshkor qilmaslik majburiyatini oladi.

Shuningdek, qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin[114].

Qo‘riqlash xizmati o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarning samarali bajarilishi uchun javobgardir.

Qo‘riqlash xizmati xodimi o‘z vakolatlarini suiiste’mol qilganligi, jismoniy kuch yoki maxsus vositalarni asossiz qo‘llaganligi uchun qonunchilikda belgilangan tartibda intizomiy, ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladi. Bu esa tizimda qonun ustuvorligining kafolatidir.

Qo‘riqlash xizmatlari jamiyatda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Ularning asosiy vazifalari ob’ektlarni muhofaza qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va jamoat tartibini saqlashdan iborat.

Shu bilan birga, qo‘riqlash xodimlariga muayyan huquqlar berilgan bo‘lib, ular ushbu huquqlardan faqat qonun doirasida foydalanishi shart. Ularga yuklatilgan majburiyatlarni vijdonan bajarish, xizmat intizomiga rioya qilish va fuqarolarning huquqlarini hurmat qilish esa muhim talablardan hisoblanadi.

Demak, qo‘riqlash xizmatining samaradorligi uning xodimlari tomonidan vazifa, huquq va majburiyatlarni to‘g‘ri anglash va amalda qo‘llash darajasiga bevosita bog‘liqdir.

Savol va topshiriq:

1. Qo‘riqlash xizmatining asosiy maqsadlari nimalardan iborat?
2. Qo‘riqlash xodimlariga berilgan asosiy huquqlar qaysilar?
3. Qo‘riqlash xodimlari qanday hollarda jismoniy kuch, maxsus vositalar va qurol ishlatishi mumkin?
4. Qo‘riqlash xizmatining asosiy majburiyatlari nimalardan iborat?
5. Qo‘riqlash xodimlari o‘z vakolatlarini buzgan taqdirda qanday javobgarlikka tortiladi?

[114] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarining qo‘riqlash sohasidagi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-360-son qarori. https://lex.uz/docs/7865959.

4-§. Qo‘riqlanadigan ob’ektlarda xavfsizlikni ta’minlash faoliyati

Hozirgi zamonda davlat va xususiy mulk ob’ektlarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini ta’minlash va turli tahdidlarning oldini olish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qo‘riqlanadigan ob’ektlarda xavfsizlikni ta’minlash bu kompleks chora-tadbirlar tizimi bo‘lib, u insonlar hayoti, moddiy boyliklar va axborot resurslarini muhofaza qilishga qaratilgan.

Qo‘riqlanadigan ob’ektlar deganda, davlat ahamiyatiga ega binolar va inshootlar, sanoat korxonalari, bank va moliyaviy muassasalar, omborlar hamda logistika markazlari, strategik ahamiyatga ega infratuzilma ob’ektlari hamda xususiy mulk ob’ektlari hisoblanadi.

Mazkur ob’ektlarni qo‘riqlovga olishdan maqsad noqonuniy kirishlarni oldini olish, mulkni talon-toroj qilishdan himoya qilish, terrorizm va diversiya harakatlarining oldini olish, jamoat tartibini saqlash va favqulodda holatlarda tezkor chora ko‘rishga qaratilgan.

Qo‘riqlash xizmati tomonidan ob’ektlarni hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga ko‘ra ularning mol-mulkini, ob’ektlarini va jismoniy shaxslarni shartnoma asosida qo‘riqlash amalga oshiriladi.

Qo‘riqlovga olingan ob’ektlarda qo‘riqlash naryadlari faoliyatini tashkil etish hamda jismoniy qo‘riqlash hamda qo‘riqlashning texnik vositalari shuningdek, texnik qo’riqlash orqali amalga oshiriladi.

Qo‘riqlash faoliyatini amalga oshirishda mol-mulk, moddiy-tovar boyliklarni ishonchli saqlash, ob’ektlar xavfsizligini nazorat qilish imkonini beruvchi boshqa uslublar, vositalar, jihozlardan foydalaniladi.

Xavfsizlik tizimining asosiy elementlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

Jismoniy qo‘riqlash - qo‘riqchilar (post va patrul xizmati) nazorat-o‘tkazish punktlari orqali hududni doimiy kuzatish;

Texnik vositalar - videokuzatuv tizimlari, signalizatsiya va datchiklar, kirishni nazorat qilish tizimlari hamda yong‘in signalizatsiyasi;

Axborot xavfsizligi - ma’lumotlarni himoya qilish, kiberxavfsizlik choralari ko‘rish va maxfiy ma’lumotlarga kirishni cheklashdan iborat.

Jismoniy qo‘riqlash quyidagilardan iborat xususan, safdagi qo‘riqlash postlari, harbiylashtirilgan qo‘riqlash postlari, qorovul postlari, qo‘riqlash yo’nalishlari, qo‘riqlaash-patrul xizmati, tezkor harakatlanuvchi guruhlar, jismoniy shaxslarni qo‘riqlaash-kuzatish xizmati hisoblanadi.

Texnik qo‘riqdagi ob’ektdan tashvish xabari tushganda ob’ekt joylashgan manzilga zudlik bilan yetib borish, uni ko‘zdan kechirish, o‘rab olish va huquqbuzarlarni ushlash hamda ob’ektni qayta qo‘riqqa olish uchun smena davomida 3 nafar xodimdan iborat avtotransportda yoki 2 nafar xodimdan iborat mototransportda tezkor harakatlanuvchi guruhlar xizmati tashkil etiladi.

Bugungi kunda texnik qo‘riqlash faqat signalni qabul qilish emas, balki intellektual videotahlil bilan integratsiya qilinmoqda. Bunda SI (Sun’iy Intellekt) ob’ekt hududida qoldirilgan shubhali buyumlarni, devordan oshib o‘tish holatlarini yoki yuz tuzilishi qidiruvdagi shaxslarga mos keluvchilarni avtomatik aniqlab, Markaziy kuzatuv punktiga xabar beradi.

Ob’ektni qo‘riqlash tashkil etishda uning joylashuvi va xususiyati, qo‘riqlashning muhandislik va texnik vositalari bilan jihozlanganlik darajasi, nazorat-o‘tkazish punktlarining turlari, soni, hududdagi kriminogen vaziyat va boshqa holatlar e’tiborga olinadi.

O‘rganish natijalariga ko‘ra, qo‘riqlash usullari, postlar (yo’nalishlar) soni, ularning joylashuvi, qo‘riqlash vaqti, shuningdek, qo‘riqlashning texnik vositalarini qo‘llash orqali qo‘riqlash tizimini takomillashtirish ko‘zda tutiladi. Ob’ektlarni qo‘riqlash himoya chiziqlari tashkil etiladi:

Birinchi chiziq – ob’ektning tashqi perimetri (to‘siqlar va tashqi kuzatuv);

Ikkinchi chiziq - binoning tashqi devorlari, kirish-chiqish joylari;

Uchinchi chiziq - bino ichidagi alohida muhim xonalar (kassalar, serverxonalar, omborlar). Bunday yondashuv xavfni ob’ekt ichkarisiga kirmasdan oldin aniqlash imkonini beradi.

Ob’ektni qo‘riqlash tizimi ob’ekt ma’muriyati va qo‘riqlash xizmati vakillarining hamkorligida belgilanadi. Ob’ektlarni qo‘riqlash uchun postlar, yo’nalishlarni qo‘yish hamda qo‘riqlash naryadlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishning qoidalari va shartlari, tartibi, usul va uslublari qo‘riqlash xizmati tomonidan, shuningdek, tegishli vazirliklar, qo‘mitalar va idoralar bilan hamkorlikda belgilanadi.

O‘ta muhim va toifalangan ob’ektlarni qo‘riqlash O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq tashkil etiladi. Texnik qo‘riqlash xizmatining ommabopligini ta’minlash maqsadida qo‘riqlash xizmati amaldagi tariflarni foiz hisobida kamaytirgan holda xizmat ko‘rsatishga ruxsat etiladi. Bunda ob’ektlar alohida guruhlarga (ijtimoiy ahamiyati, saqlanayotgan moddiy-tovar boyliklar miqdori, soni va boshqalarga asosan) tasniflanib, ularni tasniflash tartibi qo‘riqlash xizmati tomonidan belgilanadi.

Bu borada qo‘riqlash xizmatini quyidagi vazifalarni bajaradi, ya’ni ob’ekt hududini nazorat qilish, kiruvchi va chiquvchilarni tekshirish, hujjatlarni nazorat qilish, favqulodda holatlarda tegishli xizmatlarga xabar berish, shuningdek, xavfsizlik qoidalariga rioya etilishini ta’minlash.

Qo‘riqlanadigan ob’ektlarga nisbatan asosiy tahdidlar quyidagilar bo‘lishi mumkin, ya’ni o‘g‘irlik va bosqinchilik, terrorchilik harakatlari, ichki xavf (xodimlar tomonidan), yong‘in va texnogen avariyalar va axborot o‘g‘irligi sodir etilishi.

Qo‘riqchilar quyidagi holatlarda aniq harakat rejasiga ega bo‘lishi kerak:

yong‘in chiqqanda;

shubhali shaxs yoki buyum aniqlanganda;

signalizatsiya ishga tushganda;

ommaviy tartibsizliklar yuz berganda.

Qo‘riqlash tizimini samarali tashkil etish uchun o‘z navbatida, xavf tahlili o‘tkazish, ob’ektning xususiyatlarini o‘rganish, texnik va jismoniy vositalarni muvofiqlashtirish, xodimlarni muntazam kasbiy tayyorlash (malakasini oshirish va qayta tayyorlash)dan o‘tkazish, nazorat va tekshiruvlarni amalga oshirish muhimdir.

Qo‘riqlanadigan ob’ektlarda xavfsizlikni ta’minlash bu ko‘p bosqichli va tizimli jarayon bo‘lib, u inson omillari, texnik vositalar va tashkiliy choralarning uyg‘unligini talab qiladi. Samarali xavfsizlik tizimi faqatgina barcha elementlar birgalikda ishlagandagina ta’minlanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Qo‘riqlanadigan ob’ektlarda xavfsizlikni ta’minlashning asosiy maqsadi nimadan iborat?
2. Qo‘riqlanadigan ob’ektlar qaysi toifalarga kiradi?
3. Ob’ektlarda xavfsizlik tizimining asosiy elementlari nimalardan iborat?
4. Qo‘riqlash tizimida texnik vositalar va zamonaviy texnologiyalar qanday rol o‘ynaydi?
5. Qo‘riqlanadigan ob’ektlarga nisbatan asosiy tahdidlar va ularga qarshi choralar nimalardan iborat?

5-§. Ichki ishlar organlarining qo‘riqlash bo‘linmalari tomonidan shartnoma asosida pullik xizmatlar ko‘rsatish tartibi

Hozirgi kunda jamoat xavfsizligini ta’minlash, mulkni himoya qilish va fuqarolar tinchligini saqlash davlatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ichki ishlar organlarining qo‘riqlash bo‘linmalari muhim o‘rin tutadi. Ular nafaqat davlat ob’ektlarini, balki shartnoma asosida fuqarolar va tashkilotlarning mulkini ham qo‘riqlash xizmatlarini ko‘rsatadi.

Bu borada ichki ishlar organlarining qo‘riqlash bo‘linmalari faoliyati O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, hukumat qarorlari va idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Ushbu hujjatlar qo‘riqlash xizmatlarini tashkil etish, amalga oshirish va nazorat qilish tartibini belgilaydi.

Shundan kelib chiqqan holda, jismoniy va yuridik shaxslarning mulklarini qo‘riqlashda ichki ishlar organlarining amaliy faoliyati muhim o‘rin tutadi, ya’ni jismoniy va yuridik shaxslarning mulklarini qo‘riqlash jarayonida mulkka bo‘lgan huquqni uchinchi shaxs tomonidan bo‘ladigan tajovuzdan himoya qilish Qo‘riqlash xizmatining asosiy vazifasi bo‘lib hisoblanadi.

Ma’lumki, mulk egasining qonuniy huquqi bo‘lgan egalik huquqi asosan uchinchi shaxs (masalan, talonchi, o‘g‘ri) tomonidan ko‘proq buziladi. Bu esa bevosita ichki ishlar organlarining faoliyati bilan bog‘liq, chunki ko‘p hollarda egalik huquqining buzilishiga sabab bo‘ladi.

Jismoniy va yuridik shaxslar mol-mulki hamda ob’ektlarini qo‘riqlash bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar, shuningdek, shartnoma asosida mol-mulk qo‘riqlovini ta’minlash bilan bog‘liq boshqa xizmatlar tariflari qo‘riqlash xizmatining har bir turi bo‘yicha belgilanadi:

- saf bo‘linmalari naryadlari bilan qo‘riqlash;
- harbiylashtirilgan bo‘linmalar bilan qo‘riqlash;
- erkin yollangan qorovullar bilan qo‘riqlash;

- texnik vositalar yordamida qo‘riqlash (texnik qo‘riqlash)[115].

Pullik xizmatlar ko‘rsatish faqat shartnoma asosida amalga oshiriladi. Shartnoma quyidagi tartiblarni o‘z ichiga olishi belgilangan mijoz tomonidan ariza bilan murojaat qilishi, qo‘riqlash xizmati tomonidan ob’ekt o‘rganiladi va xavfsizlik darajasi baholanadi, shuningdek, xizmat turi va hajmi aniqlanadi hamda to‘lov miqdori belgilanadi shundan so‘ng tomonlar o‘rtasida shartnoma imzolanadi.

Zamonaviy bosqichda qo‘riqlash xizmatlaridan foydalanish uchun shartnoma tuzish jarayoni soddalashtirilgan. Jismoniy va yuridik shaxslar Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) yoki Departamentning rasmiy sayti orqali onlayn ariza qoldirishlari mumkin. Bu esa ortiqcha byurokratiyani oldini oladi va xizmat ko‘rsatish tezkorligini oshiradi.

Shartnomada quyidagilar ko‘rsatiladi xususan, xizmat turi va hajmi, tomonlarning huquq va majburiyatlari, to‘lov tartibi hamda javobgarlik choralari belgilanadi.

Qo‘riqlash xizmatlari uchun to‘lov miqdori quyidagilarga bog‘liq, ob’ektning hajmi va joylashuvi, xavfsizlik darajasi, qo‘riqlash vositalari va xodimlar soniga qarab pul miqdori belgilanadi. To‘lovlar odatda oldindan yoki shartnomada belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Ko‘rsatiladigan qo‘riqlash xizmatlari tariflarining xizmat tannarxiga kiritilgan sarf-xarajatlar, davr xarajatlari, moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar, soliq va yig‘imlar bo‘yicha xarajatlar yig‘indisidan kelib chiqib hisoblanadi. Asosiy vositalarning eskirishi amortizatsiya ajratmalari hisobidan qoplanadi.

Har bir qo‘riqlash turi bo‘yicha tarifni hisoblash xizmatga tegishli haqiqiy sarf-xarajatlar ko‘rsatkichlari asosida amalga oshiriladi va to‘g‘ridan to‘g‘ri xarajatlar (X t) hamda ustama xarajatlarning tegishli xizmat turiga to‘g‘ri keladigan qismidan tashkil topadi.

Qo‘riqlash xizmatini ko‘rsatish bilan bog‘liq to‘g‘ridan to‘g‘ri xarajatlar pul ta’minoti va kiyim-kechak ta’minotini o‘z ichiga oladi.

Ustama xarajatlarning qo‘riqlash xizmatlari turlari bo‘yicha taqsimlanishi har bir qo‘riqlash turi bo‘yicha yil davomida ko‘rsatilgan xizmat hajmiga mutanosib ravishda amalga oshiriladi va quyidagi formula asosida hisoblanadi:

X_ut=(X_u/U)*U_xt bunda:

X_ut – qo‘riqlash xizmati turlari bo‘yicha ustama xarajatlar;

X_u – qo‘riqlash bo‘linmalari faoliyatini boshqarish bilan bog‘liq umumiy yillik ustama xarajatlari. Bunga quyidagi xarajatlar kiradi:

ma’muriy-boshqaruv xodimlari va qo‘mondonlik tarkibini saqlash xarajatlari;

asosiy vositalarning amortizatsiyasi;

xizmat safarlari xarajatlari;

ijtimoiy nafaqalar;

kommunal xarajatlar;

soliq va yig‘imlar;

avtotransport vositalarini saqlash va sug‘urtalash;

[115] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarining qo‘riqlash sohasidagi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-360-son qarori. https://lex.uz/docs/7865959.

tavakkalchilik sug‘urtasi;
benzin va yoqilg‘i moylash materiallari sotib olish;
bank xizmatlari;
kanselyariya mollari sotib olish;
ijara xarajatlari;
o‘qitish;
dezinfeksiya;
poligrafiya xarajatlari;
aloqa va obuna xarajatlari;
texnika va uskunalar sotib olish;
asosiy vositalarning joriy ta’miri;
bino va inshootlarni qurish;
qo‘riqlash uskunalarini o‘rnatish va xizmat ko‘rsatish;
harbiy mulkni sotib olish xarajatlari.

U – ko‘rsatilgan xizmatlarning umumiy yillik hajmi;

U_xt – qo‘riqlash turi bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlarning yillik hajmi.

Bunda qo‘riqlash bo‘linmalari faoliyati bilan bog‘liq umumiy yillik ustama xarajatlar narxlarining keyingi davrlar uchun qayta hisoblanishi Hukumat qarori bilan belgilanadi.

Qo‘riqlash xizmatining prognozlashtirilgan umumiy xarajatlari qo‘riqlash xizmatiga sarflangan haqiqiy xarajatlar va oxirgi to‘rt chorak hisobot ko‘rsatkichlarining tahlili asosida hamda prognozlashtirilgan xarajatlarni va narxlar o‘zgarishini hisobga olgan holda hisoblanadi.

Qo‘riqlash xizmatining har bir turi bo‘yicha prognoz qilingan xarajatlar hajmi quyidagi formula asosida belgilanadi:

X_qt=X_tt+X_ut bunda:

X_tt – tegishli qo‘riqlash xizmati turiga prognozlashtirilgan to‘g‘ridan to‘g‘ri xarajatlar;

X_ut – tegishli qo‘riqlash xizmati turiga to‘g‘ri keladigan prognozlashtirilgan ustama xarajatlarning qismi;

X_qt – jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini va ob’ektlarini qo‘riqlash bo‘yicha tegishli qo‘riqlash turiga bevosita bog‘liq bo‘lgan va prognozlashtirilgan xarajatlarning yillik summasi.

Qo‘riqlash xizmati tomonidan yetkazilgan zararni qoplash tizimida sug‘urta polislaridan foydalanish amaliyoti kengaymoqda. Bunda, agar qo‘riqlanayotgan ob’ektda Qo‘riqlash xizmatining aybi bilan o‘g‘irlik sodir etilsa, zarar miqdori nafaqat Departament mablag‘lari, balki sug‘urta kompaniyalari bilan tuzilgan shartnomalar asosida ham tezkor qoplab berilishi kafolatlanadi.

Qo‘riqlovga olingan ob’ekni qo‘riqlashini ta’minlovchi xizmatlarning *majburiyatlariga* quyidagilar kiradi:

- qo‘riqlovga olingan ob’ekt mulklarining saqlanishini ta’minlash, qo‘riqlash signalizatsiyasining ahvolini doimiy kuzatib borish va “trevoga” signaliga o‘z vaqtida javob berish. Bu signal qabul qilinishi bilanoq qo‘riqlanayotgan ob’ektga yetib borish, ob’ektga begona shaxslarning kirishiga, mulkning noqonuniy tashib ketilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

- signalizatsiya vositalarini soz holda saqlash;

- qo‘riqlovga olingan ob’ektni qo‘riqlashni o‘z vaqtida markaziy kuzatuv pultiga qabul qilish.

Ob’ekt egasining majburiyatlarini quyidagilar tashkil etadi:

– qo‘riqlash signalizatsiyasi bilan jihozlangan kirish va ayvon eshiklarini, deraza va ularning tanbalarini soz holda saqlash, qo‘riqlovga olingan ob’ektda ta’mirlash ishlari amalga oshirilganda, signalizatsiya sozligini tekshirish uchun qo‘riqlash xizmati vakilini chaqirish, telefon apparatining joyi o‘zgartirilgan bo‘lsa, signalizatsiya vositalarini tekshirish uchun Qo‘riqlash xizmatining texnik mutaxassisini chaqirish;

– qo‘riqlash xizmatiga ob’ektni topshirish oldidan derazalar, darchalar, eshiklarni qulflab, yopilganligini tekshirish va qo‘riqlash signalizatsiyasi ulagichini qo‘shilgan holga o‘tkazib qo‘yish;

– ob’ektni qo‘riqlashga topshirishdan oldin, signalizatsiya ishlashini pult orqali tekshirish;

– signalizatsiyaning ishlayotganligi haqida kechiktirmasdan qo‘riqlash xizmatiga xabar qilish;

– ob’ektni qo‘riqlashga topshirish uchun telefon orqali o‘zining familiyasi va unga biriktirilgan raqamni xabar qilish (buni qayd qilish uchun ob’ektni markaziy kuzatuv pultiga qabul qilgan navbatchi xabar qabul qilingan kun va vaqtga doir ma’lumotlarni yozib olishi kerak);

– agar ob’ektdan chiqib ketmagan holda qo‘riqlashga topshirilgan bo‘lsa (kechasi), telefondan foydalanmaslik (chunki telefon trubkasining ko‘tarilishi pultda “trevoga” signali chalinishiga sabab bo‘ladi);

– ob’ektni eshigi ochilishi bilanoq signalizatsiya ulagichini “o‘chirilgan” holga o‘tkazib qo‘yish, markaziy kuzatuv pultiga telefon qilib, o‘zining kelganligini, familiyasi va telefon raqamini aytib qo‘yish;

– qo‘riqlanayotgan ob’ektga qo‘riqlash naryadi kirishiga to‘siq bo‘ladigan eshik, pod’ezd, darvozalar kalitlarining nusxalarini Qo‘riqlash xizmati xodimlariga topshirish. Agarda kalit topshirilmagan va o‘g‘rilik ob’ekt eshigi, derazasi va shu kabilarni buzmasdan sodir etilgan bo‘lsa, Qo‘riqlash xizmati xodimlari moddiy javobgar bo‘lmaydilar.

– begona kishilarga signalizatsiya vositalaridan foydalanish sirlarini, ob’ektga berilgan pult nomerini aytmaslik;

– qo‘riqlash shartnomasini tuzish va bajarish munosabati bilan bir-birlaridan zarur ma’lumotlar hamda boshqa hujjatlarni so‘rash va olish;

– qo‘riqlash shartnomasini tuzish bilan bog‘liq masalalar yuzasidan ekspertlarning yozma xulosalarini so‘rash va olish, mutaxassislar bilan maslahatlashish;

– boshqa tarafning iqtisodiy ahvoli, nufuzi va ishchanlik jihatlari xususidagi ma’lumotlarni to‘plash, boshqacha aytganda, buyurtmachi tashkilot, muassasa, korxonalar bilan tuziladigan qo‘riqlash shartnomalari yuzasidan ularning to‘lov qobiliyatini aniqlash;

– davlat organlari va boshqa organlarga, mansabdor shaxslarga iltimosnomalar bilan murojaat etish va shikoyatlar berish hamda ulardan asosli yozma javoblar olish;

– qo‘riqlash shartnomalari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etish;

– qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda qo‘riqlash shartnomalarining o‘z vaqtida tuzilishini ta’minlash;

– tuzilgan qo‘riqlash shartnomalari bo‘yicha zimmaga olingan majburiyatlarni o‘z vaqtida tegishli tartibda bajarish.

– Qo‘riqlash xizmatining qonunga xilof xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat bilan murojaat qilish.

Tariflarni belgilashda ijtimoiy adolat tamoyiliga amal qilinadi. Xususan, maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maktablar va boshqa ijtimoiy soha ob’ektlari uchun qo‘riqlash xizmatlari imtiyozli tariflar asosida yoki alohida past koeffitsientlar qo‘llangan holda ko‘rsatilishi ko‘zda tutilgan.

Qo‘riqlash xizmatlarini ko‘rsatishga doir shartnomaga muvofiq qo‘riqlash faoliyatini amalga oshiruvchilar o‘z harakatlari (harakatsizligi) natijasida qo‘riqlanadigan ob’ektga yetkazilgan zararning o‘rnini to‘liq hajmda qoplashi shartligi belgilangan. Shuningdek, zararning o‘rnini qoplash miqdori va shartlari qo‘riqlash xizmatlarini ko‘rsatish to‘g‘risidagi ikki tomonlama shartnomada belgilanadi.

Shu bilan birga, tuzilgan qo‘riqlash shartnomalarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik hollari mavjud bo‘lganligi bois, bunday salbiy holatlarning oldini olish maqsadida, Fuqarolik kodeksining 333-moddasida shaxsiy-huquqiy javobgarlik belgilab qo‘yilgan. Mazkur moddaga asosan, qarzdor aybi bo‘lgan taqdirda majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, javobgar bo‘ladi[116]. Biroq, qarzdor majburiyatni lozim darajada bajarish uchun o‘ziga bog‘liq bo‘lgan hamma choralarni ko‘rganligini isbotlasa, u aybsiz deb topiladi.

Umuman olganda, shaxsviy-huquqiy javobgarlik instituti asosan Qo‘riqlash xizmatining xodimlari mehnat majburiyatlarini buzganda tartib quyidagi tartibda qo‘llaniladi:

birinchidan, u yetkazilgan mulkiy zararni qayta tiklash xususiyatiga ega.

ikkinchidan, Qo‘riqlash xizmati faoliyatini takomillashtirishning amaliy vositasi hisoblanib, nafaqat xodimning shaxsiy javobgarligi masalasini, balki Qo‘riqlash xizmati yoki uning joylardagi bo‘linmalarining javobgarligini belgilab beradi. Zero, Qo‘riqlash xizmati o‘z faoliyatida muayyan belgilangan ob’ektni qo‘riqlash, jamoat tartibini ta’minlash va huquqbuzarliklarga qarshi kurash kabi majburiyatlarga ega bo‘lib, qonunchilikka rioya qilish bunda muhim o‘rin tutadi.

Qo‘riqlash xizmatining shaxsiy-huquqiy javobgarligi nafaqat shartnomali, balki shartnomadan tashqari, ya’ni zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar bo‘yicha ham bo‘lishi mumkin.

[116] O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. 01.03.1997-y. https://lex.uz/docs/111189.

Birinchidan, Qo‘riqlash xizmatining shartnoma shartlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganliklari natijasida yetkazilgan zararni undirishdan iborat. Bunday hollarda ushbu javobgarlik tegishli qonun bilan tartibga solinishi va tomonlar o‘rtasida tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq belgilanishi lozim.

Ikkinchidan, shartnomaviy munosabatlardan tashqari, Fuqarolik kodeksining 57-bobida ko‘rsatilgan “Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar[117]” Instituti qoidalari bilan tartibga solinadi.

Ta’kidlash joizki, qarzdor aybsiz holda o‘z majburiyatini bajara olmay qolgan, deb topilishi uchun aybi yo‘qligini isbotlashi lozim. Shu bilan birga, qo‘riqlash shartnomasi bo‘yicha tomonlar o‘zlariga yuklatilgan majburiyatlarni lozim darajada bajarishga yengib bo‘lmaydigan kuch, ya’ni favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo‘lmaydigan vaziyatlar – tabiiy ofatlar, yong‘inlar va boshqa favqulodda holatlar tufayli imkon bo‘lmaganligini isbotlay olsalar, javobgarlikdan ozod qilinadilar.

Bundan tashqari, majburiyatni qasddan bajarmaganlik uchun javobgarlikni bartaraf qilish yoki cheklash to‘g‘risidagi avvaldan kelishilgan shartnoma u tuzilgan paytdan boshlab haqiqiy hisoblanmaydi. Chunki qarzdorning olingan majburiyatini bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi qonunga xilof harakat (harakatsizlik) hisoblanadi.

Shu bois, nafaqat Qo‘riqlash shartnomasi bo‘yicha, balki umuman shaxsiy-huquqiy javobgarlikning yuzaga kelishi uchun quyidagi holatlar kelib chiqqan bo‘lishi talab etiladi:

a) qonunga xilof harakat yoki harakatsizlik, ya’ni qo‘riqlash shartnomasi shartlarini buzganlik (bajarmaganlik, ularga rioya qilmaganlik);

b) zararning mavjudligi;

v) qonunga xilof harakat yoki harakatsizlik natijasida kelib chiqqan zarar o‘rtasida sababli bog‘lanish bo‘lishi;

g) qarzdorning (yoki zarar yetkazuvchining) aybi bo‘lganligi.

Xullas, shaxsiy-shartnomaviy munosabatlar odatdagi normal kundalik munosabatlar bo‘lgani sababli, aybning namoyon bo‘lishi ham o‘z xususiyatlariga ega. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 333-moddasiga asosan, qarzdor (shartnoma bo‘yicha zimmasiga yuklatilgan shaxs) majburiyatni bajarish uchun o‘ziga bog‘liq bo‘lgan hamma choralarni isbotlashi, o‘zining aybsiz ekanligi faktini tasdiqlashi lozim.

Ichki ishlar organlarining qo‘riqlash xizmatlari tomonidan shartnoma asosida pullik xizmatlar ko‘rsatish tizimi fuqarolar va tashkilotlarning mulkini ishonchli himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu xizmatlar qonuniy asosda, shaffof tartibda va o‘zaro manfaatli shartlar asosida amalga oshiriladi.

[117] Shu manba.

Savol va topshiriqlar:

1. Qo‘riqlash bo‘linmalari tomonidan pullik xizmatlar ko‘rsatish qanday huquqiy asosda amalga oshiriladi?
2. Qo‘riqlash xizmatlari qaysi turlarda (usullarda) shartnoma asosida ko‘rsatiladi?
3. Qo‘riqlash xizmatlari uchun shartnoma tuzish tartibi qanday bosqichlardan iborat?
4. Qo‘riqlash xizmatlari uchun to‘lov miqdori qanday omillarga bog‘liq holda belgilanadi?
5. Qo‘riqlash xizmati va buyurtmachining shartnoma doirasidagi huquq va majburiyatlari nimalardan iborat?

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T: O‘zbekiston, 2023;
O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T., 2021. – Lex.uz;
O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – T., 2021. – Lex.uz;
O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi.– T., 2021.– Lex.uz;
O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 19-yanvar qabul qilingan “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi 900-sonli qonuni;
O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi 371-son qonuni https://lex.uz/docs/2387357;
O‘zbekston Respublikasining 2022-yil 17-avgustdagi “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-790-son qonuni;
O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-iyundagi “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni;
O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-iyuldagi “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi O‘RQ-701-son qonuni Lex.uz;
O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 29-sentabrdagi O‘RQ-298-sonli “Jinoyat ishini yuritish chog‘ida qamoqda saqlash to‘g‘risida”gi qonuni. Lex.uz;
O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 9-yanvardagi “Ma’muriy qamoqni o‘tash tartibi to‘g‘risida”gi O‘RQ-420-sonli qonun. Lex.uz;
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-noyabrdagi “Ichki ishlar organlarining qo‘riqlash sohasidagi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-360-sonli qarori.
O‘zbeksiton Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son farmoni //lex.uz;
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6196-son farmoni. Lex.uz;
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining “Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) to‘g‘risida”gi 2024-yil 15 noyabrdagi O'RQ-1002-sonli qonuni. Lex.uz;
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3127-sonli qarori //lex.uz;
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-son qarori //lex.uz;
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2021-yil 2-apreldagi PQ-5050-son qarori. https://lex.uz/ru/docs;
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi “Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2940-son qaror. https://lex.uz/docs;
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5611-son farmoni;
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi “Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5647-son farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-martdagi “Transport va turizm ob’ektlarida jamoat xavfsizligini ta’minlashning samarali tizimini joriy etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4229-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. https://lex.uz/docs;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. https://lex.uz/docs;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 171-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-noyabrdagi “Idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash hamda idoraviy qorovullik bo‘linmalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 630-sonli qarori

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 15-noyabrdagi “Yo‘l-transport hodisalarini hisobga olish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 303-sonli qarori //lex.uz;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yo‘l harakati qoidasi” 2022-yil 12-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 172-sonli qarori //lex.uz;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 1-dekabrdagi “Yo‘l-patrul xizmati xodimlarining yo‘l harakati qatnashchilari bilan o‘zaro munosabatlari hamda maxsus moslamalardan foydalanishi tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 975-sonli qarori. //lex.uz;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 31-avgustdagi «Avtomototransport vositalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va ularga ro‘yxatdan o‘tkazish davlat raqami belgilarini berish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida»gi 683-son qarori //lex.uz;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-maydagi “Avtomototransport vositalari va shahar elektr transporti vositalari haydovchilarini tayyorlash hamda qayta tayyorlash bo‘yicha nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish faoliyatini litsenziyalash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 408-son qarori //lex.uz;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 125-sonli qarori. //lex.uz;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-avgust kunidagi “Ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta’minlash bo‘linmalari tomonidan shartnoma asosida pullik xizmatlar ko‘rsatish tartibini belgilash to‘g‘risida”gi 669-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2023-yil 20-fevraldagi “Ichki ishlar organlari patrul-post xizmati faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 77-son buyrug‘i;

O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2019-yil 31-oktabrdagi “Ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish davomida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlashni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi 351-son buyrug‘i;

O‘zbekiston Respublikasi IIVning “Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2017-yil 12-iyuldagi 151-son buyrug‘i;

O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2018-yil 20-iyundagi 168-son “Yo‘l-patrul xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i;

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2022-yil 7-dekabrda “Ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta’minlash bo‘linmalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 535-son buyrug‘i;

Ismailov I., Muxamedov O‘.X., Ziyodullayev Z.M. va boshq. Ichki ishlar idoralaridagi islohotlar – tinchlik va osoyishtalik garovi: Monografiya – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014-y. – B. 112;

Ирошников Д.В. Правовая политика Российской Федерации в сфере государственной безопасности (теоретический аспект): автореф. дис. ... канд. юр. наук. – Тамбов, 2011-й. – С. 34;

Павленко С.З. Безопасност российского государства как политическая проблема: автореф. .дис. доктора полит. наук. – М., 1998-й;

Рыбалкин Н.Н. Природа безопасности: автореф. дис. ... доктора филос. наук. – М., 2003-й. – С. 24;

Хомякова В.С. Диалектика безопасности и устойчивого развития общества // Информатсия и безопасност. – 2007-й. – № 1. – С.126;

Жаглин А.В. Общественная безопасност как социальное явление и элемент системы националной безопасности // Вестник Воронежского института МВД России. – 2007. – № 1. – С. 33;

Horton, G., Martino, A., CHiffi, s., & Vergnani, R. (2017). *Transport safety – Research theme analysis report.* European sommission, DG-MOVE4

Abdurazzakov. A. F. (2024). Temir yo‘l va aeroportlarda xavfsizlikni ta’minlashda zamonaviy texnologiyalar roli. Ma’ruza matni, Toshkent davlat transport universiteti, 12-bet;

Bekmurodov, R. N. (2024). Transportda xavfsizlikni huquqiy jihatdan ta’minlash. Ma’ruza matni, Toshkent davlat yuridik universiteti, 8-bet;

Hasanov, O. H. (2024). Transport tizimida xavfsizlik va kadrlar tayyorgarligi. Ma’ruza matni, Toshkent davlat texnika universiteti, 15-bet;

Schmidt, A. (2024). The role of biometrits and automated systems in ensuring airport setsurity. Letsture notes, Technitsal University of Berlin, p. 19;

Roch, J.-L. (2024). The importanse of Big Data and data analysis in transport safety. Letsture notes, Paris Institute of Technology, p. 13;

Federal Ministry of Transport and Digital Infrastrutsture (BMVI). (2023). Integrated setsurity systems in German transport infrastrutsture. Berlin: BMVI Publitsations;

Land Transport Authority of Singapore (LTA). (2023). Intelligent transport systems for road and air safety in Singapore. Singapore: LTA Press;

Федералъний закон Российской Федератсии «О транспортной безопасности» от 09.02.2007 № 16-ФЗ. нттп://www.сонсултант.ру.

MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI.....3

II-qism

XII BOB. ICHKI ISHLAR ORGANLARINING JAMOAT TARTIBINI SAQLASH VA XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH FAOLIYATI

1-§. Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash faoliyatining mohiyati va ahamiyati.....4
2-§. Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash sohalari bo‘yicha asosiy vazifalari va funksiyalari.....8
3-§. Ichki ishlar organlari tomonidan jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlashning kuch va vositalari.....19

XIII BOB. OMMAVIY TADBIRLARNI O‘TKAZISHDA JAMOAT TARTIBINI SAQLASH VA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH

1-§. Ommaviy tadbirlar tushunchasi va turlari.....29
2-§. Ichki ishlar organlarining ommaviy tadbirlarni o‘tkazish tartibi va shartlari.....34
3-§. Ichki ishlar organlarining ommaviy tadbirlarni o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish vaqtida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha asosiy vazifalari.....39

XIV BOB. ICHKI ISHLAR ORGANLARINING FAVQULODDA VAZIYATLAR SHAROITIDAGI FAOLIYATI

1-§. Favqulodda vaziyatlar tushunchasi, turlari hamda ularning jamoat tartibi va xavfsizligiga ta’siri.....43
2-§. Aholini favqulodda vaziyatlardan himoya qilish tizimi va ichki ishlar organlarining bu sohadagi vazifalari.....47
3-§. Ichki ishlar organlarining favqulodda vaziyatlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash faoliyatini tashkil etish.....51

XV BOB. ICHKI ISHLAR ORGANLARI MAXSUS MUASSASALARI, KONVOY XIZMATINING FAOLIYATI

1-§. Ichki ishlar organlari maxsus muassasalarining huquqiy maqomi va faoliyatining asosiy yo‘nalishlari.....56
2-§. Ichki ishlar organlari konvoy xizmatlarining faoliyati, asosiy vazifalari hamda elektron brasletlardan foydalanish tartibi.....65
3-§. Ichki ishlar organlari nazorat-litsenziya faoliyatining mohiyati va ahamiyati.....71

XVI BOB. ICHKI ISHLAR ORGANLARINING YO‘L HARAKATI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH FAOLIYATI

1-§. Ichki ishlar organlarining Yo‘l harakati xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiluvchi normativ-huquqiy hujjatlar.....76
2-§. Ichki ishlar organlarining yo‘l harakati xavfsizligi xizmatlari tizimi.....81
3-§. Ichki ishlar organlari yo‘l harakati xavfsizligi xizmatlarining asosiy vazifalari.....84

XVII BOB. ICHKI ISHLAR ORGANLARINING HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI FAOLIYATI

1-§. Ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatining huquqiy asoslari, tizimi tushunchasi.....92
2-§. Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatini vazifalari.....97
3-§. Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatini majburiyatlari.....100

XVIII BOB. ICHKI ISHLAR ORGANLARINING MA’MURIY NAZORAT FAOLIYATI

1-§. Ichki ishlar organlarining ma’muriy nazorat faoliyatining mohiyati, ahamiyati va turlari.....106
2-§. Ichki ishlar organlari faoliyatida maxsus ma’muriy nazoratni o‘rnatish va ta’minlash tartibi.....108

XIX BOB. ICHKI ISHLAR ORGANLARI JAZOLARNI IJRO ETISH FAOLIYATI

1-§. Jazolarni ijro etuvchi muassasalarning huquqiy asoslari va faoliyatining asosiy yo‘nalishlari.....117
2-§. Jazolarni ijro etuvchi muassasalar tizimi hamda ularning vazifalari.....123
3-§. Jazolarni ijro etuvchi muassasalarning majburiyatlari.....128
4-§. Jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib-qoidalari.....133

XX BOB. ICHKI ISHLAR ORGANLARINING MIGRATSIYA VA PERSONALLASHTIRISH XIZMATLARI FAOLIYATI

1-§. Pasport tizimi tushunchasi, mohiyati va vazifalari.....141
2-§. Ichki ishlar organlarining pasport tizimi qoidalariga rioya etishni ta’minlash bo‘yicha vazifalari.....145
3-§. Ichki ishlar organlarining fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘yicha vazifalari.....147

XXI BOB. ICHKI ISHLAR ORGANLARINING TRANSPORT VA TURIZM OB'EKTLARIDA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH FAOLIYATI

1-§. Ichki ishlar organlarining Transportda xavfsizlikni ta'minlash faoliyatining ahamiyati.....156
2-§. Ichki ishlar organlarining transportda xavfsizlikni ta'minlash xizmatlarining tizimi, faoliyatining asosiy yo'nalishlari va vazifalari.....160
3-§. Ichki ishlar organlarining turizm ob'ektlarida xavfsizlikni ta'minlash faoliyati.....163
4-§. Ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta'minlash bo'linmalari tomonidan shartnoma asosida pullik xizmatlar ko'rsatish tartibi.....169

XXII BOB. ICHKI ISHLAR ORGANLARI QO'RIQLASH FAOLIYATI

1-§. Qo'riqlash xizmatining huquqiy maqomi va faoliyatining asosiy yo'nalishlari.....174
2-§. Qo'riqlash xizmati tizimi hamda ularning vazifalari.....179
3-§. Qo'riqlash xizmatining huquqlari va majburiyatlari.....184
4-§. Qo'riqlanadigan ob'ektlarda xavfsizlikni ta'minlash faoliyati.....188
5-§. Ichki ishlar organlarining qo'riqlash bo'linmalari tomonidan shartnoma asosida pullik xizmatlar ko'rsatish tartibi.....190

Adabiyotlar ro'yxati.....197

MUALLIFLAR JAMOASI:

B.A.Ulugbekov yu.f.f.d (PhD), dotsent, **Z.N.Xojibekov** – XII-bob;
A.S.Vaxidov dotsent, **K.S.Beysenov** dotsent – XIII-bob;
N.B.Shoimov yu.f.n., dotsent, **Z.B.Xasanov** – XIV-bob;
O‘.M.Otayev dotsent, **F.B.Matyakubova** – XV-bob;
A.M.Abjalov s.f.b.f.d. (PhD), professor, **J.M.Boboyorov** – XVI-bob;
B.K.Yusupov, **B.B.Turgunbayev** – XVII-bob;
U.E.Rasulev dotsent, **A.S.Vaxidov** dotsent– XVIII-bob;
J.S.Muxtorov yu.f.n., professor, **F.S.Axmedov** – XIX-bob;
N.L.Melikulov, **U.M.Otayev** – XX-bob;
Sh.K.Raximov, **X.I.Suvankulov**– XXI-bob;
A.S.Vaxidov dotsent, **F.B.Matyakubova** – XXII-bob.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINI BOSHLANG‘ICH VA MAXSUS KASBIY TAYYORLASH

DARSLIK

II-qism

Muharrir *B.N.Normurodov*

Bosishga ruxsat etildi 22.05.2026-y. Nashriyot hisob tabag‘i 12,8.
Adadi ____. Buyurtma № . Kelishilgan narxda

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti,
Toshkent shahar, Bektemir tumani, X.Bayqaro ko‘chasi, 27 a-uy.